

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"IJTIMOIY FANLAR" KAFEDRASI

"MA'NAVIYATNING ILMIY METODOLOGIYASI"
FANIDAN O'QUV USLUBIY MAJMUA
(kunduzgi ta'lim shakli 1- kurs magistrantlari uchun)

Bilim sohasi:	100000-Ta'lim	
Ta'lim sohasi:	110000-Ta'lim	
Magistratura mutaxassisligi:	70112101	Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

Shahrisabz-2024

Ushbu o'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashi tomonidan "____" ____ 2024 yil ____ sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi" fanining o'quv dasturi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining **2017 yil "1" martdagi №107** buyrug'i asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: B.Omonov

Taqrizchi: M.Mamatov

Fanning uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti kengashining 2024 __ yil " __ " ____dagi " __ "-sonli majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

Fakultet dekani: E.Tilayev

O'quv uslubiy majmua Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2024 __ yil " __ " ____dagi " __ "-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **Omonov B**

№	BO‘LIMLAR	BETLAR
I	Titul varag’i	
II	Mundarija	
III. O’quv materiallari:		
1	ma’ruzalar (yangi ped-texnologiyalar asosida)	
2	amaliy mashg’ulotlar (yangi ped-texnologiyalar asosida)	
3	adabiyotlar ro’yxati	
IV	Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari	
V	Glossariy	
VI. Ilovalar:		
1	fan dasturi (alohida sahifalangan)	
2	ishchi o’quv dasturi	
3	testlar	
4	ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo’llash bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar	
5	tarqatma materiallar	
6	boshqa materiallar	
VI	O’UMning elektron varianti (diskda)	

O'QUV MATERIALLARI

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ma'naviyatshunoslik fani talabalarga milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni bilish, hozirgi globallashuv sharoitida ularni asrab-avaylash, milliy ma'naviyatimizning yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar bo'yi yaratgan va misqollab to'plagan bebaho ma'naviy merosini ko'z qorachig'day saqlash, boyitish, kelgusi avlodlarga yetkazish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan hissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ'ib etishda yaqindan yordam beradi. Shuningdek, ular ongiga ma'naviy-madaniy merosga hurmat, milliy g'urur, iftixor, Vatanga muhabbat va istiqloq g'oyalari bilan sadoqat ruhini singdirib borishda fanning o'rni va ahamiyati beqiyos. "Ma'naviyatshunoslik" umumkasbiy fanlardan biri bo'lib. 5-6 va 7-semestrda o'qitilishga mo'jallangan. U o'quv rejada rejalashtirilgan "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlarini o'qitish metodikasi", "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari", "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari", "Etnomadaniyat" kabi umumkasbiy va "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi", "Oila ma'naviyati", "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlarini o'qitish metodikasi" kabi ixtisoslik fanlari bilan o'zaro bog'liq, ketmaketlikka ega bo'lib, bo'lg'usi mutaxassislarda ijtimoiy-gumanitar fan sohasini ma'naviyat asoslari bilan aloqadorlik jihatlarini bilishda, ma'naviy qadriyatlar olamini xolis, keng ilmiy tahlil qilish ko'nikmasi va malakasini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad: talabalarga ma'naviyatning mazmun-mohiyati, ma'naviyatshunoslik fanining shakllanish jarayonlari, xalqimizning tarixan boy ma'naviy merosi, ma'naviy-ma'rifiy takomilbosqichlari, milliy ma'naviyatimizning umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unligi, uning o'ziga xos betakror xususiyatlari haqida tushunchalar berish, ulaming bu boradagi bilimlarini yanada boyitish.

Fanning vazifalari: ma'naviyat asoslari fani sohasiga oid talabalarga zamonaviy talablar asosida har taraflama chuqur bilim berish, ularda umuminsoniy dunyoqarashlarini shakllantirish, bag'rikenglik, totuvlik, hamjihatlik, shukronalik, daxldorlik, mas'uliyat, Vatanni sevishtirish va el-yurtning ardoqlash kabi milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlarga sadoqat ruhini mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish, milliy ma'naviyatimiz an'analariga muhabbat tuyg'ularini singdirishdir.

"Ma'naviyatshunoslik" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr: - "ma'naviyat" tushunchasining mazmun va mohiyati, ma'naviyatga turli ta'riflar va ulaming o'zaro nisbatlari, fanning predmeti, maqsad va vazifalari, shaxs va millat ma'naviyatining asosiy jihatlari, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti A.Karimov va Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev asarlarida o'z ifodasini topgan ma'naviyat nazariyasining umummetodologik asoslari haqidagi **bilimga;**

ma'naviyatning shakllantiruvchi omil va vositalarni mustaqil tahlil qilish, milliy ma'naviy merosimiz to'g'risida mukammal ilmiy tasavvurga ega bo'lish va ularni chuqur o'zlashtirish, ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamoliligini belgilab beradigan asosiy mezonlardan ekanligini teran ilmiy anglash, ma'naviyat sohasining iqtisod, siyosat sohalari bilan munosabatlari, ma'naviyat va ruhiyatning o'zaro nisbati, ma'naviyatning din, madaniyat, axloq bilan o'zaro bog'liq jihatlari, falsafa va ijtimoiy fanlar bilan o'zaro

aloqadorligini to'g'ri talqin etish, milliy ma'naviyatimiz an'alarini yosh avlod ongiga singdirishning shakl va usullaridan foydalanish to'grisidagi **ko'nikmaga**;

o'zining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatida ma'naviyat nazariyasi bo'yicha olgan bilimlarini qo'llay olishi, ko'nikmasiga ega borish, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy va umumbashariy ma'naviyatimiz an'alaridan foydalana olish, ta'lim - tarbiya tizimida ma'naviy-ma'rifiy omillarni o'rinli qo'llay olish; milliy ma'naviy fazilatlarini o'quvchi yoshlarga tushuntira olish, o'quvchilarda milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlariga oid tasavvurlarni shakllantira olish, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yuksaltirishda ma'naviy qadriyatlarga oid tegishli bilimlardan foydalana olish **malakasiga ega bo'lishi lozim**.

MA'RUZALAR (YANGI PED-TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA)

1-MAVZU: MA'NAVIYATNING ILMIY METODOLOGIYASI FANINING PREDMETI

Reja:

1. Jamiyat yagona ijtimoiy organizm ekanligi. Jamiyat turli tuzilmalarning birligi (mushtarakligi) va bir birini taqozo etishi.
2. Moddiy va ma'naviy hayot tushunchalari. Jamiyat, inson va ma'naviyat: moddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi.
3. Ma'naviyatga daxldor tushunchalar. o'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash tushunchalarining mazmun va mohiyati. Ma'naviyat va o'zlikni anglash.
4. Bugungi kunda "Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi" faniga ehtiyoj. Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fanining predmeti, boshqa fanlar bilan aloqasi. Ma'naviyatshunoslik fanining tuzilmasi. Ma'naviy yuksalish tushunchasi. Ma'naviy yuksalish qonunlari.
5. Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fanining boshqa fanlardan farq qiladigan xususiyatlari, tushunchalari, g'oyalari, tamoyillari, qonun va mezonlari.
6. Taraqqiyotning o'zbek modelida ma'naviyatning o'rni.

Tayanch tushunchalar: *Ma'naviyat, ijtimoiy organizm, tamoyil, o'zlikni anlash, moddiylik, ma'naviy olam, tafakkur.*

Jamiyat, inson va ma'naviyat: Moddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi. Kishilik jamiyati o'ta murakkab, rang-barang, ziddiyatlarga boy. Unda milliardlab insonlar, minglab tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. Ularning ba'zilar zamonaviy taraqqiyotning eng yuksak cho'qqilarni zabt etgan. Ba'zilar ancha qashshoq kun kechiradi, ta'lim, tibbiyot, san'at, ilm-fan, madaniyat yutuqlaridan yetarlicha foydalanish imkoniyatiga ega emas. Hatto yer yuzining turli burchaklarida haligacha ibtidoiy munosabatlarni boshdan kechirayotgan urug'-jamoalar, qabilalar uchraydi. Lekin jamiyat tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida o'zining birlamchi mohiyatli belgilarini, xususiyatlarini saqlab qoladi. Bu eng avvalo uning yagona ijtimoiy organizm (vujud) ekanligidir. Biologik vujud a'zolarini bir-biridan ajratish mumkin bo'lmaganidek, jamiyatni tashkil etuvchi tuzilmalarni ham bir-biridan ajratish mumkin emas. Jamiyat kerakli buyumlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak ishlab chiqarmasdan, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solmasdan, yosh avlodga mehnat ko'nikmalarini, hayotiy bilimlari va tajribasini o'rgatmasdan, o'z tuzilmalari harakatini muvofiqlashtirmasdan yashay olmaydi.

Jamiyat tuzilmalarini shartli ravishda ikki guruhga va har bir guruhni o'z navbatida bir necha kichik guruhlariga bo'lish mumkin. Jamiyat uyg'un rivojlanishi uchun ularning har ikkisi birday katta e'tibor berish lozim. Birinchi guruhga — moddiy-iqtisodiy yaratuvchilik tuzilmalari va institutlari, ularning muammolari va vazifalari kiradi. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy, huquqiy, falsafiy, diniy, siyosiy g'oyalar, baholar, qoidalar, meyorlar, qonunlar, odamlarning go'zallikka, zavq-shavqqa nisbatan bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi adabiyot va san'at, tabiat va koinot, jamiyat va inson to'g'risidagi bilimlarga nisbatan bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi ilm-fan mavjud. Ular ikkinchi guruh tarkibiga kiradi. Ular ijod natijalari bo'lib, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Aynan tafakkur va aqliy mehnat mahsulotlari – tushunchalar, g'oyalar, qoidalar, meyorlar, nazariyalar, ular asosida vujudga kelgan ijtimoiy ong shakllari – falsafa, axloq, huquq, san'at, ilm-fan, din, mafkura, siyosiy ong jamiyatning ma'naviy hayotini tashkil qiladi. Ayrim olimlar siyosatni iqtisodiyot va ma'naviyat qatorida jamiyat hayotining alohida uchinchi sohasi, deb hisoblaydilar. Bunday yondashuv ijtimoiy-siyosiy hayotning kechagina muxtoriyligidan kelib chiqdi. Ushbu yondashuvni qabul qilish xato bo'lmaydi. Biroq siyosiy ong va siyosiy madaniyat ma'naviyatning bir qismi bo'lib qolaveradi.



Odamlar o'z farzandlariga ishlab chiqarish ko'nikmalari qatorida boshqalar bilan birga yashashni, muomala qilishni, o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni, meyorlarni o'rgatadi. Mazkur jarayon dastlab ibtidoiy tuzumda oilaviy tarbiya, jamoaviy, qabilaviy e'tiqodlar (sig'inishlar, dinlar), xalq og'zaki va amaliy san'ati va ijodi namunalari (raqslar, qo'shiqlar, dostonlar, maqollar va h.k.) orqali amalga oshirilgan. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqanidan keyin asta-sekin maxsus maktablar, tarbiya maskanlari, diniy tashkilotlar, ya'ni ta'lim-tarbiya va mafkura tizimi vujudga kelgan. Ular jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Ma'naviyat tushunchasi juda keng qamrovli va murakkabdir. Ma'naviyatga ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura, insonning odobi, axloqiy fazilatlar, badiiy, ilmiy va boshqa ijodiy izlanishlari, bu borada erishgan yutuqlari, jamiyatning asrlar osha kelayotgan osori-atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlar, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu ijobiy ma'nodagi orzu-havaslar va rejalari daxldordir. *Ma'naviyat shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, ya'ni har bir narsa va hodisalarga baho berishda, ta'sir ko'rsatishda insoniylik meyorlaridan kelib chiqib yondashishidir. Ushbu ma'noda ma'naviyat eng avvalo alohida shaxsning, butun jamiyatning e'tiqod va qadriyatlarga aylangan g'oyalari, meyorlari, ideallaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishi hamda ezgu niyatlarning, yuksak maqsadlarni*

amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir.

Ma'naviyat keng ma'noda shaxsning, jamiyatning aqliy va sobit hissiy dunyosi, ularning har bir avlod tomonidan o'zlashtirilishi va takomillashtirilishidir. Mustaqillik yillari jamiyatimizda yuz bergan o'zgarishlar milliy o'zligimizni anglashni, milliy g'ururimizning o'sishini yangi bosqichga ko'tardi. Eng avvalo xalqimiz o'z milliy manfaatlarini chuqurroq va kengroq tushuna boshladi. Ushbu omillar ma'naviyat masalalarini o'rganishning, barkamol avlodni tarbiyalashning sifatiga yangi yuksak talablar qo'yimoqda. Mustaqil taraqqiyot yo'lida murakkab iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy masalalarni hal qilish bilan bir qatorda strategik taraqqiyot yo'nalishini tanlash, qurilajak jamiyatning mazmun-mohiyatini, milliy manfaatlarini, asl qadriyatlarining soxta qadriyatlardan farqini xalqqa tushuntirish, turli yot, xato, ba'zan esa ochiqchasiga reaksiya qarashlardan jamiyatni himoya qilishga zarurat tug'ilmoqda.

Ma'naviyat va ijtimoiy ong shakllarining aloqadorligi




G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g'oyada ifodalangan xalqimizning ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun «farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur». Tarbiyaviy ishlarni, xususan siyosiy, huquqiy, axloqiy va estetik tarbiyani milliy negizlar bilan yanada mahkamroq bog'lash uchun ma'naviyatni alohida o'rganuvchi predmetlarga, ya'ni ma'naviyatshunoslik faniga ehtiyoj tug'iladi.

Bozor munosabatlari va jamiyat a'zolarining ijtimoiy tabaqalanishi ular o'rtasida o'zaro begonalashishni, sinfiy adovatni emas, balki ijtimoiy sheriklikni vujudga keltirish uchun insonparvarlik, halollik, hamkorlik, insof, adolat meyorlari, qonun ustuvorligi hayotimizning asosiy qadriyatlariga va xulq-atvorimizning, faoliyatimizning amaliy mo'ljaliga aylanmog'i zarur.

Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini turmushga joriy qilish, turmush tarzimizni hozirgi zamon tamadduniga moslashtirish xalqimizni milliy qiyofasidan, madaniyatimizni o'ziga xosligidan judo qilmasligi kerak. Yuqorida e'tirof etilgan va boshqa ko'plab muammolar bizdan milliy ma'naviyatga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Ma'naviyatning mustaqil taraqqiyotdagi, yangi jamiyat qurishdagi ahamiyati shunchalik ulkan va bebahoki, uni alohida ilm, o'quv

predmeti sifatida o'rganish, yosh avlodga o'qitish hayotiy zarurat kasb etmoqda. Shu bois, tabiiyki, O'zbekiston maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida maxsus predmetlar orqali ma'naviyat masalalari o'rganilmokda.

Ma'naviyat va o'zlikni anglash: Ma'naviyat birinchi galda o'zlikni anglash bilan bog'liq. Yoshlar qarashlarida (nafaqat yoshlar, balki kattalarda ham) o'zlikni anglash bilan bog'liq masalalarda chalkashliklar, ziddiyatlar yo'q emas. O'zlikni anglash, avvalo insonning tabiat va jamiyat tizimidagi o'z o'rnini bilish, o'z ayniyatini tasavvur qila olishidir. O'zlikni anglash faqat individual ong hodisasi emas. U sotsiumning yuqori darajalariga, umummilliy darajaga ham xos bo'lishi mumkin, o'zlikni anglash xalqning tarixini bilish, milliy qadriyatlar bilan faxrlanish qatorida milliy manfaatlarni, zamonaviy taraqqiyot talablarini to'g'ri tushunish demakdir. U taraqqiyot talablari yutuqlarga tanqidiy munosabatda bo'lishni, ular bilan cheklanib qolmaslikni, mavjud kamchiliklarni xolis tahlil etib, bartaraf etishni, tarixdan saboq olishni talab qiladi. Bu esa ma'naviyatni milliy g'oya bilan bog'lashni va uning negizida rivojlantirishni taqozo etadi. Milliy g'oya, bir tomondan, xalq ma'naviyatining muhim tarkibiy unsuri, o'zagi bo'lsa, ikkinchi tomondan – uning mezoni va ijtimoiy mo'ljolidir. Jamiyatdagi turli tabaqalar, guruhlar, siyosiy partiyalar da'volari-yu dasturlarini milliy g'oyaga qanchalik mos kelish-kelmasligi bo'yicha ijobiy yoki salbiy baholash mumkin. Ularni milliy g'oya asosida murosaga keltirish, xalqni jipslashtirish va umumiy maqsadlarga safarbar etish mumkin.



Lekin milliy g'oyani anglash va aniq ifodalash oson emas. Oddiy xalq buning ustida hech qachon bosh kotirib o'tirmagan, uni aniq ifodalay olmagan. Ammo xalq doimo o'z ma'naviyatiga ega bo'lgan, chunki aqliy va hissiy ehtiyojlarini qondirish uchun ijod bilan shug'ullangan. O'zligini, o'z sha'ni-shavkatini ma'lum darajada doimo anglagan, shunga yarasha unda milliy g'urur bo'lgan. Kundalik ong darajasida, maishiy turmushda odamlarning orzu-havaslarini hech qachon barham topmagan. O'zligini, o'z manfaatlarini anglash, milliy g'urur, hayotiy orzu-havaslar aslida milliy g'oya o'rnini bosgan. Ammo bunday hollarda xalqning ma'naviy hayoti juda ziddiyatli rivojlanadi. Aniq va mujassam ifodalangan milliy g'oya bilan boyitilgan ma'naviyat jamiyat taraqqiyotiga yanada barakali ta'sir ko'rsatadi, uning xalqqa o'zligini anglatish, milliy ongni, madaniyatni turli adashishlar va tashqi xurujlardan himoya qilish imkoniyatlari ortadi.

Ba'zi bir diniy ekstremistik g'oyalarning ayrim yoshlarga ta'siri e'tiqod masalasiga bepisand qarash mumkin emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun yosh avlodda ilmiy-

ratsionalistik dunyoqarashni shaqllantirish ijtimoiy-gumanitar fanlarda ustuvor vazifalardan biridir. Bu, bir tomondan, an'anaviy o'qitilib kelinayotgan fanlar — falsafa, etika, estetika, dinshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarning didaktik mazmunini takomillashtirishni, ikkinchi tomondan – ma'naviyatshunoslik kabi yangi fanlarni haqiqiy barqaror, tugallangan o'quv predmeti darajasiga ko'tarishni talab qiladi.

Ma'naviyatni to'g'ri rivojlantirish uchun uning mohiyatini, mazmunini, namoyon bo'lish shakllarini, ular o'rtasidagi aloqalarni, umuman ma'naviy rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilish lozim. Bu esa ushbu masalalarni boshqaruv idoralari mutasaddilaridan hamda bo'lajak mutaxassislardan chuqurroq o'rganishni talab qiladi va gumanitar oliy o'quv yurtlarida alohida o'rganiladigan «Ma'naviyatshunoslik» faniga ehtiyoj tug'diradi.¹

Ma'naviyatshunoslik fani predmeti, boshqa fanlar bilan aloqasi.


Inson faoliyatining shunday yo'nalishlari borki, ular ma'naviyatning turli jihatlarini va voqelik shakllarini o'rganibgina qolmay, o'zlari ham ma'naviy amaliyotni, ma'naviy yaratuvchilikni tashkil etadi. Masalan, din, axloq, san'at (adabiyot, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik, me'morlik, qo'shiq, raqs, teatr va sh. k.), falsofiya va ilm-fan shular jumlasidan. Jamiyatdagi barcha munosabatlar — siyosiy, huquqiy, maishiy, hatto iqtisodiy va boshqa munosabatlar axloqiylik, insoniylik, kengroq olsak – ma'naviylik nuqtai nazaridan baholanishi mumkin va lozim. Binobarin, insonning har qanday faoliyati o'zining ma'naviy tomoniga ega. Shu sababdan ma'naviyatga oid hodisalarni ko'plab fanlar o'rganib kelgan. Ayni ma'naviyat yaxlit, bus – butun tizim sifatida ham o'rganilishi lozim. Bu vazifani ma'naviyatshunoslik fani bajaradi.

Ma'naviyatshunoslik fani boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar bilan yaqindan aloqa qiladi. Ularning xulosalarini, tadqiqotlarini tahlil qiladi, umumlashtiradi. Ulardan foydalanish asosida o'z predmetini, didaktik mazmunini, tushunchalar tizimini, ilmiy apparatini, ilmiy xulosalarini shakllantiradi va mudom boyitib boradi. Ayni paytda ma'naviyatshunoslik fani ulardan yasalgan quroq ilm emas. U falsafiy fanlar jumlasiga kirsada, o'zining aniq predmetiga, alohida tadqiqot obyektiga ega. U falsafaning ilmiy usullaridan, ontologik (ontologiya — borliq mohiyati haqidagi ta'limot), epesteologik (bilish nazariyasi, boshqacha atamasi — gnoseologiya), aksiologik (aksiologiya — qadriyatlar haqida ta'limot, qadriyatshunoslik) kategoriyalaridan, tushunchalaridan, ijtimoiy falsofiya materiallaridan, xulosalaridan o'z predmetini o'rganish zaruriyatiga mos ravishda foydalanadi. Boshqa fanlar materiallaridan foydalanish xususida ham shunday deyish mumkin.

Har bir fanning predmeti uning asosiy ijtimoiy vazifasidan kelib chiqadi. Ularning tadqiqot obyektlari bir xil bo'lishi mumkin, ammo predmeti farq qiladi. Masalan, biologiya insonni tirik, jonli mavjudod, alohida biologik tur sifatida o'rgansa, tibbiyot ilmi insonni sog'lomlik, uning tanasi a'zolari normal ishlashi, agar kasallanib qolsa, normal faoliyatini tiklash zaruratidan kelib chiqib o'rganadi. Pedagogika esa insonni (bolani) unga ta'lim-tarbiya berish, qiziqishlarini muayyan maqsadga yo'naltirish zarurati bilan bog'lab o'rganadi. *Ma'naviyatshunoslik fanining predmeti — bunyodkor, izlanuvchan, o'zini va o'z ijtimoiy borlig'ini ezigulik, adolat, go'zallik asosida qayta qurishga, takomillashtirishga intiluvchan erkin, mustaqil fikrlovchi va ko'ngil dunyosi boy inson, uning tabiatga, jamiyatga, o'z-o'ziga*

¹ Биз ушбу умумлаштирувчи атама орқали маънавий масалаларини ўрганувчи барча мавжуд ва бўлажак предметларини назарда тутмоқдамиз.

nisbatan ruhoniylar va amaliylar munosabatidir. Bunday kishilarni ota-bobolarimiz fozil kishi, komil inson, ularni voyaga yetkazadigan jamiyatni fozil jamiyat (shahar) deb ataganlar. Qisqacha aytganda, ma'naviyatshunoslik fanining predmeti komil inson va uni voyaga yetkazuvchi insonparvar ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlardir.



Fanning obyekti esa insonning ichki aqliy va hissiy dunyosiga, erkinligiga, irodasiga, jamiyatda tutgan o'rniga, ijtimoiy munosabatlariga, yaratuvchilik faoliyatiga, haqiqat va ezgulik, go'zallik va ijodga intilishi, bu intilishlarning natijalari va baholariga oid barcha hodisalar, mavzular, inson ruhining tug'yonlari, inson ongiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy munosabatlar, muhit, jamiyat hayotining turli sohalari bo'lishi mumkin. Masalan, ma'naviyatshunoslik fanining tadqiqot obyekti oila ma'naviyati, yoki ekologik muammolarga shaxsning, butun jamiyatning munosabati bo'lishi mumkin. Lekin bu muammolarni ma'naviyatshunoslik o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi. Huquqshunoslik fani oila munosabatlarini Oila kodeksi moddalaridan, talab va meyorlaridan, tabiat muammolarini tegishli qonunlar meyorlaridan kelib chiqib tahlil etsa, ma'naviyatshunoslik fani ularni va boshqa barcha masalalarni insonlar o'rtasidagi munosabatlarning, inson faoliyatining qanchalik oqilonalikka, ezgulikka va go'zallikka mosligi, insonda chin insoniy, ya'ni ma'naviy fazilatlarini tarbiyalash va mustahkamlash lozimligidan kelib chiqib o'rganadi. Ijtimoiy muhitni va inson e'tiqodini, irodasini bir-biriga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Boshqa birorta gumanitar fan qayd etilgan predmet nuqtai nazaridan ma'naviyat masalalarini umumiy tarzda to'liq qamrab olmaydi yoki ularning muayyan tomonlarinigina o'rganadi. Faqat falsafa umumlashgan ilmlar tizimi sifatida ushbu masalalarga umumiy munosabatni bildirib o'tadi. Lekin falsafaning etika,estetika, ijtimoiy filosofiya kabi nisbatan mustaqil qismlari ma'naviyat masalalarining o'ziga tegishli yo'nalishlarini o'rganadi, boshqalarini to'la qamrab olmaydi. Bir qarashda yuqoridagi masalalarni o'rganish etikaga (axloq haqidagi fan) ham aynan xosdek tuyuladi. Bundan etika fani predmetidan ma'naviyatshunoslik predmeti nimasi bilan farq qiladi, ular bir xil emasmi, degan savol tug'iladi?

Etika fanining predmeti ma'naviyatshunoslik predmetiga nisbatan sezilarli darajada tor. U o'rganadigan mavzularini, obyektni, inson ongini, madaniyatini, xatti-harakati va faoliyatini faqat axloqiy baholar, meyorlar, axloqiy omillar – ezgulik va yovuzlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U ijtimoiy taraqqiyot masalalarining ko'pchiligi bilan, masalan, ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlanishi, jamiyat demokratiyalashuvi kabi masalalar bilan


qiziqmasligi yoki ularning faqat axloqiy jihatlari bilangina qiziqishi mumkin. Ma'naviyatshunoslik fani ushbu masalalarni batafsil tahlil etmasa-da, ammo chetlab ham o'tmaydi, ularni inson e'tiqodi, irodasi, kamoloti va jamiyat yuksalishi, ijtimoiy muhit bilan bog'laydi. Chunki jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar, san'at va madaniyat rivojlanishi, ijtimoiy taraqqiyotning barcha yo'nalishlari, demokratlashish, fuqarolik institutlari rivojlanishi va h.k. jamiyat a'zolarining ma'naviy-madaniy saviyasiga, ma'naviy tarbiyasiga, jamiyatdagi ma'naviy muhitga bog'liq. Ular o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar ma'naviyatshunoslik fani obyektga aylanadi.

Ma'naviyatshunoslik alohida fan sifatida mustaqillik davrigacha qayd etilmas edi. Ammo u o'rganadigan masalalar va mavzular ilm-fan e'tiboridan mutlaqo chetda bo'lmagan. Ular turli fanlar doirasida, jumladan ijtimoiy filosofiya, etika, estetika, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, madaniyat nazariyasi, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar doirasida u yoki bu darajada o'rganilgan. Ammo har bir fan mazkur masalalarni o'z predmeti nuqtai nazaridan — yo juda toraytirib (xususiy fanlar), yo juda kengaytirib (filosofiya) o'rgangan.

Ma'naviyatshunoslik o'z predmetiga taalluqli boshqa fanlar tadqiqotlarini, axborotlarini umumlashtiruvchi va uyg'unlashtiruvchi vazifani bajaradi. Shu bois uning predmeti yuqorida zikr etilgan fanlar predmetiga nisbatan o'ziga xosligi, ularning aksariyatiga nisbatan kengligi va ko'pqirraligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi yunon ilmiy-falsafiy qarashlarida inson ma'naviy hayoti uch guruhga bo'lingan — aql (tafakkur), iroda va tuyg'u. Aqlni (tafakkurni) mantiq fani, irodani etika fani tadqiq etgan. XVIII asrga kelib estetika fani vujudga kelgan. U inson tuyg'ulari va kechinmalarini go'zallikka munosabat nuqtai nazaridan o'rgana boshlagan. Ilgari ushbu masalalar umumiy filosofiya fani doirasida bilish nazariyasi, etika, poetika, ritorika va sh.k. fanlar tomonidan o'rganilgan. Psixologiya ushbu masalalarni boshdanoq mushtarak tarzda, ammo mavzu doirasini toraytirib va xususiylashtirib, uni inson ongining tashqi ta'sirga javobi (reaksiyasi) tarzida o'rgangan.

Ma'lumki, Yevropa falsafasi «axloq», «ruh», «iroda», «go'zallik» kabi tushunchalarni tadqiq etishda ulkan natijalarga erishgan, teran tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, u ma'naviy hayotni yaxlit holda emas, bo'lib o'rganish an'anasiga sodiq qolgan. Chunonchi, Hegel ta'limotida "g'oya" Shopenhauer ta'limotida «iroda» substansional (borliqning o'zagi o'laroq) ahamiyat kasb etadi va butun tarixiy jarayonning faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunday hol ularning ta'limotiga yaqqol (Shopenhauer) yoki noyaqqol (Gegel) mistik sifat baxsh etadi. Hegel barcha moddiy va ideal hodisalarni — tabiat, inson, jamiyat, davlat, axloq, huquq, san'at, ong, tafakkur, tushuncha kabilarni absolyut (mutlaq) g'oyaning o'zgacha borlig'i, moddiylashgan muqobil shakli deb hisoblaydi. Hegel ularning barchasini mutlaq g'oyaning o'z-o'zidan taraqqiy etishi, o'zining qarama-qarshi, inkor shakliga aylanishi kabi o'zi taklif etgan dialektikaning qonunlariga bog'lab o'rganadi.



Sharq ilmida esa ma'naviy hayotga ko'proq mushtarak hodisa sifatida qaralgan. G'arbdagidan farqli o'laroq, «ruh», «iroda», «axloq» (odob) va boshqa ko'plab tushunchalarni alohida har tomonlama tadqiq etish unchalik urf bo'lmagan. Ko'proq qisqacha ta'rif berish, eng muhim belgilarni e'tirof etish bilan cheklanilgan. Lekin bundan Abu Hamid G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy kabi (XI-XIII asr) ayrim olimlar istisno. Islom mamlakatlarida yillar o'tishi bilan ma'naviyatni o'rganishda mistik unsurlar kuchaya borgan. Bunday yondashuv oxir-oqibat ma'naviyatning mohiyatini ilohiy irodaga, g'ayritabiiy qobiliyatga va shuurga bog'lashga olib kelgan. Ma'naviyatni o'rganadigan, tahlil qiladigan, umumlashtiradigan ilmiy tushunchalar, atamalar tizimini rivojlantirishga, har bir atamani ilmiy tahlil qilishga yetarli e'tibor berilmagan. Hattoki tasavvuf doirasidagi har xil tariqatlar bir hodisani yoki jarayonni ifodalashda turli atamalardan foydalanganlar. Bu o'rta sharqda XIV-XV asrlarda uzil-kesil shakllangan an'ana edi.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyatga iqtisodiyot qatorida ustuvorlik berilishi uni har tomonlama va maxsus o'rganishni kun tartibiga qo'ydi. Ma'naviyat to'g'risida aniq va nisbatan mukammal tasavvurlargina milliy manfaatlarimizni, yutuq va kamchiliklarimizni teranroq tushunib olib, O'zbekistonni taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqishda ma'naviy omillardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ma'naviyatshunoslik ijtimoiy-gumanitar fanlarning deyarli hammasi bilan aloqa qiladi. U falsafiy fanlardan yana dinshunoslik fani bilan yaqindan bog'langan. Din uzoq tarixiy davrlar davomida odamlar e'tiqodini, dunyoqarashini belgilagan. Jamiyat mafkurasiga, axloqiga, san'atiga, iqtisodiy, huquqiy, maishiy ongiga, odamlarning o'zaro munosabatlariga, urf-odatlariga to kapitalizm qaror topib industrial jamiyat vujudga kelgan davrgacha hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda hozirgacha dinning ta'siri kuchli. Shu bois ma'naviyatning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari va qonuniyatlarini o'rganishda dinshunoslik fani materiallariga murojaat etmaslik, ularni hisobga olmaslik mumkin emas.

Lekin ta'kidlash joizki, ma'naviyat hatto qadimgi ibtidoiy jamiyatda ham faqatgina diniy tasavvurlar va qarashlar bilan bog'liq holda rivojlanmagan. U ibtidoiy raqslar, asotirlar (mifologiya), ertaklar, rivoyatlar, qoya sur'atlari, oilaviy munosabatlar, urf-odatlar shaklida ham rivojlangan, insonning ilk nodiniy ijodkorlik faoliyatidan oziqlanib kelgan. Bu tendensiya muttasil kuchayib borgan. Ma'naviyatshunoslik folklor va adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik va keng ma'nodagi madaniyatshunoslik, tarix, ijtimoiy

psixologiya fanlari hisobidan aniq dalillar va ma'lumotlar bilan boyiydi, o'z predmeti yo'nalishida ularni to'ldiradi va boyitadi.


Ma'naviyat qotib qolgan hodisa emas. U jamiyat va inson bilan, ijtimoiy amaliyot bilan birga takomillashadi, rivojlanadi, o'zgaradi. Unga davlat siyosati, ijtimoiy tabaqalar, sinflar millatlar, xalqlar, mamlakatlar, madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlar, aloqalar muayyan tarzda ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy qadriyatlar turli ijtimoiy tabaqalar, qatlamlar, guruhlar tomonidan bir xil o'zlashtirilmaydi, bir xil baholanib, bir xil tushunilmaydi. Ushbu masalalarni o'rganish uchun turli ijtimoiy guruhlar qiziqishlarini yaxshi bilish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish zarur. Demak, ma'naviyatshunoslik nazariy va amaliy sotsiologiya bilan aloqa o'rnatadi, uning usullaridan, xulosalaridan foydalanadi. Davlat siyosatining, partiyalar o'rtasidagi mafkuraviy kurash yoki sheriklikning, xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalarning ma'naviy jarayonlarga ta'sirini siyosatshunoslik fani yordamisiz teran tushunish qiyin. Ushbu fan ham ma'naviyatshunoslikni ko'plab aniq dalillar, teran xulosalar bilan boyitadi.

Ma'naviyatning predmetlashgan shakli madaniyat – adabiyot va san'at asarlari, badiiy obraz, inson tili, xulq-atvori ideal shakli – axloqiy estetik, ilmiy, huquqiy, siyosiy g'oyalar, tushunchalar, – hammasini o'ziga xos ramz, belgi, deb hisoblash mumkin. Har qanday so'zning o'zi – ramz: yo biror tushunchani, fikrni, yo hayotda obyektiv mavjud predmetni, hodisani ifodalaydi. So'z bilan ifodalanadigan tushuncha va real predmet o'rtasida hech qanday bevosita o'xshashlik, bog'liqlik yo'q. So'z ifodalanuvchi narsaning faqat nutq yoki imlo (yozuv) yordamidan foydalanilgan belgisidir, xolos. Shu sababdan turli sharoitda yashagan, bir-biriga qardosh bo'lmagan etnoslar ularni turli so'zlar orqali belgilagan. Agar so'z predmetga bevosita bog'liq bo'lganida, muayyan predmetni barcha xalqlar bir xil atar edilar. Shunday qilib, tilni o'ziga xos belgilar va ramzlar tizimi, deyish mumkin. Har qanday g'oya, meyor, ijtimoiy mo'ljal va ideal – ramz. Ularni har kim, har bir tarixiy davr o'zicha tushunadi, talqin qiladi. Tilning, g'oya va obrazning, badiiy asarning belgilik (ramziylik) xarakterini va bu bilan bog'liq barcha murakkab masalalarni semiotika fani o'rganadi. Ma'naviyatshunoslik semiotika, semaseologiya fanlari ma'lumotlaridan, talqinidan, ba'zan ilmiy uslublaridan foydalanadi.

Va, nihoyat, ma'naviyatshunoslik fani bizning ijtimoiy hodisalarni shunchaki anglab olishimizgagina, tor ma'nodagi ma'rifiy vazifalargagina xizmat qilib qolmay, mustaqil O'zbekistonning barkamol avlodini tarbiyalashga o'z hissasini qo'shish maqsadini oldiga qo'yadi. Bu mazkur fanning pedagogika va pedagogik psixologiya fanlari bilan aloqa qilishini taqozo etadi. Yuqoridagi mulohazalardan ma'naviyatshunoslikka gumanitar fanlar tizimida o'z predmetiga ega mustaqil fan sifatida qarash lozimligi hamda uning ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati ayon bo'ladi.

Ma'naviyatshunoslik fanining tuzilmasi. **Jamiyat taraqqiyotini inson erkinligining, insonparvarlikning muttasil o'sib borish tarixi, deb qarash mumkin va joiz, yoki ma'naviy shaxs vujudga kelishi va kamol topishi tarixi deyish o'rinli bo'ladi.** Ma'naviyat shakllana boshlashi jarayonida insonda asl insoniy tabiat paydo bo'la boshladi, u asta-sekin erkin va ma'naviy shaxsga aylana bordi. Yarimyovvoyi odam o'zligini deyarli anglamagani va yaratuvchilik imkoniyatlari o'ta cheklangani tufayli erkin emas. U tabiatga, uning tasodiflariga, injiqliklariga to'liq qaram. Omadi chopib qolsa, tabiat unga ato etsa, to'yib ovqat yegan, yo'qsa bir necha muddat och qolgan.

Omadi chopmasa, o'zi biror yirtqichga yem bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmagan. Ibtidoiy odamda ong, tafakkur, uquv bir-muncha rivojlangan. U tabiatdagi barcha narsalarni – toshu kesak, daraxtu butoq, daryo-yu tog', quyoshu oy, o'simliklaru paranda-darandalarni – hamma narsalarni jonli, o'z ruhiga ega, deb hisoblagan. Ularning odamlarga foyda yoki zarar keltirishiga ishongan. Shu sababdan ularni ranjitmaslikka uringan, aksincha, ularning yordamini olish yo'lini axtargan. Ibtidoiy odam o'zini atrof predmetlar bilan bog'liqlikda idrok etgan, o'zini ularga qarama-qarshi qo'ymagan. Uning individual ongi yaxshi rivojlanmagan (bu individual ongi bo'lmagan degani emas) va to'la umumiy jamoaviy ongga, urug'-jamoqa qarashlariga bo'ysungan.



Yovvoyi odam “erkinligi” instinktlar (mayllar)ga asoslangan. Undan farqli, ibtidoiy odamda ma'naviy shaxs unsurlari mavjud. Lekin u ham ma'naviy shaxs emas, chunki unga individuallik va mas'ullik yetishmaydi. Ibtidoiy odamdagi ma'naviyat unsurlari jamoa ongining, irodasining bir bo'lagidir, mustaqil individual ongning va irodaning yuzaga chiqishi emas.

Ma'naviyat rivojlanishining asosiy maqsadi ma'naviy shaxsni tarbiyalashdir. Ma'naviy shaxs erkin tafakkurga, uning asosida erkin tanlay olish imkoniga ega insondir. Ongli tanlash, ijtimoiy zaruratni va o'z mas'ulligini, burchini anglash, insonparvarlikka va taraqqiyotga xizmat qiluvchi huquqiy, axloqiy, estetik va iqtisodiy meyorlarni yaratib, ularga ongli ravishda, ixtiyoriy itoat etishgina insonga erkinlik va ma'naviylik bag'ishlaydi. Erkin inson, ma'naviy shaxs jamiyat va o'z shaxsi oldida ma'sulligini va burchini chuqur idrok etadi. Binobarin, shaxsning ma'naviylik darajasi bevosita uning o'z ma'sulligini qanchalik to'g'ri tushunishiga va unga amal qilishiga bog'liq. Shu sababdan ma'naviyatshunoslik fani erkin, ma'naviy shaxsni tarbiyalashning ilmiy-nazariy va metodologik masalalarini ham qamrab oladi.

Yuqoridagi fikrlarini umumlashtirib, ma'naviyatshunoslik fanini shartli ravishda uch qismga bo'lish mumkin: 1) ma'naviyat tushunchasi mohiyati (ontologiyasi); 2) ma'naviyatning mavjudlik shakllari, rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari (fenomenologiyasi); 3) ma'naviy tarbiya metodologiyasi.

Tabiiyki, ma'naviyatshunoslik fani avvalo ma'naviyat tushunchasining mohiyat-mazmunini (ontologiyasini), voqeligini, namoyon bo'lish shakllarini hamda rivojlanish

qonunlari, tendensiyalari va xususiyatlari (fenomenologiyasini) kabi nazariy masalalarni o'rganadi. Shuningdek, ma'naviy rivojlanishning yangi yo'nalishlari, shakllari vujudga kelishini, ular o'rtasida umumiylik va xususiylilikni, ma'naviyatdagi vorisiylik va yangilanishni, tarixiylik va mantiqiylikni, taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiladi va yoritadi.

Ma'naviyatshunoslik, boshqa fanlar singari, insonga yangi bilim beradi, dunyoqarashini kengaytiradi va o'rganayotgan sohasiga muayyan munosabatni tarbiyalaydi. U ma'naviy tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtiradi, ularni har bir jamiyatning o'ziga xos talablari bilan bog'laydi. Inson tarbiyasi oilada bolaga kundalik, oddiy bilimlar berishdan boshlab, bog'cha, maktab, kollej, oliy o'quv yurti, mehnat jamoasi saboqlarigacha hamda uning ongiga OAV va jamiyat institutlari ta'siri ko'rinishida butun umr bo'yi davom etadi. Har qaysi tuzilma va institut, har bir fan va predmet o'zining tarbiyaviy usullari va vositalariga ega. Ma'naviyatshunoslik fani ulardan birortasining o'rnini egallab almashtirmaydi, balki ularga umumiy yo'nalish, yo'l ko'rsatadi.

Ma'naviy yuksalishga jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari ta'sir ko'rsatadi, ma'naviyatda ular o'ziga xos tarzda voqe bo'ladi. Biz ma'naviy yuksalishning xususiyatlarini hisobga olib uning quyidagi qonunlarini alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviy ehtiyojlarning muttasil o'sib borish qonuni;
2. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni;
3. Ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong shakllari rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni.

Insonning birlamchi moddiy ehtiyojlarining qondirilishi unda ruhoniylar, ma'naviy ehtiyojlarni o'yg'otadi. Qorni to'q, xavf-xatardan xoli inson qo'shiq aytgisi, raqsga tushgisi, xursandchilik qilgisi, biror narsa o'ylab topgisi, yaratgisi keladi. O'z navbatida mazkur ehtiyojlarning qondirilishi, ularning yanada sifatliroq, yanada mukammalroq, yanada mazmunliroq bo'lishiga nisbatan yangi ehtiyoj tug'diradi. Inson ehtiyojlari, jumladan ma'naviy ehtiyojlari uzluksiz yuksaladigan mavjudotdir. Bu ijtimoiy taraqqiyot, jumladan ma'naviyat rivojlanishi qonunidir.

Ma'naviy hayotning o'ziga xosligini ko'pincha jamiyat umumiy taraqqiyotining erishilgan darajasi belgilagan. Agrar jamiyatda yashagan kishining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, hayotga munosabati, ma'naviyati sanoat, texnika, transport va aloqa tizimi taraqqiy etgan, radio, televideniye, kompyuter, internet zamonida yashaydigan kishilarnikidan keskin farq qilgan. Texnologiya yutuqlari ishlab chiqarish usuli va munosabatlari pirovardida qanday bo'lishini, yetishtirilgan mahsulot qanday tamoyillar asosida taqsimlanishini, savdo-sotiq va almashuv qanday vositalar va qoidalar yordamida amalga oshirilishini belgilaydi. Taqsimot va almashuvdan iste'mol mazmuni kelib chiqadi. Umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasi odamlarning dunyoqarashini, tafakkurini, mavjud jamiyatga beradigan bahosini, amaliy munosabatini shakllantiradi. Ular asosida qadriyatlar, ijtimoiy meyorlar qaror topadi. Kimdir amaldagi meyor va qoidalarni adolatsiz, ularni o'zgartirish kerak deb hisoblaydi. Kimdir aksincha, ularni himoya qiladi. Keskin radikal va konservativ fikrlar o'rtasidagi bahs, kurashlar oqilona yo'l topishga, mavjud qoida va meyorlarni, urf-odatlar va diniy marosimlarni takomillashtirib borishga xizmat qiladi. Ushbu o'zaro bog'liqlik barcha

zamonlar, barcha jamiyatlar uchun xos, doimiy va takrorlanuvchi bo'lib, ma'naviyat rivojlanish qonunlaridan yana birini tashkil etadi.

Uchinchi qonun to'g'risida shuni aytish mumkinki, odamlarning ongiga, dunyoqarashiga e'tiqod (mifologiya, din falsafa), axloq, adabiyot va san'at, ilm-fan, huquq, siyosat, ta'lim-tarbiya tizimi rivojlanishi ta'sir ko'rsatadi. Qayd etilgan hodisalar, bir tomondan, jamiyat taraqqiyoti mahsuli, natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatni taraqqiy ettiruvchi omillardir. Ilm-fan, birinchi galda tabiatshunoslik va texnika fanlari bevosita ishlab chiqarish texnologiyalari yuksalishiga, odamlarning dunyoqarashi turli irim-sirimlar, xurofotdan, noilmiy, g'ayriilmiy qarashlardan xalos bo'lishiga xizmat qiladi. Adabiyot va san'at inson ongi-tafakkuri evrilishlari, ruhiy kechinmalari ulug'vorligi-yu tubanligi, har xil qirralari, yashirin imkoniyatlari to'g'risida bilim beradi. Odamlarning ma'naviy dunyosini insonparvarlik, ezgulik, go'zallik, adolat, ishq, muhabbat, vatanparvarlik va shu kabi g'oyalar bilan boyitadi, yuksak idealarga ilhomlantiradi. Axloq, huquq, siyosat ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Qo'lga kiritilgan barcha yutuqlarni inson bolasi ta'lim-tarbiya orqali o'zlashtiradi. Xulosa qilish mumkinki, ma'naviy yuksalish insonning pozitiv bilimlari o'sishi, jamiyatda hurfiylik, tafakkur erkinligi rivojlanishi va ta'lim-tarbiya tizimi takomillashishi bilan bog'liq.

Xalqning iqtisodiy va ma'naviy hayoti boshqa xalqlar bilan aloqalar o'rnatishga, iqtisodiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy, siyosiy sohalarida hamkorlik qilishga, o'zaro yordam ko'rsatishga, bir biridan o'rganishga ham bog'liq. Turli tarixiy davrlarda ularning aloqalari intensivligi, bir biridan o'rganish imkoniyatlari har xil bo'lgan.

Jamiyatni moddiy-iqtisodiy, texnologik va ilmiy-intellektual taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, ibtidoiy jamiyatga, quldorlik va feodalizmga (agrar, yoki sanoatlashishga qadar bo'lgan jamiyatga), industrial, postindustrial va zamonaviy postmodern jamiyatlariga bo'lish va ularning ma'naviyatini bir biridan farqlash mumkin. Jamiyatning moddiy-iqtisodiy va ijtimoiy – ma'naviy hayoti o'zaro chambarchasdir. Ushbu birlik jamiyat hayotining negizini tashkil qiladi. Mehnatsiz, ishlab chiqarishsiz jamiyat bo'lmaganidek, e'tiqodsiz, dunyoqarashsiz, hech qanday bilimlarsiz, qoida – tartiblarsiz, meyorlarsiz, muayyan maqsad va orzu - havaslarsiz inson, binobarin, jamiyat yo'q.

Iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'un rivojlanadigan jamiyat barqaror va insonparvar bo'ladi. Iqtisodiyot olg'a ketib, ma'naviyat ortda qolsa, jamiyatda iste'molchilik psixologiyasi ustunlik qilib, tarbiya izdan chiqadi, inson qadr-qimmatiga putur yetadi. Va, aksincha, iqtisodiyot unutilib, faqat tarbiyaga zo'r berilsa, jamiyatda turg'unlik, safsatabozlik, mafkuraviy mutaassiblik, dogmatizm kuchayadi.

Ma'naviyatshunoslik fani ma'naviy yuksalishning mezonlari (kriteriylari)ni aniqlaydi. Ma'naviy yuksalishning asosiy mezoni inson erkinlik darajasining o'sishi, deyish mumkin. Haqiqatan, ibtidoiy jamiyatga nisbatan agrar jamiyat insonga ko'proq erkinlik bergan, unga nisbatan esa industrial jamiyat ko'proq erkinlik bergan. Industrial jamiyat barcha a'zolarini qonun oldida tenglashtirdi, tabaqaviy imtiyozlarini bekor qildi. Postindustrial va postmodern jamiyatlarida inson erkinligi yanada o'sdi. Hatto, afsuski, ba'zi hollarda u birdan bir maqsadga aylanib, axloqiy chegaralardan chiqib ketmoqda. Ma'naviy yuksalishning boshqa mezonlari: ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, tafakkur erkinligi va mafkuraviy plyuralizm, jamiyatning demokratiyalashuvi va inson huquqlarining davlat huquqidan

ustunligi, shaxs va jamiyat manfaatlari uyg'unlik darajasi oxir oqibatda inson erkinligiga borib taqaladi. Mazkur mezonlar ham jamiyatning ma'naviy yuksalishini ko'rsata oladi. Lekin ular asosiy mezonning konkret voqeligidir.

Shunday qilib, ma'naviyatshunoslik fani boshqa fanlardan farq qiladigan xususiyatlariga, tushunchalariga, g'oyalariga, tamoyillariga, qonunlariga va mezonlariga ega.

Taraqqiyotning o'zbek modelida ma'naviyatning o'rni. Ma'naviyat va iqtisodiyotga birdek e'tibor O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ustuvor tamoyilidir. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning deyarli barcha asarlarida ma'naviyat, milliy g'oya, milliy mafkura masalalari jamiyatni, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotni isloh etishning muhim sharti, harakatlantiruvchi omili sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z taraqqiyot modelini belgilab oldi. U bugun butun dunyoda tan olinib, "o'zbek modeli" deb atalmoqda. O'zbek modelida iqtisodiyot va ma'naviyatga baravar ustuvorlik berilgan. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ularni qushning ikki qanotiga qiyoslaydi. Shu bois O'zbekistonda tub islohotlarni amalga oshirishda "nainki moddiy farovonlikka, ayni paytda ma'naviy yuksalishga ham erishishni o'zimiz uchun asosiy mezon deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomonga og'ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo'lgan muvozanat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda".²

Ma'naviyatshunoslik, fani bu borada bizga yordam beradi. Uni alohida fan sifatida o'rganish zarurati ilk bor O'zbekistonda anglanishi va o'quv dasturlariga kiritilishi mamlakatimizning hozirgi zamon ilm-fani va kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishiga qo'shgan hissasi, deb baholanmog'i adolatli bo'lar edi. Bugungi kunda ushbu fan bo'yicha davlat standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqilib, qo'llanmalar, darsliklar yaratilmokda. Albatta, yangi o'quv predmeti dasturi birdaniga mukammal shaklda vujudga kelmaydi. Ijtimoiy jarayon, yangi jamiyat qurish amaliyoti, shak-shubhasiz, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritishni, mudom boyitishni, mumtoz ilm-fan, falsafa, tarix, etnologiya, san'atshunoslik va h.k. fanlarning hamda o'zining keyingi tadqiqot dalillari va xulosalarini hisobga olib yangi avlod darsligini yaratishni taqozo qiladi. Bu ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida uzluksiz davom etadigan jarayondir.

O'zbekistonda islohotlar amalga oshirilishi jarayonida "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini yuzaga chiqarish imkoniyati ortdi. Ushbu tamoyil, birinchidan, davlat boshqaruvi masalalarining katta qismi bosqichma – bosqich mahalliy davlat idoralari vakolatiga o'tkazilishini ifodalaydi. Ikkinchidan, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotida, tashqi aloqalarida odamlarning o'zlari tuzgan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ijodiy uyushmalar faoliyati, mavqei va ishtiroki o'sishini, davlat idoralari faoliyati ustidan jamoat nazoratini o'rnatishni bildiradi. Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat va fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlanadi. Bular amalga oshishi uchun fuqarolar ongi, bilimi, ijtimoiy faolligi, ma'naviyati yuksak bo'lishi, mamlakatda, har bir qishloq va shaharda tegishli ma'naviy muhit vujudga kelishi lozim.

² Ислон Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008, 107-б.

Mazkur masalalarning barchasi ma'naviyatni alohida va teran o'rganish naqadar dolzarb va zarur ekanligini yana bir bor asoslaydi.

Ma'naviy muhit keng ma'nodagi ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutsak, ma'naviyatning iqtisodiyotga, o'zbek modeli yuzaga chiqishiga, O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari rivojlanishiga, barkamol avlodni, ma'naviy erkin shaxsni tarbiyalashga ko'rsatadigan ta'sirini teranroq anglab olamiz. Bu borada bizga ma'naviyatshunoslik fani har tomonlama yordam beradi. Aytilganlarni jamlab, umumiy xulosa chiqarsak, O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan yuksak rivojlangan demokratik jamiyat yaratish va komil insonni, barkamol avlodni voyaga yetkazishning barcha yo'nalishlari va aniq vazifalari ma'naviyatni yuksaltirish bilan, binobarin, ma'naviyatshunoslik fanini shakllantirish va rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liq.

Nazorat savollari

1. Nima uchun jamiyat yagona ijtimoiy organizm deyiladi.
2. Moddiy va ma'naviya hayot tushunchalarining o'zaro aloqadorligi nimada?
3. O'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash tushunchalarining mazmun va mohiyati nimada?
4. Ma'naviy yuksalish tushunchasini izohlang.
5. Taraqqiyotning o'zbek modeli va Harakatlar strategiyasining o'zaro aloqadorligi nimada?

2-MAVZU: MA'NAVIYATNING ILMIY METODOLOGIYASI TUSHUNCHASI: MOHIYATI, MAZMUNI, TUZILMASI, NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI

Reja:

1. Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi tushunchasiga turli yondashuvlar. Ma'naviyat tushunchasiga ratsional va irratsional, diniy va ezoterik yondashuvlar.
2. Ma'naviyat – ijtimoiy hodisa. Ma'naviyat obyektivlik va subyektivlik birligi. Ma'naviyatda immanentlik va transsendentlik.
3. Ma'naviyatga ilmiy -ratsional yondashuvning turlari: metafizik, pozitivistik, semiotik, dialektik va sinergetik yondashuvlar. Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati.
4. Ma'naviyat tuzilmasi: ma'naviy ong, ma'naviy madaniyat, iroda va ma'naviy muhit. Ong va ma'naviyat. Ma'naviy ong. Ijtimoiy ong va ma'naviy ong nisbati. Ma'naviy ongning tuzilmaviy shakllari. Ma'naviy madaniyat - ma'naviy ongning predmetlashgan shakli.
5. Iroda erkin tanlash sifatida. Irodaning shaxs va millat yuksalishida tutgan o'ri. Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari.
5. Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi, uning tarkibiy qismlari. Ma'naviy muhit ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida.

Tayanch tushunchalar: ilmiy -ratsional yondashuv, metafizik, pozitivistik, semiotik, dialektik va sinergetik yondashuv, ijtimoiy-madaniy mavjudod, ma'naviy ong, ma'naviy muhit.

Ma'naviyat tushunchasiga turli yondashuvlar. Ma'naviyat nima, degan savolga ilmiy, siyosiy, publitsistik adabiyotlarda turlicha yondashuvlar asosida har xil fikrlar bildiriladi. Qayd etish lozimki, g'arbda ma'naviyat tushunchasi alohida o'rganilmaydi. U barqaror mazmunga ega bo'lgan ilmiy tushuncha sifatida g'arbda mavjud emas. Lekin biz ma'naviyat deb ataydigan hodisa yaxlit holda bo'lmasa-da, filosofiya, etika, sotsiologiya, psixologiya, semiotika, kulturologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik kabi fanlar doirasida har xil ilmiy usullar yordamida tadqiq etiladi. Ma'naviyat tushunchasi o'rniga ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, intellektual madaniyat, axloq va sh.k. har xil atamalar qo'llaniladi. Ma'naviy madaniyat deganda, g'arbda ko'proq diniy madaniyat, cherkov faoliyati tushuniladi. Shuningdek, g'arbda spiritualizm (spiriti – "ruhiy", "ma'naviy" mazmunni bildiradi) degan amaliyot bor. Spiritualizm o'lgan kishi ruhini chorlab u bilan muloqot qilishni anglatadi. Shu sababdan biz qo'llaydigan ma'naviy madaniyat atamasini ayrim g'arb tillariga aynan lug'aviy mazmuniga qarab "spiritual madaniyat" deb o'girish mumkin emas. Uni zarur hollarda, axloqiy va intellektual madaniyat deb o'girishi urf bo'lgan. Ma'naviyat atamasi, to'liq ishonch bilan aytish joizki, islom mamlakatlarida, yana aniqrog'i ko'proq O'zbekistonda tarqalgan atama. Hatto bizga qo'shni Tojikistonda ma'naviyat atamasiga nisbatan uning boshqa sinonimi "ruhoniyyat" ko'proq qo'llaniladi.

Ma'naviyat arabcha ma'ni (ma'no) so'zidan, u esa "a'no" o'zagidan yasalgan deb hisoblanadi. A'no – birlamchi, tub mohiyat mazmunini anglatadi. "Ma'naviya" arab tilida juda ko'p mazmunga ega tushuncha. Lug'atlarda uning 8-10 tagacha mazmuni qayd etilgan. Uning arabchadan kelib chiqqaniga, arabcha o'zakdan yasalganiga shubha yo'q. Lekin atamaning bugungi mazmuni shakllanishiga juda ko'p ijtimoiy-madaniy va lisoniy omillar ta'sir ko'rsatgan. Jumladan boshqa tillar va madaniyatlar. Faraz qilish mumkinki, ma'naviyat atamasi shakllanishiga "ma'ni" bilan bir qatorda sanskrit tilida mavjud bo'lgan "ma'nas" tushunchasi ham ta'sir ko'rsatgan. Atamaning ushbu shaklda tarqalishiga tasavvuf ilmi, xususan Jaloliddin Rumiyning "Masnavii ma'naviy" asari katta ta'sir ko'rsatgan bo'lish ehtimoli yuqori.

Ilmiy adabiyotlarda ma'naviyatga nisbatan mavjud qarashlarni tahlil qilsak, yoki nazariyalar, ta'limotlarning umumiy ilmiy usulidan kelib chiqib, qanday bo'lishi mumkinligini faraz qilsak, juda qiziqarli va o'ta rang-barang, ayrim hollarda bir birini to'liq inkor qiluvchi mulohazalarni ko'ramiz. Ularning ba'zilar falsafa, tarix, tilshunoslik, adabiyot va san'at ma'lumotlariga, xulosalariga tayangan va izchil ratsionalistik bo'lsa, ba'zilarida noilmiy va irratsional unsurlar, dalillar, farazlar, vulgar talqinlar uchray qoladi. Bunga misol qilib freydzizmi, umuman psixonalizni ko'rsatish mumkin. Ayrim olimlar ma'naviyatga diniy-mistik nuqtai nazardan yondashadilar. U inson mutlaqo tushuntirishdan ojiz, ilohiy inoyat, "qalb ko'zi" bilan ko'rilgan haqiqat, g'oyibdan insonga ko'rsatilgan hidoyat, yo'l, ishora, ko'ngilga solingan ijod va faoliyat, botiniy ilmlar, nozik va ilohiy his-tuyg'ular va h.k. deb tushuntiriladi.

An'anaviy diniy-mistik qarashlar zamon ta'sirida o'zgarib, yangi ko'rinishlar kasb etmoqda. Bugun har xil ezoterik qarashlar, kosmos (koinot) yuborayotgan kodlashtirilgan belgilar, timsollar, ramzlar, salbiy va ijobiy energetika va shunga o'xshash qarashlar ham

jamiyatning ma'naviyat, ma'naviy hayot to'g'risidagi tasavvurlari va qarashlarida aks etmoqda.

Jamiyat rivojlanishi yangi axborot – telekommunikatsiya texnologiyalari, internet va kompyuterlar, AKTlar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalar) yaratgan virtual voqelik, ommaviy madaniyat jamiyat ma'naviy hayotini, odamlar dunyoqarashini ancha o'zgartirib yubordi. Inson hozirgi jamiyatda juda ziddiyatli, chalkash ta'sirlar ostida qoldi. Shu sababdan ma'naviyatga insonning asl tabiatidan, autentligidan kelib chiqib yondashish, ya'ni ekzistensialistik yondashuv dolzarblik kasb etmoqda. Ammo bir narsani nazarda tutish kerakki, ekzistensializmning ontologik qarashlari, bilish nazariyasi, jamiyat va inson to'g'risidagi fikrlari, xulosalari yaxlit va izchil ta'limot emas. Lekin ekzistensializmning inson autentligi to'g'risidagi fikrini deyarli barcha ijtimoiy va gumanitar fanlar foydali, ilmiy samarador usul sifatida tan olgan. Ekzistensializmdagi eng yaxshi jihatlarni olib boshqa falsafiy va ilmiy usullar bilan birlashtirish maqsadga muvofiq.

Ma'naviyat tushunchasiga qaytamiz. Ayrim mualliflar, yuqorida aytilganidek, ma'naviyatning mohiyatini ilohiy deb talqin qilmoqdalar. Ular to'liq diniy-mistik nuqtai nazarga o'tib ketmasa-da, diniy yondashuv tarafdoridir. Ma'naviyatni ular ongning to'liq tushuntirib berish mumkin bo'lmagan sirli jihatlari, insonning ruhiy kuchi, undagi tug'ma diyonat, vijdon, iymon, Xudo insonning ko'ngliga solgan ijtimoiy va ijodiy moyillik, intilish, deb talqin qiladilar. Bu qarashlarga muvofiq ma'naviyat ilohiy yoki tabiiylikdan ustun hodisadir.

Ilohiy hodisalar, abadiy abadiy o'zgarishsiz, mutlaq bo'ladi, faqat ularni tushunish, idrok etishgina o'zgarishi mumkin. Ma'naviyat haqida gapirganda esa, biz uning yuksalishi, aksariyat qadriyatlarning yangilanishi yoki, aksincha, tanazzuli, qashshoqlanishini, o'zgarishini, nisbiyligini ta'kidlaymiz. Shubhasiz, zardushtiylilik negizida shakllangan uzoq ajdodlarimiz ma'naviyatidan islom negizida vujudga kelgan ota-bobolarimiz ma'naviyati keskin farq qiladi. Xalqimizning bugungi kundagi ma'naviyati zamonaviy qadriyatlar va mustaqillik ta'sirida nafaqat o'rta asrlardagi, hatto sotsializm davridagi ma'naviyatidan ajralib turadi. Zero, I. Karimov ta'kidlaganidek: «Ma'naviyat uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'ladi»³ Fanda masala ilohiy hodisa sifatida qo'yilishi mumkin emas. Chunki fanning vazifasi tadqiq etadigan hodisalarni tekshirish, tahlil qilish, umumlashtirish va mazmun-mohiyatini, nazariyasi va amaliy qo'llanishini, rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishdan iborat. Balki fan bu jarayonda xatolarga yo'l qo'yar, adashar, noto'g'ri talqin qilar, ammo u doimo mantiqqa asoslanadi, tahlildan, talqindan, tushuntirishdan, xulosa qilishdan qochmaydi. Ilohiy hodisalar fanning emas, dinning, ilohiyot ilmining obyekti bo'lishi mumkin. Fanning obyektini esa tabiiy, ijtimoiy va ruhiy-intelektual hodisalar tashkil etadi. Fan o'rganayotgan hodisaga his-hayajondan, xayoliy orzu-istaklardan, subyektiv xohishdan kelib chiqib emas, balki xolis va ratsional, aniq ilmiy dalillarga tayangan holda yondashadi.

³ Ислам Каримов. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. 7-китоб. Т., «Ўзбекистон» 1999, 302-б.

Chop etilayotgan ba'zi kitoblarda ma'naviyat ba'zan ongning, ba'zan axloq va e'tiqodning, ko'pincha ma'naviy madaniyatning sinonimi, ma'nodoshi, ba'zan hatto ularning hammasini ifodalaydigan yig'ma tushuncha sifatida ishlatiladi. «Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan madaniyatning insoniyat, shaxs ongida ifodalanishidir. Madaniyat mazmun jihatdan nihoyatda keng bo'lib, har bir tarixiy davrdagi ma'naviyat uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi»⁴, — deb hisoblaydi E. Yusupov. Ko'rinib turibdiki, ma'naviyat bu yerda ongning madaniyatni aks ettirishiga ko'ra, mazmun jihatdan nisbatan ajralib turadigan bir bo'lagi, ideal hodisa deb to'g'ri, ammo biroz torroq talqin qilinmoqda.

Sovet davrida bitilgan falsafiy va kulturologik asarlarda doimo «ma'naviy hayot» va «ma'naviy dunyo» haqida so'z yuritilgan. Ammo bu tushunchalar doirasida «ma'naviyat» alohida tahlil etilmagan. Rus olimlari haligacha bu an'anani davom ettirib kelmoqdalar.

Ma'naviyat - ijtimoiy hodisa. O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotning ma'naviy omillarini mustahkamlash, ulardan samarali foydalanish zaruriyati ma'naviyat tushunchasini har tomonlama tahlil etishni taqozo etadi. Ma'naviyat faqat insonga, jamiyatga xos. Lekin u ilohiy yoki g'ayritabi'iy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. U inson faoliyati bilan bog'liq. Tabiatda ma'naviyat yo'q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va boshqa belgilariga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo'y yoki kufr botqog'iga botgan va h.k. deya olmaymiz. Masalan, odobli, vijdonli yoki tarbiya ko'rmagan, vijdotsiz bo'ri degan ibora mutloqo ma'nisiz (ba'zan ramzi, yoki hajviy mazmunda ishlatilishi mumkin). Tabiat uyg'unlik va ichki simmetriyaga asoslangan bo'lsada, u ma'naviyatning *subyekt*i emas. Ammo tabiat ma'naviyatning *obyekt*idir. Tabiatdagi mavjud go'zallik, uyg'unlik san'at asarida aks etishi (rassom, bastakor, shoir, yozuvchi asarlari, foto,-tele,-kinotasvirlarda va h.k.), alohida kishining yoki ekskursiyachi guruhning zavq-shavq olish manbaiga aylanishi mumkin. San'at tabiatdan zavqlanish va unga taqlid qilishdan boshlanadi.

Zavq-shavq inson hissiyoti va aqlidan tug'iladi. Shu sababdan ma'naviyatda doimo subyektivlik bor. Inson ongi-shuuridan o'tmagan, inson va jamiyat tomonidan anglab olinmagan hodisa ma'naviyat bo'lolmaydi. Shu sababdan ijtimoiy hodisa sifatida ma'naviyat birinchi galda moddiy emas, balki ideal hodisadir. U barqaror insoniy tuyg'ular, tushunchalar baholar, meyorlar va ideallar – qadriyatlar tizimidir. Lekin inson va jamiyat hayotida moddiy va ideal hodisalar bir biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi, ular qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi. Moddiy hodisalar anglab olinishi jarayonida ideallashadi, subyektivlashadi, ya'ni inson (jamiyat) ongining bir bo'lagiga aylanadi. Aksincha, inson ongi, bilimlari uning xulqida, faoliyatida, mehnatida moddiylashadi, obyektivlashadi. *Ma'naviyat obyektivlik va subyektivlik birligidir.* Masalan, Alisher Navoiy asarlari o'z obyektiv mazmuniga va shakliga ega. U biror shaxsning yoki davrning xohish-istagiga, didiga, tuyg'ulariga, siyosiy qarashlariga bog'liq emas. Bu ularning obyektiv jihati, ammo har bir kishi, har bir tarixiy davr Navoiy asarlarini o'zicha talqin qiladi va tushunadi. Boshqacha aytganda, Alisher Navoiy ijodidan bahra olish, ko'ngil mulkiga aylantirish doimo subyektiv tarzda kechadi.

Inson ma'naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi, deyish juda o'rinlidir. Agar moddiy ishlab chiqarishda va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishda insonning

⁴ Э. Ю. Юсупов. Хадисларда дунёвий ва диний ғояларнинг боғлиқлиги. — Ж. «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар», 1994, 5-сон.

ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi mohiyati namoyon bo'lsa, ma'naviyatda (ma'naviy ne'matlarni yaratishda va ulardan foydalanishda, ma'naviy faoliyatda) insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati ro'yobga chiqadi.

Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning ezgulik, mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan tizimidir hamda ularni yaratish jarayonidir. Ushbu xislat va fazilatlar hayvonot uchun xos emas. Ammo ularning muqobillari - axloqsizlik, g'araz, hasad va hokazolar ham hayvonlarda uchramaydi. Keyingilar ma'naviyatga emas, balki ma'naviyatsizlikka aloqador. Demak, ma'naviyat bu shunchaki insonga xos belgilar yig'indisi emas, balki ijobiy xislatlar, fazilatlar majmuidir. «Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarga ma'naviyat deb ataladi»⁵.

Insoniy fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanadi. Ular ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli. Kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni anglash, ularni baholash, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish yoki, aksincha, qoralash, cheklash, bartaraf etishga intilish zarurati turli axloqiy (keyinchalik huquqiy ham), estetik, diniy va boshqa meyorlarni, urf-odat va marosimlarni yuzaga keltiradi. Ular qadriyat darajasiga ko'tariladi. Qadriyat insonga, jamiyatga foyda keltiradigan, ularni yuksaltiradigan ijtimoiy baholar, meyorlar va ideallarning umumiy atamasi va obyektivlashgan voqeligi hamda badiiy, ilmiy asar, obidalar yoxud udum, marosim, axloq va h.k.

Qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida kishida insoniy fazilatlar qaror topadi. Insoniy fazilatlar, shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarning (shu jumladan, tabiatga munosabatning) inson ongi va faoliyatida o'zlashtirilgan qadriyat sifatida zohir bo'lishidir. Boshqacha aytganda, insoniy fazilatlar va ularning majmui – ma'naviyat ijtimoiy qadriyatlarning mushtaraklashgan ifodasidir. Qadriyatlarni o'zlashtirish insonning qay darajada ma'naviy shaxsga aylanganini ko'rsatadi, unga ichki kuch, iroda, e'tiqod, ijtimoiy ideal bag'ishlaydi. Shularni nazarda tutib Islom Karimov: «Ma'naviyat — ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini o'yg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir», — deya e'tirof etgan⁶.

Ma'naviyat insoniy fazilatlar bilan birga «ma'naviy madaniyat» deb atalmish dunyoviy ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar hamda din va diniy amaliyot — ibodat, taqvo, diniy marosimlar va hokazo, diniy adabiyot, diniy san'at kabi boshqa ko'plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlarni qamrab oladi. Insonning hayotga munosabati rivojlanishi jarayonida uning ongi, ayniqsa, ilmiy, falsafiy, diniy tasavvurlari boyib boradi, o'zgaradi. Shu boisdan turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning qarashlari, ijtimoiy baholari va mo'ljallari, qadriyatlari o'zaro farq qiladi.

⁵Эркин Юсупов, Ўткир Юсупов. Маънавий камолот ва жамият таракқиёти. Хўжанд. 1996, 29-6.

⁶ **Ислом Каримов.** Юсак маънавият — енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008 й., 19-6.

Ong va ma'naviyat. Ma'naviy ong. Ong to'raligicha ma'naviyatga kirmaydi, chunki unda o'zgaruvchan, muvaqqat, tasodifiy holatlar ko'p uchraydi. Ongga o'tkinchi kayfiyatlar, ehtirosalar, turli tushunchalar, noxolis va xato baholar katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat esa bir zumda o'zgarib qolmaydi. U chuqur tarixiy, madaniy ildizlarga ega. To'g'ri, unga ham sobit, barqaror tuyg'ular, or-nomus, milliy g'urur va iftixorga oid his-hayajon va ehtirosalar ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular o'tkinchi emas. Ongning yuqori darajasi – tafakkurga oid unsurlarning ham vaqt sinovidan o'tgan ko'pchilik tomonidan tan olingan barqaror, sobitlari (to'g'ri yoki xatoligidan qat'i nazar) ma'naviyatni tashkil etadi. Demak, ma'naviyat ongning mohiyatli mazmuni yoki ongdagi mohiyatlilikdir. Ushbu jihatdan ma'naviyat ong kabi ideal hodisadir, ammo ilohiy hodisa emas.

Ideal hodisa sifatida ma'naviyatda eng avvalo insoniy his-tuyg'ular, kechinmalar, aniq obrazli tasavvurlar ajralib turadi. Uyat, ibo, hayo, halollik kabi oddiy tuyg'ulardan to'ezgulik, go'zallik, adolat, vijdon azobi va amri, zavq-shavq, vatanparvarlik, fidoyilik, kabi murakkab tuyg'ulargacha inson ma'naviy ongining birlamchi darajasini tashkil etadi. Ma'naviy ongning ikkinchi – yuqori darajasiga tushunchalar, g'oyalar, baholar, did, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, ideal kiradi. Ular tuyg'ular kabi axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy qarashlarini ifodalaydi. Faqat tuyg'ulardan farqli, insonning hissiy munosabatlarini emas, balki aqliy-intellektual munosabatini ifodalaydi. Ular jamiyatning qadriyatlar tizimini tashkil etadi.

Tuyg'ular va tushunchalar o'rtasida o'tib bo'lmay jarlik yo'q. Inson o'z his-tuyg'ulari to'g'risida fikr-mulohaza yuritib, uni anglab olishga, baholashga intilsa, u tushunchalar olamiga o'tadi. Ezgulik va go'zallik ham tuyg'u sifatida, ham tushuncha va ideal sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi holatda inson o'ylab o'tirmaydi, obyekt unda bevosita his-hayajon uyg'otadi. Ikkinchi holatda u haqda mulohaza yuritadi, tahlil qiladi. Masalan, kimningdir xulqidan, qilgan ishidan xafa bo'lgan, jahli chiqqan kishidan sababini so'rasangiz, u o'sha kishi xatti-harakatining qaysi jihatlari axloqiy yoki boshqa ijtimoiy meyorlarga mos kelmasligini, qanday xatoga yo'l qo'ygani, yoki bilib turib g'irimmlik, surbetlik qilganini aytadi.

Ideallik ma'naviyatning mohiyatini to'liq ochmaydi: ideallik ma'naviyatning faqat birlamchi mavjudlik shaklidir. Materialistik yondashuvga binoan: «Ongda mustaqil mavjudlik yo'q U faqat miyaning obyektga nisbatan funksiyasi sifatidagina mavjud... Ongning o'ziga xosligi shundaki, u qandaydir subyektiv, ideal narsadir. U o'zining moddiy substratlariga – miya va in'ikos obyektiga – munosabatidan tashqari mustaqil mavjudlikka ega emas»⁷.

Ma'naviyat esa masalaga hatto materialistik yondashganda ham, mustaqil – xulq-atvorda, faoliyatda, ijodda predmetlashgan, adabiyot, san'at asarlariga, ilmiy kashfiyotlarga, urf-odatlarga, marosimlarga, an'analarga aylangan madaniy merosda mavjudlikka egadir. Ma'naviyat avvalo madaniyat orqali mustaqil mavjudligini namoyon etadi. U shuningdek, iroda (shaxs va millat irodasi), ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muhitni qamrab oladi. Bu haqda

⁷ А. Г. Спиркин. Сознание и самосознание. М., 1972, 68-69-бетлар.

keyinroq to'xtalamiz. Hozircha ma'naviyat va ong munosabatlari to'g'risidagi fikrni davom ettiramiz.

Ma'naviyat jamiyatda qaror topgan yetakchi g'oyalarga hamda kishilarning dunyoqarashiga, e'tiqodiga bog'liq. Haqiqatan, ma'naviyat ongdagi tasodifiy, ikkinchi darajali, vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin emas. U barqaror, mustahkam e'tiqodga aylangan, qadriyat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, jamiyatdagi munosabatlarni va inson xatti-harakatini tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. E'tiqodsiz ma'naviyat bo'lmaydi. E'tiqod ma'naviyatning eng asosiy ustunlaridan biridir. U ma'naviyatga mushtaraklik va jipslik bag'ishlaydi. Uning turli tarkibiy qismlarini o'zaro birlashtiradi va ma'naviyatni amaliyotga bog'laydi. E'tiqod ma'naviyatning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardan biridir.

Ma'naviy ong ikki darajali hodisa dedik. Birlamchi daraja - uyat, hayo, minnatdorchilik, mehr, qahr-g'azab, xursandchilik, g'am-qayg'u, oshuftalik, muhabbat, do'stlik, vijdon go'zallik, zavq-shavq va shu kabi tuyg'ular, kechinmalar, yoki ma'naviyatning poydevorini tashkil etuvchi ko'ngil dunyosidir. Uni inson mohiyati yoki ruhoniyligi, yoki qalb, dil ham deydilar. Lekin inson faqat tuyg'ulari bilangina yashamaydi. U ko'rgan, boshdan kechirganlarini o'zicha tahlil qiladi, ularga baho beradi, tushunchalar va nazariy qarashlar tizimi orqali umumlashtiradi, maqsad muddaolari, jamiyat qadriyatlari va talablari bilan bog'laydi. Tushunchalar, baholar, qarashlar, ideallar insonning aqliy faoliyati mahsullaridir. Uni aql fikrlar dunyosi (tafakkur) deb ataydilar. Shunday qilib, ma'naviy ong ko'ngil va aql dunyosidan – ruhoniyligi va tafakkurdan iborat. Ko'ngil va aqlni bir-biridan ajratish, qarama-qarshi qo'yish xatodir. Chunki ular, magnit qutblaridek, qarama-qarshiliklar birligidir. Bir qutbli magnit bo'lmaganidek, faqat tuyg'ulardan (ko'ngildan) yoki aqldan tashkil topgan, turli nazariy fikrlardan iborat ma'naviyat bo'lmaydi. Mumtoz adabiyotda va O'rta Sharq falsafasida ko'ngil va aqlga biroz tor yondashilgan. Lekin ular bir biriga deyarli qarama-qarshi qo'yilmagan. Alisher Navoiy asarlarini o'qib shunday xulosaga kelish mumkinki, ko'ngil (qalb) o'zida tuyg'u va aqlni birlashtiradi: "Ko'ngul badan mulkining podshohidir... Pas ulkim ko'ngil mulkining sohib shohi bo'lg'ay – shohlar shohi bo'lg'ay." Ayniqsa "ruhoniyligi tushunchasini Navoiy ma'naviyat, ya'ni insonning hissiyot va tafakkur dunyosining mushtarak voqeligi sifatida talqin qiladi:

"chun riyozat raf" etib ruhoniyligi,

Salb bo'lg'och kimsadin nafsoniyat,

Qolmag'ay ruhoniyligdan o'zga hech,

Sen taxallufdan bu ma'ni ichra kech..."- o'qiymiz "Lison ut-tayr"da. Ammo ba'zi hollarda, masalan, tasavvufda, ustunlik ko'ngilga berilgan. Faqat Ollohga muhabbat (ishq) tan olingan. Majnunlig Layliga, Farhodning Shiringa, Shayx San'oning xristian qiziga, qushlarning Simurg'ga, bulbulning gulga, shoirning mayga, sharobga ko'ngil qo'yishi va oliy muhabbatning boshqa har qanday ko'rinishlari majoziy ma'noda Ollohga intilishni, Ollohnini sevishni ifodalagan. Muhabbatdan zavq-shavq, ishqdan mastlik, o'zlikdan kechib yor (Olloh) vasliga yetishish oshiqning birdan bir muddasidir. Bunday holda xayolparastlikdan tashvishlarga to'la real dunyoga qaytaradigan, bu bilan ko'ngilning sarhush orzularini chil-parchin qiladigan aql shoirga, sufiyga kerak emas. Bir tomonlama yondashuvlarni nafaqat tasavvuf olimlarida, shuningdek ayrim boshqa ta'limotlar allomalarida ham uchratamiz.

SHo'rolar fanida ko'proq aqlga ustunlik berilgan. Sovet dohiylari ko'ngil haqidagi gaplarni ziyoliycha "oh-vohlar", ular xalqni sinfiy kurash va sotsializm qurishdan chalg'itadi deb hisoblagan. Ammo ongli ravishda kommunistik g'oyalarga sadoqat ko'rsatilganda ham masalaga bir tomonlama, jangavor va vulgar ateizm, murosasiz sinfiylik va partiyaviylikdan kelib chiqib mulohaza yuritilgan.

Ko'ngil va aqlni muvozanatga keltirish zarurligi ko'pchilik yondashuvlarda hisobga olinmas edi. Buning natijasi o'laroq hozirgacha kundalik ongda (nazariy ongda emas) ko'ngil va aqlni qarama-qarshi qo'yish, yoshlar o'rtasida qalbiga quloq tutib sevgini tanlash kerakmi, yoki oilaviy burchinga, ota-onang, yaqinlariga, agar uylangan bo'lsang, farzandlaring va xotinga sodiq qolib, sevgidan voz kechish kerakmi kabi mavzularda, ya'ni ko'ngilgami yoki aqlga – qaysi biriga muvofiq yashash lozim qabilidagi bahslar bo'lib turadi. Har xil yondashuvlarini ko'p tanqid qilish mumkin. Lekin masala faqat tanqid yordamida hal bo'lib qolmaydi.

Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari. O'zbekistonning kelajak taraqqiyoti tashkiliy, bunyodkorlik ishlari qatorida ma'naviy yuksalish bog'liq. Rivojlanish esa "inkor kilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish"ni, jamiyat hayotining ma'naviy asoslarini mustahkamlashni talab qiladi.

«Ma'naviy asoslar» tushunchasi axloqiy, huquqiy, estetik, diniy va boshqa mafkuraviy munosabatlarni, ma'naviy-mafkuraviy vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy muassasalarni, keng ma'nodagi ma'naviy hayotni qamrab oladi. Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari deganda, xalqimiz hayotining yuksalishiga ta'sir ko'rsatuvchi moddiy ishlab chiqarishga oid bo'lmagan barcha asosiy omillar nazarda tutiladi. Davlatning ta'lim-tarbiya, ilm-fan, adabiyot va san'at sohasida olib borayotgan siyosati estetik meyorlarga, badiiy uslublarga rang-barangligiga madaniy merosga, dinga, siyosiy va axloqiy qarashlar xilma-xilligiga, ularning o'zaro kurashiga, munosabati ham jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-mafkuraviy asoslari hisoblanadi.

Ma'naviy asos — voqelikka faol munosabat va ma'lum maqsadga, idealga intilish, shu ideallarga o'z faoliyatini moslashtirishdir.

Mustaqillikning ma'naviy asoslari Islom Karimov alohida ta'kidlagan to'rt negizga tayanadi: «Bu negizlar: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; vatanparvarlik»⁶.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik jamiyatimizning ijtimoiy mo'ljali, davlat amaliy siyosatining mazmuni va maqsadidir. Chunki iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak rivojlangan erkin va farovon jamiyat qurish uchun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida kishilik jamiyati shu paytgacha erishgan ilg'or yutuqlarni o'zlashtirish, boshqacha aytganda, milliylikni umuminsoniylik bilan boyitish lozim.

⁶ **Ислом Каримов.** Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т., «Ўзбекистон», 1996 й., 766. 180

Ma'naviy merosni mustahkamlash va rivojlantirish yangi O'zbekistonni yaratishda va XXI asr tamadduni oqimidan chetda qolib ketmaslikda tayanch, aqliy va hissiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy meros milliy o'zlikni teranroq anglashga, sog'lom milliy g'ururni o'stirishga yordam beradi. Milliy manfaatlarni har tomonlama chuqur anglash va sog'lom milliy g'urur — umumjahon taraqqiyoti oqimida o'z o'rnini aniq tasavvur etish va bu o'rnini yuksaltirish uchun harakat qilish demakdir.

Ayni paytda ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat hayotining xar bir sohasida hal qiluvchi omil insondir. Yangi O'zbekistonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qila olmaydigan, qotib qolgan andozalar buyicha fikrlaydigan, mutelik va qo'rquv, milliy nomukammallik tuyg'usidan xalos bo'lmagan, vatanparvarlikdan yiroq insonlar bilan ярата олмаймиз. Янги O'zbekistonni qurish zarurati erkin fikrli, tashabbuskor, yangiliklarga intiluvchan, bunyodkor va vatanparvar fuqaroni tarbiyalashni taqozo etadi.

Inson farzandi jamiyatda kamol topishi jarayonida muayyan bilimlar oladi. Urf-odatlarini, axloqiy, badiiy, diniy va boshqa qadriyatlarni o'zlashtiradi. O'zi ham ular asosida bunyodkorlik bilan shug'ullanadi. Inson o'zlashtirgan qadriyatlar, bilim va ko'nikmalar uning miyasida qolib ketmaydi. Har bir avlod o'zlashtirgan bilimlari va olgan tarbiyasi asosida mavjud qadriyatlarni zamonaviylashtiradi. Yangi adabiy va ilmiy asarlar yozadi, san'at durdonalarini yaratadi, urf-odatlarini takomillashtiradi. Inson ongi, bilimi badiiy yoki ilmiy asarda, yangi bayram va marosimda yuzaga chiqadi, ko'rinadi, predmetga, hodisaga aylanadi. Predmet, hodisa sifatida avloddan avlodga uzatiladi. Bilimning, ongning ijodiy asarga, amaliy mahoratga aylanishi uning predmetlashuvi deyiladi.

Madaniy meros ajdodlarimiz ma'naviy dunyosining predmetlashib bizgacha yetib kelgan tizimidir. Madaniy merosning turlari va shakllari rang-barang. Uni falsafiy, badiiy-estetik, ilmiy, ijtimoiy, diniy merosga bo'lish mumkin. Badiiy-estetik merosga xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy bezak san'ati, adabiyot, tasviriy san'at, arxitektura (me'morchilik), musiqa, raqs, teatr, kino, estrada, dizayn va h.k. kiradi. Ilmiy meros tabiatshunoslik va gumanitar fanlar yutuqlaridan iborat. Ilmiy-texnologik taraqqiyot jarayonida, ayniqsa axborot — kommunikatsiya texnologiyalari ta'sirida ma'naviyat predmetlashuvi shaklan va mazmunan boyib, inson imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ijtimoiy merosga turmush tarzi, axloq-odob, urf-odatlar, birga yashash va mehnat qilish bilan, dam olish va bo'sh vaqtni tashkil qilish bilan bog'liq meyorlar va imkoniyatlar kiradi.

Diniy meros diniy kitoblar, ilohiyat ilmi, ibodat va diniy marosimlar, diniy tashkilotlar faoliyatidan iborat. Diniy merosda turli ijobiy bilimlar bilan diniy asotirlarga, mo'jizalarga, karomatlariga ko'r-ko'rona ishonch, ratsional va irratsional qarashlar aralashib ketgan.

Ma'naviy asoslar tizimida uchta katta guruhni hamda ikkita maxsus omilni ajratish mumkin: birinchi guruh — ijtimoiy ongga oid hodisalar: tuyg'ular, tushunchalar, g'oyalar, baholar, meyorlar, ideallar, ya'ni «sof ma'naviyat». Ikkinchi guruh — «predmetlashgan» ma'naviy qadriyatlar, madaniy meros. Uchinchi guruh — ma'naviy funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy muassasalar.

Ikki maxsus omil bu — optimistik ma'naviy muhit va ma'naviy ehtiyojlarning yuksalishidir.

Xar bir guruh, o'z navbatida, tarkibiy qismlarga va nisbatan mustaqil shakllarga bo'linadi. Birinchi guruh doirasida falsafiy ong, axloq, estetik ong, huquqiy ong, diniy ong, ilmiy dunyokarash va uning alohida tarkibiy qismi sifatida milliy g'oya ajralib turadi. Ongning ikki darajasi – ijtimoiy psixologiya va mafkura ham bir-biridan farqlanadi.

Ikkinchi guruxda esa siyosiy madaniyat, axloqiy madaniyat, huquqiy madaniyat va hokazo hamda san'atning muayyan turlari: badiiy adabiyot, teatr, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik, dizayn, musiqa, kinochilik va shu kabilar alohida ko'rsatilishi mumkin.

Uchinchi guruxga xalq ta'limi tizimi – maktabgacha tarbiya, umumta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot tizimi – ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy tekshirish institutlari, Fanlar akademiyasi va shu kabilar, ijodiy uyushmalar - yozuvchilar uyushmasi, rassomlar, kompozitorlar, kinochilar, teatr arboblari va boshqa ijodiy soha xodimlarining turli uyushmalari – matbaa va ommaviy axborot tizimi – gazeta va jurnallar, radio va televideniye, kitob noshirligi, internet, ijtimoiy tarmoqlar va shu kabilar; mafkuraviy tarbiyaiy tashkilotlar, maskanlar (jumladan diniy tashkilotlar), urf-odatlar, an'analar hamda oilaning tarbiya va ma'naviyatga tegishli jihatlari kiradi. Ulardan har qaysining inson va jamiyat haqidagi, mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishdagi ahamiyati, salohiyati bir xil emas, ammo juda muhim. Har qaysining imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun ularni alohida atroflicha va chuqur tadqiq etish lozim.

Ma'naviyatga munosabat ko'p jihatdan milliy taraqqiyot muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Ayniqsa, madaniy merosga to'g'ri munosabat nihoyatda muhimdir. Chunki milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish masalasi murakkabligi tufayli ayrim kishilar uni kelajakka emas, o'tmishga qaratmokchi bo'layotganini sezmayaptilar. Islom xalifaligini tiklash, yoki O'zbekistonni islom respublikasiga aylantirish, shariat meyorlarini joriy qilish to'g'risidagi fikrlarda ana shu narsa ko'zga chalinmokda.

Madaniy meros xalqning bebaho boyligidir. Ammo madaniy merosimizda umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarga aylangan bebaho durdonalar bilan bir qatorda tarixan eskirgan, yuksak taraqqiy etgan, ma'rifatli buyuk kelajakni yaratish zaruratiga mos kelmaydigan hodisalar, meyorlar va tamoyillar oz emas. Masalan, paranji yopinish, yevropacha kiyim-kechakdan voz kechish, yoki teatr, rang-tasvir va haykaltaroshlik kabi san'at turlarini inkor qilish, maktablarni o'kuvchilar jinsiga qarab bo'lish, ko'pxotinlikni yoqlash kabilar shular jumlasidandir. Ular bugungi kunda biz uchun hakikiy milliy qadriyat emas, balki qadrini yuqotgan anaxronizmlardir.

Ayni paytda biz madaniy merosga o'ta ehtiyotkorlik va e'tibor bilan, o'ta g'amxo'rlik bilan yondashmog'imiz, uni avaylab asramog'imiz, undan milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishda samarali foydalanmog'imiz lozim. Chunki madaniy merosda xalqimizning tarixi, hayotiy tajribasi, ming yillar davomida qo'lga kiritgan yutuqlari yig'ilgan. Madaniy meros avlodlar o'rtasida vorisiylikni ta'minlaydi. Madaniy meros tufayli avlodlar qadim o'tmishdagi ajdodlari bilan muloqot kiladi. Inson o'z mikoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun madaniy meros qatorida zamonaviy ilm-fan, texnika, adabiyot va san'at, chet tillari, AT va muloqot shakllarini yaxshi o'zlashtirishi zarur. Zamonaviy taraqqiyot kishi oldiga juda katta hajmdagi murakkab bilimlarni, ko'nikmalarni egallashni talab qiladi. Ammo hech bir kishi faqat ilm olish, yangi yutuqlarni o'zlashtirish, yoki ishlab chiqarish, biznes bilan kechayu kunduz band bo'lolmaydi. U jismoniy va ruhiy tiklanishi uchun dam olishi, o'z vaqtini

mazmunli tashkil etishi lozim. Zamonaviy sivilizatsiya bu borada unga katta imkoniyatlar qatorida katta xavf-xatar ham yaratmoqda. Insonning kompyuter, smartfon, planshetlar, aniqrog'i elektron o'yinlar, virtual dunyo bandisiga aylanish xavfi juda baland. Ommaviy madaniyatning aksariyat mahsulotlari, ayniqsa uning kitch qismiga mansublari yana boshqa xavf tug'dirmoqda. Ayonki, ularga qarshi tura olish uchun kishida mafkuraviy immunitet shakllangan bo'lishi lozim. Mafkuraviy immunitet, mazmuniga ko'ra, siyosiy-mafkuraviy, axloqiy, badiiy-estetik, diniy-e'tiqodiy, umuman madaniy immunitet kabi konkret shakllarda namoyon bo'ladi.

«Biz endi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy talablar asosida ishlaydigan kishilarni tarbiyalashimiz, voyaga yetkazishimiz zarur. Yaqin o'tmishimizga tankidiy ko'z bilan qarab, ijobiy ishlarni saralab olib, bugungi kunga mos kelmaydigan va yo'limizga to'siq bo'ladigan ishlardan va siyosatdan voz kechishimiz lozim»⁹. Islom Karimovning bu xulosasi mustaqil O'zbekiston ma'naviy rivojlanishining asosiy sharti va maqsadi — yangi shaxs ekanini, o'tmish madaniy merosiga va sovet ma'naviy-mafkuraviy siyosatiga munosabat qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatib turibdi.

Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi va tuzilmasi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ma'naviyatga quyidagicha dastlabki ta'rif berish mumkin: *Ma'naviyat - bu ijtimoiy ongning e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit barqaror tuyg'ulari, ehtirolari, tushunchalari, g'oyalari, meyorlari, ijtimoiy mo'ljallari, ideallari, ularning yaratilish jarayoni va madaniy merosda, urf-odatlarida aks etishi, millatga muayyan maqsadlarga erishish uchun yordam beradigan iroda hamda jamiyatda qaror topgan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir.*

Shunday qilib, ma'naviyat to'rt o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy qismdan iborat:

a) ongning, dunyoqarashning olamga faol munosabat ko'rinishidagi funksional jihati (ijtimoiy ong shakllariga muvofiq - falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, huquqiy tuyg'ular, tushunchalar, baholar, qarashlar, nazariyalar);

b) ma'naviy madaniyat yutuqlari (xalq og'zaki ijodi asarlari: qo'shiqlar, dostonlar, ertaqlar, maqollar, matallar, xalq amaliy san'ati asarlari, adabiyot, arxitektura, dizayn, tasviriy san'at, teatr, kino, musiqa, estrada asarlari va sh.k.; fan, ommaviy axborot va tashviqot, ta'lim tarbiya tizimi, istirohat va sport, urf-odatlar, diniy amaliyot va h.k.);

v) iroda (erkin tanlash, qat'iyat, fidoyilik, or-nomus, milliy g'urur, ijtimoiy qo'rquvni yengishi va h.k.);

g) jamiyatda qaror topgan ma'naviy muhit.

Ma'naviyat shaxsning tabiat va jamiyat bilan mushtaraklashib o'zaro munosabatini uyg'unlashtirishni bildiradi. YA'ni ma'naviyat tushunchasi:

1) shaxs va jamiyat tomonidan ijtimoiy borliqni o'z faoliyati asosi va obyekt sifatida anglab olinishini (shu boisdan ham ma'naviyat dunyoqarashning funksional jihati bo'ladi);

⁹ Islom **Каримов**. Биздан озод ва обод Ватан қолсин, Т., «Ўзбекистон», 1996 й., 253 б.

2) shaxsning, millatning muayyan xulq-atvori va yaratuvchilik faoliyati, borliqqa munosabati, borliqni qayta yaratish yoki o'zgartirish bo'yicha ijodiy rejalarini;

3) bu rejalarni amalga oshirish uchun, birinchidan, shaxs va jamiyatdagi qat'iyat, erk va irodani hamda, ikkinchidan, jamiyatda mavjud bo'lgan mafkuraviy shart-sharoitni bildiradi.

Demak, ma'naviyat orqali inson tabiat va jamiyat bilan bir butunlikni tashkil qiladi, uyg'unlashadi, olamning haqiqiy javhariga, gultojiga aylanadi. Ma'naviyatsiz – inson tabiatning shunchaki bir jonzodi bo'lib qolaverar, o'zligini, olamdagi o'z o'rnini anglamas, "ikkinchi tabiat"ni yaratolmasdi. Insonning tabiatga va jamiyatga ijobiy ta'siri ma'naviyatga, salbiy ta'siri esa undagi kamchiliklarga bog'liq

Ma'naviyatdagi ratsionallik (oqilonalik) va irratsionallik (nooqilonalik). Ma'naviyat nafaqat ratsional, shuningdek ma'lum darajada irratsional xarakterga ega. Ma'naviyatning ongga, aqlga, mantiqqa oid tomoni insonning ratsional dunyosini tashkil etsa, irodaga oid tomoni qisman irratsional dunyosini tashkil etadi. Ma'naviyatning hissiyotga oid jihatlari esa ham ratsional, ham irratsional xarakter kasb etadi.

Hissiyot ong va irodani birlashtiruvchi qatlam, u bir tomoni bilan ongga singib ketadi. Ikkinchi tomoni bilan irodaga tutashadi (estetik zavq ongli ravishda kechishi mumkin, masalan, asarning badiiy mukammalligini yaxshi tushungan holda yoki shahmat kombinatsiyasining go'zalligini idrok etgan holda ulardan zavqlanish mumkin. Shu bilan birga estetik zavq go'zallikning bevosita ta'sirida, go'zallikning tashqi «sehri»ga maftunlikdan hosil bo'ladi. Bunda ratsional taxlil ikkinchi o'ringa chekinadi). Uyat, or-nomus va vijdon tuyg'usi, g'urur, qo'rquv bir tomondan - ratsional, ikkinchi tomondan – irratsional mazmunga ega.

Alpomishning bandilikdan qutulishda Kayqubod yordamidan voz kechishi oriyatning, irodaning ko'rinishidir. Amaliy foydalilik nuqtai nazaridan (tezroq bandilikdan qutulib, dushmanlardan o'ch olish, adolatni tiklash, Barchin visoliga yetish, o'z yurtiga tezroq qaytish, u yo'qligida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli xavf-xatarlarning oldini olish va hokazo), ya'ni oqilona ish tutish nuqtai nazaridan Alpomishning qarori unchalik to'g'ri emas. Ammo Alpomish obrazi ifodalaydigan ma'naviy tushunchalar, axloqiy ideallar o'zgalarning yordamidan asosiy maqsadiga erishish uchun foydalanishga yo'l qo'ymaydi. U boshqa sohalarda o'zgalardan yordam olishi mumkin (Qayqubodning oziq-ovqatlarini rad qilmaydi), lekin dushmanlar bilan prinsipial kurashda alp sifatida o'zligini to'la-to'kis namoyon etishi, o'z kuchi bilan g'alaba qozonishi lozim. Bunday ish tutish xalqning ma'naviy idealidir, lekin u ratsionalizm doirasiga sig'maydi.

G'urur, or-nomus va fidoyilikka ko'plab tarixiy misollarni keltirish mumkin. Ayniqsa xalq ozodligi uchun kurashgan buyuk shaxslar, qahramonlar, siyosatchilar, qo'zg'olonchi va inqilobchilar hayotida ichki tuyg'u, sezgi va fahm-farosatga tayanib, tavakkalchilik bilan qo'rqmasdan amalga oshirilgan ishlar son-sanoqsiz. Ularni oxirigacha ratsionalizm nuqtai nazaridan tushuntirib berish qiyin. Lekin bundan iroda faqat irratsionalistik bo'lar ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Badiiy ijod jarayonida esa irratsionalizm va ratsionalizmni ko'p hollarda bir-biridan ajratish qiyin.

Ma'naviyatdagi irratsional jihatlar, diniy, diniy-mistik qarashlarda, turli irimlarda, ayrim hollarda ijodkor shaxslarning «darvishona», «mashrabona» xatti-harakatlarida, ba'zan

bama'ni kishilarning «aql bovar qilmaydigan» bema'ni qiliqlarida ko'rinib qoladi. Irratsionalizm ma'naviy hayotda, insonning xulq-atvorida ancha ta'sirli rol o'ynaydi.

Yuqorida ma'naviyatda subyektiv va «moddiylashgan» obyektiv tomonlar mavjudligi qayd etilgan edi. Ma'naviyatning subyektiv tomoni o'z navbatida ikki ratsional va irratsional qismlarga bo'linadi. Iroda ko'p hollarda irratsional xarakterga ega.

Ma'naviyat subyektiv hodisa, tuyg'ular, aql va iroda sifatida borliqning shunchaki aksi emas, balki dunyoqarashning (kengroq olsak, ongning) borliqqa nisbatan amaliy munosabat shaqlidagi muayyan faoliyatga aylanishidir. Ma'naviyat obyektivlashgan qadriyatlar tizimi (ma'naviy madaniyat) sifatida esa millatning o'z-o'zini anglash, o'z ruhini, irodasini va ongini, ijtimoiy amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlarining va vositalarining erishilgan darajasidir, jamiyatning madaniy saviyasidir.

Qisqa qilib aytganda, ma'naviyatda *millatning aqliy va ruhiy salohiyati hamda ijodkorlik qobiliyati yuzaga chiqadi*. Bu salohiyat va qobiliyat asrlar davomida toblanib, xalqning tarixiy bunyodkorlik, diniy va dunyoviy tajribasini o'zida mujassamlagan. Shu bois ma'naviyatga barqarorlik xos. Ma'naviyat jamiyat bilan birga yuksaladi, rivojlanadi, tanazzulga va inqirozga uchraydi, qayta o'yg'onadi, gurkirab o'sadi. Ma'naviyat uchun izchil tarixiylik va zamonaviylik, an'anaviylik va yangilanish xos. Ma'naviyatning rivojlanishi tarixiy zaruratni jamiyat tomonidan to'g'ri tushunishga va unga muvofiq jamiyatda amalga oshirilayotgan ishlarga bog'liq

II -МАШҒУЛОТ

Ma'naviy muhit ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida. Insonga jamiyat tomonidan qo'yiladigan mafkuraviy talablar axloqiy, huquqiy, estetik, diniy meyorlar, ma'naviy muhitni tashkil qiladi. Ma'naviyatning mohiyatini «ma'naviy muhit» tushunchasiz teran anglab olish mushkul. Sog'lom ma'naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo'nalishda tarbiyalaydi, ijobiy xislatlarini yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta'sirlardan himoya qilishga urinadi. Chunki ma'naviy muhit har qanday yutuqlar va kashfiyotlarning (chetdan qabul qilinganlarining ham) taqdirini belgilaydi: yo rivojlantiradi, yo unutilishga mahkum etadi, yoki deformatsiya qilib, o'ziga moslashtiradi. Aksincha, nosog'lom ma'naviy muhit odamlar bir birdan begonalashtiradi, o'zaro ishonchni, mehr-oqibatni susaytiradi, ijtimoiy qo'rquvni kuchaytiradi.

Ma'naviy muhit jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolotda erishgan o'rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshish tartibidir. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir – tekislik va birxillikka intiladi. Uning talablari va ta'siri hammaga birdek, o'rtacha bo'ladi. Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o'z ustida ishlaydi, takomillashadi, o'sadi va h.k. Kimlar uchundir umumiy ma'naviy muhitning talablari kamlik qiladi. Bunday shaxslar yoki ijodiy guruhlarning imkoniyatlari to'liq yuzaga chiqmasdan qolish xavfi tug'iladi. Shu boisdan umumiy ma'naviy muhit doirasida nisbatan alohidalashgan tabaqaviy, kasbiy (professional) yoki guruhviy muhitlar – katta-kichik submuhitlar mavjud. Submuhitlar o'zaro bir oz farq qiladi. Farq ularning muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa va sinflarning psixologiyasi va siyosiy mavqei, amaliy intilishlari, intellektual salohiyati ta'sirida vujudga keladi. Ammo bu farq ortiqcha baholanmasligi va ma'naviyatga mutlaqlashtirilgan sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish uchun asos bo'lmasligi kerak. Submuhit umumiy muhitdan ajralib keta olmaydi va pirovardida uning asosiy va fundamental

talablariga bo'ysunadi. Muhit ma'naviyatning eng umumlashgan uzluksizlik shakli, madaniyat esa uzlukli (diskret) shaklidir.

Ma'naviy muhit siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga, boshqaruv rejimiga bog'liq. Agar siyosiy tuzum, boshqaruv usullari zo'ravonlikka asoslansa, jamiyatda odamlar, tashkilotlar faoliyati ustidan yoppasiga mafkuraviy nazorat o'rnatiladi. Bir mafkuraning hukmronligi qaror topadi. Unga xilof keladigan har qanday fikr va qarashlar tan olinmaydi, ta'qib qilinadi va taqiqlanadi. Taqiqni buzganlar jazolanadi, qatag'on qilinadi. Bunday sharoitda odamlar bir biridan cho'chib, ishonmasdan yashaydi. Ko'ngildagini ochiq aytolmaydi. Mavjud tuzum kamchiliklarini tanqid qilolmaydi. Ba'zi hollarda bir birlari ustidan tegishli idoralarga chaqimchilik qilib turadi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik yo'qligi shaxs kamoloti va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Va, aksincha, jamiyatda erkinlik va demokratik boshqaruv darajasi qanchalik baland bo'lsa, ma'naviy muhit shunchalik yaxshilanadi, uning inson kamoloti va jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri shunchalik kuchayadi.

O'zbekiston kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari rivojlanmoqda. Bu jarayon ma'naviy muhit yanada yaxshilanishini taqozo etadi va bunga zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Nazorat savollari

1. Ma'naviyat tushunchasiga turli yondashuvlar mavjudligining sabablarini izohlang.
2. Ma'naviyat ezoterik yondashuv deganda nimani tushunasiz.
3. Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati deganda nimalar nazarda tutuladi?
4. Ma'naviyat tuzilmasida iroda va ma'naviy muhitning o'рни va ahamiyati qanday? Ong va ma'naviyat.
5. Irodaning shaxs va millat yuksalishida tutgan o'rinini qanday baholaysiz?.

3-MAVZU: MA'NAVIYATNING ILMIY METODOLOGIYASI VUJUDGA KELISHI (GENEZISI) VA DASTLABKI RIVOJLANISH DAVRI

Reja:

1. Insonning ijtimoiylashuvi, biologik mavjudotdan biosotsial mavjudotga aylanishi - ma'naviyat vujudga kelishining asosiy sababi.
2. Ibtidoiy sinkretizm. Ma'naviyatning vujudga kelishi to'g'risidagi turli nazariyalar va qarashlar. Ma'naviyat genezisida mehnatning o'рни. Mehnatning tarixiy taqsimotlari va ma'naviyat rivojlanishi.
3. Ma'naviyatning dastlabki rivojlanish bosqichlari ibtidoiy odamning ijtimoiylashuvi, olamni bilish, o'zligini anglash, ishlab chiqarishda erishgan yutuqlari bilan uzviy bog'liqligi.
4. Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi, ijtimoiy-sinfy, tabaqaviy differensiyalashuvning ma'naviyatga, qadriyatlar va ijtimoiy mo'ljallar tizimiga ta'siri. Ibtidoiy sinkretizmning parchalanishi.

Tayanch tushunchalar: Insonning ijtimoiylashuvi, ibtidoiy sinkretizm, mehnat taqsimoti, diniy va siyosiy mafkura, qadriyat, o'zligini anglash, ijtimoiy mo'ljalalar.

Insonning ijtimoiylashuvi ma'naviyat vujudga kelishining asosiy sababi. Inson doimo izlanishda. Eng avvalo u o'zining kimligini bilgisi, insoniy tabiati bilan uyg'unlikda yashagisi keladi. Insonning o'zini anglashi ibtidosida va asosida ma'naviyat turadi. Ma'naviyatning o'zi esa insonning poda bo'lib yashashdan ongli urug'-jamo'a bo'lib yashashga o'tishi jarayonida, ya'ni ijtimoiylashuvi jarayonida shakllana boshlagan. Neandertal odam o'zini tabiatdan, hayvonot olamidan ajratib anglashi va ilk urug' jamoada munosabatlarini tartibga solishi jarayonida ma'naviyatning ilk kurtaklarini vujudga keltirdi. Bu haqda biz ularning marosimiy unsurlari yaqqol ko'rinib turgan dafn qoldiqlari orqali bilamiz. Antropologiya fanining so'nggi tadqiqotlari hozirgi zamon odami (kramonyon odami) neandertallarning bevosita avlodi emasligini, neandertal genlari zamonaviy insonda faqat besh foizini tashkil etishini ko'rsatmoqda. Neandertal odam homo sapiens (aqlli odam) deyiladi. Kramonyon odami (zamonaviy insonlarning ilk ajdodlari) esa homo sapiens sapiens (aqlli-aqlli odam, yoki ikki karra aqlli odam) deyiladi. Kramonyon neandertallarni va saqlanib qolgan boshqa qadimgi odam xillari asta-sekin siqib chiqargan, qisman assimilyatsiyalashtirgan. Kramonyon odamida ma'naviyat unsurlari neandertallarga* nisbatan yana-da ko'proq bo'lgan, deb faraz qilish mumkin.

Taxmin qilish mumkinki, kramonyon odam yaratgan madaniyat bevosita neandertal odam madaniyati emas, lekin undan ancha-muncha unsurlarni olgan. Chunki neandertal odam yevropaning sovuq iqlimida, og'ir sharoitda yashagan va turmush tarzida, ko'nikmalarida, madaniyatida mazkur sharoitda foydali bo'lgan unsurlarni yaratgan.

Rus qadimshunosi P. I. Boriskovskiy «Insoniyatning eng qadimgi o'tmishi»¹⁰ kitobida marosimlar 400 ming yil ilgari paydo bo'lgan deydi. G'arb olimlaridan J. Klark marosimlar yoshini neandertal va «rodeziyalik» odam bilan bog'laydi va 200— 150 ming yilga tenglashtiradi¹¹.

Ilk marosimchilik 400 ming yoki 200 ming yil ilgari paydo bo'lganmi, degan masala ustida bahs yuritish shart emas. Biz uchun eng muhimi - inson o'z biologik, hayvoniy tabiatidan asl insoniy tabiatiga o'tish jarayonida ma'naviylik unsurlarini o'zlashtira boshlagani va oqibatda yangi tosh asrida nisbatan muvozanatga keltirilgan murakkab tizimga ega ma'naviyatni yaratganidir.

Dadil aytish mumkinki, neandertal odamlarda diniy-ma'naviy hayot unsurlari faqat dafn marosimlari bilangina cheklanmagan. Ular hattoki falakiyot hodisalariga, yulduzlar turkumlariga, alohida yulduzlarga nom berganlar. Isbot uchun shunday misol keltirish o'rinlidir: o'zbeklar Yetti og'ayni, Yetti qaroqchi deb nomlaydigan yulduzlar turkumi bor. Yevropaning ko'p xalqlari ularni Katta ona ayiq, Kichik ayiq deb atashadi. Jahonning boshqa ayrim xalqlari ham ularga nisbatan «ayiq» nomini qo'llaydi. Qadimgi yunonlarning falakiyot asotirlarida bu bir necha variantda shunday tushuntiriladi. Ona ayiq – Zevsning mahbubasi

* Кулайлик учун неандерталлардан ташкари осий ва африкада сақланиб қолган қадимги одамнинг барча хилларини шартли равишда умумийлаштириш неандерталлар деб аташ маъқул.

¹⁰ П. И. Борисковский. Древнейшее прошлое человечества. 2 изд. М. 1980 г

¹¹ Дж Кларк. Доисторическая Африка. М., 1977 г.

Kallisto, Kichik ayiq - uning o'g'li Arkos. Zevs xotini Geraning rashkidan qo'rqib, Kallistoni ayiqqa aylantirib qo'yadi (boshqa bir variantda uni ayiqqa Gera aylantiradi, yana birida esa Artemida). Arkos ov qilib yurganda ayiq qiyofasidagi onasiga duch keladi va tanimasdan o'q-yoyidan otmoqchi bo'ladi. Zevs o'g'li Arkosning beixtiyor onasining qotiliga aylanib qolmasligi uchun uni ham ayiqqa aylantiradi va har ikkisini osmonga dumidan ushlab otib yuboradi (osmon ayiqlarining dumi uzunligi shundan).

Amerika hindularining madaniyati va tilini, etnografiyasini o'rgangan olimlar ba'zi bir hindu qabilalari tilida bu yulduz turkumlarini «ayiq» deb atalishini aniqlaganlar, ammo e'tibor berishmagan. Yevropaliklarning ta'siri bo'lsa kerak, deb qo'ya qolishgan. Lekin kompyuterlar ancha rivojlangan XX asrning 70 yillarida tilning kelib chiqishi va atamalar shakllanishi bilan qiziqib yurgan olimlar bu o'xshashlikka jiddiy yondashib, astronomlarga murojaat qilishgan: mazkur yulduz turkumlarining kompyuterda bir necha o'nming yillar burungi osmondagi joylashuvi, koordinatlari aniklansa, ayiqni eslatadigan holat kelib chiqmaydimi?

Aytish lozimki, osmondagi barcha jismlar, jumladan, yulduzlar ham doimiy harakatda. Faqat yulduzlar bizdan juda uzoq joylashgani uchun ularning bir-ikki asr, hatto ming yillar davomidagi holati o'zgarmasdek tuyuladi. Aslida aksariyat yulduzlarning harakat tezligi va koordinat chiziklari fanga yaxshi ma'lum. Astronomlar Katta ona ayiq va Kichik ayiq yulduzlarining tezligi, harakat chizig'ini kompyuterlarga solib ortga aylantirsalar, haqiqatan bundan 200 ming yildan to 60 ming yilgacha ilgari ular osmonda ayiqni eslatadigan holatda ekan. Shu bois turli dinlarga, turli madaniyatlarga oid, bir-biridan nihoyatda yiroq va o'zaro aloqa qilmagan xalqlarda, agar arxaik atama saqlab qolingan bo'lsa, bu turkumlar hozirgacha «ayiq» deb ataladi. Vaholanki, ularning hozirgi ko'rinishi ayiqni mutlaqo eslatmaydi. Demak, bu turkumlarga nomni shimoliy yarimsharda yashagan qadimgi odam, balki neandertal odam bergan. Neandertal odamda falakiyot asotirlari yoki shunga o'xshash tasavvurlar bo'lgan. Falakiyot to'g'risida qarashlar vujudga kelgan joyda, albatta, undan oldin kundalik maishiy turmush, jonsiz tabiat va uni bevosita o'rab turgan hayvonot va o'simliklar dunyosiga nisbatan qarashlarini ifodalovchi rivoyatlar, afsonalar, ertaklar, asotirlar shakllanadi. Bular hammasi ma'naviyat unsurlaridir.

Odamlar yovvoyilikdan ongli turmush kechirishga o'tishi, podani urug'-jamoaga aylanib, jamiyat paydo bo'lishi jarayonida o'z munosabatlarini asta-sekin tartibga sola boshlaganlar. Dastlab onalar va bolalar, otalar va qizlar, akalar va singillar o'rtasidagi jinsiy aloqalar taqiqlangan, so'ng boshqa taqiqlar va majburiyatlar paydo bo'lib, yaxlit sinkretik ong doirasidagi axloqiy, diniy qarashlarda va urf-odatlarda tizimlashgan. Tabiatga munosabat ham tizimlashib borgan. Natijada ilk ibtidoiy xulq-atvor meyorlari, marosimlar, ilk diniy tasavvurlar vujudga kelgan. Ular avloddan-avlodga o'tib, boyib, takomillashib, murakkablashib borgan.

«Hayot nima, tirik jon qayerda joylashgan?», «Kishi o'lganidan keyin, joni qayoqqa ketadi?» kabi savollar inson ongi o'sgan sayin paydo bo'lavergan. Qadimgi odam, balki kramonyon odam, jonning manbai – ruh, qalb degan xulosaga kelgan: inson yuragi bilan emas, balki qalbi bilan hayvondan farq qiladi. Shundan buyon inson ruhning sir-asrori, voqeligi to'g'risida mulohaza yuritadi, o'y o'ylaydi. Bular uning aqliy, ijodiy faoliyati natijalarida aks etadi: asotirlarda, dinda, falsafada, odob-axloqida, san'atda va h.k.

Ibtidoiy sinkretizm. Lekin ibtidoiy odamning tabiat va inson haqidagi bilimlari, tasavvurlari, qarashlari to urug'-qabila munosabatlari parchalanib, bronza va temir davrida ilk shaharlar va davlat paydo bo'lgunga qadar, ancha qashshoq edi. Uning ongi va ma'naviy faoliyati chegaralangan, alohida sohalarga, yo'nalishlarga, mustaqil shakllarga bo'linmagan edi. Bunday holat fanda ibtidoiy sinkretizm (yaxlitlik, mushtaraklik) deyiladi. *Ibtidoiy sinkretizm – bu odamlar ongida axloqning, ilm-fanning, san'atning, dinning va ma'naviy faoliyat boshqa shakllarining kurtak otib rivojlana boshlagan, ammo hali bir-biridan ajralmagan holatidir.* Ibtidoiy sinkretizm unsurlari bizgacha yetib kelgan qadimgi ertaklar, asotirlar, afsonalar. rivoyatlar qoldiqlarida ancha o'zgargan ko'rinishda saqlanib qolgan.

Masalan, o'zbeklarda shunday ertak bor: ilon Sulaymon payg'ambarga bir xizmat ko'rsatadi. Payg'ambar evaziga ilonning har qanday iltimosini bajarishga va'da beradi (aslida ertakka aylangan arxaik asotirda payg'ambar emas, balki xudolardan biri bo'lgan). Shunda ilon o'ziga dunyodagi eng go'shti shirin maxluqni xo'rak sifatida belgilab qo'yishni so'raydi. Payg'ambar, va'daga binoan, eng go'shti shirin maxluqni aniqlashda ilonga yordam berishni pashshaga topshiradi. Pashsha barcha jonivorlardan bir tomchidan kon keltirib ilonning tiliga tomiza boshlaydi. Navbatdagi jonzotdan qon keltirayotgan pashshaga yo'lda qaldirg'och uchraydi va undan kimning qoni eng shirinligini aniqladingmi, deb so'raydi. Pashsha javoban, odamzodning qonidan shirinrog'i yo'q ekanini, hozir odam qoni tomchisini ilonga olib ketayotganini aytadi. Shunda qaldirg'och pashshani yo'ldan qaytarishga harakat qiladi. Ammo pashsha qaldirg'ochga quloq solmasdan, ilon tomon uchib ketadi. Qaldirg'och pashshani quvib, u ilon tiliga endi qonni tomizayotgan paytda yetib oladi va ilonning tilini cho'qib, uning uchini ikkiga ayirib yuboradi. Ammo o'girilib qochmoqchi bo'lgan qaldirg'och dumining uchini ilon tishlab oladi. Natijada ilonning tili, qaldirg'ochning dumi ayri bo'lib qoladi. Shundan buyon ilon qaldirg'ochni ta'qib qiladi, qaldirg'och esa odamlarga yaqin, hatto ular yashaydigan uylarning ichkari shiftiga uya quradi. Inson qaldirg'ochni doimo himoya qiladi.

Ertakning (asotirning) qisqacha mazmuni shunday. Lekin ma'naviy mazmuni juda teran. Unda, birinchidan, ibtidoiy odamning ilk zoologik kuzatishlari, bilimlari mustahkamlangan. Haqiqatan, qushlar orasida qaldirg'ochdan boshqa birortasining dumi ayri emas (chumchuk, musicha, kabutar, qumri, hudhud, to'rg'ay, to'ti, mayna va boshqa qushlarni eslang). Xuddi shunday hayvonot olamida tili ayri maxluklar nihoyatda kam (ular asosan sudralib yuruvchilardir). Ibtidoiy odam bunday o'xshashlikni bir biriga bog'lagan va asotirda birlashtirib va o'zicha tushuntirishga harakat qilgan.

Ikkinchidan, keltirilgan parchada inson tabiatdagi eng ulug', eng e'zozli jonzot, u hech bir maxluqqa yem bo'lishi mumkin emas, degan g'oya ilgari surilgan. Bu g'oya ibtidoiy odamning tabiatdagi o'z o'rnini anglashi, o'zini tabiatning egasi deb bilishini aks ettiradi. Tabiatdagi har bir jonivor, qaldirg'och kabi, insonga xizmat qilishi lozimligini ifodalaydi.

Uchinchidan, asotirda haqiqatning nisbiy ekanligi, agar u insonga zarar yetkazsa, aksilinsoniy bo'lsa, undan voz kechish kerakligi ifodalangan.

To'rtinchidan, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, yaxshilikni unutmaslik targ'ib etilgan (insonning qaldirg'ochga munosabati, uyi shiftidan joy berishi).

Beshinchidan, ibtidoiy odamning ma'lum diniy va dunyoviy tasavvurlari, e'tiqodi asotirda aks etgan.

Oltinchidan, bu ertak (asotir)ning o'zi folklorning, xalq og'zaki badiiy ijodiyotining go'zal bir namunasidir. Unda ibtidoiy odamning badiiy didi, qarashlari aksini topgan.

Bu asotir yaratilayotgan paytda ahloqiy, diniy, falsafiy ta'limotlar tizimi, tabiatshunoslik fani, ixtisoslashgan san'at turlari bo'lmagan. Shu bois bir asotir diniy, falsafiy, axloqiy, tabiatshunoslik bilimlarining unsurlarini o'zida mujassam etgan. Ijtimoiy amaliyot kengayib, odamlarning tajribasi va mehnat ko'nikmalari oshgan sayin, ularning ahloqiy, diniy tasavvurlari yangi tamoyillar, meyorlar bilan, tabiat va inson haqida to'plangan bilimlar bilan boyib boravergan. Lekin ular ibtidoiy jamiyatda asrlar davomida yaxlit, sinkretik tarzda ifodalangan.

Ma'naviyat vujudga kelishiga oid turlicha qarashlar. Ma'naviyat vujudga kelishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud. Ular asosan inson ongi, tafakkuri, e'tiqodi kelib chiqishi bilan bog'liq nazariyalaridir. Biz ularni ma'naviyatga nisbatan qo'llaymiz. Ulardan keng tarqalganlaridan biri mehnat nazariyasidir. Unga muvofiq, odamlar ishlab chiqarishning yangi turlarini, yangi mehnat qurollarini va usullarini kashf etishi jarayonida bilimlari, ko'nikmalari rivojlangan, mahsulotlar almashuvi va boshqa moddiy, ijtimoiy aloqalari xilma-xillashgan va murakkablashgan. Bular o'z navbatida yangi tartib-qoidalar, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, diniy va shaxslararo meyorlarga ehtiyoj tug'dirgan.

Ma'naviyatning kelib chiqishini diniy qarashlar bevosita Yaratganning irodasi bilan bog'laydi. Olloh go'yoki insonni ongi, axloqi va sh.k. qarashlari, imon-e'tiqodi bilan yaratgan. U ba'zan adashib, gunoh ishlarga qo'l ursa-da, Yaratgan uning qalbiga aslida to'g'ri imon-e'tiqodni solgan yoki to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun payg'ambar jo'natgan. Inson o'z qalbiga, ko'ngliga quloq tutishi lozim. Sufiyona (tasavvufiy) qarashlarda butun moddiy va ma'naviy olam Ollohning tajallisi (imanatsiyasi) o'zgacha shakldagi in'ikosidir. Binobarin, asl ma'naviyat ilohiy mazmunga ega, u Parvardigor irodasiga mos keladi. Ma'naviyat kelib chiqishini boshqa turli-tuman nazariyalar nuqtai nazaridan ham o'rganish mumkin. Masalan, pozitivizm (neopozitivizm) ma'naviyatni odamlarning o'zaro kelishuvi bilan bog'laydi, konvensional hodisa deb hisoblaydi. Pozitivistlar qarashlarini quyidagicha ifodalashi mumkin: biror qoida yoki meyor ko'pchilikka ma'qul kelsagina, odamlar unga rioya etish to'g'risida kelishsagina, shakllanadi, yashab qoladi va rivojlanadi. Barcha meyorlar, baholar, qonunlar, qoidalar asosida odamlarning o'zaro kelishuvi yotadi. Agar odamlar bu qoida va meyorlarga rioya etmasalar, ulardan hech qanday foyda bo'lmaydi.

Boshqa nazariyalar to'g'risida keyingi o'rinlarda aytib o'tamiz.

XIX asrning zabardast olimlaridan biri amerikalik L.Morgan insoniyat tarixini uch davrga bo'ladi: yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya. Aslida bunday uchga bo'lish g'oyasi shotlandiyalik faylasuf Adam Fergysonga borib taqaladi. Fergysson 1768 yilda olg'a surgan tasnifi asosiga xo'jalik yuritish usuli va mulkiy munosabatlar rivojlanish darajasini qo'ygan. Uning qarashlari fransuz ma'rifatparvarlari, ayniqsa Antuan Kondorse tomonidan rivojlantiriladi. 1836 yilda daniyalik olim Kristian Yurgensen arxeologik materiallar asosida insoniyat tarixida uch asrni – tosh asri, bronza asri va temir asrni ajratish g'oyasini o'rta qo'yadi. Albatta, ushbu "asrlar"ning xronologik davomi shartli edi.

Inson yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya davrlarini boshdan kechirganligi to'g'risidagi konsepsiya ko'plab olimlar tomonidan qabul qilinadi va rivojlantiriladi. Ular orasida birinchi galda ingliz etnografi E. B. Taylor nomini eslash joiz. Ammo amerikalik

Lyuis Morgan mazkur konsepsiyani har tomonlama rivojlantirdi va ilmiy dalilladi. Shu sababdan konsepsiya ko'proq uning nomi bilan bog'lanadi.

Morgan o'zining «Qadimgi jamiyat» asarida bu uch davrning har birini alohida bosqichlarga bo'ladi. Har bir davrni moddiy ishlab chiqarish rivojlanishi, alohida yirik ixtirolar tarixi bilan bog'lab tahlil etadi. U ibtidoiy oila rivojlanishi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi.¹² Morgan fikrlariga, ayrim xulosalariga keyinchalik fan ancha aniqliklar kiritdi. Ba'zilarini qayta ko'rib chiqdi. Lekin uning asari konkret dalillarga, materiallarga boyligi uchun bugungi kungacha ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U taklif qilgan davrlash, kamchiliklaridan qat'i nazar, hozir ham qo'llanilishi mumkin, o'z zamonasida esa ancha ijobiy rol o'ynagan. Morgan qarashlari mehnat nazariyasiga oid qarashlardir.

Yovvoyilik davrida inson poda bo'lib yashagan, o'zaro munosabatlarini biologik qoidalar asosida ongsiz, stixiyali qurgan. Varvarlik davrida ypyg', jamoa-ypyg', qabilalarga uyushgan, turmushi ancha ongli kechgan, ma'naviyati shakllanib, sezilarli rivojlangan, o'zaro munosabatlar qat'iy qoidalar, urf-odatlar orqali tartibga solingan. Va, nihoyat, sivilizatsiya davrida aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqan va maxsus ma'naviy faoliyatga aylangan. Ahloq, din hamda davlat bilan birga tug'ilgan xuquq meyorlari (qonunlar) odamlarning o'zaro munosabatlarini, ijtimoiy hayotini qattiq tartibga solgan, nazorat qilgan.

Ta'kidlash joizki, bu uch davr o'rtasida aniq chiziqli o'tkazish mumkin emas. Ayniqsa yovvoyilik qachon tugab, inson qachon varvarlikka o'tgani, xatto inson qachon gapira boshlaganini uzil-kesil falon vaqtda yuz berdi, deyish qiyin. Lekin yovvoyilik bir necha million yil davom etganini, varvarlik 250-300 ming yildan kam bo'lmaganini, sivilizatsiya boshlanganiga bor-yo'g'i 6 ming yildan sal oshganini aytish mumkin. Albatta, Morgan tasnifi shartli va taxminiy. Neandertal odamni biz Homo sapiens – aqlli inson toifasiga kiritamiz. Ammo varvarlik deganda ko'z oldimizga neandertal odam emas, kromanyon odam, ya'ni qiyofasi zamonaviy bo'lgan, bizdan farq qilmaydigan, kuchli qabilalarga uyushgan, ko'chmanchi, yarim o'troq va o'troq hayot kechiradigan, ammo hali o'z davlatini tuzmagan yangi tosh asri odami keladi. Bu, balki, bizning o'tmishni psixologik qabul qilishimizning, neandertal odamlar jamoasi ichidagi va turli jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni, turmushning tashkil etilishini, o'sha paytdagi voqealarni, jamiyat tarixini aniq bilmasligimizning natijasidir. Shu bois ma'naviyat shakllanishini hammaga ma'qul tarixiy davrlarga bo'lish qiyin. Ammo yozma adabiyot, ilm-fan vujudga kelib, ma'naviyat sivilizatsiya doirasida rivojlana boshlagandan keyingi jarayonni ancha batafsil yoritish mumkin.

Ibtidoiy odamlarning tabiat bergan tayyor maxsulotlarni yig'ib iste'mol qilishdan ularni o'zlari ishlab chiqarishga o'tishi, o'rta yuqori paleolitdan boshlab yangi tosh asri (neolit)ga qarab rivojlanishi davomida ayrim hayvonlarni xonakilashtirishi, ba'zi o'simliklarni ekib, o'stira boshlashi ularning bilimi, tafakkuri, ongi rivojlanishini tezlashtirgan. Ularda chorvachilik va dehqonchilikka oid ilk bilimlar, yangi mehnat qurollari paydo bo'lgan, eskilari takomillashgan. Toshni shunchaki qo'pol yo'nish o'rniga, unga sayqal berish usullari topilgan. Ijtimoiy turmush rivojlanishi tezlasha boshlagan. Nihoyat yangi tosh asri davrida

¹² Л. Морган. Древнее общество. Л., 1934 г.

mehnatning birinchi tarixiy taqsimoti yuz bergan: dehqonchilik va chorvachilik bir-biridan ajralib chiqqan.

Mehnatning tarixiy taqsimotlari va ma'naviyat rivojlanishi. Mazkur hodisa insoniyat hayotida, ma'naviyat rivojlanishida juda katta tarixiy ahamiyatga ega. Chunki u, birinchidan, insonning ijobiy bilimlari doirasini nihoyatda kengaytirib yubordi, ikkinchidan, ijodkorligini, izlanishlarini keskin rag'batlantirdi, uchinchidan, tabiat va jamiyat bilan hamda odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazmuni va shaklini boyitdi. Bular o'z navbatida, ibtidoiy diniy, ahloqiy va boshqa ijtimoiy g'oyalarni rivojlantirdi. Qisqasi, mehnatning birinchi tarixiy taqsimoti ma'naviyatni yangi unsurlar bilan boyitdi, uzil-kesil bir tizimga kelishini tezlashtirdi. Mehnatning ikkinchi taqsimoti – hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi ibtidoiy jamiyat ma'naviyatini yangi bosqichga ko'tardi, yangi bilimlar va meyorlar, qoidalar paydo bo'lishini tezlashtirdi.

Urug'-jamoa ma'naviyati tilsim (magiya), fetish, tabu, animizmga asoslangan. Ibtidoiy ong rivojlanishi jarayonida animizm – tabiatni jonlashtirish rivojlanib, rang-baranglashib, iyerarxiyalashgan. Asta-sekin har bir tabiat hodisasiga oid alohida ruhlar, g'ayritabiyy kuchlar, tizimi vujudga kelgan. Oxir-oqibatda bu politeistik (ko'pxudochilik) qarashlar va dinlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Mifologiya (asotirlar) ibtidoiy insonning sinkretik psixologiyasi va konkret-obrazli tafakkurining mahsuli va negizidir. Dastlab inson tevarak – atrofini o'rab turadigan, u har kuni duch keladigan narsa va hodisalar to'g'risida turli asotirlar to'qigan (ilon va qaldirg'och haqidagiga o'xshagan). Bunday asotirlar quyi yoki tuban asotirlar deyiladi. Koinot, olam (osmon, yulduzlar va h.k.) haqidagilar esa yuksak, yoki falakiyot asotirlari deyiladi. Urug'-jamoalar qabilalarga birlashuvi, qabilalar o'zaro uyushib, birlasha boshlashi ibtidoiy ma'naviyat rivojlanishini yana yangi bosqichga ko'tardi. Ajdodlar ruhiga sig'inish, ularning ba'zi mashhurlari xotirasini muqaddaslashtirish, ilohiylashtirish hollari yuz berdi. Animizm asosida, yuqorida aytilganidek, asta-sekin politeistik dinlar paydo bo'ldi. Asotirlar mavzusi va janrlari xilma-xillik kasb etdi. Aynan ushbu davrda falakiyot asotirlari rivojlanishi avj oldi. Qabilalar va qabilalar birlashmalari o'rtasida yaylovlar, serunum yerlar, daryolar, ko'llar uchun o'zaro kurash, to'qnashuvlar, urushlar bo'lib turgan. Bu qahramonlik eposlari (dostonlari) vujudga kelishi uchun zamin yaratgan.

Ajdodlarimizning buyuk merosi «Avesto»da chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq ko'plab ilk ma'naviy-ahloqiy meyorlar bir oz o'zgargan xolda saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan. Faraz qilish mumkinki, «Avesto» yaratilganiga salkam 3 ming yil bo'lgan bo'lsa-da, unga 10-12 ming yil ilgari vujudga kelgan ba'zi bir unsurlar va tabiat hodisalari (masalan, muz davrining oxiridagi iqlimiy o'zgarishlar) ham kirib qolgan. Ushbu ma'noda qadimgi asotirlar, jumladan «Avesto» asotirlari ma'naviyat vujudga kelishi va rivojlanishi to'g'risida ancha boy material beradi.



Chorvachilik bilan shug'ullanadigan urug'-jamoalarda mollarni boqish, ularning mahsulotlari – sut, qatiq, yog', go'sht, jun, teri qabilarni qayta ishlash, oziq-ovqatga, iste'mol buyumiga aylantirish, mollarni urchitish, ko'paytirish, turli xavf-xatarlardan, kasalliklardan, yirtqich hayvonlardan asrashga oid bilimlar va tajriba uzluksiz boyigan. Bundan tashqari, chorva mollariga nisbatan muayyan diniy-axloqiy munosabatlar qaror topgan. Chunki mollarni so'yish (jonidan judo qilish), mahsulotlardan foydalanish uchun ibtidoiy odam tabiatni boshqaradigan kuchlardan, ruhlardan, xudolardan ruxsat olishi, ularning bilib-bilmay g'azabini keltirmasligi kerak edi. Ibtidoiy odam hali ovchilik bilan shug'ullangan paytlarida hosil bo'lgan bu tasavvurlar chorvadorlarda yanada rivojlangan.

Chorvachilik tufayli ibtidoiy odam yangi mintaqalarni o'zlashtirdi. Odamlarning yashash doirasi kengaydi. Molini boqib, bir yaylovdan boshqasiga ko'chganda, adashib ketmaslik, yana eski joyiga kaytib kelish yo'lini eslab qolish uchun ibtidoiy chorvador yulduzlarga qarab yo'l topishni o'rgandi. Osmon bilan o'ziga xos muloqot qildi. Osmon jismlari, yulduzlar, yulduz turkumlariga nom berdi. Ular haqida turli-tuman asotirlar to'qidi; ularning paydo bo'lishi, joylashishi, o'zaro «munosabatlarini», «aloqalarini» tushuntirishga harakat qildi. Ko'p hollarda insonlar hayotida tarqalgan qoidalar, meyorlar, tartiblar osmon jismlari aloqalariga ko'chirildi. Shunday qilib, ilk astronomik kuzatishlarni, bilimlarni, falsafiy-axloqiy meyorlarni aks ettiruvchi falakiyot asotirlari paydo bo'ldi.

Dehqonchilik ibtidoiy odam bilimlari va dunyoqarashi boyishiga chorvachilikka nisbatan ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatgan. Dehqonlar o'simliklar turlarini, ularning xususiyatlarini, o'sish, gulga kirish, pishish davrlarini, xar bir o'simlik uchun ma'qul va noma'qul iqlim, suv va tuproq sharoitini, o'simlikka ishlov berish, begona o'tlarga qarshi kurashish, almashlab ekish, yerni o'lchash, tekislash, ariq chiqarish kabi tadbirlarga ehtiyoj sezdi. Bularning xech biri instinktiv qilinadigan ishlar emas, ular ongli va tizimli bilimlarni, uquv va tajribani talab qiladi.

Dehqonchilik yil fasllarini o'rganishni, tabiatdagi suv, havo, harorat, yog'ingarchilik aylanishini, dehqonchilikka qulay mavsumlarni aniqlash zaruratini tug'dirdi. Dehqon ham ko'kka boqdi. Yulduzlar harakatini, qaysi mavsumda, qaysi faslda qayerda joylashishini eslab qolishga urindi. Chorvador yulduzga ko'proq yo'ldan adashmaslik maqsadida boqsa, dehqon daryoda suv toshqini boshlanishi, qachon yomg'ir mavsumi kelishini, tugashini, ekin uchun qulay fursat yetilishini aniqlash, ekinlariga iqlim ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini bilish uchun murojaat etdi.

U g'ayritabiiy kuchlardan ekinni asrash, hosilini ko'paytirish ilinjida madad so'radi, ularga sig'indi, sadaqalar qildi, duolar o'qidi. Chorvadorlar o'rtasida shakllana boshlagan falakiyot asotirlarini dehqonlar har tomonlama to'ldirdi, boyitdi. Bu astronomik kuzatuvlarga

ham, iqlim hodisalariga ham, ijtimoiy munosabatlarning «osmonga» ko‘chirilishiga ham, samoviy jismlarga sig‘inishga ham taalluqli.

Agrotexnik tadbirlar rang-barang va bir-biriga o‘xshamas bo‘lganidan ularni bajarish uchun turli-tuman mehnat qurollarini o‘ylab topishni taqozo etdi. Agar bunga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ham yangi qurollar, tegirmonga o‘xshash qurilmalar, daslabki dastgohlar yaratishga keskin ehtiyoj tug‘dirganini qo‘shsak, dehqonchilikning ibtidoiy odam ongini, ijodiy izlanishlarini qay darajada tezlashtirganini, berganini payqaymiz. Hunarmandchilik birinchi navbatda dehqonchilik ehtiyojlarini qondirish zaruratidan vujudga keldi.

Yevropa tillaridagi madaniyat tushunchasining o‘zagi «kultura» asli dehqonchilikka oid atamadir. U yerga ishlov berishni va ayni paytda parvarish qilinadigan o‘simliklarni, ekinlarni anglatadi. Ushbu dalilning o‘ziyiq, dehqonchilik madaniyat, ma’naviyat rivojlanishiga qay darajada xissa qo‘shganini ko‘rsatadi. Mavzudan bir oz ilgarilab ketib, e’tirof etish lozimki, nisbatan rivojlangan dehqonchilik ehtiyojlari, xususan irrigatsiya (sug‘orish), iqlimni, mavsumlarni aniq hisob-kitob qilish, yerni tekislash, rejalashtirish, ariq va to‘g‘onlar qurish ehtiyojlari, temir qurollar va aqliy mehnat paydo bo‘lganidan keyin qadimgi dunyo tamaddunini va matematika, geometriya, astronomiya, amaliy mexanika fanini vujudga keltirdi.

Dehqonchilik o‘troq turmush tarzini shakllantirdi. Qishloqlar paydo bo‘ldi. Qishloqlar o‘z navbatida ibtidoiy odam madaniyatini yanada yuksaltirdi. Birinchidan, mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari yasash, yangilarini o‘ylab topish bilan ayrim kishilar maxsus shug‘ullana boshladi. Ikkinchidan, chorvadorlar va dehqonlar o‘rtasida mol ayirboshlash, almashtirish, savdo-sotiq qaror topdi. Uchinchidan, o‘troq turmush tarzi mehnatning ikkinchi tarixiy taqsimoti hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishiga olib keldi.

Hunarmandchilik yangi bilimlarni, bajarilishi yanada murakkabroq bo‘lgan uquv, ko‘nikmalarni kashf etdi. Tuproqning, turli toshlar va ma’danlarning, yog‘ochning elementar tabiiy (fizikaviy va ximiyaviy) xossalari o‘rganildi. Ularga ishlov va shakl berish, eritish, qorishmalar yasash, quyish kabi dastlabki jo‘n texnologiyalar paydo bo‘ldi. Kulolchilik ancha yuksaklikka ko‘tarildi. Hunarmandchilikning eng buyuk kashfiyoti suv ko‘tarish uchun charxpalakni, uning asosida g‘ildirakni, aravani ixtiro qilishdir. G‘ildirak va g‘ildirak prinsipi ixtiro qilinmasa, hozirgi zamon texnikasining asosida yotgan samolyot parragi, elektrostansiya turbinasi, mashina va traktorlar, transport vositalari, boshqa texnika vositalarining aylanma harakatga asoslangan turli-tuman mexanizmlari (demak, ularning o‘zlari) vujudga kelmas edi.

Qishloqlarning o‘sishi, nafaqat bir joyda istiqomat qilayotgan kishilar o‘rtasida, shuningdek boshqa qishloqlar aholisi bilan ham aloqalarni yanada boyitdi, rang-baranglashtirdi. O‘z navbatida bu munosabatlarni tartibga solish, qoidalar yordamida mustahkamlash zaruratini kuchaytirdi. Natijada yangi moddiy-iqtisodiy, diniy, maishiy, axloqiy meyorlar, tamoyillar, qoidalar vujudga keldi. Ibtidoiy odamning dunyoqarashi yanada kengaydi, ma’naviyati boyidi.

Kasblarning xilma – xillashuvi har bir kasbga oid ixtisoslashgan ijobiy, oqilona bilimlar va umuman odamlarning tabiat to‘g‘risidagi tasavvurlari kengayishi qatorida axloqiy, estetik, diniy, falsafiy qarashlar o‘sishiga va marosimchilik rivojlanishiga ham xizmat qildi.

Har bir kasb vakillari o'zlariga homiylik qiladigan ma'budlarni, xudolarni, ruhlarni, pirlarni va boshqa g'ayritabiiy ma'naviy kuchlarni o'ylab topdilar, ularga sig'inib, sharaflariga turli marosimlar uyushtirdilar. Ibtidoiy jamiyat rivojlanishi jarayonida biz diniy e'tiqodning o'zgarib borganini ko'ramiz. Fetishizm (alohida buyumlarga sig'inish), animizm (tabiatni jonlantirish va xayvonlarga sig'inish), politeizm (ko'pxudochilik, ularning ramzi bo'lmish sanamlarga sig'inish) ibtidoiy-diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari va taraqqiyot bosqichlaridir.

Biz mehnat va ibtidoiy ishlab chiqarish bilan bog'liq holda amaliy bilimlarning, tajribaning o'sishi haqida ko'proq gapirdik. Lekin ta'kidlash lozimki, birinchidan, hayotning moddiy va ma'naviy tomonlari hech qachon bir-biridan ayricha rivojlanmagan. Ishlab chiqarish va kasblar doimo xalq ma'naviyati, og'zaki ijodi, san'at unsurlari, raqslar va marosimlar bilan birgalikda yuksalgan. Ular muvoziy (parallel) emas, bir-biridan mustaqil emas, balki aynan birgalikda, bir-biriga ta'sir qilib rivojlangan. Tabiat va osmon haqidagi, kasb xususiyatlari va sirlari haqidagi bilimlarning o'zi, kengroq olsak - dunyoqarash, ong ma'naviyatning tarkibiga kiradi. Ikkinchidan, yangi kasblar ko'paygan sayin mehnat tarbiyasining ixtisoslashgan unsurlari boyib borgan. Odamlar to'plangan bilimlarini, uquv va ko'nikmalarini, tajribasini bolalariga, yosh avlodga o'rgatgan. To'plangan bilimlarni, hayotda ko'llanilayotgan iqtisodiy, ahloqiy, diniy, badiiy meyorlarni, tamoyillarni, qarashlarni umumlashtirish, tartibga keltirish, mustahkamlash ehtiyoji tug'ilgan. Bu avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorisiylikni ta'minlashda, yoshlarga va ulardan keyin keladigan avlodlarga yetkazishda juda muhim ahamiyatga ega edi. Shunday qilib, iqtisoslashgan tushunchaviy bilimlar tizimi – fan va obrazli bilimlar tizimi - san'at vujudga kelishi uchun zamin paydo bo'la boshlagan.

Ma'naviyat vujudga kelishi to'g'risida boshqa nazariyalar. Ma'naviyatning kelib chiqishi, dunyoqarashning rivojlanishi faqat birgina «mehnat nazariyasiga» bog'lanmaydi. San'atning, ma'naviyatning ba'zi shakllari kelib chiqishi va rivojlanishida mehnat muhim rolni o'ynagan bo'lsada, u yagona omil emas. Ong va mehnat birgalikda shakllangan. Ongning vujudga kelishiga va rivojlaniishga mehnat qanchalik hissa qo'shgan bo'lsa, mehnatning vujudga kelishi va rivojlanishiga ham ong shunchalik hissa qo'shgan. Chunki mehnatning o'zi shunchaki ish emas, balki biror narsani qayta ishlashga qaratilgan ongli, maqsadga muvofiq harakatdir. Ong yo'q joyda mehnatning o'zi yo'q. Ongning ma'naviyatning negizi va tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutsak, ma'naviyat bir vaqtning o'zida nafaqat mehnatning, shuningdek ongning, tafakkurning asosida rivojlanganini payqaymiz.

Ong va nutq, til va tafakkur mushtarak hodisalardir. Ongsiz nutq, nutqsiz ong shaqllanishi mumkin emas. Lekin ilm-fanda qaror topgan qarashlarga muvofiq, odamlarning dastlabki o'zaro muloqotlari, fonetik nutq asosida emas, balki turli uzun-qisqa baqiriq, chaqiriqlar jo'rligidagi imo-ishoralar yordamida amalga oshirilgan. Ov qilish, xayvonlarga pistirma uyushtirib, ularni pistirma tomon haydash, o'zini xavf-xatardan, dushmandan himoya qilish maqsadida hali «tilsiz», biologik evolyutsiyasi davom etayotgan, lekin ongsiz hayvondan keskin farq qiladigan qadimgi odamlar (avstralopitekdan neandertal odami paydo bo'lgunga qadar) pantomima (imo-ishoralar), raqs yordamida, ya'ni san'at unsurlari yordamida «so'zlashganlar», jamoaviy xatti-harakatlarini muvofiklashtirganlar. Etnograf olimlar ibtidoiy qabilalarda raqs yordamida ovdan qaytayotan erkaklar butun ov jarayonini

ypyg'doshlariga «so'zlab» berganini yoki ov oldidan bir necha erkaklar ovda kim qanday harakat qilishini kelishib olishlarini batafsil yozib qoldirganlar.

Ibtidoiy raqslar asosan plastik tasvir unsurlaridan iborat. Ularda ov (ishlab chiqarish), mehnat jarayoni, jangovar xatti-harakatlar, o'zini himoya qilish, ovga (dushmanga) hamla qilish, yakkama-yakka olishish va sh.k.lar pantomima orqali tasvirlanadi. Olimlar raqs yosh avlodga ov va mehnat qilishni, jang qilishni o'rgatishning ilk shakli deb hisoblaydilar. Shu sababdan g'arb ilm-fanida ma'naviy madaniyat vujudga kelishining nafaqat «mehnat nazariyasi», shuningdek, «o'yin nazariyasi» (Y. Xeyzinga, X.Ortega-i-Gasset, YE. Fink) mavjud. To'g'ri, e'tirof etish lozimki, Fapb ilm-fanida so'z asosan ma'naviyatning vujudga kelishi haqida emas, balki madaniyat kelib chiqishi, inson ongi va psixologiyasining rivojlanishi haqida boradi. Y. Xeyzinga «Homo ludens» («O'ynayotgan odam») asarida yozgan: «Madaniyat, tirik jon onasi tanasidan ajralib chiqishiga o'xshab, o'yindan ajralib chiqmaydi, u o'yin ichida va o'yin sifatida rivojlanadi. Butun madaniy ijodkorlik o'yindir: she'riyat ham, musiqa ham, inson fikri ham, ahloq ham va madaniyatning boshqa mumkin bo'lgan shakllari ham».¹³

Ulardan tashqari turli biopsixologik, biologik (yashash uchun kurash, boshqa jins vakilini o'ziga jalb qilish, unga «yoqish», nasl qoldirish, ko'payish istagi, mayli va h.k.) - bixeviorizm, sotsial-darvinizm bilan, turli diniy ta'limotlar bilan bog'liq nazariyalar bor. Ularda ba'zan juda jiddiy, teran va qiziq kuzatishlar, misollar, dalillar, fikrlar, mulohazalar uchrasa-da, mohiyatan ular vulgar – materialistik, noilmiy qarashlardir. Ba'zi bir yirik olimlarning jamiyat to'g'risida o'ziga xos nazariyalari bor. Ular asarlarida ma'naviyat vujudga kelishi haqida maxsus to'xtalmasa-da, masalani ular yaratgan konsepsiyalar nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Bir-biridan keskin farq qiladigan turli qarashlarning ko'pligi ma'naviyatning vujudga kelishi va rivojlanishi nihoyatda murakkab masala ekanligini ko'rsatadi.

Hozircha shunday xulosa qilish mumkin: ma'naviyat vujudga kelishi juda uzoq davom etgan tarixiy jarayondir. Unga ko'plab tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatgan. *Ma'naviyatning vujudga kelish va dastlabki rivojlanish bosqichlari ibtidoiy odamning ijtimoiylashishi, olamni bilish, o'zligini anglash, ishlab chiqarishda erishgan yutuqlari bilan uzviy bog'liq.*

Ibtidoiy sinkretizmning parchalanishi. Ijtimoiy amaliyotning rivojlanishi, turli ixtisoslashgan bilimlar, tasavvurlar, meyorlar, baholar, tamoyillarning muttasil ko'payib borishi ibtidoiy sinkretik ong doirasiga sig'may qolgan. Natijada ijtimoiy ong va ma'naviy amaliyotning nisbatan mustaqil, alohidalashgan shakllari qaror topishi uchun shart-sharoit pishib yetila boshlagan.

Ishlab chiqarish vositalarining takomillashishi tufayli mehnat unumdorligining ancha oshishi bevosita jismoniy mehnatdan kishilarning bir qismini ozod etib, ular zimmasiga qishloq hayotini boshqarish, ishlab chiqarishni, savdo – sotiqni, odamlar hayotining xavfsizligini tashkil etish va himoya qilish bilan shug'ullanish vazifasini yuklash uchun sharoit yaratgan. Bundan tashqari, yoshlarga kasb o'rgatish, kasallarni davolash, yoki jamoani

¹³ Й.Хейзинга. Homo ludens. В тени завтрашнего дня. М., 1992 г.// «Самосознание европейской культуры XX века» М., 1991, 17-6.

boshqarish, odamlar o'rtasidagi turli iqtisodiy, maishiy munosabatlarni, diniy marosimlarni, asotirlar, afsonalarni tartibga solish, urug' va qabila «tarixini», e'tiqodi va rivoyatlarini, qo'shiqlarini yoshlarga o'rgatish, kattalarga tez-tez eslatib turish vazifalari bilan ham bunday ishlarga uquvi bor kishilarni mashg'ul qilish imkonini bergan. Natijada aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi uchun zamin yaratilgan. Bu jarayon birdaniga sodir bo'lib qolgani yo'q. Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi asrlar davomida cho'zilgan va uzil-kesil bronza va temir qurollar nisbatan keng qo'llanila boshlagach yuz bergan.

Yangi sermahsul qurollarga o'tish mehnatning yangi tarixiy taqsimotini keltirib chiqardi va ibtidoiy sinkretizmni parchalab yubordi. Aynan shu davrda ilk shaharlar, davlatlar vujudga keldi. Tosh qurollaridan bronza va temir qurollariga o'tish, shahar - davlatlarning paydo bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnatning bir-biridan ajralishi ijtimoiy ongning nisbatan mustaqil shakllarini va ular bilan bog'liq manaviy ishlab chiqarish amaliyotini, yozuv va imloni vujudga keltirdi. Ahloq, huquq, din, filosofiya, ilm-fan, badiiy adabiyot va san'at (uning alohida turlari) va o'qituvchilar, tabiblar, huquqshunoslar, ruhoniylar, faylasuflar, olimlar, san'atkorlar (shoiralar, me'morlar, xaykaltaroshlar, musavvirlar, zapgaplar, bastakorlar, xonandalar, raqqoslar va h.k.), davlat amaldorlari, sudyalalar va jismoniy mehnat bilan shug'ullanmaydigan, bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan band bo'lmagan boshqa kasblar paydo bo'ldi. Ular va turli-tuman hunarmandlar asosan shaharlarda istiqomat qildilar.

Shaharlar moddiy va ma'naviy madaniyat rivojlanishining muhim manbaiga va omiliga aylandi. O'zbek tilidagi madaniyat tushunchasi arabcha "madinat" - shahar tushunchasidan yasalgan. Bu shaharlarning madaniyat yuksalishidagi ahamiyatiga ota-bobolarimiz qanday katta baho berganidan dalolatdir (arablarning o'zlarida boshqa atama qo'llaniladi). Shaharlar va davlatlar qaror topishidan boshlab insoniyat sivilizatsiyaga qadam qo'ydi. Bu davrdan boshlab ma'naviyatning o'ziga xos mafkuraviy va dunyoqarash asosini diniy e'tiqodlar, muayyan diniy va falsafiy ta'limotlar tashkil qilgan, kapitalizm (industrial jamiyat) qaror topgunga qadar shunday bo'lib qolgan.

Mahsulotlar hajmi ortishi uni kimlar tomonidandir ko'proq o'zlashtirish, boylik to'plash imkonini ham tug'dirdi. Asta – sekin jamiyatda xususiy mulk va ijtimoiy tengsizlik paydo bo'ldi. Ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, tabaqalar, sinflar vujudga keldi. Endi urushlar va to'qnashuvlar paytida asir olingan kishilar qullarga aylantirila boshladi. Turli sabablarga ko'ra qashshoqlanib, to'q oilalarga qaram bo'lib qolgan kishilar qarzi evaziga farzandlaridan birini doimiy ishlash uchun ularga berishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, zimdan asrlar davomida quldorchilik tuzumi yuzaga keldi. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi qarama-qarshi sinflarga bo'linib ketdi.

Jamiyatda yangidan vujudga kelgan sinflarning va ijtimoiy tabaqalarning manfaatlari o'zaro mos kelmay qoldi. Ularni ifodalovchi qarashlar, fikrlar, mafkuralar shakllandi. Endi bir yaxlit sinkretik ongda, e'tiqod va dunyoqarashda qarama-qarshi manfaatlarni ifodalashning iloji qolmadi. Buning ustiga turlicha sharoitda yashaydigan, moddiy ta'minoti, tarbiya olish, o'qish, o'rganish imkoniyatlari har xil tabaqalar, sinflar va ijtimoiy guruhlarining turmush tarzida, madaniyati va dididagi farqlar kuchayib ketgani ham ibtidoiy sinkretizmning istiqbolini yo'qqa chiqardi. Shunday qilib, ibtidoiy sinkretizmning parchalanish sabablari ikkiga bo'linadi: birinchisi – ishlab chiqarish rivojlangani, aqliy

mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqqani va ko'plab ixtisoslashgan bilimlarining, yangi ijtimoiy va axloqiy meyorlarning vujudga kelganidir; ikkinchisi – jamiyat ijtimoiy-sinfy tuzilmasining o'zgargani, mulkiy va ijtimoiy tengsizlikning, ularni oqlaydigan yoki qoralaydigan mafkuralarning paydo bo'lganidir. Ibtidoiy sinkretizm mafkuraviy-siyosiy, axloqiy, huquqiy va umuman dunyoqarash jihatdan parchalandi. Mavjud tuzumni oqlaydigan axloqiy, himoya qiladigan siyosiy va huquqiy qarashlar hamda ularni amalga oshiradigan siyosiy tashkilot – davlat qaror topdi. Ma'naviyat tizimi mazmunan va shaklan xilma-xillashib, murakkablashib ketdi.

Ma'naviy hayotda diniy va siyosiy mafkura ta'sirining kuchayishi. Sivilizatsiya sharoitida manaviyat rivojlanishini qadimgi antik, o'rta asrlar, Uyg'onish davrlaridagi diniy-falsafiy ta'limotlar bilan bevosita bog'lab turli bosqichlarga bo'lish mumkin. Hinduizm, buddizm, daosizm, konfutsiychilik, xristianlik, islom ta'limotlari, ularning turli yo'nalishlari va mahzablari, maktablari asosida hatto bir din doirasida ham bir biridan biroz farq qiladigan ma'naviy qarashlar rivojlandi. Masalan, islom doirasida sunniylik va shiaviylik, sunniylik doirasida ham ahli al-sunna va jamaa (to'rt rasmiy mazhabga mansub kishilar) va turli firqalarga, oqimlarga, ayniqsa hozirgi diniy-ekstremistik oqimlarga mansub qarashlarini uchratamiz. Ularning dunyoqarashida, qadriyatlar tizimida, hayotga, kelajakka munosabatida – ma'naviyatida farq bor. Islom ma'naviyati haqida gap ketganda, albatta, islom Renessansi (IX-XI) va Markaziy Osiyo uchun Temur va temuriylar davri (XI-XV a.) alohida o'rin tutishini esdan chiqarmaslik kerak.

Yevropada Renessans va Ma'rifatparvarlik davridan boshlab ma'naviyat rivojlanishi nafaqat din va diniy-falsafiy qarashlar, shuningdek, tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka oid dunyoviy bilimlar rivojlanishi, cherkovning ular tomonidan qattiq tanqid qilinishi va boshqa omillar ta'sirida kechgan. Ijtimoiy taraqqiyotda chuqur turg'unlikni boshidan kechirayotgan Sharq mamlakatlarida bu paytda biz Yevropa Ma'rifatparvarligi kabi hodisaning guvohi bo'lmaymiz. Aksincha, sharqiy davlatlar ich-ichidan yemirilib, mayda xonliklar, amirliklarga bo'linishi davom etayotgan edi. Markazlashgan kuchli davlatlarni saqlab qolishga intilgan ba'zi bir hukmdorlarning urinishlari (O'rta Osiyoda Abdullaxon II, Hindistonda Akbarshoh, kiyinchalik Avrangzeb) rivojlanishning umumiy salbiy tendensiyasini o'zgartira olmadi. Faqat Sharq mamlakatlari mustamlakachilik iskanjasiga tushib qolib, oradan bir qancha vaqt o'tkazib, milliy ozodlik kurashini boshlashi jarayonida sharq ma'rifatgarvarligining o'ziga xos shakllari yuzaga keldi. Milliy ozodlik kurashi Sharq xalqlari ma'naviyati rivojlanishida alohida bosqichni tashkil etadi. Jumladan o'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishida jadidchilik harakati haqida shunday deyish mumkin.

Din va diniy-falsafiy ta'limotlar to kapitalizm va kazarma sotsializmga qadar bo'lgan katta tarixiy davrda manaviyat rivojlanishida asosiy omil bo'lgan. Shu sabab muayyan xalqlar va tamaddunlarning turli asrlarda yuksalishi yoki inqirozga yuz tutishini siyosiy va iqtisodiy omillar qatorida din va diniy ta'limotlardan, ular o'rtasidagi kurashlardan, jamiyatning o'z mavjudlik holatiga nisbatan qoniqish yoki qoniqmaslik munosabatidan izlash lozim. Xulosa qiladigan bo'lsak, ma'naviyatning kelib chiqishi va rivojlanishi quyidagi omillar: birinchidan, insonning aqlli va ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi, tabiatni qayta ishlab, o'zgartirib kishilik jamiyatini yaratishi bilan; ikkinchidan, mehnat qilishi, o'zaro aloqalarga kirishishi, bu aloqalarni taribga solish uchun turli meyorlar, qoidalar tizimini yaratib, o'z turmushiga joriy qilishi bilan; uchinchidan, uzluksiz o'sadigan e'htiyojlarini qondirish uchun yangiliklarga

intilishi, ijod qilishi bilan; to'rtinchidan, o'zi atrof-muhiti, tabiat, koinot, kelajak to'g'risida mulohaza yuritishi, mohiyatga, haqiqatga intilishi bilan; beshinchidan, o'zligini, o'z qobiliyatlari va salohiyatini yuzaga chiqarishga urinishi bilan bog'liq.

4-MAVZU: E'TIQOD VA MA'NAVIYAT

Reja:

1. E'tiqod shaxs dunyoqarashi va ma'naviyati yadrosi sifatida. E'tiqodning mazmunini birinchi galda ilm tashkil qilishi.
2. Ratsional va irratsional ilm. Dunyoviy va diniy ilmlar. E'tiqod tuzilmasining boshqa unsurlari.
3. E'tiqodning tarkibiy qismlari: 1) ilm; 2) ishonch; 3) ixlos; 4) ishq; 5) ideal. E'tiqod tushunchasini tashkil etuvchi omillarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati.
4. Millat tarbiyasi vatanparvarlikni mustahkamlashning, milliy goyani amalga oshirib, yuksak marallarni egallashning muhim sharti va vositasi ekanligi.

Tayanch tushunchalar: e'tiqod, ma'naviyat, ideal, ishq, ilm, ishonch, ixlos, dunyoviylik, diniy ilm, ratsional, irratsional.

E'tiqod shaxs dunyoqarashi va ma'naviyati yadrosi sifatida. Kundalik ongda ko'pincha e'tiqod biror dinga ishonish va uning ahkomlarini bajarish deb tor mazmunda tushuniladi. Aslida e'tiqod ancha keng tushuncha, diniy mazmundan tashqari dunyoviy mazmunda ham qo'llaniladi. Erkin, demokratik e'tiqod, siyosiy e'tiqod, axloqiy e'tiqod, ilmiy e'tiqod va h.k. so'z birikmalari bunga misoldir. E'tiqod muayyan g'oyalar, qarashlar tizmiga qattiq ishonchni va sodiqlikni anglatadi. Sobiq tuzum paytida kommunistik e'tiqod to'g'risida gapirilar edi. Bunda kommunistik g'oyalarga, marksizm-leninizmga ishonch va sodiqlik nazarda tutilgan. Diniy e'tiqodni biz ko'proq imon, yoki imon-e'tiqod deymiz va bu bilan uni e'tiqodning dunyoviy shakllaridan farqlaymiz. E'tiqod avvalo shaxs (jamoat, guruh, jamiyat) tomonidan muayyan g'oyalarga, baho va meyorlarga ikkilanmasdan, shubha qilmasdan, qat'iy ishonch asosida hosil bo'lgan eng muhim va birinchi darajali hisoblangan barqaror, sobit tushunchalar, umumqabul qilingan meyorlar, yuksak qadriyatlar, nazariyalar va qarashlardir, ya'ni ilmdir (bilimdir).

Shunday qilib, e'tiqodning mazmunini birinchi galda ilm tashkil qiladi. Chunki kishi nimaga e'tiqod qilayotganini – nimaga ishonayotganini, nimaga intilayotganini, nimaga o'z xulq-atvorini, ijodini moslashtirish lozimligini bilishi lozim. Bu ilm diniy yoki dunyoviy, yoxud ularning ma'lum darajadagi qorishuvi bo'ladimi, undan qat'i nazar, e'tiqodning keng ma'nodagi hayotiy mazmunini tashkil etadi. Ilmsiz e'tiqod yo'q, bo'lishi mumkin ham emas. Ilmlar bir biridan xarakteri, mazmuni, predmeti, olamni aks ettirishi, tabiat, jamiyat, inson bilan bog'liq hodisalarni tahlil qilish, umumlashtirish usullari, shakllari, yo'nalishi va ahamiyatiga ko'ra ancha farq qiladi. Eng avvalo ilmni biz, tafakkur xususiyatlaridan kelib chiqib, ratsional va irratsional ilmlarga ajratamiz. Ratsional ilm izchil mantiqqa, puxta nazariy tadqiqotlarga va amaliy tajribaga tayanadi. Tabiatshunoslik fanlari mazmuni va beradigan bilimlari, axborotlari hamda insoniyat mehnat faoliyati va hayoti davomida o'zlashtirgan, ortirgan tajribasi orqali hosil bo'lgan amaliy bilimlar ratsional mazmunga ega. Ratsional ilmni nazariy va amaliy-eksperimental usullar yoki hayotiy tajriba yordamida takrorlash, isbotlash mumkin. Ratsional ilm samara beradigan ilmdir. Uning yordamida

obyektiv borliq – koinot, tabiat, jamiyat, inson – sir-asrorlari, tuzilishi, turli qismlari, unsurlari xususiyatlari, o‘zaro aloqalari, xossalari va h.k. o‘rganiladi.

To‘plangan bilimlar yordamida inson tabiatga va jamiyatga ta’sir ko‘rsatdi, yangiliklar yaratdi. Yangi hayvonlar zotlarini urchitdi, oziq-ovqat va texnik o‘simliklarning yangi navlarini yaratdi, konlarni ochib, tabiiy minerallarni qayta ishlab, mashinalar, traktorlar, asboblari, uskunalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari yasadi. Uylar, qishloqlar, shaharlar qurdi va h.k. Ratsional ilm asosida inson turli tabiiy xavf-xatarlarga, epidemiyalar va kasalliklarga qarshi kurashdi. Shu sababdan ratsional ilmni samarali, amaliy natija beruvchi, insonning o‘zini jamiyatni, tabiiy yashash muhitni o‘zgartiruvchi ilm deymiz.

Irratsional ilm aniq dalillardan tashqari noaniq, taxminiy, emotsional, ba’zan g‘ayritabiiy, diniy, mistik, ezoterik yoki mantiqiy chayqovchilik ruhidagi vajlarga tayanadi, yoki ularni ilmiy dalillar bilan aralashtirib yuboradi. Masalaga o‘ta hissiyotga berilib, xolislikni unitib, biryozlama yondashilganda olingan bilim, diniy va mistik unsurlardan xoli bo‘lsa-da, irratsionallik kasb etishi mumkin. Irratsional ilmning to‘g‘riligini nazariy yoki amaliy tajriba orqali tekshirib, isbotlab bo‘lmaydi. Diniy asarlarda, va ta’limotda irratsional jihatlar ko‘p. Mistik ilm esa to‘liq irratsionaldir. Lekin bu irratsional ilm to‘liq uydurma, qalloblik degani emas, balki ularni oqilona, mantiqiy yoki amaliy tushuntirishning iloji yo‘q deganidir. Ammo, tan olish kerak, aksariyat folbin, ekstrasens va ruhiy shifo beruvchi tabiblar mistikasi uydurma, qalloblikdir. Ularni valiy zotlar, buyuk shaxslar, haqiqatan noyob qobiliyatga ega shaxslar mistikasidan farqlash lozim.

Irratsional ilm aniq bilim bermasa-da, masalaning, muammoning ba’zi bir jihatlarini payqashga, ichki sezgi (intuitsiya) yordamida ba’zi narsalarni ochib berishga qodir. Masalan, ba’zi bir atoqli diniy arboblari, ekstrasenslar shunday natijalarga erishganlar. Shu sababdan ularning oddiy avomga va hatto ancha o‘qimishli odamlarga ta’siri ba’zan sezilarli bo‘lgan. Bunday kishilar yuz mingdan, balki milliondan bitta uchraydi. Ammo hayotda g‘ayritabiiy qobiyati, kuchi borligiga da’vogar qalloblarning son-sanog‘i yo‘q. Shu sababli dunyoviy ilm-fan kabi islom dini ham folbin va karomatgo‘ylarni qoralaydi.

Fan beradigan ilm, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar, ratsionaldir. Fanning noto‘g‘ri uslublar, adashishlar orqali to‘plagan xatoliklari, noto‘g‘ri xulosalari ham mantiqqa, aqlga asoslanadi. Agar fan siyosatga xizmat qilib, o‘ta mafkuraviylashib ketsagina, irratsional xarakter kasb etishi mumkin. Bu ko‘proq ijtimoiy va gumanitar fanlarga, juda kam hollarda tabiatshunoslik fanining dunyoqarash, e’tiqod bilan bog‘liq mazmuniga (tadqiqotning o‘ziga emas) taalluqli bo‘lishi mumkin. Masalan, biologiya fanining evolyutsiya, tur, irsiyat va shu kabi hodisalar bilan bog‘liq ba’zi xulosalari fashistlar tomonidan siyosiy mafkuraviy jihatdan noto‘g‘ri talqin qilingan, irqchilik kabi g‘ayriinsoniy siyosiy nazariyalarga asos qilib olingan edi. Bunda biologiya fanining hech qanday aybi yo‘q. Ayb siyosatchilarda. Misol tariqasida fashizm davrida Germaniyada shimoliy tipdagi ariy xalqlarining boshqalardan ustunligini isbotlashga qaratilgan irqchilik nazariyasini, inson irsiyatini yaxshilash uchun yevgenika rejalarini keltirish mumkin. Gitlarning va fashizmning har jihatdan muxolifi bo‘lgan Stalin va bolshevizm nafaqat irqchilik nazariyasini, shuningdek umuman genetika fanini ham inkor etdi. Ko‘plab genetik olimlar qatag‘on qilindi. Mag‘zavaga qo‘shib tog‘aradagi bolani ham ulotirdi.

Haqiqiy ilm siyosatga bo'ysunmaydi. U obyektiv haqiqatni aks ettiradi. To'g'ri, siyosat ilmiy bo'lishi, ilmga mos kelishi mumkin. Bunday holda u e'tiqodga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin zo'ravonlik siyosatga bo'ysundirilgan, noto'g'ri, ilm esa e'tiqodni xatoga yetaklaydi, unga murosasizlik, mutaassiblik va tajovuzkorlik, beshafqatlik bag'ishlaydi. Yana misol tariqasida Gitler va Stalin, turli diktatorlarni, zamonaviy ekstremistik ta'limotlarni eslash mumkin.

Ilmlarni dunyoviy va diniy ilmlarga bo'lish mumkin. Dunyoviy ilm asosan ratsional mazmunga ega. U nazariy va amaliy tadqiqotlar (fan) hamda hayotiy tajriba, ishlab chiqarish orqali to'planadi, avloddan –avlodga o'tib keladi. Diniy bilimlar ko'proq ko'r-ko'rona ishonchga, biror bir hodisani ilohiy haqiqat deb bilishga asoslanadi. Diniy ilmlarda ham nazariy (ilohiyot fani), toat-ibodat va diniy marosimlar bilan bog'liq amaliy ilmlar mavjud. Diniy ilmda ratsionalizm va irratsionalizm qorishib ketgan. Shunday qilib, har qanday ilmni nazariy va amaliy ilmlarga bo'lish mumkin. Nazariy ilmlar aniq bir tizimga keltiriladi, mantiqan (xato yoki to'g'ri ekanligidan qat'i nazar) har tomonlama asoslanadi, mavhum ilmiy tushunchalar, tamoyillar, ilmiy qonunlarda ifodalanadi. Amaliy bilimlar (ilmiy-eksperimental ilmlardan tashqari) ko'proq kundalik hayot va tajriba orqali shakllanadi. Ulardan farqli, ilmiy tajriba orqali qo'lga kiritilgan amaliy ilmlar nazariyadan, nazariy farazlar va hisob-kitoblarni, xulosalarni eksperiment orqali tekshirib ko'rish va hayotga tadbqiq etishdan kelib chiqadi va oqibatda yana nazariya orqali umumlashtiriladi. Amaliy eksperimental ilmlar ba'zan nazariyaga aniqlik kiritadi, uni boyitadi, ayrim yanglish fikrlar va farazlardan tozalaydi. Ba'zan nazariyani tubdan o'zgartiradi, yangilaydi. Biologiya sohasida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar genlar nazariyasi, genetika fani va biotexnologiyalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Astronomik asboblari, yirik radio va optik teleskoplar ixtiro qilinishi, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter yordami ishlatilishi, yerning orbitasiga koinotni kuzatadigan astronomik stansiyaning chiqarilishi, olinayotgan axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari paydo bo'lishi koinotga oid qarashlarni nazariyalarni keyingi 20-30 yilda ancha o'zgartirib yubordi.

Eksperimental fanning yangi xolis ilmlarni ochish, mavjudlarini tasdiqlash yoki xatolarini ko'rsatishdagi ahamiyati shunchalik ulkanki, keyingi bir asrdan buyon olimlar o'rtasida nazariy fanlar yetakchimi yoki eksperimental fanlar, degan jiddiy bahslar mavjud. Ularning har ikkalasi suv va havodek zarurligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Faqat nazariyadan eksperiment ko'proq tug'iladimi, yo eksperimentdan ko'proq nazariyami, degan qabilida bahs yuritiladi. Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy eksperimentni (ilmiy tajribani, amaliy tadqiqotni) ilmiy haqiqatni aniqlovchi mezon deb hisoblagan.

E'tiqodning ilg'orligi yoki qoloqligi, insonparvarligi yoki xudbinligi va boshqa ko'plab xususiyatlari uning mazmunini tashkil etuvchi ilmga bog'liq Ammo har qanday ilm, ayniqsa kundalik bilimlar e'tiqod bo'lavermaydi. Nafaqat kundalik bilimlarda, hattoki ilm-fanda ko'plab turli axborot darajasidagi hamda asosiy arkoniy tamoyillarni shakllantirishga xizmat qiluvchi «yordamchi» va oddiy elementar tushunchalar borki, ular qanchalik fan va ilmiy tadqiqot, ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyatli bo'lmasin, e'tiqodning bevosita tarkibiy qismiga kirmaydi. Shuningdek, amaliyotda tasdig'ini topmagan, faraz sifatida olg'a surilgan ilmiy tushunchalar va nazariyalar, tabiiyki, e'tiqodga aylanmaydi. Ikkilanish va shubha bilan qaralgan ilm e'tiqod emas. Ilgari inson qattiq ishongan tushunchalar, g'oyalarga nisbatan jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti natijasida shubha tug'ilsa, ular e'tiqod maqomini yo'qotadi.

E'tiqod tuzilmasining boshqa unsurlari.

E'tiqod ilm bilan cheklanmaydi. U muayyan g'oyalar va qadriyatlarni faol aqliy va hissiy qabul qilish, sevish, ixlos qo'yish, ularga o'z ideallarini, ijtimoiy intilishlari va amaliyotini moslashtirishdir. E'tiqodda ishonch katta rol o'ynaydi. Ishonch e'tiqod mazmunini tashkil etuvchi tushunchalar, meyorlar, g'oyalar, ta'limotga – ilmga (bilimga) nisbatan kuchli emotsional (hissiy) ijobiy munosabatdir. Ishonch turmush tajribasi negizida hosil bo'lgan kundalik ong darajasiga va ilmiy bilimlarni muayyan (to'g'ri yoki noto'g'ri) tushunishdan hosil bo'lgan nazariy ong darajasiga oid bo'lishi mumkin. Ishonch oilaning tarbiyasi, submuhit ta'siri natijasida, jamiyatning ta'lim muassasalari, tashviqot va axborot vositalari orqali kishi ongiga ta'sir etishi oqibatida vujudga keladi. Ishonch ham o'z mazmuniga ko'ra, ratsional yoki irratsional xarakter kasb etadi.

Ratsional ishonch shaxsning faol harakatiga, yaratuvchiligiga asoslanadi. Uning obyektini tashkil qilgan g'oya, ta'limot, ideal to'g'ri yoki xato, real yoki utopik bo'lishi mumkin. Lekin shaxs unga sidqidildan ixlos bilan intiladi, unga erishish yo'llarini izlaydi, ijod qiladi. Natijada u o'sha maqsadga yetolmasa ham (agar u sarob bo'lib chiqsa) ma'lum samaraga erishadi, faoliyati izsiz ketmaydi.

Irratsional ishonch shaxsning ijodiy passivligiga, farmonbardorligiga, mutaassibligiga tayanadi. «Agar irratsional ishonch nimanidir yo ko'pchilik yoxud qandaydir obro'li shaxs haqiqat hisoblagani uchungina haqiqat deb qabul qilsa, ratsional ishonch samara beruvchi o'z kuzatishlariga va mushohadalariga asoslangan e'tiqod mustaqilligini bildiradi»¹⁴, deb yozadi Erix Fromm. Nazarimizda, Frommning ushbu xulosasi umumiy ko'rinishda ma'lum darajada biryoqlama, masalaga bir oz torroq yondashishning oqibatiga o'xshasa-da, lekin uning asosiy xulosasi nihoyatda teran va to'g'ri: ratsional ishonch bu samara beruvchi e'tiqod mustaqilligidir. Boshqacha qilib aytganda, ishonchning ratsional bo'lishi e'tiqod mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mustaqil e'tiqod esa shaxs va jamiyat ehtiyojlarini nisbatan to'g'ri anglaydi, bu ehtiyojlardan kelib chiqib yangiliklarga, rang-baranglikka, mavjud holatni o'zgartirishga intiladi. Irratsional ishonch erkinlikka, mustaqillikka, ijtimoiy yangilikka intilmaydi, balki ularni g'ayritabiiy kuchlardan, dohiylardan, avliyolardan kutadi. «Irratsional ishonch nimagadir yoki kimgadir mutaassibona (fanatik) ixlos qilishdirki, uning mohiyati shaxsga tegishli yoki shaxsdan tashqarida turuvchi irratsional obro'ga bo'ysunishdan iborat»,¹⁵ deganida, E. Fromm asosan haq edi.

Fromm mulohazalaridagi bizga biryoqlamalik bo'lib tuyulgan jihatlariga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash lozim. Ishonch, uning ratsional yoki irratsional xarakteri shaxsning uzoq davom etgan mulohazalari, xulosalari va hayotiy tajribasi mahsuli bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Keyingi holda u jamiyatdagi yoxud shaxs submuhiti - oilasi, mehnat yoki diniy jamoasi yoki ulfatlarining norasmiy davrasidagi hukmron e'tiqod asosida shakllanadi va shaxs tomonidan tayyor aksioma sifatida qabul qilinadi. Ammo ishonchning ratsionalligi yoki irratsionalligi bular bilan belgilanmaydi.

¹⁴ Эрих Фромм. Психоанализ и этика М., 1993, 159-6.

¹⁵ Ўша жойда, 156-6

Uzoq ilmiy tahlillar, mantiqiy xulosalar asosida shakllangan ishonch irratsional bo'lishi hech gap emas (agar tadqiqot usuli noto'g'ri tanlansa, dastlabki shartlarda va tayanilgan dalillarda xatoga yo'l qo'yilsa va h.k.). Axir filosofiyadagi, diniy ta'limotlardagi, ijtimoiy nazariyalardagi irratsional oqimlar atoqli mutafakkirlarning uzoq yillar davomidagi aqliy mehnati, izlanishlari, boshqa ta'limotlarni tanqidiy tahlil qilib, ma'lum xulosalarga kelish natijasida paydo bo'lgan. Aksincha, tayyor holda, «beo'ylov» qabul qilingan ishonch chuqur ratsional bo'lishi mumkin.

Ratsionallik va irratsionallik shaxsiy yoki jamoaviy tajribaga, dunyoviylikka yoki diniylikka, materialistik yoki idealistik tamoyillarga suyanishga bevosita bog'liq emas. *Ishonchning ratsionallik va irratsionallik mezonini taraqqiyot zaruriyatidan izlash kerak.* Shaxs (jamo'a) qattiq ishongan tushunchalar, meyorlar, g'oyalar, ideallar tarixiy taraqqiyot talablariga qanchalik mos kelsa, ishonch shuncha ratsionallik kasb etadi. Tarixiy zaruriyatga, jamiyat rivojlanish talablariga mos kelmaydigan ilmga nisbatan shakllangan ishonch irratsionaldir. U obyektiv samara bermaydi. Demak, ma'naviyat rivojlanishi uchun e'tiqod samarali ratsional ishonchga asoslanishi lozim. Bu ishonch chetdan mo'jiza kutib o'tirmaydi, shaxs o'z e'tiqodiga sodiq qolgan holda, maqsadiga erisha olmasa ham, sababini o'z faoliyatidan axtaradi. Binobarin, unga tanqidiy baho beradi, qo'shimcha vositalar izlaydi va h.k.

Yangi ta'limotlar, yangi dinlar o'zlaridan avval vujudga kelgan va faoliyat yuritayotgan boshqa muxolif ta'limotlar, dinlar bilan g'oyaviy, siyosiy kurashda o'z o'rnini topishga, o'z haqiqatini qaror toptirishga intilishi ular tarafdorlarini faol bo'lishga, o'z e'tiqodlari kelajagiga ishonishga, bu kelajakni amaliy faoliyatlari bilan yaratishga undaydi. Shu bois puxta va jiddiy ishlab chiqilgan yangi ta'limotlarga ishonch, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, dastlab o'ziga xos ratsionallik kasb etadi va amaliyotda katta samara beradi. Bu yangi ta'limotning ijtimoiy taraqqiyot bilan ziddiyatlari yuzaga chiqmaguncha, o'z ijodiy salohiyatini sarflab bo'lmaguncha davom etadi. Agar yangi ta'limot tarafdorlarining yaratuvchilik faolligi sust bo'lsa, ular ishonchining samarasi uzoq vaqt imkoniyat darajasida qolib ketadi. Uning voqelikka aylanishi yangi tarixiy davrda ta'limotning o'zida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'lgandan keyingina yuz berishi mumkin. Buni xristian dini misoli tasdiqlaydi.

Dastlabki xristianlik ta'limotining aksariyat tarafdorlari qullar yoki harakat erkinligi cheklangan oddiy kishilar bo'lgani sababli, xristianlik o'rnatilgach, Yevropada antik davrga nisbatan ma'naviyatning aksariyat sohalarida, ayniqsa ilm-fan, tibbiyot, adabiyot, san'atda ortga ketish bo'ldi. Bu holat Uyg'onish davrigacha davom etdi. Islomga ishonch ham aynan shu sababdan u vujudga kelganidan keyingi dastlabki asrlarda olamshumul buyuk harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy yutuqlarga olib keldi. Kuchli ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab, jahonda yangi sivilizatsiya yaratdi. *Ta'limotga ratsional ishonch, ijtimoiy faollik va safarbarlik bilan qo'shilsagina, yuksak amaliy samara beradi.*

Dastlab ratsional bo'lgan ishonch ijtimoiy tarjibalar orqali tasdiqlanmasa, hayotda o'zini oqlamasa, omma kutgan natijaga olib kelmasa, o'zining aksiga – yo ishonchsizlikka, yo irratsional ishonchga (mutaassiblikka, mantiqqa zid ixlosga va sh.k.) aylanadi. Ma'naviyat esa inqirozga uchraydi, qashshoqlashadi. Qashshoq ma'naviyatda mutaassiblikka moyillik kuchlidir. Ortodoksal diniy ta'limotlarning, marksizm-leninizmning va boshqa hayotga moslashib rivojlana olmagan ta'limotlarning qismati buni tasdiqlab turibdi.

Ilm kabi ishonch e'tiqodning asosiy bosh unsuridir. *Ilm e'tiqodning mazmunini, ishonch uning hayotiylik kuchini tashkil qiladi.* Agar inson o'z borlig'ini, turmush va mehnat sharoitini, ijtimoiy ahvolini o'zgartira olishiga ishonmasa, u ijodiy izlanishlardan, qiyinchiliklar bilan kurashdan to'xtab, faqat tabiatga va hayotga moslashib yashayveradi. Bunday holda u yarim yovvoyi mavjudod sifatida qolib ketardi, hayvonot dunyosidan uncha uzoqlashmasdi. Ishonch izlanish, ijod qilish, kashf etish – yuksalish uchun insonga kuch-quvvat va rag'bat berdi. Fan negizida ham, din negizida ham, odamlarning o'zaro ijobiy aloqalari, bir birini qo'llab-quvvatlashi negizida ham ishonch yotadi. Ishonchsiz e'tiqod va ma'naviyat yo'q.

E'tiqod dunyoqarashning, u orqali butun ma'naviyatning o'zagi sifatida voqelikka inson munosabatini, xulq-atvorini, faolligini belgilaydi. Faollik uchun, ayniqsa ijodkorlik uchun oddiy ishonchga asoslangan ilm ko'p hollarda kamlik qiladi. Ijodkorlik va faollik ishonchning ixlos va ishq bilan boyitilishini taqozo etadi.

Odatda, ixlos biror g'oyaga, nazariyaga yoxud san'at asariga, umuman qadriyatga, uning mualliflariga yoki targ'ibotchisiga ko'ngil qo'yishdir (salbiy narsaga «ko'ngil qo'yish», hatto ijobiy narsaga mavjud axloqiylik chegarasidan chiqib, meyoridan ortiq intilish aslo ixlos emas, u hirs va nafs, yoki mutassiblik deyiladi). Ammo ixlos shunchaki ko'ngil qo'yish emas, ko'ngil qo'yadigan obyektini bilish, emotsional va xolis baholash va unga intilish hamdir. Ixlos ijobiy emotsional baho, obyektga samimiy intilish tufayli vujudga keladi. Inson biror narsaga ko'ngil qo'yishdan avval uni har tomonlama tahlil qiladi, kuchli va zaif, foydali va befoyda jihatlarini aniqlaydi. Boshqa o'xshash narsalar bilan solishtiradi, taqqoslaydi, ulardan ustunligini, odamlar va jamiyat uchun foydaliroq ekanini, axloqiylik va go'zallik talablariga ko'proq mos kelishini bilib oladi. Unda o'sha obyektga nisbatan havas tug'iladi. Agar ixlos obyektini ijodkor shaxs bo'lsa, o'zini uning shogirdi, o'quvchisi, izdoshi, muxlisi deb hisoblaydi, unga nisbatan chuqur va samimiy hurmat yuzaga keladi. Ixlos qiluvchi kishi muxlis deyiladi. Ixlos obyektini diniy arbob bo'lsa, (tasavufda) pir, eshon, ixlos qiluvchi esa murid deyiladi. Lekin murid pir irodasiga to'liq bo'ysunadi. Uning ixlosi avtoritar mazmunga ega.

Birovning tazyiqida kishida ixlos shakllanmaydi. U shaxsning o'z moyilligi, erkin tanlashi (ongli yoki ongsiz) asosida qaror topadi. Hatto avtoritar ixlos ham asosan erkin tanlashning, yoki tarbiyaning natijasidir. Demak, ixlos tarkibiga «intilish» bilan birga «ixtiyor» ham kiradi. G'oya yoki ta'limotga ixlos qo'yish, unga o'z umrini bag'ishlash, xolis xizmat qilishni, bundan shaxsiy foyda izlamaslikni anglatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at daholari, buyuk mutafakkirlar orasida bunday zotlar tarixda ko'p uchraydi. Ularning aksariyati juda kamtarona, ba'zilar hatto ancha qashshoq kun kechirgan. Lekin tanlagan g'oyasiga, ta'limotiga umrbod sodiq qolgan. Ixlosga amaliy intilish mavjudligi sababli u e'tiqodning yuzaga chiqib, amaliy faoliyatga aylanishiga xizmat qiladi.

G'oya yoki ta'limotga nisbatan irratsional ixlos puch xayolparasatlikka yoki tajovuzkor mutaassiblikka, fanatizmga olib keladi. G'oya, ta'limot taraqqiyparvar bo'lsa, unga ixlos qilgan kishi faoliyati jamiyatga foyda keltiradi. Aksincha, qoloq g'oyaga, xato ta'limotga ixlos qo'yan kishi faoliyati amaliy samara bermaydi, odamlarga, jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Agar xato g'oyaga xizmat qiladigan shaxs yuksak lavozimga, yoki katta intellektual salohiyatga, kuchli irodaga ega bo'lsa, u ko'plab odamlarni chalg'itadi, noto'g'ri yo'lga burib yuboradi, mamlakatga, jamiyatga katta zarar keltiradi.

Shaxsga ixlos qo'yish g'oyaga ixlos qo'yishdan ancha farq qiladi. U o'z mazmuniga ko'ra erkin (liberal) yoki avtoritar mazmunda bo'lishi mumkin. Avtoritar ixlos oxir-oqibatda shaxsga sig'inishga olib keladi. E'tiqod va tafakkur erkinligiga putur yetkazadi. Dogmatizmga, avtoritar shaxs qarashlarini dogmatlashtirishga yo'l ochadi. Avtoritar shaxs unga sig'inuvchi, og'zidan chiqadigan har bir so'zini birdan bir haqiqat deb biladigan ixlosmandlarsiz shakllanmaydi. U ixlosmandlarsiz, nari borsa, odamlar miyig'ida kulib, jiddiy qabul qilmaydigan, o'ziga bino qo'ygan olifta, satang, kalondimog' shaxs bo'lib qolaveradi. Yevropaliklarning "Qirolni ayonlari qiroq qiladi" degan maqolida katta hikmat bor.

Samarali, xolis ixlos bilan boyigan ishonch axloqiylik kasb etadi. Ixlos butun e'tiqodga, ma'naviyatga ijobiy ma'nodagi axloqiy his-hayajon, samimiylik va ijtimoiy mo'ljal, maqsad baxsh etadi. Haqiqiy erkin ixlos insonni tarbiyalaydi: ijtimoiy mo'ljal sifatida uni takomillashishga, ma'lum bir marralarni egallashga, o'zida muayyan xislatlarni shakllantirishga undaydi. Chunki erkin ixlos ibrat olishga, ixlos qo'ygan kishining yaxshi fazilatlariga havas qilishga, buyuk ajdodlariga, xalqiga, tarixiga munosib voris bo'lishga qaratilgan. Avtoritar ixlos esa biror shaxsga mute, qaram bo'lishga, ko'r-ko'rona taqlid qilishga, ixlos obyeksi shaxsiga sig'inishga, yoki o'z xalqini, tarixini biryoqlama baholashga, boshqa xalqlar va madaniyatlarga bepisand qarashga, millatchilikka, milliy man-manlikka xizmat qiladi.

Erkin ixlos e'tiqodning «insoniy» qiyofasini belgilovchi unsurlardan biri. Zero, erkin ixlos orqali e'tiqod milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy meros, ijodkor shaxslar, mutaffakirlar asarlari, ibratli hayoti hamda tarixiy voqealar bilan bog'lanadi, konkretlashadi, hayotiy lashadi. Ixlos tufayli e'tiqod aqliy hodisadan ko'ngil hodisasiga aylanib, individual shaklga ega bo'ladi, muayyan shaxs ongi va faoliyatining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ixlos insonning o'z maqsadiga erishish, aqlan va axloqan takomillashish, ijod qilish, yaratuvchilik faoliyati bilan shug'ullanish yo'lida juda katta hissiy rag'batdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ixlos e'tiqodning ilm va ishonch kabi uzviy tarkibiy qismidir. U ishonchga nisbatan bir oz torroq, ammo undan ancha teranroq, e'tiqod mohiyatiga yaqinroqdir. Ixlos qotib qolgan tushuncha emas. Balki u ham ilm va ishonch kabi o'zgaradi, rivojlanadi. Ba'zan inson ixlos qo'ygan narsasidan ilmi kengayishi, chuqurlashishi natijasida, yoki ishonchi oqlanmagani, yoki boshqa sabablarga ko'ra, ko'ngli soviydi. Ba'zan esa, aksincha, insonning ixlosi yanada ortadi, kuchayadi. U ixlos qo'ygan narsasidan axloqiy tayanch topibgina qolmasdan, go'zallik va aqliy zavq-shavq tuyadi. His-hayajoni ehtirosga aylanadi. Bu ixlosning ishqqa aylanishidir.

Ishq ixlosning har tomonlama kuchaygan, kengaygan, ixlosga xos axloqiy his-hayajonga aqliy va estetik tuyg'ularni ham qo'shib insoniy ehtirosga – muhabbatga, sevgiga, shu jumladan diniy yoki g'oyaviy-siyosiy ehtirosga aylangan ko'rinishidir. Ishqda ehtiros kuchli bo'lganligi sababli unga ayrim hollarda teranlik yetishmasligi mumkin. Ammo aksincha ham bo'ladi, ishq insonning aqliy imkoniyatlarini, ijodkorlik salohiyatini maksimal ravishda yuzaga chiqaradi va e'tiqodga nihoyatda teranlik baxsh etadi.

Ishq ko'p hollarda maishiy (falonchiga oshiq bo'lish va sh.k.) yoki diniy-falsafiy (hakiqatga, haqqa intilish) mazmunlarida ishlatiladi. Maishiy tushunchadagi ishq haqida Alisher Navoiy shunday yozgan: "Avvalgi qism. Avom ishqidurkim, avom un-nos orasida bu

mashhur va shoye'durkim derlar: "Falon falonga oshiq bo'libdur". Va bu nav' kishi har nav kishig'a bo'lsa bo'lur, shag'ab va istiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati jismoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdir va mubah. Va pastroq martabasida va parishonliq va mushovvashliqlar va besomonliq va nohushliqlareki, zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab".¹⁶

Mazmuni: birinchi qism – oddiy odamlar ishq bo'lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir. Aytadilarki, "Falon odam falonchiga oshiq bo'libdi." – bu xildagi odamlar kimgadir oshiq bo'lib iztirob chekib, shuning hayoli bilan yurganlar. Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy martabasi nikohdir. Nikoh – barcha xalqlar uchun umumiy va zaruriydir. Quyiyoq martabasida janjal, tashvishlar, ko'ngilsizlik va sharmandaliklar ko'rinadiki, bu haqda so'zlash – odobsizlik, bayon etish – hayosizlikdir. (Tasavvuf talqinida ishq inson e'tiqodining mohiyatigina emas, inson hayoti ma'nosi va pirovard maqsadi hamdir. Shu bois ishq so'fiy uchun e'tiqodning oliy ko'rinishi, mukammal e'tiqod. Ishqning ushbu shaklini Alisher Navoiy "siddiqlar ishq" deb ataydi. Siddiqlar deganida u yuksak maqomga yetgan sufiylarni nazarda tutadi. Ularning qalbilarida, fikru-zikrida Oллоhdan, unga muhabbatdan o'zga hech narsa yo'q. Ular faqat Ollox ishq bilan yashaydilar, boshqa narsalar, hayot tashvishlari bilan qiziqmaydilar. Ishq turli mazmunlarda qo'llanilishi tabiiy. Alisher Navoiy «Mahbubul qulub» asarida uning uch qismi (ko'rinishi) borligini ta'kidlaydi. Yuqorida biz keltirgan ishqning ikki ko'rinishidan tashqari yana bir xilini – estetik, badiiy ijodga aloqador shaqlini aytib o'tadi: «nazmtirozlar» va «afsonapardozlar» ishq.

Ishq e'tiqodni nafaqat yanada faollashtiradi, xatti-harakatga, o'z maqsadiga, sevgan narsasiga yetishishga undaydi, shuningdek uni o'z mohiyatiga yot ta'sirdan muhofaza ham qiladi. Chunki ishq murosa neligini bilmaydi. Ishq bilan yo'g'rilgan e'tiqod aql va ko'ngilni bir tomondan, ziyrak qilsa, ikkinchi tomondan, ko'r qilishi mumkin. Ishq tufayli e'tiqod negizida yotgan va ishonchga aylangan ilm yanada konkretlik, individuallik, to'laonli ehtiroslilik kasb etadi. Ishqning faolligi, uning murosa bilmasligi, o'z maqsadiga ehtirosli intilishi bilangina chegaralanib qolmaydi. Ishq e'tiqodning ichki harakatlantiruvchi kuchi, energiyasidir. Ishqda ijodiy yaratuvchilik xususiyati mavjud. Bu, eng avvalo, ishqning idealni shakllantirishida ko'rinadi.

Ishq ko'ngil ehtiroslarini yuzaga chiqarishga, avvalo o'z mahbubiga, qolaversa, boshqalarga yetkazishga ehtiyoj sezadi. Mahbubiga hamdu sanolar aytadi. Siddiqlar hamdu sanosi botiniy bo'lishi mumkin. Nazmtrozlar va afsonapardozlar ishq go'zallikni kuylovchi g'azallar, qasidalar, she'riyatning boshqa janrlarida ifodalansa, oddiy oshiqning ishq oddiy so'zlarda va har xil maishiy shakllarda ifodalanadi. Kimdir mahbubasiga ehtirosli maktublar, bayram va har xil sanalar munosabati bilan tabriklar yozadi, gullar va boshqa sovg'alar bilan siylaydi. Oshqlik paytida ko'tarinki kayfiyatda qo'shiq hirgoyi qilib yuradi, ba'zilar hatto she'r to'qiydi va h.k. Tadqiqotchi olim ham faniga, o'rganayotgan mavzusiga, olg'a surgan g'oyasiga muhabbati va sodiqligi tufayli yillar davomida zahmat chekib ishlaydi, izlanadi, "igna bilan quduq qazadi". Qisqasi, hamma oshiqlarda ijodga rag'bat paydo bo'ladi. Ishq, shunday qilib, inson ma'naviy dunyosini boyitadi. Uni ma'naviyatni yaratuvchi ijodkor kuch, desak yanglishmaymiz. Ishqni ba'zan ma'naviyatning javhari deyishadi. O'zbek xalqida

¹⁶ Алишер Навоий. МАТ, Т.14, Т, 1998, 67-68 бетлар.

“Ishqsiz – eshak, dardsiz – kesak,” degan maqol bor. Biz inson ma’naviyati bilan hayvondan farq qiladi degan edik. Yuqorida keltirilgan maqolda ishqsiz inson hayvondan, ishq iztirobini chekmagan inson hatto jonsiz kesakdan farq qilmasligi aytilmoqda. Xalq maqolida ishq ma’naviyatning o’zagi ekanligi ta’kidlanmoqda.

Ishqning muhim husisiyatlaridan biri idealni shakllantirish, dedik. Ideal jamiyat rivojlanishi jarayonida qo’lga kiritiladigan yutuqlarning, ijtimoiy hodisalarning (jumladan inson shaxsi takomillashuvining) erishish mumkin bo’lgan mukammal mazmuni va shakli haqidagi tasavvurlardir. Yoki narsalar va hodisalarning xayoldagi, tasavvurdagi eng mukammal, nuqsonsiz, aybsiz namunasidir. Inson qo’lga kiritilgan yutuqlarni, yaratgan narsalarni, ilmiy va badiiy ijodini (asarlarini) yashayotgan jamiyati va undagi tartib qoidalarni doimo fikran muayyan ideallarga qiyoslaydi, mavjud holat bilan qoniqmasdan, yanada takomillikka intiladi. O’zi ham bu jarayonda kamol topadi. Ushbu ma’noda ideal jamiyat va shaxsning o’sib borayotgan, yuksalayotgan ehtiyojlari va intilishlarini axloqda, huquqda, badiiy va ilmiy ijodda, ta’lim-tarbiyada, umuman turmushda ifodalaydigan, yuzaga chiqarishga qaratilgan eng yuksak, oliy ijtimoiy mo’ljallaridir. Shu boisdan u e’tiqodning unsuri. Idealsiz e’tiqod, binobarin, ma’naviyat yo’q

Idealni mutlaqlashtirmaslik kerak. Aks holda u mavhum va nohayotiy, xayoliy hodisaga aylanadi. Ijtimoiy ideal konkret-tarixiy xarakterga ega. Uni mistiklashtirishning hech hojati yo’q. Xalq og’zaki ijodida Alpomish ideal qahramon, - aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik, elparvarlik, vatanparvarlikning badiiy-epik namunasi. Alpomish mavhum g’oyalar, ideallar majmui emas, konkret ideallarni aks ettiruvchi jonli obraz. Navoiy uchun shunday ideal – Farhod. U jismoniy, va ma’naviy kamolotga erishgan oshiq shaxs. Lekin Farhod obrazi murakkab axloqiy, sufiyona-diniy, ishqiy g’oyalarni, ularni mehnat orqali nomayon etishi “Dil ba yor, dast ba kor” g’oyasini, insoniy munosabatlarni aks ettirishiga ko’ra, Alpomish obraziga nisbatan ancha konkretdir. Oybek romanida esa Navoiyning o’zi – ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, konkret inson obrazidir. Bu ideallarning birortasi mavhum tabiatga ega emas. Ular o’z davrning komil inson to’g’risidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Har uchchala obraz o’z ehtirolariga, maqsad va intilishlariga ega, jonli inson, fidoyilik, elga beg’araz xizmat qilish, o’z e’tiqodiga sodiqlik namunasi sifatida o’quvchi tomonidan qabul qilinadi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirsak, e’tiqod tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi: 1) ilm; 2) ishonch; 3) ixlos; 4) ishq; 5) ideal. Ular o’zviy bog’liq, bir biriga ta’sir ko’rsatadi, boyitadi, va h.k. Ulardan har birining e’tiqod bilan munosabatlari qism va butunlik o’rtasidagi dialektik aloqalardir. Aynan ushbu tarkibiy qismlarning har biri tegishli vaziyatda butun e’tiqodning o’rnini bosishi mumkin. Aksincha, e’tiqod ulardan har birining bir bo’lagiga, qismiga aylanishi mumkin. Masalan, ilmning bir bo’lagi sifatida ilmiy e’tiqod, ishqning (oshiqlikning) bir bo’lagi sifatida mahbubga e’tiqod, unga sodiqlik namoyon bo’ladi. Ilm e’tiqodga, e’tiqod ilmga, yoki ishq e’tiqodga, e’tiqod ishqqa aylanishi to’g’risida ko’plab misollar keltirish mumkin.

E’tiqod tushunchasini tashkil etuvchi tushunchalarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati.

E’tiqod tushunchasi mazmun-mohiyatini to’la ochish uchun faqat uning tuzilmasini aniqlash va tahlil qilish yetarli emas. Amalda ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, nafosat, din kabi ijtimoiy ongning barcha shakllariga oid kategoriyalar va tushunchalarni jalb qilish lozim. Masalan, vatanparvarlik tushunchasini olaylik. Haqiqiy vatanparvar bo’lish

uchun shaxs o'z ona tiliga, urf-odatlariga, madaniy merosiga, xalqi, mamlakati buguni va kelajagiga **ishonch** bilan qarashi, ularga *ixlos qo'yishi, sevishi* lozim. O'zining xudbin manfaatlarini el-ulus, Vatan manfaatlaridan ko'proq sevadigan kishi vatanparvar bo'lolmaydi. Yoki har qanday sharoitda ham Vatan manfaatlariga *sodiq qolishga*, og'ir zahmatdan, qiyinchiliklardan qo'rqib, fidoyilik ko'rsatishga *irodasi va sadoqati* yetmaydigan shaxs, u qanchalik keng bilimli bo'lmasin, Vatanni sevishi haqida qanchalik ko'p gapirmasin, vatanparvar hisoblanishi mumkin emas.

Ayni payta Vatanga muhabbat ko'r-ko'rona bo'lsa, kutilgan samarani bermaydi. Vatan ishq shaxsning tanqidiy mulohaza yuritishini, mamlakati, xalqi kamchiliklarini bartaraf etishga, milliy qadriyatlarini takomillashtirishga intilishini to'sib quymasligi kerak.

Ba'zan shunday kishilar uchraydiki, ular o'tmish bilan bir qatorda xalqimizning urf-odatlari, qarashlari, maishiy turmushini ham ideallashtiradi. Biror kamchilik haqida gapirgan kishini vatanparvarlik yetishmaslikda ayblaydi. Ular faqat o'zlarini haqiqiy vatanparvar, deb hisoblaydi. Hatto o'zlariga nisbatan millatparast degan tushunchani qo'llaydi. Guyoki millatparvar, xalqparvar degan tushunchalar ularning xalqqa nisbatan o'ta muhabbatini, fidoyiligini to'liq ifodalay olmaydi. Aslida bu man-manlikning, o'zini ko'z-ko'z qilishning bir ko'rinishidan boshqa narsa emas.

Millatparast tushunchasi mazmuni haqida ikki og'iz fikr bildirish zarur. "Parast" forscha so'z yasovchi qo'shimcha. U salbiy mazmunda ishlatiladi. Masalan, otashparast (o'tga sig'inuvchi), molparast (ziqna, xasis, boylik yig'uvchi va h.k.), butparast (butlarga, sanamlarga sig'inuvchi), amalparast kabi tushunchalar mazmuni buni ko'rsatib turibdi. Shu sababdan millatparast emas, millatparvar bo'lish lozim. Millatparast xalqidagi mavjud kamchiliklarni ko'rolmaydi, uni ideallashtiradi. Aslida esa u ko'proq o'zini o'ylaydi. Xalq manfaatlari haqida og'iz ko'pirtirib, soxta obro' orttirgisi, biror lavozimga ilashgisi keladi. Millatparastni shuhratparast va mansabparast desa, to'g'riroq bo'ladi. Urf-odatlarimiz, milliy psixologiyamiz va mintalitetimizga xos ba'zi bir kamchiliklarni xolis baholab, ulardan qutilmasak, taraqqiyotda yuksak sur'atlarga erisha olmaymiz. Ayniqsa, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, sovg'a-salom, pora yordamida ishini bitkazib olishga urinish, tanish-bilishchilikni ba'zan jamiyat va davlat manfaatlaridan ustun qo'yish hamda ko'plab ko'zga tashlanmaydigan boshqa mayda-chuyda kamchiliklar jamiyat Vatan taraqqiyoti uchun ancha xavflidir.

Taraqqiy etishni istagan jamiyat nafaqat alohida insonni, shuningdek butun millatni tarbiyalab borishni unutmasligi zarur. Haqiqiy vatanparvar bo'lganligi hech qanday shubha uyg'otmaydigan jadidlarning ilg'orlari millat tarbiyasi, uning e'tiqodini yuksaltirish, ilm olishi yangi yuksak g'oyalarga, ideallarga ixlos qilishi, intilishi, erk va ozodlikka ishq qo'yishi to'g'risida qayg'urganlar. Ular faqat yangi usuldagi maktablar tashkil etish, ta'limni isloh qilish bilan cheklanmagan. Ular xalqni uyg'otishga, yuksaltirishga, yangicha fikrlashga o'rgatadigan, yangicha axloqiy va estetik meyorlarni xalq ongiga singdirishga, eskicha qoloq qarashlardan, kamchiliklardan qutilishga yordam beradigan milliy matbuotga, teatrga, dramaturgiyaga, publitsistikaga, adabiyotning yangi janrlari – zamonaviy roman, qissa, barmoq vaznida yoziladigan she'riyatga asos soldilar. Ular mustamlakachilik sharoitida ta'limni tarbiyalovchi ta'limga aylantirishga urindilar. Behbudiy, Fitrat, Munavarqori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa ko'plab atoqli jadidlar ijodi va faoliyati buning

isbotidir. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot”... soʻzlaridan boshlanuvchi fikri jadidlarning ushbu masalaga boʻlgan munosabatining yorqin ifodasidir.

Tarbiya esa faqatgina yangi xislatlarni shakllantirib qolmasdan, qoloq illatlardan, kamchiliklardan xalos boʻlish maqsadini ham koʻzlamogʻi lozim. Lekin millat tarbiyasi oson ish emas. Eng avvalo millat tarbiyasi tushunchasi mazmunini va metodologiyasini aniqlab olish kerak. Aks holda demagogiya, safsatabozlik, nasihatbozlik, yoki odamlarning “miyasini yuvish”, har qanday orginal va keskin ifodalangan fikrdan choʻchish, ichki senzorni va ijtimoiy qoʻrquvni tiklash, boshqacha fikrlaydiganlarning ovozi boʻgʻishga intilish yana tirilganini sezmay qolamiz. Millat tarbiyasi bahonasida tasviriy sanʼatni siyosiy va ijtimoiy plakatlar darajasiga, badiiy adabiyotni targʻibot va didaktik pandnomalar darajasiga tushirmaslik, ijodkorlarga falon mavzuda asar yaratishni tavsiya qilmaslik kerak. Shundoq ham tez-tez zamonamiz qahramoni obrazini yaratishga daʼvatlar chalinib turadi. Bu aslida sotsialistik realizmdan qolgan illatdir.

Millat tarbiyasi vatanparvarlikni mustahkamlashning, milliy gʻoyani amalga oshirib, yuksak marralarni egallashning muhim sharti va vositasidir. Millat rahnamolari, ziyolilari, yoshlari mamlakat ahvolini yuksak ideallar bilan taqqoslab idrok etsalargina, uning kelajagini ularga moslab yaratishga harakat qilsalargina, vatanparvarlik samara beradigan eʼtiqod darajasiga koʻtariladi. Biz milliy maʼnaviyatimizni yuksaltirmoqchi ekanmiz, eʼtiqod masalalariga jiddiy eʼtibor bermogʻimiz, taʼlim – tarbiya jarayonida uning unsurlari va tarkibiy qismlari uygʻun shakllanishiga erishmogʻimiz lozim. Yuqorida vatanparvarlikni toʻgʻri tushunish va tarbiyalashning eʼtiqod bilan bogʻliq jihatlari toʻgʻrisida umumiy tarzda fikr yuritildi. Burch, vijdon, halollik, ezgulik, goʻzallik, adolat, teng huquqiylik va boshqa barcha muhim axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy tushunchalar, kategoriyalarni, umuman ijtimoiy va maʼnaviy yuksalishni eʼtiqod bilan bogʻliqlik tomonlarini tahlil qilish mumkin va joiz.

5-MAVZU: MAʼNAVIYATNING MEYORIYLIGI VA IJTIMOIIY FUNKSIYALARI

Reja:

1. Insonning bioijtimoiy mavjudotga aylanishida maʼnaviyatning oʻrni. Ijtimoiylashish tushunchasi.
2. Urugʻ-jamoa rivojlanishi davomida insonning ijtimoiylashuv darajasi, maʼnaviyatining oʻsishi. Maʼnaviyat inson ijtimoiylashuvining oqibati va ayni paytda omili, vositasi ekanligi.
3. Maʼnaviyatning inson va jamiyat hayotida bajaradigan vazifalari (funktsiyalari): eng umumiy, universal va konkret-ijtimoiy vazifalar.
4. Maʼnaviyatning meyoriy xarakteri. Bugungi kunda jamiyatda tub oʻzgarishlar yuz berayotgan sharoitda maʼnaviyatga ilmiy xolislik bilan yondashish zaruriyati.

Biz avvalgi boblarda maʼnaviyat insonning mohiyatini tashkil etuvchi belgilaridan biri ekanligi, insoniyat hayvonotdan, jamiyat tabiatdan maʼnaviyati bilan ajralib turishi haqida gapirgan edik. Haqiqatan, maʼnaviy qadriyatlarni oʻzlashtirish jarayonida insonning asl tabiati, ichki insoniy tuygʻulari, ruhiy-emotsional va aqliy-intelektual dunyosi shakllanadi, oʻzligini anglaydi.

Ma'naviyat insonda asl insoniy xislatlar, fazilatlarni shakllantiradi. Unga o'zini anglashga, hayvonot olamidani, tabiatdan o'zini ajratib, borliqdagi o'z o'rnini aniqlashga yordam beradi. Asotirlar, rivoyatlar, adabiyot, san'at, din, axloq, ilm-fan, urf odatlar, marosimlar, madaniy meros va ma'naviyatning boshqa mavjudlik shakllari insonga tabiat va koinot bilan, boshqa o'ziga o'xshagan odamlar bilan, tabiat va jamiyatni "boshqaruvchi", ularga "jon bag'ishlovchi", ularni o'zgartiruvchi noma'lum kuchlar bilan "aloqa o'rnatishga" ko'maklashadi. *Ma'naviyatsiz inson biologik mavjudot darajasida qolib ketar, kishilik jamiyati vujudga kelmas edi.*

Ma'naviyat tufayli inson o'z biologik tabiatiga ijtimoiylik bag'ishlab, bioijtimoiy mavjudotga aylanadi. Ijtimoiylashish – bu ongli ravishda o'zaro birlashish, birgalikda uyushib yashash va mehnat qilish, ishlab chiqarish bilan shug'ullanish, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish, ma'lum meyorlarga, qoidalarga, cheklovlar, taqiqlarga, yoki majburiyatlarga rioya qilish, boshqalar bilan ular asosida munosabatlarini tartibga solish demakdir. Guruh bo'lib yashaydigan hayvonlar o'rtasida munosabatlar faqat yashash uchun kurash, ya'ni oziq –ovqat topish, xavf-xatardan, dushmanlardan guruhni himoya qilish, ko'payish va sog'lom nasl-qoldirish instinktlari asosida ongsiz quriladi.

Odamsimon mavjudotlar (yuqori primatlar) podasi ichida ilk, eng oddiy taqiqlovchi va undovchi meyorlarning paydo bo'lishi, ijtimoiylashuv jarayonning boshlanishi, podaning urug' –jamoaga aylanishidagi birinchi odim edi. Jinsiy aloqalar tartibga solindi. Ota-onalar va bolalar, aka-ukalar va opa-singillar o'tasida, keyinchalik yaqin qarindoshlar o'rtasida jinsiy aloqalar taqiqlandi. Boshqa har xil taqiqlar o'rnatildi. Urug'-jamoada uning har bir a'zosi va jamoa o'rtasida o'zaro majburiyatlar yuzaga keldi: ovchi ov payti yarador bo'lsa, urug'-jamoada uni va oilasini tuzalib, oyoqqa turib ketgunga qadar boqqan, halok bo'lgan ovchining bola-chaqasi va oilasiga g'amxo'rlik qilgan. Bu jarayonda yana qator meyorlar vujudga kelgan: halok bo'lgan ovchining xotini kimga tegishi, bunga haqi bor erkaklarning birinchi, ikkinchi va h.k tartibi qandayligini belgilovchi qoidalar, meyorlar shular jumlasidandir. Taqiq va majburiyat – bu yashash va faoliyat yuritish meyorlaridir. Shunday qilib, ma'naviyat unsurlari shakllanishi ijtimoiy meyorlarning vujudga kelishi bilan bog'liqdir.

Urug'-jamoada rivojlanishi davomida insonning ijtimoiylashuv darajasi, ma'naviyati o'sdi. Insonning ijtimoiylashuvi deganda uning jamoa va boshqa odamlar bilan aloqalari shaklan xilma-xillashib, mazmuni boyib, chuqurlashib borishi, odamlar o'rtasida o'zaro va alohida individning jamoaga muhtojligi o'sishi tushuniladi. Inson ehtiyojlari mudom yuksaladigan mavjudot sifatida ularni qondirish uchun jamiyatda yaratilgan mahsulotlardan – boshqalar mehnati natijalaridan foydalanishga majbur. O'zi ham jamiyatga nimadir beradi va evaziga barcha kerakli mahsulotlarni oladi. Jamiyat rivojlangan sayin insonga zarur mahsulotlar turi va soni ko'payib boraveradi. Bugungi davr kishisi uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpanadan tashqari minglab xildagi buyumlar, xizmatlar kerak. Eng avvalo u savodini chiqarishi, bilim olishi, kasb egallashi lozim. Bularni u tabiatdan ololmaydi, jamiyatdan oladi. Zamonaviy inson shaxsiy transport yoki jamoat transportidan foydalanmasa, biror ishini bitira olmaydi. Bo'sh vaqtini foydali o'tkazish uchun u TV ko'rsatuvlarini ko'radi, kitob o'qiydi, kino yoki teatrda boradi, istirohat bog'iga chiqadi, internetga murojaat qiladi va h.k. Bularning barchasi bir yoki ikki kishi tomonidan emas, ko'plab kishilar tomonidan yaratiladi. Hatto muallifi bir kishi bo'lgan badiiy asar chop etilishi va o'quvchiga yetib borishi uchun nashriyotlarda, bosmaxonalarda, kitob savdosida,

transportda ishlaydigan ko'plab odamlarning mehnati talab etiladi. Insonning jamiyatga bog'liqligining o'sishi uning ijtimoiylashuvi ifodasidir.

Insonning ijtimoiylashuv darajasi, ma'naviyati o'sishi urug'-jamoani mustahkamladi, uning a'zolari o'zaro munosabtlarini yanada takomillashtirdi va tartibliroq kechishiga yordam berdi. Insonning yaratuvchilik, mehnat qurollarini takomillashtirish ehtiyojlarini rag'batlantirdi. Inson va uning hayotining tobora ijtimoiy ahamiyat kasb etib borishi turli moddiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, diniy-e'tiqodiy, estetik va boshqa turmush meyorlari, qoidalari, urf-odatlarining boyib borishiga olib keldi. Shu sababdan *ma'naviyat inson ijtimoiylashuvning oqibati va ayni paytda omili, vositasi* deyish mumkin. *Ma'naviyatning ijtimoiy funksiyalari ushbu holatdan, jamiyat va insonning taraqqiy etish zaruratidan kelib chiqadi.*

Urug'-jamoalar ov qiladigan, don-dun va meva-cheva yig'adigan hududlarni o'zaro kelishib bo'lib olgan, o'rtadagi kelishuvga qattiq rioya qilgan. Chunki, aks holda, doimiy o'zaro janjal va janglar har ikki tomonning talofat ko'rishiga, hatto qirilib ketishiga olib kelgan. Xuddi shunday ovdan o'lja bilan qaytayotgan yolg'iz ovchini boshqa urug'-jamoaga yoki qabila ovchilari qo'lidagi o'ljasini tortib olmasligi, yoki unga ziyon yetkazmasligi to'g'risida og'zaki kelishuvlar tuzilgan. Zarur hollarda kelishuvni buzmaslik bo'yicha ontlar ichilgan. Bu, albatta, osongina va tezda yuz bermagan. Urug'-jamoalar, qabilalar ov qiladigan, mahsulot yig'adigan, keyinchalik dehqonchilik qiladigan hududlarni, mol boqadigan yaylovlarni bo'lib olganga qadar minglab yillar o'tgan, qanchadan-qancha qonlar to'kilgan. Hududlarni bo'lib olish muayyan mintaqada aholi sonining ko'payishi, urug'-jamoalarning yiriklashuvi va qabilalarga birlashuvi, harbiy kuch-qudratining o'sishi bilan ham bog'liq. Agar ovchi boshqa urug'-jamoaga tegishli bo'lgan joyda o'sha joyning egalaridan beruxsat ov qilsa, undan o'ljasini tortib olish, hatto jazolash adolatli hisoblangan. Urug'-jamoalar asrlar davomida o'zaro hayot-mamot uchun kurashgan. "Qonga - qon, jonga - jon" degan tamoyillar paydo bo'lgan va oxir-oqibat odamlarni, urug'-jamoalarni, qabilalarni, keyinchalik davlatlarni o'zaro kelishuvga majbur etgan.

Urug'-jamoalar qabilalarga birlashib mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish rivojlanishi jarayonida turli meyorlar va qoidalar yanada ko'paygan. Kulol yasagan bir dona kosasi yoki ko'zasiga qancha bug'doy yoki boshqa mahsulot olishi kerak? O'roq, ketmon, omoch va boshqa mehnat qurollari qancha miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlariga, bug'doy yoki arpaga, jun va go'shtga, necha dona mayda molga yoki qoramolga teng? Mahsulot almashuv meyorlari, har bir oilaning ariq qazish, zovur tozalash, umumiy hasharda yoki boshqa ishlarda qatnashish, mahsulotdan bir qismini umumiy ehtiyojlarga tekin berish (natural soliqning ilk oddiy shakli) hamda urug' jamoani, qabilani o'z qishlog'ini, yerini himoya qilish va shunga o'xshash harbiy majburiyatlari vujudga kelgan.

Bundan tashqari, urf-odatlarga, diniy e'tiqod talablariga rioya etish, totemlarga, sanamlarga, ma'budlariga sig'inish, ularga qurbonliklar keltirish va shu kabi ma'naviy majburiyatlar paydo bo'lgan. Birgalikda g'uj bo'lib yashash, qishloqlar va shaharlar rivojlanishi tufayli turli yuqumli kasalliklar va infeksiyalardan saqlanish uchun belgilangan gigiyenik va tozalik meyorlarga, qoidalarga rioya etish, suv ichadigan hovuz, quduq, ariqni bulg'amaslik majburiyatlari qaror topgan. Boshqacha aytganda, ko'plab taqiqllovchi va undovchi, majburlovchi axloqiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy meyorlar vujudga kelgan. Ularni o'zlashtirish jarayonida insonning o'zi ijtimoiy mavjudot, ma'naviy shaxs sifatida

yuksalgan. Ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot almashuv mezonlari moddiy-iqtisodiy munosabatlarga mansub bo'lsa-da, ular asosida yotadigan ongli xulq-atvor, harakat, to'g'rilik, adolat, halollik tamoyillari ma'naviyatga daxldordir. Davlat paydo bo'lishi bilan bir vaqtda huquqiy va siyosiy meyorlar ham qaror topgan. Keyinchalik esa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq shakllangan.

Yuqoridagilar ayonlashmoqdaki, *barcha meyorlar cheklovchi va undovchi mazmunga ega*. Cheklash va undash orqali ular odamlarning xulqini, xatti- harakatini belgilaydi, o'zaro munosabatlarini, shu jumladan inson va jamoa, jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi aloqalarni tartibga soladi. Avvalgi boblarda e'tirof etilganidek, axloq, din, falsafa, adabiyot va san'at, ilm-fan va ularga tegishli tushunchalar, g'oyalar, baholar, meyorlar, qoidalar, qonunlar, ta'limotlar, qadriyatlar tizimini – ma'naviyatni tashkil qiladi. Ularni o'zlashtirish jarayonida insonning ongi, tafakkuri rivojlanadi, bilimlari, qarashlari, imoni, e'tiqodi shakllanadi.

Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotida bajaradigan vazifalarini (funktsiyalarini) eng umumiy, universal vazifalarga hamda konkret-ijtimoiy vazifalarga bo'lish mumkin. Universal vazifalar uch xildir. *Birinchisi – insonning ruhiy va intellektual ehtiyojlarini qondirish.* Ma'naviyat insonning ezgulikka, haqiqatga, adolatga, tenghuquqlikka, ozodlikka, go'zallikka, mehr-oqibatga intilish ehtiyojlarini shakllantiradi va qondiradi. *Ikkinchisi – insonning ushbu ehtiyojlarni yaxshiroq va to'laroq qondirish uchun unga zarur bilimlar beradi.* Masalan, axloqiy, huquqiy, siyosiy tushunchalar, g'oyalar, baholar, qarashlar, nazariyalarni, ideallarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida inson tegishli axloqiy, huquqiy va siyosiy bilimlarga ega bo'ladi, dunyoqarashi kengayadi. *Uchinchisi – tarbiyalash vazifasidir.* Inson ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi, muayyan bilimlarga ega bo'lishi jarayonida ma'naviy jihatdan kamol topadi, imon-e'tiqodi mustahkamlanadi. Unda ijodkorlik, yaratuvchilik imkoniyatlari o'sadi, didi noziklashadi, mulohazalari teranlashadi, yaratuvchilik ishtiyoqi va mahorati o'sadi.

Ma'naviyatning konkret-ijtimoiy vazifalari uning universal vazifalaridan kelib chiqadi. Ular ancha rang-barang, jamiyat taraqqiyotining erishilgan darajasi va talablari bilan bog'liq. Shu sababdan ularga konkret-tarixiylik xos. Har bir tarixiy davr o'zining qaror topgan ma'naviyatiga hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy imkoniyatlariga va talablarga mos shaxsni tarbiyalaydi. Unga mavjud mehnat ko'nikmalarini, ishlab chiqarishi texnologiyalarini, axloqiy, huquqiy, e'tiqodiy, siyosiy talablarni o'rgatadi. Ushbu talablardan kelib chiqib, u o'zining narsa va hodisalarga munosabatni belgilaydi. Inson doimo tanlash zaruratiga duch keladi. Yomonlik va yaxshilik, ezgulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, bunyodkorlik va buzg'unchilik o'rtasida ya'ni o'z maqsadiga qiyinchilik bilan, ammo halol erishish yoki buzg'unchilik, oson noadolatli yo'l orqali erishishdan inson birini tanlash muammosi bilan to'qnashadi. U nimani, qaysi yo'lni, g'oyani va qanday tanlashi uning ma'naviyatiga, baholash mezonlari va qadriyatlar tizimiga bog'liq.

Xulosa qiladigan bo'lsak, *ma'naviyat* nisbatan umumiy bo'lgan ijtimoiy baholar, meyorlar, mo'ljallar, ideallar majmui sifatida, urf-odat va qabul qilingan rasm-rusumlar hamda kishilar o'rtasidagi mafkuraviy munosabatlar, ya'ni ma'naviy madaniyat va ma'naviy muhit sifatida boshqa *ijtimoiy munosabatlarga, alohida shaxslar va guruxlar xulq-atvoriga, faoliyatiga cheklash yoki rag'batlash, undash orqali ta'sir qo'rsatadi, inson omilini rivojlantiradi.* Ma'naviyat inson shaxsini nafaqat shakllantiradi va kamol toptiradi, shuningdek uni zavoldan, ichki va tashqi mafkuraviy, ruhiy tahdidlardan, nafsdan, hirsdan,

manmanlikdan, yot, buzg'unchi ta'sirlardan himoya qiladi. *Ma'naviyat ushbu ma'noda insonning ruhiy va intellektual immuniteti, qalqonidir.*

Ma'naviyat tufayli inson o'zligini anglaydi. Bu uning o'z manfaatlarini to'g'ri, xolis anglashni, oldiga aniq va real maqsadlar qo'yishni, o'zini xalqining, jamoasining bir bo'lagi deb his qilishni, o'z kuchiga, imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olishni bildiradi. Bu, shuningdek, insonning o'z shaxsiy kamchiliklarini, fe'l-atvoridagi nuqsonlarini, bilimi, malakasi va amaliy ishlaridagi kamchiliklarni bilishni ham anglatadi.. O'zlikni anglashning man-manlikka, maqtanchoqlikka, xudbinlikka, kibru-havoga aloqasi yo'q. O'zlikni anglash kamtarlikni, doimiy ravishda takomillikka intilishni, o'z kamchiliklariga qarshi kurashni bildiradi. Faqat o'zligini anglagan kishigina millatini hamda o'z shaxsiy ayniyatini anglaydi. Milliy va shaxsiy ayniyat (identlik) ma'naviyat yordamida va zamirida shakllanadi va ta'minlanadi.

Ma'naviyat shaxsiy va milliy identlikni ta'minlashi barobarida avlodlarni o'zaro bog'laydi, ular o'rtasidagi vorisiylikni, davomiylikni yuzaga chiqaradi. Bu uning konkret-ijtimoiy vazifalaridan biridir.

Jamiyat miqyosida esa ma'naviyat eng avvalo millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi, uning rivojlanishi yo'nalishini, kelajagini belgilaydi. Islom Karimov to'g'ri ogohlantirganidek: "insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajavozkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buning tasdig'ini uzoq va yaqin tarixidagi ko'p-ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda, shak-shubhasiz, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi."¹⁷ U ijtimoiy-madaniy filtr vazifasini bajaradi va milliy an'analarga yot, milliylikka putur yetkazuvchi, millatning axloqiy, estetik, falsafiy qarashlariga, imon-e'tiqodiga, adolat va haqiqat to'g'risidagi tasavvurlariga mos kelmaydigan narsalarni qabul qilmaslikka, aksincha, ularni siqib chiqarishga harakat qiladi. Ma'naviyat inqirozi muqarrar ravishda inson va jamiyat inqiroziga olib keladi. Ushbu munosabat bilan Islom Karimovning ma'naviy tahdid haqidagi quyidagi fikri adolatli va haqqoniydir: "ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'noda erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman.

Agarki masalaga amaliy ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj - bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotiga chorlaydigan, shu yo'ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga zarba beradigan mudhish xafv-xatarlarni anglatadi."¹⁸ Bu fikrdan ma'naviyatga tahdid insonga va millatga tahdid ekanligi, ma'naviyat insonni, millatni muhofaza etishi yaqqol ayon bo'ladi. Ma'naviyat shuningdek milliy

¹⁷ Ислом Каримов. Юсак маънавият — енгилмас куч...11-б

¹⁸ Ислом Каримов. Юсак маънавият — енгилмас куч...13-14 б

rivojlanish uchun zarur bo'lgan o'zga xalqlarning yutuqlarini, tajribasini o'zlashtirishga undaydi.. Milliy turmush tarzini muhofaza qilishga va rivojlantirishga kuchi yetmasa, inqirozga uchraydi.

Demak, *ma'naviyat millat ichki dunyosining, qarashlarining va qadriyatlarining voqeligi bo'libgina qolmasdan, ularning yashovchanlik darajasi, o'z-o'zini muhofaza qila olish va rivojlanish kuchining namoyon bo'lishi hamdir.*

Shu boisdan ma'naviyat madaniy merosga, tarixiy an'analarga, diniy va dunyoviy urf-odatlariga nihoyatda g'amxo'rlik bilan yondashadi, ularning unutilishiga yo'l qo'ymaydi. Moddiy foydalilik yuksak ma'naviyat uchun birinchi darajali emas. Ushbu ma'noda ma'naviyat hayotga, turmushga, ijtimoiy munosabatlarga va muammolarga, o'tmish va kelajakka oid hodisalarga keng miqyosda ijtimoiy-madaniy mo'ljallar, ideallar nuqtai nazaridan baho beradi hamda bu baholarning mezonlari va meyorlarini belgilaydi.

Ma'naviyat, shunday qilib, meyoriy (normativ) xossaga egaki, unga mos ravishda jamiyatda narsa va hodisalarga, ijtimoiy aloqalarga nisbatan muayyan munosabat shakllanadi. Bu meyorlarga mos keladigan hodisalarga, xatti-harakatlarga biz ijobiy munosabatda bo'lamiz, ularni ma'qullaymiz, imkon topilsa, amalda qo'llab-quvvatlaymiz. Va, aksincha, ma'naviyatimizga mos kelmaydigan hodisalarni, xatti-harakatlarni qoralaymiz va h.k.

Ma'naviyatning meyoriy xarakteri bizning u yoki bu hayotiy pozitsiyani egallashimizni anglatadi. Ma'naviyat qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning meyoriylik xossalari shunchalik erkin, boy bo'ladi, tolerantlik va rang-baranglik kasb etadi. Boy ma'naviyat turlicha fikrlarni, qarashlarni, yondashuvlarni taqozo etadi, ammo ulardagi farqlardan qat'i nazar, albatta, ijtimoiy faollikni bildiradi. Ma'naviyat qancha qashshoq bo'lsa, u shunchalik mutaassiblikka (fanatizmga) moyil, o'zgacha qarashlarga va yondashuvlarga murosasiz, kazarmacha birxillikni qaror toptirishga harakat qiladi.

Millatning ma'naviyati hech bir shaxs, hech bir ijtimoiy guruh tomonidan to'raligicha o'zlashtirilmaydi. Kishilarning va guruhlarning amaliy faoliyatida ma'naviyatning faqat o'zlashtirilgan qismigina ro'yobga chiqadi. O'zlashtirilmagan ma'naviyat, tabiiyki, o'zining meyoriy va boshqa xislatlarini yuzaga chiqara olmaydi. Shu boisdan jamiyatda ayrim shaxslar va guruhlar aksilijtimoiy xatti-harakatlarga qo'l uradilar. Biz haqqoniy ravishda ba'zi kishilarning ma'naviy qashshoqligi hamda ularga o'zlarini tiyish uchun iroda yetishmasligi to'g'risida bezovtalanib gapiramiz.

Ma'naviyatning meyoriy xarakteri xatti-harakatlarni cheklash, ularni mavjud axloq va qonun doirasida saqlab qolish bilan belgilanmaydi. *Yuksak ma'naviyatning meyoriy xarakteri birinchi navbatda cheklashda emas, balki muayyan faoliyatga undashda, ya'ni ijodkorlikka, yaratuvchilikka undashda, rag'barlantirishda namoyon bo'ladi.* Ma'naviyati boy xalqning ruhiyati, ijtimoiy mo'ljallari, ideali o'zini tiyishga, kamsuqum bo'lib turg'unlikka intilishga emas, balki ijodkorlikka, turmushni yangilashga, yanada ilg'or yutuqlarni qo'lga kiritishga, yuksalishga qaratilgandir. Boshqacha qilib aytganda, har tomonlama yuksalishga, kamolotga, ijtimoiy taraqqiyotga rag'bat asl ma'naviyatning meyoridir, ijtimoiy mo'ljalidir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, aytish mumkinki, *ma'naviyat o'zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi meyoriy xossalardan kelib chiqib*, har qanday alohida olingan qadriyatlarining, shu jumladan chetdan qabul qilingan yutuqlarning ham

muayyan tarzda faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi va jamiyat a'zolarining ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi.

Ma'naviyatning konkret - ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) millatni muhofaza qilish; o'zligini anglashni, identligini ta'minlash;

b) avlodlar o'rtasida vorisiylikni va davomiylikni ta'minlash;

v) o'tmishga, bugunga va kelajakka oid hodisalarga baho berish, bu baholarning mezonlari va meyorlarini belgilash (aksiologik vazifa);

g) jamiyatni va alohida shaxslarni muayyan hayotiy pozitsiyani egallashga undash; insonni jamiyat talablariga moslashtirishi (adapsion vazifa);

d) millatni taraqqiyotga, alohida shaxsni takomillashishga rag'batlantirish;

ye) insonning o'z shaxsiyati bilan ayniyatda yashashini, uning asl insoniy tabiati rivojlanishini, takomillashishini ta'minlash;

j) kishilar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish (axloqiy va huquqiy meyorlar orqali); ya'ni regulativ vazifa.

z) insonning tabiat va jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlash.

Ma'naviyat mohiyatini va ijtimoiy vazifalarini qanday tushunish muhim ahamiyatga ega. Zero, amaliy faoliyatimizni, ayniqsa, fan, adabiyot va san'atni, xalq ta'limi va madaniyatning boshqa sohalarini rivojlantirish, hozirgi zamon mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura olish ko'p jihatdan ma'naviyat haqidagi ilmiy tasavvurlarga bog'liq

Ma'naviyatga nisbatan irratsional qarashlar ustunlik qilsa, unda yana asta-sekin ilm –fanda, adabiyot va san'atda, texnologiyalar va ishlab chiqarishida turg'unlik va inqiroz boshlanadi.

Umuman, islom olamining XVI asrdan boshlab ilmiy-madaniy inqirozga uchrashi buni isbotlab turibdi (Ulug'bek fojiasi islom olamida olti asrdan ko'proq davom etgan, G'azzoliy davridan boshlab keskin kuchaygan ilmiy ratsionalizm va diniy mistika o'rtasidagi kurashda ilmiy ratsionalizm mag'lubiyatining ko'rinishlaridan biridir. Bu asta-sekin dunyoviy fanlarning islom olamida yemirilishiga, jo'n bir holatga tushib qolishiga olib keldi).

Ma'naviyatga faqat ratsionalizm nuqtai nazaridan yondashish ham bir yoqlamalik bo'ladi. Uni har tomonlama va teran tushunish imkonini bermaydi. Texnokratik qarashlar, odamlarning o'zaro begonalashishi, hamma narsaga faqat maqsadga muvofiqlik, amaliy foyda ko'rish nuqtai nazaridan yondashish kuchayadi. Ayniqsa vulgar materialistik yondashuv ma'naviyatning nisbatan mustaqilligini va murakkabligini hisobga olmaydi, uning jonli mazmunini inkor qiladi, o'lik sxematik andozalarga tiqishtiradi, ma'naviyatga iqtisodiy munosabatlarning ikkilamchi hosilasi deb qaraydi. Bu, pirovardida, mehr-oqibat, insonparvarlik, axloqiylik kabi tushunchalarni ko'zga ilmaslikka, jamiyatda degumanizatsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi.

Hozirgi bozor munosabatlari rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayot raqobatga asoslanayotgan bir paytda ma'naviyatni ko'zga ilmaslik og'ir ahvolga olib kelishi mumkin. Raqobat sharoitida ma'naviyatga vulgar ekonomizm nuqtai nazaridan yondashilsa, eski «Homo homini lupus est» — «Inson insonga bo'ridir» degan shior kishilar ongida qayta

tirilishi hech gap emas. Hattoki raqobat to'la inkor etilgan sovet davrida ham ma'naviyatga vulgar materialistik yondashish xalqning ijtimoiy-tarixiy xotirasidan, asriy madaniy merosidan, eng qadrli urf-odatlar va yaxshi an'analaridan ancha-muncha uzoqlashtirdi, kishilar o'rtasidagi mehr-oqibatni sovutib yubordi, befarqlikni, xudbinlikni kuchaytirdi. G'arb mamlakatlardagi ma'naviy inqiroz to'g'risida ham bizga ko'p narsa ma'lum. Islom Karimov haqli ravishda «Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat yuksak ma'naviyat negizida, yuksak axloqlilik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin», ¹⁹deydi.

Ma'naviyatga vulgar antropotsentrizm va abstrakt (mavhum) inson huquqlari nuqtai nazardan yondashuv ham uni inqirozga mahkum etadi. Aynan shunday formal yondashuv tufayli inson huquqlari, gender tengligi, axborot erkinligi va shu kabilar ayrim g'arb mamlakatlarida birjinsli nikohlar qonuniylashishiga, gey-paradlar va noan'anaviy shahvoniy mo'ljaldagi kimsalar va harakatlarning jamiyatga ochiqcha tazyiqi kuchayishiga, mumtoz qadriyatlarning "qadrsizlanishi"ga sabab bo'layotir. Har bir hodisa va jarayonda meyor buzilsa, u o'zini dialektik inkoriga, teskarisiga aylanadi. Formal tushuniladigan inson huquqlari bilan shunday hol yuz bermoqda. Birjinsli nikohlarning qonuniy tan olinishi bunday oilalarga bola saqlab olish huquqini berdi. Lekin demokratik, huquqiy g'arb jamiyati yuvenal huquq (bolalarning huquqi) buzilayotganini payqamay qoldi. Axir turli sabablarga ko'ra yetim qolgan bola normal ham otasi, ham onasi bor oilada o'sish imkoniyatidan, huquqidan mahrum bo'lmoqda-ku! Ma'naviyat insonni, shu jumladan yosh bolalarni ham muhofaza qilishi kerak.

Jamiyatda tub o'zgarishlar yuz berayotgan sharoitda esa ma'naviyatni vulgar materialistik, vulgar antropotsentristik, abstrakt hususiy nuqtai nazardan yoki diniy-mistik tushunish faqat zarar keltiradi. Biz ma'naviyatga ilmiy xolislik bilan yondashib, uning mohiyatini, mazmunini, tuzilish strukturasi, namoyon bo'lish shakllarini, rivojlanish qonuniyatlarini, ijtimoiy vazifalarini, ularning turli tarixiy davrlar va vaziyatlarda o'zgarib turishini aniq tasavvur etishimiz lozim.

Ma'naviyat tushunchasi va vazifalari birgina falsafa fani darajasida gnoseologik, ontologik, umumsotsiologik, aksiologik nuqtai nazarlardan tarixiy va mantiqiy, strukturaviy va funksional usullar yordamida tahlil qilinishi lozim. Ma'naviyat tushunchasini va vazifalarini boshqa fanlar, xususan madaniyat nazariyasi, estetika, san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya kabilar maxsus o'rganib, uning mazmunini to'la aniqlashga yordamlashgandagina ma'naviyatni kategoriya darajasida chuqurroq anglab olamiz.

Ma'naviyatni ilmiy tushuncha sifatida tahlil qilish bir fanning ishi emas, balki barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning ishidir.

¹⁹ **Ислом Каримов.** Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд, «Ўзбекистон», Т., 1996, 275-б.

6-MAVZU: MA'NAVIYATNING RIVOJLANISH QONUNLARI

Reja:

1. Jamiyat rivojlangani sayin uning tuzilmalari, institutlari, madaniyati, ma'naviyati rang-baranglashib, murakkablashib, boyib borishi obyektiv qonuniyat ekanligi.
2. Jamiyatning umumiy qonunlaridan tashqari, ma'naviyatning o'ziga oid qonunlari mavjudligi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni.
3. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni. Ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqlik qonuni.
4. Ma'naviyatning rivojlanish qonunlarining bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmashligi va alohida faoliyat ko'rsatmasligi

Tayanch tushunchalar: *ma'naviyat, ma'naviy yetuklik, ehtiyoj, manfaat, qonuniyat, ma'naviyat rivojlanishi, ijtimoiy ong, ijtimoiy munosabat.*

Ma'naviy yuksalishga avvalo jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari ta'sir ko'rsatadi. Chunki ma'naviy hayot jamiyat hayotining bir bo'lagidir. Jamiyat rivojlanishi tabiat va ong qatorida birinchi galda universal, dialektik qonunlar asosida kechadi. Bular miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlaridir. XX asr boshlarida savodli odamlar sonining (miqdor) keskin o'sishi, yangi usul maktablarining ko'payishi xalqimizning ma'naviy-madaniy hayoti, adabiyoti, ijtimoiy – siyosiy, badiiy, ilmiy, tijoriy, iqtisodiy axborot olishini (matbuot paydo bo'lishi sababli) yangi sifat bosqichiga ko'tardi. O'nlab tipografiyalar, gazetalar, jurnallar paydo bo'ldi, yuzlab maktablar ochildi, kutubxonalar tashkil etila boshlandi. Aholining ma'naviyati, o'zligini anglash darajasi keskin yuksaldi. Natijada jadid ma'rifatparvarligi ijtimoiy harakatga aylandi. Milliy matbuot, teatr, adabiyotda dramaturgiya, roman, qissa janrlari va h.k. shakllandi.

Dialektikaning boshqa qonunlari bo'yicha ham turli-tuman misollar keltirish mumkin.

Taraqqiyotning dialektik qonunlaridan tashqari boshqa universal qonunlari ham bor. Narsa, predmet, hodisa va jarayonlarning oddiylikdan (soddalikdan) murakkablikka qarab rivojlanishi, vorisiylik qonuni va h.k. Ular ham o'ziga xos tarzda jamiyat va ma'naviyat rivojlanishida yuzaga chiqadi. Masalan, ibtidoiy jamiyat ma'naviyati quldorlik jamiyati ma'naviyatiga nisbatan ancha qashshoq, oddiy, sodda va jo'n. O'z navbatida quldorlik jamiyati ma'naviyati feodal jamiyat ma'naviyatiga nisbatan xuddi shunday. Jamiyat rivojlangani sayin uning tuzilmalari, institutlari, madaniyati, ma'naviyati rang-baranglashib, murakkablashib, boyib borgan.

Vorisiylik qonuni umumtaraqqiyot qonunidir. Aslida uni yuqorida qayd etilgan dialektika qonunlarining o'ziga xos tarzda ko'rinishidir, deya talqin qilish mumkin. Jonli organizmlarda irsiyat belgilarining saqlanishi, materiya va energiyaning yo'q bo'lib ketmasdan, bir turdan (shakldan) ikkinchi turga aylanishi tabiatdagi vorisiylik bo'lsa, avlodlarning bir biridan o'rganishi, har bir avlodning insoniyat shu paytgacha erishgan barcha yutuqlarni tayyor holda qabul qilib olishi, qaytadan g'ildirakni kashf etmasligi, mavjud yutuqlarni boyitishga o'z hissasini qo'shishi vorisiylik qonunining jamiyat hayotida va ma'naviyatida yuzaga chiqishidir.

Yuqoridagilardan tashqari, jamiyatning faqat o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa qonunlari bor. Ular ham ma'naviyatda muayyan tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, iqtisodiy rivojlanish, bozor munosabatlari va raqobat odamlarning ongiga, tafakkuriga, kayfiyatiga, jamiyatga munosabatiga, o'zaro aloqalarga kuchli ta'sir ko'rsatadi, turli

g'oyalarni, ular o'rtasida bahs va kurashlarni, o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi meyorlarni shakllantiradi. Jamiyat a'zolari iqtisodiy, siyosiy, boshqa ijtimoiy manfaatlaridan kelib chiqib turli partiyalar, uyushmalar, tashkilotlar tuzadi va h.k. O'z navbatida turli siyosiy partiyalar har xil mafkuralar va g'oyalarni shakllantiradi, o'zaro g'oyaviy – mafkuraviy kurash olib boradi. Bu bevosita odamlar ongiga, qarashlariga ta'sir qiladi, ma'naviyat rivojlanishida aks etadi. 2009 yilda chop etilgan “Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati” da “Ma'naviyat qonunlari” maqolasida uch qonun: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi qonuni; Ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi qonuni; Ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi qonuni qayd etilgan va qisqacha izohlangan. Qonunlarning o'ziga kelsak, ularning birinchi va ikkinchisi umumijtimoiy, ya'ni jamiyat qonunlaridir. Birinchi qonunda bu yaqqol ko'rinib turibdi. Ikkinchi qonunda “ma'naviyat” o'rniga istagan ijtimoiy hodisani qo'ying, mantiq buzilmaydi. Masalan, “Iqtisodiyotning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi qonuni”. Ovqat pishirishning, ko'rpa-yostiqdan, ot-ulovdan, transportdan foydalanishning va h.k.larning barchasi inson va jamiyat bilan bog'liq, ular tabiatda, hayvonot olamida uchramaydi. Iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish, moddiy iste'mol har holda ma'naviyatdan farq qiladi, lekin ular ham ma'naviyat kabi ijtimoiy hodisalardir. Har qanday ijtimoiy hodisa ma'naviyat bo'lavermaydi. Lug'atda keltirilgan qonun umumijtimoiy qonun bo'lib, iqtisodiyotga ham, ma'naviyatga ham, siyosatga ham, maishiy turmushga ham birday taalluqli.

Jamiyatning umumiy qonunlaridan tashqari, ma'naviyatning o'ziga oid qonunlar bor. Ular tabiat va jamiyat qonunlari kabi obyektiv xarakterga ega, hech kimning xohish-irodasiga bo'ysunmaydi. Biroq, tabiat qonunlaridan farqli, jamiyatning barcha qonunlari kabi ma'naviyat qonunlari odamlarning ongli faoliyati tufayli yuzaga chiqadi, garchi ularga bo'ysunmasada. Ma'naviyat yuksalishining xususiyatlarini hisobga olib, uning quyidagi qonunlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni;

2. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni (yoki lug'atdagi “ma'naviy hayotning ijtimoiy hayotga bog'liqligi qonuni”);

3. Ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqlik qonuni.

Ma'naviyat qonunlari jamiyat qonunlarining xususiy ko'rnishidir. Biz ko'rib chiqadigan qonunlar ma'naviyatning yaxlit tizim sifatidagi yuksalish qonunlaridir. Ulardan tashqari, ma'naviyat tarkibiy tuzilmalarining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini ifodalaydigan qonunlar bor. Ular ma'naviyatning xususiy qonunlaridir. Masalan, axloq qonunlari, yoki til, adabiyot, san'at va sh.k.lar qonunlari. Ular haqida so'z yuritilmaydi.

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni

Inson tabiati (mohiyati) haqida gap ketganda, uning ongli, ijtimoiy mavjudotligi barobarida moddiy va ma'naviy ehtiyojlari uzluksiz o'sadigan mavjudot ekanligi ta'kidlanadi.

Insonning birlamchi moddiy ehtiyojlarining qondirilishi unda ruhoniyl, ma'naviy ehtiyojlarni o'yg'otadi. Qorni to'q, xavf-xatardan xoli inson sho'xlik qilgisi, qo'shiq aytgisi, raqsga tushgisi, xursandchilik qilgisi, biror narsa yasagisi, o'ylab topgisi, surat chizgisi keladi. O'z navbatida mazkur ehtiyojlarning qondirilishi, ularning yanada sifatliroq, yanada mukammalroq, yanada mazmunliroq bo'lishiga nisbatan yangi ehtiyoj tug'diradi. Inson ehtiyojlari o'sishi ijtimoiy taraqqiyot qonunidir, ma'naviy ehtiyojlar o'sishi esa ma'naviyat rivojlanishi qonunidir. Ammo insonning barcha ehtiyojlari, jumladan fiziologik va moddiylari ham o'zlarining ma'naviy jihatlariga ega. Yuqorida ta'kidlanganidek, insonda bir ehtiyojning qondirilishi undan yuksakroq bo'lgan yangi ehtiyojlarni tug'diradi. Yangi o'simlik yoki hayvonni ilk uchratganda, inson u haqida kuzatuv asosida hosil qilgan bilimi bilan qanoatlanib qolmagan. Bu o'simlik yoki jonivor zararli emasmi, undan foydalansa bo'ladimi, degan savolga javob izlagan. Ijobiy javob topsa, endi uni qanday madaniylashtirish (o'simlikni), xonakilashtirish (hayvonni), ko'paytirish, qanday parvarishlash va boshqa savollarga javob izlagan. Yangi ehtiyojlar paydo bo'lishi inson bilimlari, dunyoqarashi rivojlanishiga, tajribasi o'sishiga xizmat qilgan.

Inson ehtiyojlarining yuksalishi, ijtimoiy taraqqiyot qonuni sifatida, birinchidan, uning ongli, aqlli mavjudotligi, ertangi kunni ko'ra bilishi, zaruratni anglay olishi, ya'ni ma'naviyatga egaligi bilan bog'liq. Ikkinchidan, uning kam kuch, kam energiya sarflab, ko'proq samara olishga, hayotini yengillatishga intilishi natijasidir. Uchinchidan, o'zligi, o'z qobiliyatini yuzaga chiqarishga urinishi oqibatidir. O'zligini yuzaga chiqarishga intilish ham ma'naviy mavjudot sifatida faqat insonga xos, hayvonotda bunday intilish yo'q. Erishganiga nisbatan balandroq marrani, yaxshiroq natijani ko'zlash, mukammalroq, yaxshiroq, go'zalroq buyumni yoki san'at asarini yaratishga intilish, yangi texnik asbob-uskunalarni, kompyuterlarni, mashinalar, mexanizmlar va texnologiyalarni ixtiro etishga harakat, turmushini erkin va farovon qilishga urinish insonning asl insoniy xususiyatidir, obyektiv ravishda tug'iladigan ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlaridir. Ana shu ehtiyojlar yuksalsa, jamiyat rivojlanadi, aks holda jamiyatda turg'unlik yuz beradi. Turg'unlik asrlar mobaynida davom etishi mumkin. Insonning moddiy ehtiyojlari qanday o'sishi ham uning aqli, zaruratni anglay olishi, o'zligini namoyon etishga harakat qilishi bilan, ya'ni uning ma'naviy ongi bilan bog'liq.

Hatto boylik orttirish, molparastlik hirsini ma'naviyatdagi noqislik bo'lsada, aslida u ibtidoiy odamlarning ertangi kunda ov o'ngidan kelmasa, yoki qurg'oqchilik tufayli mo'ljalidagi hosil olinmay qolsa, ochlikdan azob chekmaslik uchun ehtiyot zahira to'plash kerak degan ishonchiga borib taqaladi. U avvalo insoniyat ongosti qatlamidagi arxetipdir, jamoaviy ongsizlik unsuridir. Biroq u faqat jamoaviy ongsizlik, ibtidoiy arxetip ko'rinishigina emas. U ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatdagi ba'zi-bir axloqiy, ma'naviy va ziddiyatli sinfiy-tabaqaviy qoida va meyorlarga ham aloqador. Iqtisodiy-moliyaviy imkoniyat, boylik insonning jamiyatdagi obro'-e'tiborini, mavqeini belgilagan, aloqalarini kengaytirgan va o'zligini, o'z irodasini, xohish-istaklarini yuzaga chiqarish imkoniyatlarini ko'paytirgan. Xulosa qilish mumkinki, insonning barcha ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning ongi, ma'naviyati turadi, bundan fiziologik (biologik) ehtiyojlar qisman mustasno. Ammo ularga ham ma'naviyat ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Masalan, ovqatlanish, nasl qoldirish va ko'plab fiziologik ehtiyojlar qondirilishi muayyan tartib-qoida, odob-axloq doirasida, ba'zilar intim sharoitda amalga oshiriladi.

Ilm-fanda ehtiyojlar masalasi doimo bahsli bo'lib kelgan. Materializm taraqqiyotda moddiy ehtiyojlar o'sishini birinchi o'ringa qo'ysa, idealistlar ma'naviy-mafkuraviy ehtiyojlarga

ustunlik bergan. Aslida bunday yondashuv ushbu masalada bir yoqlamalikka o'xshaydi. Agar inson faqat biologik mavjudot bo'lganida, shubhasiz, moddiy ehtiyojlarning o'sishi belgilovchi ahamiyat kasb etar edi. Ammo inson biologik tabiatidan tashqari, o'zining ijtimoiy-ma'naviy tabiatiga ega. Aynan "ikkinchi" tabiati insonni hayvonot olamidan ajratib oldi. Masalaga tor ontologik, materiya birlamchi-mi, yoki ideya (g'oya) degan nuqtai nazardan emas, balki kengroq funksional nuqtai nazaridan yondashilsa, masalaga javob ancha oydinlashadi.

Hech qanday axloqiy, diniy-ruhoniy tartib-qoidalar, meyorlar vujudga kelmagan paytlarda odamsimon mahluqlar to'dasining turmush tarzi va xulqi maymunlarnikidan kam farq qilgan. Dastlabki ongli cheklovlar, taqiqlar va majburiyatlar (ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi, keyin aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi jinsiy aloqalarning taqiqlanishi, topilgan yegulikni yoki ovlangan hayvon go'shtini birgalikda iste'mol qilish, yoshlarga mehnat va ov qurollari yasashni, amalda qo'llashni o'rgatish va shu kabilar) odamsimon mahluqlarni odamga, ular to'dasini urug'-jamoaga aylantirdi. Ushbu misollar esa moddiy ehtiyojlarga emas, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar paydo bo'lishi va o'sishiga oiddir. Ular moddiy, hatto fiziologik ehtiyojlar qondirilishiga-da tuzatish kiritdi, ularni ijtimoiylashtirdi. Demak, insonning biologik emas, ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini ma'naviy ehtiyojlar vujudga keltirgan.

Albatta, iqtisodiy taraqqiyot qonunlari obyektiv xarakterga ega, ma'naviyatga bo'ysunmaydi. Tadbirkor, zavod egasi birinchi navbatda nafsi, hirsu kuchli bo'lgani, yoki odamlar haqida g'amxo'rlik qilgani, mehnatsevarligi uchun emas, bozor talablariga mos xo'jalik yuritgani uchun boyiydi. Ammo uning bozor talablarini aniq bilishi, yoki his qila olishi, raqobatda aql-zakovat va irodasini to'g'ri faol qo'llashi, texnologiyasini muntazam takomillashtirib borishi, ishchi - xizmatchilari va davlat soliq idoralari, banklar bilan munabatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, faolligi hamda shaxsiy mehnatsevarligi uning ongiga, bilimlariga bevosita daxldordir. Qallob, yolg'onchi, jamiyatning, odamlarning ishonchini yo'qotgan, qonunlarga, axloq talablariga rioya qilmaydigan, yolqov, dangasa kishi hayotda katta muvafaqqiyat va obro' qozona olmaydi.

Inson hech bir vaqt o'z mavjudlik holati – ekzistensiyasi bilan qoniqmaydi (gap alohida shaxsning maishiy ahvoli, mansabi va sh.k. haqida emas, insoniyatning tarixiy jarayondagi ahvoli haqida ketmoqda), doimo uni va o'zini takomillashtirishga harakat qiladi. Hayvonda takomillashish mo'ljali yo'q. Zero, u o'z mavjudlik holatini anglay olmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot negizida esa mavjud holat bilan qoniqmaslik yotadi. Vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengish, yangi kuch, g'ayrat to'plab, rivojlanish zaminini tayyorlash uchun insonga iroda - ongli tanlash, butun kuch-g'ayratini maqsadga erishish uchun safarbar etish, chidam, sabr-toqat kerak. Sabru toqatni o'z ijtimoiy holatidan qoniqish bilan chalkashtirmaslik kerak. Sabru toqat rivojlanish jarayonining diskret va vaqtinchalik shakli, mukammallikka intilish, ehtiyojlar yuksalishi esa uning doimiy holatidir.

Barcha sog'lom ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan sog'lom moddiy va hattoki sog'lom fiziologik ehtiyojlar rivojlanmas ekan, oqibatda ma'naviy ehtiyojlar ham yuksalmaydi. Nosog'lom moddiy va fiziologik ehtiyojlar insonni turli kasalliklarga, masalan, ochofatlik kasaliga, shahvoniy zo'ravonlikka, o'ta ziqnaqlikka muhtalo etadi. Ba'zan ular maniakal ko'rinish olib, haqiqiy ruhiy xastalik darajasiga ko'tariladi. Insonning ezgulikka, erkinlikka, adolatga, haqiqatga, mehr-muhabbatga, go'zallikka, kamolotga intilishi, o'z qobiliyatlarini voqe qilishga, ijod qilishga urinishlari uning sog'lom ma'naviy ehtiyojlaridir. O'z ijtimoiy holati,

erishgan darajasi bilan qoniqmaslik, yangi sogʻlom ehtiyojlarning tugʻilishi maʼnaviy rivojlanishning omilidir. Oʻz holati va erishgan darajasi bilan qoniqish yangi, yanada yuksakroq ehtiyojlarni vujudga keltirmaydi, maʼnaviyatda turgʻunlikni keltirib chiqaradi.

Haqiqiy maʼnaviyat sogʻlom ehtiyojlar zahirida vujudga keladi. Maʼnaviyat insonda sogʻlom ehtiyojlarning, jumladan sogʻlom moddiy ehtiyojlarning shakllanishidan, oʻz shaxsi bilan ixtilofga bordirmasdan, asl insoniy mavjudligini taʼminlashga xizmat qiluvchi aqliy va hissiy muhitdan, falsafiy, axloqiy, ilmiy, diniy, badiiy va boshqa madaniy qadriyatlardan hamda shaxsning ijodiy faolligidan tashkil topadi. Maʼnaviy ehtiyojlarni sotsiumning turli birliklariga oid individual ehtiyojlarga, jamoaviy (oilaviy, guruh, korporativ), sinfiy-tabaqaviy, mahalliy-mintaqaviy, umummilliy ehtiyojlarga boʻlish mumkin.

Shaxs maʼnaviyati yuksalishi uchun, uning individual ehtiyojlarini sotsiumning boshqa yuqori birliklari ehtiyojlariga qurbon qilmay, ular bilan uygʻunlashtirish lozim. Oila maʼnaviyati, bir tomondan, uning har bir aʼzosining, ikkinchi tomondan, oilaning yaxlit birlik sifatidagi tegishli ehtiyojlari oʻsishi va qondirilishiga bogʻliq. Oila ehtiyojlari uning aʼzolari va butun jamiyat ehtiyojlari bilan uygʻunlashtirilishi lozim. Oila manfaatlarini uning alohida aʼzosi, aytaylik, oila boshligʻi yoki oilaning taniqli erkati farzandining inijliklariga qurbon qilib boʻlmaganidek, umumjamiyat manfaatlariga ham qurbon qilib boʻlmaydi. Oilaning yangi avlodi – bilimlroq, dunyoqarashi, mulot va axborot maydoni kengroq, hayotiy moʻljallari, maqsadlari yuksakroq, oʻz qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari kattaroq boʻlishi lozim. Shunda oila nafaqat moddiy- iqtisodiy, shuningdek maʼnaviy jihatdan yuksaladi.

Manfaatlarini uygʻunlashtirish milliy maʼnaviy ehtiyojlar oʻsishiga-da taalluqli. Milliy ehtiyojlar, manfaatlar alohida mintaqalar, viloyatlar, hududlar, korporativ guruhlar (moliyaviy-oligarx guruhlar, harbiy-sanoat kompleksi, transmilliy kompaniyalar va sh.k.), etnik va diniy konfessiyalar foydasini koʻzlab, cheklanmasligi lozim. Millatning oʻzligini, oʻzining umumiy manfaatlarini anglash darajasi oʻsmas ekan, milliy jipslik mustahkamlanmaydi, mahalliylik, guruhbozlik, hatto ayirmachilik illatlari saqlanib qolaveradi, milliy gʻurur kemptik boʻladi. Ilm-fan, adabiyot va sanʼat, milliy til va madaniyat yaxshi rivojlanmaydi. Bunday xalq asta-sekin boʻlinib, parokandalikka uchrab, oqibatda boshqa xalqlar tarkibiga singib ketadi.

Milliy taraqqiyot ehtiyojlari boshqa xalqlar bilan aloqa qilishni, ularning yutuqlaridan ijodiy foydalanishni, oʻz yutuqlarini dunyoga yoyishni taqozo etadi. Jahon hamjamiyatiga barcha sohada teng huquqli integratsiya boʻlish ehtiyojlari har qanday mahdudlikni, milliy man-manlikni, milliy nomukammallikni, nigilizm va kosmopolitizmni birday inkor qiladi.

Ehtiyojlar yuksalishi va maʼnaviyat rivojlanishi oʻzaro chambarchas bogʻliq. Ehtiyojlar yuksalsa, maʼnaviyat rivojlanadi, rivojlangan maʼnaviyat esa yuksak ehtiyojlarni taqozo etadi. *Rivojlangan maʼnaviyat bu qondirilgan sogʻlom ehtiyojlarning yuzaga chiqishidir va ayni paytda nisbatan yuksakroq yangi ehtiyojlarning tugʻilishidir.* Jamiyat taraqqiyoti jarayonida maʼnaviyat va ehtiyojlar oʻsishi oʻrtasidagi, oʻz navbatida maʼnaviy ehtiyojlar oʻsishi va maʼnaviyat yuksalishi oʻrtasidagi aloqalar ikkinchi darajali, yuzaki, tasodifiy va muvaqqat emas, balki eng muhim, mohiyatli, zaruriy, takrorlanuvchan va doimiy aloqalardir. Shu sababdan bu aloqalar maʼnaviyat yuksalishi qonunidir. Lekin ehtiyojlarning oʻzi bevosita maʼnaviyat tarkibiga kirmaydi, balki uning rivojlanish sababi va oqibatini, shart-sharoitini, harakatlantiruvchi kuchini tashkil qiladi. Ehtiyojlarning yuksalishi inson tabiatiga, asl

mavjudligiga (ekzistensiyasiga) mos. Ushbu ma'noda insonni «ehtiyoblari yuksaladigan mavjudot» deyish o'rinlidir.

Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarni mazmuniga, vazifalariga, ahamiyatiga, muayyan ijtimoiy ong shakliga mansubligiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumma'naviy ehtiyojlar, ya'ni ma'naviyat yaxlit tizim, bus-butunlik sifatida taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

2. Ma'naviyatning nisbatan alohida mustaqil tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy ong shakllari taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

Birinchi guruhga mansub ehtiyojlar quyidagilardan iborat :

- a) inson o'z tabiatini (mohiyatini) takomillashtirish ehtiyojlari;
- b) insonning o'z ijtimoiy yaratuvchilik imkoniyatlarini (salohiyatini) o'stirish ehtiyojlari;
- v) insonning shaxs sifatida o'z qobiliyatlarini, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ehtiyojlari;
- g) insonning o'z erkinlik darajasini orttirib borish ehtiyojlari.

Ularning har biri ko'plab talablar, meyorlar, mezonlar, ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Masalan, insonning o'z tabiatini (insoniy mohiyatini) takomillashtirish ehtiyojlarini oladigan bo'lsak, u avvalo insonning aqlli, ongli bioijtimoiy mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Demak, umumma'naviy ehtiyojlar birinchi navbatda insonning aqli, tafakkuri, bilimlari, tuyg'ulari, ijtimoiy faolligi va aloqalari boyishiga bog'liq. Inson biologik tabiatiga ko'ra sog'lom bo'lishi (jamiyat miqyosida bu sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot fanlari rivojlanishini taqozo etadi) lozim. Ijtimoiy tabiatiga ko'ra, jamoaviylik tuyg'usi mustahkam, ijtimoiy aloqalari va muloqot maydoni muttasil kengayib borishi, jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalarini, meyorlarni yaxshi bilishi, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira oladigan bo'lishi kerak.

Inson – o'z oldiga ongli maqsad qo'yib, mehnat qiladigan, tabiatni, jamiyatni va o'z-o'zini qayta yaratadigan mavjudot. Inson yaratuvchilik faoliyatini takomillashtirish uchun muttasil amaliy va nazariy bilimlarini, mehnat va ijod ko'nikmalarini, hayotiy tajribasini o'stirib borishi talab etiladi. Bular jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimi vujudga kelishini va jamiyat bilan birga rivojlanib borishini taqozo etgan. Ota-ona bolasiga yoshlikdan mehnat qilishni, yashash qoidalarini, aka-ukalari, qo'ni-qo'shnilar, tengdoshlari, do'stlari, tanish-bilishlari bilan ahil bo'lishni, bir-birini qo'llab-quvvatlashni, oilada, mahallada, jamoatchilik joylarida intizomni saqlashni, xushmuomalalikni, urf-odat, an'analar uchun ma'sul bo'lishni, ularga itoat etishni o'rgatadi. Bolada jamoaviylik tuyg'ulari, mas'uliyat, muloqot, boshqalar bilan birga yashash va mehnat qilish meyorlari asta-sekin qaror topadi. Bu uning ijtimoiylashuvidir.

Mehnat qilishni va yaratuvchilikni, biror kasb-hunarni dastlab bola oilada, urug'-jamoada, mahallada, nisbatan rivojlangan jamiyatlarda esa maxsus tashkil etilgan o'qish, kasb o'rgatish muassasalarida o'rganadi. Tarbiyaning barcha yo'nalishlari, shu jumladan jismoniy va mehnat tarbiyasi ma'naviyatga daxldordir. Tarbiya ta'lim qatorida jamiyat umumma'naviy ehtiyojlarini yuzaga chiqarishda hal qiluvchi institutdir. Inson o'z ijodiy-yaratuvchilik salohiyatini o'stirishi, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun yaxshi ta'lim-tarbiya olishi, chuqur bilimlarga, kasb mahoratiga, mehnat, ijod ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'z ishini, faoliyatini tanqidiy tahlil etib, kamchiliklardan qutilishga harakat qilishi lozim. Bular esa

insonning o'z-o'zini tarbiyalash, bilimlari va malakasini oshirish (o'qish) ehtiyojlaridir. Demak, ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj nafaqat oila, jamiyat tomonidan tarbiyalanadi, shuningdek u insonning shaxsiy ongli faoliyati mahsulidir. U insonning ichki, o'z-o'zini takomillashtirish va qayta yaratish omiliga aylanadi.

Jamiyat tashkil qilgan ta'lim-tarbiya tizimida inson asosan obyektidir. O'z-o'zini tarbiyalash tizimida esa inson bir vaqtda tarbiya obyekti va subyekti hisoblanadi. Mehnatsevarlik, faollik, izlanish, mahoratga, o'z sohasida komillika intilib, o'z ustida ishlash insonning shaxs sifatida o'zligini namoyon etishning, o'z salohiyatini, qobiliyatini yuzaga chiqarishning zarur shartlaridir. Shartlar orasida yana biri bor – bu insonning erkinlik darajasidir. Erkinlik yetishmaydigan inson na hayotda, na ijodda o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqara oladi. Insonda erkinlik ehtiyojlarining o'sib borishi jamiyat taraqqiyoti bilan, ijtimoiy qadriyatlar tizimining insonparvarligi, tafakkur erkinligi, tolerantlik qaror topishi, ma'naviy muhit mustahkamlanishi bilan bog'liq.

Ikkinchi guruhga ijtimoiy ongning alohidalashgan shakllariga oid ehtiyojlar tizimi kiradi:

a) etiqodiy, ya'ni ilmiy-falsafiy va diniy ehtiyojlar – narsa va hodisalarning, jamiyat va insonning, abadiyat va foniylilikning mohiyatini anglashga intilish, hayotning ma'nisini, yashashdan maqsadni bilish;

b) axloqiy ehtiyojlar – ezgulikka, insonparvarlikka, vatanparvarlikka intilish, vijdon talablariga mos yashash; baxtli turmush kechirish (gedonizm);

v) estetik ehtiyojlar – go'zallikka intilish, hayotni, tabiat va jamiyatni go'zallashtirish ("go'zallik qonunlari bo'yicha" qayta yaratish), go'zallikdan zavq-shavq tuyish, huzur-halovat olish (evdemonizm), nozik didli, nozik ta'bli inson bo'lish, ijod qilish;

g) huquqiy ehtiyojlar: adolatni qaror toptirish, insonni, jamiyatni har xil adolatsizlik, zo'ravonlik va ekstremistik tajovuzlardan himoya qilish, inson huquqlarini, qonun ustuvorligi va barchaga birdayligini har tomonlama ta'minlash;

d) siyosiy ehtiyojlar – huquqiy-demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyati qurish, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish va uzluksiz takomillashtirib borish, davlat va fuqaro, jamiyat va shaxs manfaatlarini uyg'unlashtiradigan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirib borish;

ye) boshqa ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar. Ular oilani mustahkamlash, urf-odatlar, marosim, an'analarni takomillashtirish, ta'lim va sog'liqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish, axborot olish, hordiq chiqarish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish va ko'plab shu kabilardan iborat.

Ehtiyojlar tug'ilishi (paydo bo'lishi), o'sishi, qondirilishi, yanada yuksakroq ehtiyojlarning vujudga kelishi, bu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar, ehtiyojlar yuksalishi bilan bog'liq boshqa ko'plab masalalar alohida, mustaqil va batafsil tadqiq etishni taqozo etadi. Biz ehtiyojlar to'g'risida mavzumiz talab qiladigan umumiy e'tiroflar va mulohazalar bilan cheklanamiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi ma'naviyat yuksalishi qonunlaridan biridir. Ehtiyojlar yuksalmasa, inson hayvonot olamidani, jamiyat tabiatdan ajralib chiqa olmas edi. Jamiyatning gurkirab rivojlanishi bevosita yoki bilvosita sog'lom ehtiyojlar yuksalishiga, turg'unlikka tushib qolishi, inqirozga uchrashi, xato g'oyalar tomon og'ib ketishi (siyosiy va diniy ekstremizm ta'sirida) o'smay qolishiga yoki nosog'lom ehtiyojlar ustunlik qilib ketishiga bog'liq. Ehtiyojlar yuksalishi va jamiyat rivojlanishi dialektik birlikni tashkil etadi.

2. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni

Ma'naviy hayotning mazmunini, shaklini va o'ziga xosligini ko'pincha jamiyat umumiy taraqqiyotining erishilgan darajasi belgilaydi. Ushbu qonun ma'naviyatni jamiyatning moddiy hayotidan ajratmasdan, uni Yaratganning sir-asrori deb emas, balki rivojlanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida tushunishda katta ahamiyatga ega. Agrar jamiyatda yashagan kishining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, hayotga munosabati, ma'naviyatining eng yuksak ko'rinishi o'rta asrlar taraqqiyot darajasiga mos. Uni sanoat, texnika, transport va aloqa tizimi taraqqiy etgan, radio, televideniye, kompyuter, internet zamonida yashaydigan zamonaviy kishilarniki bilan taqqoslash mumkin emas.

Agrar jamiyatda aholining aksariyati, ayniqsa jismoniy mehnat kishilari savodsiz bo'lgan. Bel, ketmon, omoch, o'roq, bolta, eshak, ho'kiz, ot-arava yordamida xo'jalik yuritgan. Dehqondan, qo'shchi va aravakashdan, oddiy kosib-hunarmanddan savodli bo'lishni ishlab chiqarish texnologiyalari talab qilmagan. Industrial jamiyatda esa ishlab chiqarish zavod-fabrika ishchisidan, xizmatchi va boshqaruvchidan, qishloq xo'jaligi dehqondan yoki traktorichidan, transport tizimi shofyordan, hech bo'lmaganda, boshlang'ich ma'lumotli bo'lishni talab qiladi. Texnologiyalarning uzluksiz murakkablashuvi bu talablarni yanada kuchaytiradi. Jamiyatning savodxonligi yangi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni tug'dirib, qondirish usullarini xilma-xillashtirdi. Agar savodsiz omi kishi baxshilarni, qissaxonlarni (xalq kitoblari va manoliblarni, rivoyat va afsonalarni so'zlab beruvchilarni) to'y va sayillarda tinglab, ma'naviy ehtiyojlarini qondirsa, savodli kishi buni ko'proq yozma adabiyotni, mumtoz mutafakkirlar asarlarini o'qib amalga oshiradi.

Mehnat vositalari va texnologiyasi nafaqat ishlab chiqarish usuli, munosabatlari pirovardida qanday bo'lishini, yetishtirilgan moddiy va madaniy mahsulotlar, ta'lim olish, ilmiy va badiiy axborotlardan foydalanish qanday tamoyillar asosida taqsimlanishini, shuningdek qanday vositalar va usullar yordamida tarqatilishini belgilaydi. Ular muayyan jamiyatdagi iste'mol va ehtiyojlar mazmunini, shaxsning o'zligini yuzaga chiqarish imkoniyatini aniqlaydi. Ushbu qonuniyat industrial jamiyatda umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim, nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlar, sog'liqni saqlash tizimi, OAV iqtisodiyotning zaruriy tuzilmasiga aylanganida yaqqol ko'rinadi.

Umuttamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasi odamlarning dunyoqarashini, tafakkurini, mavjud jamiyatga beradigan bahosini, munosabatini, jamiyatning ilm-fanini, adabiyotini, madaniy saviyasini belgilaydi. Ular asosida qadriyatlar, ijtimoiy meyorlar qaror

topadi. Bu jamiyat faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining umumiy qonuni – moddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi, o'zaro chambarchasligi qonunining voqe bo'lishidir.

O'tgan mavzuda inson ehtiyojlari uzluksiz yuksalishi to'g'risida gapirilgan edi. Ehtiyojlarning mazmuni, o'sish, yuksalish sur'atlari jamiyatning umumtaraqqiyot darajasiga, aloqa va muloqot vositalariga, odamlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, mafkuraviy, maishiy, oilaviy va boshqa aloqalarning rang-barangligi va intensivligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, ular mavjud tamaddun darajasiga mos, u tomonidan belgilanadi va o'z navbatida uni belgilaydi. Mazkur qonun sivilizatsiya va ma'naviyatning uzviy mushtarakligini ifodalaydi. Ibtidoiy jamiyatda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar ancha qashshoq va jo'n. Ular oqibatda urug'-jamoajipsligi, xavfsizligi, oziq-ovqat ta'minoti masalalarini hal qilishga borib taqalgan. Mana shu uch zaruratdan kelib chiqib urug'-jamoajichidagi munosabatlar meyorlashtirilgan, tartibga solingan, e'tiqodlarda, diniy marosimlarda, maishiy urf-odatlarda, raqs va qo'shiqlarda, asotirlarda mustahkamlangan.

Agrar jamiyatda aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqdi. Ibtidoiy sinkretizm parchalandi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, davlat va huquq, diniy tashkilot alohida institut sifatida ajralib chiqdi, yozuv paydo bo'ldi. Ma'naviy ong o'sdi, ma'naviy madaniyatning alohida shakllari vujudga keldi. Shunga muvofiq ma'naviy ehtiyojlar rang-baranglik kasb etdi, mazmunan boyidi. Agrar jamiyat ikki yirik tarixiy davrlarga – quldorlik va feodalizm davrlariga bo'linadi. Ibtidoiy va agrar jamiyatlarda yashaydigan odamlarning ongi, tafakkuri, bilimlarini, ma'naviy ehtiyojlarini, turmush tarzi va ma'naviyatini taqqoslasak, ular o'rtasida osmon bilan yercha farq mavjudligini ko'ramiz. Misr, Mesopotamiya, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, Qadimgi Eron, Qadimgi Yunoniston – ilk agrar jamiyatlar, ilk sivilizatsiyalar vatani. Ular taraqqiyoti, madaniyati ibtidoiy jamiyatga nisbatan juda balanddir. Agrar jamiyat doirasida islom Uyg'onish davrida Sharqda, yevropa Uyg'onish davrida G'arbda ma'naviy taraqqiyot sifat jihatdan yangi bosqichga o'tdi.

O'z navbatida feodal (agrar jamiyat) va kapitalistik (industrial jamiyat) jamiyatlar a'zolari ma'naviyati, ma'naviy ehtiyojlari, ilm-fan va adabiyoti, san'ati o'rtasida yana ulkan farq mavjud. O'rta asrlarda yashagan kishi o'z oldiga XX asr kishisi qo'ygan mazmundagi inson huquqlari, erkinliklari, zamonaviy demokratik talablarni qo'ya olmas, bo'sh vaqtni tashkil etishning, muloqot qilishning ko'plab zamonaviy vositalaridan foydalana olmas edi, chunki buday vositalar yo'q edi. Zero, zamonaviy qadriyatlar faqatgina inson ongi, tajribasi, aql-zakovati mahsuli emas, shuningdek tamadduniy taraqqiyot va ijtimoiy munosabatlar takomillashuvi natijasi hamdir.

Ma'naviyat va butun ijtimoiy taraqqiyot qonunlari odamlarning ongli faoliyati orqali yuzaga chiqishi avvalgi mashg'ulotda qayd etilgan edi. Kimdir amaldagi meyor va qoidalarni notakomil, hatto adolatsiz, ularni o'zgartirish kerak deb hisoblaydi. Kimdir, aksincha, himoya qiladi. Keskin radikal va konservativ fikrlar o'rtasidagi bahs, ba'zan keskin kurashlar oqilona yo'l topishga, mavjud qoida va meyorlarni, urf-odatlar va diniy marosimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Murosa yo'li topilmasa, kurash zo'ravonlik vositalarida davom etadi. Ichki nizolar, fuqarolik urushlari, qo'zg'alonlar, inqiloblar, saroy to'ntarishlari va h.k. har doim ham faqat hokimiyat uchun zo'ravonlik ko'rinishidagi kurashish emas. Ular ba'zida mamlakat kelajagi, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarni isloh qilishning murosa yo'li topilmagani oqibatidir.

Ma'naviyat yuksalishining umumtamadduniy taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni adabiyot va san'at misolida yaqqol ko'rinadi.. Qabilalar uyushmasi va ilk davlatchilik davrida qahramonlik eposlari vujudga keldi. Go'ro'g'li turkumi, Alpomish, Rustamxon va boshqa dostonlar halqimizga o'sha davrdan va ilk o'rta asrlardan – meros (to'g'ri, ularga keyingi jamiyatlar ancha ta'sir ko'rsatgan). Ko'chmanchi, yarimko'chmanchi turmush tarzi, yaylovlar, vodiylar uchun kurash, yangi hududlarning o'zlashtirilishi, etnoslarning tartibsiz yirik migratsiyasi qurolli to'qnashuvlarni, o'zaro bahs-kurashlarni tug'dirgan. Har bir qabila (qabilalar uyushmasi), yosh davlat o'z ideal qahramoni obrazini yaratishga, yosh avlodni ular timsolida tarbiyalashga harakat qilgan. Shu tariqa qahramonlik eposlari vujudga kelgan.

O'rta asrlarda agrar jamiyat ancha barqarorlashdi. O'rta asrlar islom dunyosida dastlab nisbatan har tomonlama rivojlanish asrlari edi. Markazlashgan feodal davlatlar tarix sahnasiga chiqdi, hududlar bo'lib olindi, aholining ommaviy tartibsiz mayda guruhlariga migarsiyasi deyarli barham topdi. Bu davrda turkiy tilda "Hibatul haqoyiq", "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk" kabi mumtoz asarlar yozildi. Bunday sharoitda turli xalqlar o'rtasidagi to'qnashuvlar, urushlar boshqacha mazmun va maqsad kasb etdi. Endi urushlar turli davlatlar – xonliklar, amirliklar, bekliklar to'qnashuviga aylandi. Qabilaviy-etnik mafkura dunyoviy-siyosiy va diniy mafkura bilan almashdi. Islom asosida yangi sivilizatsiya qaror topib, uning axloqiy, siyosiy-huquqiy, e'tiqodiy ideallari shakllandi. Adabiyot va san'at, diniy va siyosiy mafkura yangi sivilizatsiya zaruratini, ehtiyojlarini ifodalay boshladi. Folklorni biroz ortga surib, yozma adabiyot, professional san'at oldingi o'ringa chiqdi. "Hibatul haqoyiq"da, "Qutadg'u bilig"da biz yangi ahloqiy va e'tiqodiy ideallar in'ikosini, "Devonu lug'atit turk"da siyosiy-etnik jipslik ideallari va ahloqiy - e'tiqodiy qadriyatlar ifodasini ko'ramiz.

Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy o'z davridagi islom sivilizatsiyasining tarixiy talablarini, ziddiyatlarini, bu sivilizatsiyaga integratsiya bo'layotgan turkiy xalqlarining ehtiyojlarini asarlarida aks ettirdilar. Yusuf Xos Hojib zamonida islomda zohidlik, tarkidunyochilik g'oyalari ancha yoyilgan edi. Shu sababdan daho bobomiz, uzlatga chekinishdan, tarkidunyochilikdan beklarni, xonlarni tiyadi. Xalq to'g'risida g'amxo'rlik qilish rahbarga Olloh tomonidan yuklatilgan burch, deya uqtiradi asarida. Din peshvolariga (O'zg'urmishga) qarata esa O'gdulmish nomidan shunday deydi:

Olam xalqi bari ulus, kent qo'yib

Sendek g'orga kirsam, ulug' yuk tuyib,

Dunyo buzilmasmi, bitmasmi olam,

Avlodlar yaralmas, qolmasku odam.

(Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. Hozirgi o'zbek tiliga F. Ravshanov o'g'irgan. T, 2016, 304 – b)

Mahmud Koshg'ariy turk tilining umumiy meyorlarini belgilash, saqlash qatorida alohida elatlarga bo'linib borayotgan turkiy qabilalarni qoraxoniylar davlati tevarigida birlashtirish g'oyasini bilvosita olg'a surgan. Ko'rinib turibdiki, sivilizatsiya ehtiyojlari va talablari jamiyat badiiy fikrini muayyan yo'nalishda rivojlanishini taqozo etadi. Keltirilgan misollar, dalillar hammasi turkiy (eski o'zbek) adabiyoti namunalariga oid bo'lib qoldi. Aslida bunday misollarni, dalillarni istagan xalq adabiyotidan keltirish mumkin.

Masalan, bu davrda eron qahramonlik eposlarini qayta ishlab, yirik “Shohnoma” asarini yaratgan Firdavsiy aslida Eron buyukdavlatchilik g‘oyasini aks ettirdi. Qahramonlik eposlari asosida vujudga kelgan yozma professional adabiy eposlar etnik qabilachilik manfaatlarini emas, markazlashgan feodal davlat manfaatlarini ifodalay boshladi. Ibtidoiy tuzum davridagi qabila-urug‘chilik, ilk agrar, ya’ni patriarxal quldorlik jamiyatidagi mayda shahar-davlatlar mafkurasi sharoitida “Shohnoma”, “Qutadg‘u bilik”, “Devonu lug‘atit turk”, “Hibatul haqoyiq” kabi asarlarga obyektiv ehtiyoj yo‘q edi. Ularni yaratishga jamiyatning intellektual-g‘oyaviy va badiiy imkoniyatlari ham ojizlik qilar edi.

Alisher Navoiy davriga kelib islom to‘liq xukmron mafkuraga aylandi. Islom sivilizatsiyasi IX-XII asrlardagi olamshumul yutuqlari ortidan ichki va tashqi nizolar, feodal tarqoqlik va separatizm, mo‘g‘il istilosi va sh.k.larni boshdan kechirib, bir muddat turg‘unlikdan keyin Amir Temur va temuriylar faoliyati bois yangi uyg‘onish bosqichida edi. Adolat, inson qadr-qimmati, komil inson va adolatli podshoh g‘oyalari ijtimoiy ongda dolzarb edi. XV asrga kelib tasavvuf islomda katta mavqega erishdi. Shu sababdan mazkur g‘oyalarni Navoiy naqshbandiya tariqati qarashlariga muvofiq ifodaladi. Farhod – halol, mard, barcha kasbu hunarlarni egallagan komil inson. Uning qo‘li ishda, dili ishqda. Farhod – ideal obraz. U Navoiyning insonparvarlik va adolat haqidagi ideallarining mujassam ifodasidir.

XV asrda adabiyotda realistik obraz, muayyan aniq tarixiy sharoitda yashaydigan, o‘z fazilatlarini va qusurlariga ega tipik va ayni paytda takrorlanmas individual qahramon obrazini, uning dunyoviy ishqini, psixologik kechinmalarini tasvirlashdan ko‘ra, qahramon timsolida insonparvarlik, ezgulik va adolat g‘oyalarini targ‘ib etish, odamlar uchun namuna, ibrat bo‘ladigan ideal qahramon qiyofasini tasvirlash, uning majoziy ishqini ko‘rsatish muhimroq edi. Insonparvarlik, insonni sevish – Xudo irodasini, ko‘rsatmasini bajarishdir, Xudoni sevishdir, degan g‘oya targ‘ib etilib, inson himoya qilindi, ulug‘landi. Navoiy Farhod, Majnun, Bahrom, Iskandar, Shirin, Layli va boshqa ideal obrazlar tizimini yaratdi. Navoiy “Xamsa” sining har bir dostonida va “Mahbubul qulub” da rai‘yatga g‘amxo‘r odil podshoh g‘oyasi olg‘a suriladi. Dostonlarning boshida Olloh va payg‘ambardan keyin Husayn Boyqaroga, ayrimlarida Badiuzzamonga va boshqa tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan maqtovlardan maqsad ham ra‘iyatga g‘amxo‘r odil podshoh g‘oyasini odamlar qatorida hukmdorlar ongiga singdirish, nizolar va ayirmachilik kayfiyatlarining oldini oluvchi ushbu omilni badiiy obrazli ifodalashdir.

Navoiy asarlari urug‘-qabilachilik, shomoniylik va zardushtiylik qarashlari ustunlik qilgan asrlarda, hatto ilk o‘rta asrlarda vujudga kelishi mumkin emas edi. U islom tamadduniing o‘z cho‘qqisidan o‘tib, an’anaviy jamiyatga aylanayotgan XV asrida buyuk dahoning tashvishlari, ogohlantiruvchi, adolatga, insonparvarlika, tinchlik-osiyoishtalikka, yaratuvchanlikka da’vati sifatida yuzaga keldi.

Daho shaxslar ijodi tahlil etilsa, bu ijod o‘z tamadduni erishgan yutuqlar umumiy saviyasi va dolzarb muammolari bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liqligi ayonlashadi. Navoiy ijodi islom tamaddunining adabiyot va ijtimoiy qarashlarda erishgan yutuqlari bilan uzviy chambarchas. U Nizomiy, Dehnaviy, Jomiy asarlari, Naqshband tariqati, Aziziddin Nasafiy falsafasi, turkiy salaflarining badiiy adabiyotda erishgan yutuqlarini teran o‘zlashtirgan va yangi pog‘onaga ko‘targan. U ayni paytda o‘sha yillarda islom tamadduni duch kelgan yangi muammolarga, tarixiy da’vatlarga badiiy-falsafiy javobdir. Navoiy ijodi islom tamadduni taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi ko‘zgu va uning so‘ngi o‘rta asrlardagi badiiy-falsafiy cho‘qqisidir.

G'arbda tovar-pul munosabatlari rivojlanib, kapitalizm oyoqqa turishi jarayonida yangi industrial sivilizatsiya shakllandi. U XVII-XIX asrlar mobaynida insonning insondan shaxsiy qaramligiga (qullikka, krepostnoylikka) barham berdi, hammani qonun oldida tenglashtirdi. Biroq iqtisodiy qaramlik saqlanib qoldi, chunki oddiy ishchilarda, sobiq krepostnolarda, ularning bolalariga hech qanday mulk yo'q edi. Ular o'z ishchi kuchini sotish hisobiga kun ko'rar edi. Yangi sivilizatsiyada adabiyot ideal qahramonlar obrazi orqali ifodalanadigan umumiy insonparvarlik, ezgulik g'oyalaridan zamondoshlari o'y-tashvishlarini, ijtimoiy ahvoli va mavqeini, boshiga tushgan konkret muammolarini badiiy tahlil qilishga o'ta boshladi. Insonparvarlik va ezgulik g'oyalarini olg'a surish endi konkret insonni himoya qilish, jamiyatdagi adolatsizlikni tanqid qilish orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Yangi badiiy uslub – tanqidiy realizm XIX asr 30-yillarida qaror topti. Tanqidiy realizm inson tashqi (ijtimoiy ahvoli) va ichki dunyosini (ongini, psixologiyasini, tuyg'ulari va kechinmalarini) har tomonlama tahlil qildi, ochib berdi. U ratsionalistik tafakkurga tayanar edi. Tanqidiy realizmning rivojlanishi kapitalistik (industrial) tamaddunning ratsionalizmga ishonchi so'nib ulgurmagan, taraqqiyot chizig'i hali uzluksiz yuqorilayotgan pallasiga to'g'ri keldi. Shu sababdan u determinizm – sababiyat (sabab-oqibat) aloqalarini qattiq yoqlar edi. U insonning har bir harakatini, xulq-atvorini, intilishlari-yu hissiy kechinmalarini ijtimoiy va psixologik jihatdan asoslashga, dalillashga urindi. Biroq ongosti hodisalariga murojaat etmadi, chunki ular ijtimoiy hayotda sezilarli rol o'ynamas, boz ustiga ularning na ijtimoiy, na psixologik sabablari o'sha davrda ma'lum edi. Ongosti hodisalarini yoritish alohida badiiy tahlilni, alohida badiiy usulni taqozo etar edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida industrial tamaddun o'zining yanada yuqoriroq bosqichiga odim qo'ydi. G'arb sivilizatsiyasining ichki ziddiyatlari barcha sohalarida qalqib yuzaga chiqdi. Ilgari ular ko'proq iqtisodiy hayotda yuz ko'rsatib, zabastovkalar, stachkalarga, revolyutsiyalarga sabab bo'lardi. XIX asr oxirgi choragida siyosiy va iqtisodiy to'qnashuvlar biroz susaydi. Ammo inqiroz ma'naviy hayotda chuqurlashdi. Kapitalistik tamaddun ideallariga, uning oqilona tuzum ekanligiga ko'pchilik ishonmay qo'ydi. Ongosti hodisalari, odamlarning aql bovar qilmaydigan xulq-atvori ijtimoiy hayotda tobora sezilarli iz qoldira boshladi. Irratsionalizm kuchaydi. Har xil modernistik, avangardistik oqimlar, turli tuman tasvirlash va ifodalash uslublari paydo bo'ldi. Ikkinchi tomondan – adabiyot va san'at, o'z ichki rivojlanish qonunlariga ko'ra, tanqidiy realizm darajasida qolib ketishi, ongosti hodisalarini badiiy tahlil etmasligi mumkin emas edi. Tanqidiy realizm inson ongini har tomonlama o'rganib, ongosti ostonasida to'xtab qolgan bo'lsa, modernistik adabiyot va san'at ongosti hodisalarini tasvirlash va ifodalashdan cho'chimadi. U, tanqidiy realizm kabi, insonning hamma tuyg'u va kechinmalarini oqilona badiiy asoslab berish, sabablarini ko'rsatish vazifasini o'z oldiga qo'ymadi. Inson ichki olamidagi irratsional, aql yordamida tushuntirib bo'lmaydigan jihatlarini ham e'tirof etib, tasvirlab ketaverdi. Ongosti hodisalarini, ongsizlikni (agar diniy – mistik xarakaterdagilari bo'lmasa) nafaqat o'rta asrlar, hatto XIX asr birinchi yarmi adabiyoti tasvirlay olmas edi.

Modernizm oqimlari industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish davri mahsulidir. Ular ratsionalistik tafakkur qatorida irratsionalistik tafakkurning badiiy ijodda oldingi o'rinlarga chiqishi, ularning eklektik qorishuvi, ba'zan irratsionalizmning ratsionalizmga ustunlik qilishi, ba'zan ijodkorning relyativistik fikr yuritishi tufayli yuzaga keldi va rivojlandi. Postindustrial jamiyat mustahkam oyoqqa turib olgan XX asr 50-yillar ikkinchi yarmidan, asta-sekin yangi

postmodernistik oqimlar tarqala boshladi. Lekin bu adabiyot va san'atda ijod to'liq, dastlab modernizmga, so'ng postmodernizmga o'tib ketgan ekanda, degani emas. Adabiyot va san'atda ijodkor shaxsi hal qiluvchi rol o'ynaydi. U buyuk salaflari an'analarga sodiq qolib, ularni zamonga moslashtirib davom ettirishi, yangi epiklarni, uslublarni unchalik, yoki umuman qabul qilmasligi mumkin. Badiiy asar siyosiy va e'tiqodiy qarashlarning, sivilizatsiya evrilishlarining mexanik in'ikosi emas, balki o'ziga xos individual va ijtimoiy talqinidir. Shu sababdan zamonaviy adabiyot va san'atga badiiy usullar va uslublar xilma-xilligi xos.

Zamonaviy postindustrial sivilizatsiyaning ma'naviyatga yana bir ta'siri (bu gal ancha salbiy ta'siri) – ommaviy madaniyatning alohida ijtimoiy fenomenga (hodisaga) aylanishidir. Ommaviy madaniyat barcha mahsulotlar industrial usulda ishlab chiqarilishini, zamonaviy OAVni – gazeta, jurnal, radio-televideniye, AT, internet, kino, kompakt disklar va h.k. larni nazarda tutadi. U xalq madaniyati emas, unga milliylik, individuallik, eksklyuzivlik xos emas. Ommaviy madaniyat o'tgan sivilizatsiyalarda vujudga kelishi noreal edi. U moddiy va ma'naviy buyumlar tovarga aylangan, iste'mol va turmush tarzi, uy-ro'zg'or buyumlari, odamlar yashaydigan kvartiralaridan tortib, ishga borib keladigan transport vositalari, yeydigan ovqati-yu, ko'radigan teletomoshasi, o'ynaydigan o'yinigacha standartlashgan jamiyat mahsulidir.

Ma'naviyat yuksalishining umumtamadduniy taraqqiyot darajasiga bog'liqligini ilm-fan va ta'lim tizimi vujudga kelishi va rivojlanishi yanada oydinlashtiradi. Agrar jamiyatda ilm-fan va xalq ta'limi iqtisodiyotning (xalq xo'jaligining) bevosita tarmog'i bo'lmagan. Ilm-fan, ta'lim ma'lum darajada iqtisodiyot buyurtmalarini bajarsa-da, ma'naviyatning mustaqil sohasi sifatida alohida rivojlangan. Unga ma'rifatli xonlar, vazirlar, viloyat boshliqlari, Navoiy singari buyuk shaxslar homiylik qilgan. Ulug'bek saltanatida Samarqandda ilm-fan gurkirab o'sdi. Ulug'bekdan keyin inqirozga uchradi. Chunki ijtimoiy ishlab chiqarish ilm-fanga kuchli ehtiyoj sezmas edi.

Industrial jamiyatda fabrikant ta'limni, ilm-fanni yaxshi ko'radimi, yomon ko'radimi – bundan qat'i nazar fan-texnika yutuqlarini, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilmasa, ishchi va injener-texnik xodimlarning malakasini oshirmasa, sinib qoladi. Industrial ishlab chiqarish millionlab injenerlarga, texniklarga, iqtisodchilarga, buxgalterlarga, ta'minotchilarga, menejerlarga, mahsulotni reklama qiladigan, sotadigan mutaxassislarga, moliyachilarga, soliqchilarga, bank, birja, sug'urta kompaniyalari xodimlariga, yuristlarga, umuman ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma mutaxassislariga muhtoj. Shu sababli ularni tayyorlash tizimi vujudga kelib, xalq xo'jaligining ajralmas tarmog'iga aylandi. Minglab maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar paydo bo'ldi. Ularda ham millionlab mutaxassislar ishlay boshladi. Jamiyat ongi, bilimi, malakasi, ilm-fan, ta'lim, umuman ma'naviyat tizimi yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Industrial sivilizatsiya jamiyatning sinfiy va kasbiy tuzilmasini, ma'naviy ehtiyojlari va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi.

Boshqa misol – sog'liqni saqlash tizimi. Ilk fabrikantlar orasida ishchilarini ashaddiy ekspluatatsiya qiladigan, ularning sog'ligi to'g'risida zig'ircha qayg'urmaydigan toshyuraklar ko'p uchraydi. Biror ishchi mayib-majruh bo'lib, yoki o'lib qolsa, fabrikant tashvish chekmagan. Ilk fabrikalarda malakasiz qo'l mehnati ustunlik qilgan. Shu bois ishchini yo'qotishdan fabrikant zarar ko'rmagan. Ammo, boshqa tomondan, fabrikalarda ishchi-xodimlar soni oddiy ustaxonalariga nisbatan bir necha barobar ko'p. Agar fabrikaning biror ishchisi infeksiya kasalga uchrab qolsa, kasallik boshqalarga ham yuqib, fabrika unumdorligi pasayib ketadi. Bunday

voqealar ko'p takrorlangan. Oqibatda fabrikant rahmdilligi uchun emas, foydadan quriq qolmaslik uchun fabrika qoshida lazaret ochishga majbur bo'lgan. Texnologiyalar murakkablashib, ishchi-xodimlarning malakasi katta ahamiyat kasb eta boshlashi jarayonida endi bemorni, mayib bo'lgan mutaxassisni har kim bilan almashtirib bo'lmazligi ayonlashgan. Fabrikant malakali ishchi xodimini avaylay boshlagan.

Buning ustiga urbanizatsiya avj olib, shaharlar tez o'sgan sayin sog'liqni saqlashning ahamiyati mamlakat miqyosida oshib boravergan. Yevropa xalqlari tarixiy xotirasida necha marta o'tmishda vabo, o'lat va chechakdan aholining yarmi qirilib ketgani saqlanib qolgan edi. Fabrikant ham, davlat ham sog'liqni saqlashga e'tibor qaratishga majbur bo'ldilar. Natijada sog'liqni saqlash tizimi industrial jamiyatda iqtisodiyotning zaruriy tarmog'iga aylandi.

Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida davlat boshlig'ining ilm-fanni, adabiyot va san'atni, ijodkor ziyolilarni qadrlashi yoki qadrlamasligi, hatto yomon ko'rishi jamiyat ma'naviyati rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatsa-da, to'xtatib qo'ya olmaydi. Lenin va Stalin ziyolilarni, olimlarni uncha xushlamaganlar, hatto doimo nolib yuradigan tutruqsiz chirkin shaxslar, deb atagan. Ijodkor ziyolilarning katta qismi 20-yillar boshida mamlakatdan chet elga chiqarib yuborilgan, qolganlarning anchasi 30-yillarda qatag'on qilingan. Gitler hokimiyat tepasiga kelgan yillarda Germaniyada o'xshash vaziyatni va siyosatni kuzatamiz. Biroq Stalin ham, Gitler ham ilm-fandan, ijodkor ziyolilardan voz kecha olmagan. Busiz mamlakat rivojlanmas, ularning butun dunyoda bolshevistik yoki fashistik tuzumlarni o'rnatish niyatlari amalga oshmas edi. Shu sababdan ular sarkash ijodkorlarni jazolash bilan bir qatorda tuzumga ochiqcha qarshi bo'lmaganlarni o'z tomonlariga og'dirishga harakat qilganlar. Turli rag'batlantirish yo'llarini izlaganlar, unvonlar, mukofotlar, orden-medallar, lavozimlar bilan taqdirlaganlar.

Shunday qilib, ma'naviyat rivojlanishi umumtamadduniy taraqqiyot darajasi va talablariga muvofiq kechadi. Bu ma'naviyat yuksalishining obyektiv qonunidir. Mazkur qonun ikkitomonlama aloqadorlikni ifodalaydi.

Ma'naviyat yuksalishi qanchalik umumtamadduniy taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'lsa, tamaddun rivojlanishi ham shu darajada ma'naviyat taraqqiyotiga bog'liqdir. Ma'naviyat sivilizatsiyaga aks ta'sir ko'rsatadi. Bu birinchi galda ilm-fan, texnologiyalarga, boshqaruv demokratlashuvi va inson huquqlari, erkinliklari o'sishiga taalluqli. Bundan tashqari, ma'naviyat insonning muayyan maqsadni belgilashida, unga erishish uchun usul va vositalarni erkin tanlashida, qiyinchiliklarni yengib,olg'a intilishida, ya'ni iroda, bilim va e'tiqod kuchida ham namoyon bo'ladi. Ma'naviyat ular orqali o'z davri sivilizatsiyasini rivojlantiradi. Ushbu o'zaro bog'liqlik barcha zamonlar, barcha jamiyatlar uchun xosdir. *Sivilizatsiya va ma'naviyatning taraqqiyot darajalari bir-birini taqozo etadi. Bu bog'liqlik, aloqadorlik tasodifiy emas, zaruriy, doimiy, takrorlanuvchan, mohiyatli va birinchi darajalidir. Shu sababdan mazkur bog'liqlik ijtimoiy taraqqiyotning ma'naviyat yuksalishiga mansub xususiy, ammo ma'naviyatning umumiy qonunidir.*

Ma'naviyat rivojlanishiga ijtimoiy-siyosiy muhit, boshqaruv rejimi, huquqni talqin qilish va qo'llash amaliyoti kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bular, ma'lumki, muayyan tamaddun xususiyatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy hodisalardir. Kelgusi mavzuda ko'rib chiqadigan ijtimoiy ong shakllari va ularning madaniyatda yuzaga chiqishi ham tamaddun rivoji darajasi tomonidan taqozo etiladi va, aksincha. Masalan, axloq - tamaddun mahsuli, uning meyorlari, kategoriyalari, tushunchalari mazmuni jamiyatdagi mavjud munosabatlarni tartibga solish

zarurati bilan bog'liq. Ayni paytda axloqiy madaniyat qanchalik yuksalsa, odamlarning bir-biriga ishonchi, mehr-oqibati shuncha mustahkamlanadi, ijtimoiy muhit shuncha yaxshilanadi. Bu esa sivilizatsiya taraqqiyoti uchun juda zarur mafkuraviy-psixologik shart-sharoit yaratadi. Aksincha, ma'naviyatning moddiy-iqtisodiy, ilmiy-texnologik asoslari yuksak rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, axloq inqirozga uchrasa, butun ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sivilizatsion taraqqiyotni oqibatda inqirozga mahkum etadi.

Albatta, ma'naviyatning turli sivilizatsiyalar sharoitida, ayniqsa industrial, postindustrial jamiyatda rivojlanishi bir chiziqli, faqat ijobiy yuksalish chizig'i bo'lgan emas. Jamiyatga xos ziddiyatlar, illatlar ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat taraqqiyoti kabi ma'naviyat rivojlanishi ham murakkab. Gullab-yashnash va inqirozlar davrlarini boshdan kechirgan. Bir sivilizatsiyani boshqa sivilizatsiya bilan almashuvi ma'naviyatni tubdan o'zgartirgan, yangi e'tiqodiy, mafkuraviy asoslarga o'tkazgan. Bular haqda keyingi o'rinlarda to'xtalamiz. Hozircha shunday hulos qilamiz: *ma'naviyat rivojlanishi umumtamadduniy rivojlanish doirasida kechadi va u tomondan belgilanadi, o'zi ham unga aks ta'sir ko'rsatadi.*

3. Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqlik qonuni

Uchinchi qonun to'g'risida shuni aytish mumkinki, ma'naviyatga e'tiqod (mifologiya, din, falsafa), axloq, adabiyot va san'at, ilm-fan, huquq, siyosat hamda ta'lim-tarbiya tizimi ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy ong shakllarining ma'naviyatga ta'siri va munosabatlari qismlarning bus-butunlikka, tizim tarkiblarining yaxlit tizimga ta'siri va munosabati kabidir. Butunlikning qismlari, tizimning tarkibiy tuzilmalari takomillashsa, butunlik, tizim rivojlanadi va, aksincha. Masalan, viloyatlari, shahar, qishloqlari boy mamlakat kambag'al, qoloq bo'lmaydi. Boy va rivojlangan mamlakatlarning viloyatlari, shahar, qishloqlari qashshoqlikka, qoloqlikka yuz tutmaydi.

Ma'naviyat bus-butunlik, yaxlit tizimdir. Ijtimoiy ong shakllari esa uning tarkibiy qismlari, tuzilmalaridir. To'g'ri, butunlikning barcha qismlari, tizimning barcha tarkibiy tuzilmalari birdek, bir tekis rivojlanmaydi. Ayrimlari ortda qoladi, ayrimlari ilgarilab ketadi. Ammo ular o'rtasida o'ziga xos dinamik muvozanat qaror topadi. Lekin qismlar, tarkibiy tuzilmalar rivojlanishda bir-biridan tamomila uzilib qolmaydi. Har qanday qonun, aloqa, zarurat namoyon bo'lishi negizida meyor turadi. Meyor buzilsa, qonun ishlamaydi, hodisa o'z teskarisiga aylanadi. Ijtimoiy ong muayyan shaklining ma'naviyat tizimidagi o'rnini, ahamiyatini aniqlashda meyorga rioya qilish nihoyatda muhim. Ma'naviyat yaxlit tizim sifatida rivojlanishi uchun uning tarkibiy qismlari rivojlanishi kerak. Har bir tarkibiy qism rivojlanishi ma'naviyatning yaxlit tizim sifatida rivojlanishiga ham, bu tizimga kiruvchi boshqa qismlar rivojlanish ham (biriga ozroq, biriga ko'proq) yordam beradi. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

E'tiqod, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya tizimi, madaniyat, bo'sh vaqt va dam olish, bir tomondan, jamiyat taraqqiyoti mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatni taraqqiy ettiruvchi omillardir. Ilm-fan, birinchi galda tabiatshunoslik va texnika fanlari bevosita tabiat boyliklaridan foydalanish, ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish, texnologiyalarni yuksaltirish uchun kerakli bilimlar beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar insonning o'ziga, jamiyat, insoniy munosabatlarga, ularni takomillashtirishga oid bilimlar beradi. Ilm-fanning yana bir buyuk vazifasi – u odamlarning dunyoqarashini tarbiyalaydi va turli irim-sirimlardan, xurofotdan, xato, g'ayriilmiy qarashlardan xalos bo'lishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, fan dunyoqarashning,

e'tiqodning, yanada kengroq qarasak, butun ma'naviyatning ilmiy-intellektual negizini tashkil etadi.

Ilm-fan rivojlanmasa, olamning va insonning ko'p sirlari ochilmasdan qolar edi. Kundalik ong, oddiy hayotiy tajriba negizida vujudga kelgan mehnat ko'nikmalari va mahorati ibtidoiy va agrar jamiyatning ilk bosqichidan yuqoriroqqa ko'tarilish imkonini bermas, inson iqtisodiy muhtojlikdan, oddiy kasallikdan ko'p azob chekar edi. Bunday sharoitda insoning o'zligini anglash darajasi pastligicha qolib, o'z oldiga bir amallab kun ko'rishdan boshqa maqsadlarni qo'ya olmas edi.

Ilm-fanning vujudga kelishi va rivojlanishi uning tabiat kuchlaridan (suv, havo, olov, yoqilg'i sh.k. lar), tabiat ashyolaridan foydalanish imkoniyatlarini keskin oshirdi. Asta-sekin murakkab mehnat qurollari, ishlab chiqarish vositalari, mexanizmlar yasash usullari paydo bo'ldi. Inson ilm-fan yordamida yangi ashyolar, o'simliklarning yangi serhosil navlarini, hayvonlarning mahsuldor zotlarini yaratdi, turli kasalliklarni davolashni o'rgandi. Turmush farovonligi va o'rtacha umr ko'rish yoshi muttasil o'sdi, ongi, ma'naviyati yuksaldi.

Inson ijobiy bilimlari boyishi va chuqurlashishi tufayli sabab-oqibat bog'lanishlarini kashf etdi. Hech bir narsa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Hamma narsa, voqealar, jarayonlar asosida muayyan sabablar yotadi. Sababning oqibati o'zidan keyin keladigan narsa, hodisalar uchun sabab bo'ladi. Bu zanjir to'xtovsiz, uzluksiz davom etadi. Demak, olamning, insonning boshlanishida qandaydir bosh, ilk sabab bor degan xulosaga kelishi mumkin. Natijada insonning e'tiqodiy qarashlari o'zgardi. U ibtidoiy fetishizm, magiya, ajdodlar ruhiga sig'inish, animizmdan asta-sekin olamning yagona yaratuvchisi va boshqaruvchisi – ilk sabab mavjudligi to'g'risidagi monoteistik qarashlarga keldi. Monoteistik dinlar vujudga kelishida ilm-fan bilvosita omil bo'lgan. Monoteistik dinlarda Xudo olamning birlamchi sababi hisoblanadi. Bu dinlar monodeterministik bo'lib, yaratuvchi irodasini – bosh, ilk sababni tan oluvchi dinlardir. Politeistik (ko'pxudolik) qarashlar ibtidoiy e'tiqodlar va monoteizm o'rtasidagi bir bosqichdir.

Ba'zi mamlakatlarda (Hindiston kabi) politeizm saqlanib qolgan. Politeizm bilish nazariyasi nuqtai nazaridan politerministik diniy ta'limot, har bir tabiiy va ijtimoiy hodisaning o'z yaratuvchi va harakatlantiruvchi ilohiy manbalari borligiga ishonchdir. Bu ishonch mushohada, ilmiy va hayotiy tajriba orqali aniqlangan sabab-oqibat bog'lanishlarining rang-barangligiga shaklan mos bo'lib, asotiriy ko'rinishda diniy e'tiqodda mustahkamlanishidir. Xulosa qilish lozimki, ilm-fan rivojlanishi diniy-etiqodlar o'zgarishiga bilvosita, dunyoviy etiqodlar rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Fan va din o'rtasida asrlar mobaynida davom etgan bahs, odamlar ongi, dunyoqarashi uchun kechgan kurash ma'naviyat rivojlanishi ziddiyatli bo'lishiga olib kelgan. Ba'zan unda meyor buzilib, fanga bepisand qaralsa, din ustunlik qilsa, mutaassiblik unsurlari, xurofot va bid'at ko'paygan. Bu turg'unlikka sabab bo'lgan. Ba'zan ilm-fan yutuqlari oldida dinning keskin qarashlari yumshagan, mo'tadillik kasb etgan. Ma'naviyat bunday paytlarda gurkirab o'sgan. Ijodkorlik, erkinlik yuksalgan. Ammo fan ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan ajralib qolsa, yoki ularga qarshi qo'yilsa (meyor buzilsa), ilmiy qarashlar birdan-bir ustuvor e'tiqod hisoblansa, ma'naviyat uchun yana xavf tug'iladi. Texnokratik qarashlar ustunlik qilib, an'anaviy mumtoz qadriyatlarga, milliy madaniyatga bepisandlik jonlanadi. Fanning ba'zi yutuqlari va kashfiyotlari insoniyatga xavf sola boshlaydi. Buni esdan chiqarmaslik kerak. Yuqoridagilardan ilm-fanning ijtimoiy ong shakli sifatida ma'naviyatga ta'siri oydinlashadi.

Adabiyot va san'at inson ongi-tafakkuri jilolanishi, evrilishlari, ruhiy kechinmalari ulug'vorligi-yu tubanligi, ularning har xil qirralari, imkoniyatlari to'g'risida obrazli bilim beradi. Odamlarning tuyg'ularini tarbiyalaydi, e'tiqodini, ma'naviy dunyosini insonparvarlik, ezgulik, go'zallik, adolat, ishq, muhabbat, vatanparvarlik va shu kabi g'oyalar bilan boyitadi, baland marralarni egallashda ilhom beradi. Adabiyot va san'at jamiyatning, odamlar ongining, axloq va huquqning, siyosatning ezgulik, insof, adolat, rahm-shafqat, mehr-oqibat, go'zallik kabi qadriyatlar, ijtimoiy ideallar bilan boyishida, ma'naviy erkinlik o'sishida ulkan rol o'ynaydi. *Adabiyot va san'atning ma'naviyatga ta'siri uning bilim berish, estetik ehtiyojlarni qondirish va tarbiyalash vazifalaridan kelib chiqadi.*

O'zbek xalqi XX asr boshlarida Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy siymolarini qanday tasavvur etar edi? Xalq Amir Temurning buyuk davlat arbobi va sarkardaligini, vatanni mo'g'ul zulmidan ozod etib, obod qilganini, dunyoning yarmini o'ziga buysundirganini yarimrivoyat, yarimhaqiqat ko'rinishida bilgan. Ulug'bekning buyuk astronom-olim va madaniyat homiysi bo'lganini, o'g'li Abdullatif roziligi bilan qatl etilgani va u haqda og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan rivoyatlarni eshitgan. Kimdir Samarqandga borib Go'ri Amirni ziyorat qilgan bo'lsa, tasavvurlari yangi taassurot bilan biroz boyigan, ammo juda kemptik va mavhumligicha qolgan.

Alisher Navoiyning ba'zi g'azallariga kuy bastalanib, hofizlar tomonidan ijro etilgani uchun ismi xalqqa yaxshi tanish bo'lgan. Lekin Navoiy hayoti, yashagan davri muhiti to'g'risida avom deyarli aniq hech narsa bilmagan. Shu sababdan rivoyatlar to'qigan. Navoiy va Guli muhabbati to'g'risidagi afsona xalq og'zaki ijodi mahsulidir.

O'tmish tarixni, buyuk ajdodlarimizni tor doiradagi o'qimishli, arabcha va forschani o'zlashtirgan ziyolilar ozmi-ko'pmi bilgan. O'shanda ham ko'pchiligining bilimi to'liq va tizimli bo'lmagan. Oybekning "Navoiy" romani bois halqimiz Alisher Navoiyni buyuk shoir, davlat arbobi, fan, adabiyot va san'at homiysi sifatida tanidi. Navoiyning o'y-fikrlari, qalb iztiroblari, g'am-tashvishlari, yuksak ideallari, xalqparvarligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ldi. Navoiy davridagi ijtimoiy munosabatlar, saroy fitnalari, zamondoshlarining fe'l-atvori, tuyg'ulari va psixologiyasi, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik qarashlarini bilib oldi. Oybekning romani, musavvirlar tomonidan Navoiyning ishlangan portretlari, Izzat Sulton va Uyg'un pyesasining sahna va radiospektakli, Komil Yormatov kinofilmi uni keng ommaga tanitdi. O'rta maktablar adabiyot darslarida Navoiy hayoti va ijodi o'rganilgani, darsliklarda, xrestomatiyalarda asarlaridan parchalar chop etilgani tufayli Navoiy barcha o'zbek oilalariga kirib keldi, milliy ma'naviyatimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. Bunday bilimni xalq ilmiy kitoblardan ololmasdi. Chunki ilmiy risolalar, maqolalar mutahassislarga mo'ljallangan, ularda o'y-kechinmalar, ruhiyat, insoniy tuyg'ular, shaxsiy munosabatlar deyarli tahlil etilmaydi.

Oybekning "Navoiy" romani, Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlari, Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramatik dostoni, ko'plab boshqa mualliflarning tarixiy mavzudagi roman va qissalari, o'z davri mafkurasiga moslashtirilganidan qat'i nazar, xalqimizga Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarini daho shaxslar va jonli insonlar sifatida aniq tasavvur qilish imkonini berdi. Xalqning tarixiy xotirasi, milliy g'ururi tiklanishida, o'zligini anglashida, ma'naviyati rivojlanishida tarixiy mavzudagi badiiy adabiyot va san'at katta rol o'ynaydi.

O'zlikni anglash faqat o'tmishni bilishga taalluqli emas. U o'zining bugungi ahvolini, muammolarni, tahdid solayotgan ma'naviy xavf-xatarlarni hamda kelajak bilan bog'liq maqsad va vazifalarni anglashni ham bildiradi. Milliy o'zlikni anglatishda badiiy adabiyotning oldiga na fan, na din, na axloq, na huquq tusha oladi. Badiiy obraz millatning yulduzli onlari, bosqinchilarga qarshi matonatli kurashi, buyuk farzandlari shonli g'alabalari va madaniy yutuqlarini konkret-obrazli tasvirlab, milliy g'ururni tarbiyalaydi. Xalq boshiga tushgan fojialarni, alamlarni, ularning sabablarini jonlantirib, saboq chiqarishga undaydi. Mavjud kamchiliklar va illatlarni, ma'naviy xavf xatarni, yoki ulug'vor maqsadlarni his qilish darajasida tushunarli va ishonchli qilib tasvirlaydi, ifodalaydi. O'quvchida qabihlikka, tubanlikka nisbatan nafrat, halollik va mardlikka nisbatan mehr-muhabbat, intilish uyg'otadi.

Jadidlar ijodi, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari, Cho'lpon va Usmon Nosir she'rlari o'tgan asrning 20-30 yillarida xalqimiz o'zligini anglashida beqiyos ahamiyat kasb etgan edi. 60-80 yillarda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Usmon A'zim she'rlari xalqimizning yangi avlodiga ajdodlari kim ekanligini, ularga munosib bo'lish lozimligini yana eslatdi. Xalq g'ururini yana bir pog'ona ko'tardi. "Ushshoq chigitni ham etmay deb uvol, million egatlarga sochilgan"ini (A. Oripov), o'sha ushoq chigitni olish uchun egilib, qaddini ko'tarmasdan, ezilib ketganini, kuz chiroyini ham sezmay qolayotganini, tilidan, imon-e'tiqodidan, madaniyatidan begonalashayotganini kuyunib ifodalagan, or-nomusni, milliy g'ururni eslatib o'kinib yozilgan she'rlar o'zbek jamoatchiligi, ayniqsa yoshlar qalbida g'alayon ko'tardi, zimdan uni istiqloq uchun kurashga undadi. SHO'rolar tuzumining ma'naviy-axloqiy va siyosiy jihatdan noqisligi, notabiiyligi, odamlarni ko'plab insoniy xislatlardan mahrum qilishi Aqsad Muxtorning "Chinor" romanida, O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" pyesasida, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton asarlarida yorqin bo'yoqlarda tasvirlandi.

Adabiyot va san'atda milliylik va umuminsoniylik, yovuzlikni, tubanlikni qoralash, ezgulikni, go'zallikni ulug'lash, insonga saboq beradigan har xil obrazlarni, jozibali ideallarni tasvirlash birlashib ketgan, badiiy ijodning mazmunini tashkil etadi. Shu sababdan jamiyat ma'naviyatiga yuksak xalqparvar adabiyot va san'at ko'pchilik ijtimoiy ong shakllariga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot va san'atning yaxlit ma'naviyat doirasida ilm-fanga, dinga, axloqqa, siyosiy ongga, huquqqa ta'siriga bir necha dalil keltiramiz. Tasavvuf tariqatlarining aksariyat asoschilari, yirik shayxlari o'z g'oyalarini yoyishda badiiy so'zdan foydalanganlar. Ulardan Yassaviy, Attor, Rumi hattoki mumtoz shoirlar hisoblanadi. Garchi shoirlar ular uchun asosiy kasb bo'lmasa-da. Navoiyning fikricha, Attor va Rumiyni (shuningdek Hazrati Alining) she'r yozishdan maqsadlari adabiyot emas, balki ilohiy sir-asrorni bilishdir.

Amerikalik adiba Bicher Stou XIX asr o'rtalarida "Tom tog'aning kulbasi" degan roman yozgan. Roman AQSH siyosiy va huquqiy ongida alg'ov-dalg'ov ko'tarib yuborgan. Oradan biroz vaqt o'tgach, AQShning shimoliy shtatlari, janubiy shtatlariga qarshi qullikni bekor qilish uchun urush boshlagan. Albatta, AQShdagi fuqarolar urushining sababi Bicher Stou romani emas, ammo u shimollik fuqarolar, boshqa barcha halol, mard insonparvar va vatanparvar kishilarni quldorlikka qarshi kurashga ilhomlantirgani – haqiqat. Yana bir dalil A. Eynshteynning uning ongi-tafakkuriga, ijodiga F. Dostoyevskiy romanlarining ta'sirini tan olib aytgan so'zlaridir. Keltirilgan misollar adabiyot va san'atning ijtimoiy ongning boshqa shakllariga, diniy, axloqiy, huquqiy va siyosiy qarashlarga, ular orqali va butun ma'naviyatga, ma'naviy muhitga, odamlarning intilishlari-yu hayotiy pozitsiyalariga ta'sirini ochib beradi.

Ilm-fanning, adabiyot va san'atning, demokratik qadriyatlarining, huquqiy ongning, ularni tarqatuvchi OAVning rivojlanishi jamiyat ma'naviyatini yuksaltiradi, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtiradi, ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy muhit yaxshilanadi, huquqning adolatliligi kuchayadi. Natijada odamlarning ijodkorligi, yaratuvchilik tashabbuslari o'sadi.

Ilm-fani, adabiyot va san'ati yaxshi rivojlanmagan, dunyoviy va diniy e'tiqodi ziddiyatlarga to'la, ongi xurofot va bid'at botqog'iga cho'kib qolgan xalq ma'naviyati qoloqlikka mahkum, zero unda ma'naviy ehtiyojlar yuksalmay qoladi. Bunday xalq turli soxta va buzg'unchi g'oyalarning, siyosiy ig'volarning, har-xil mish-mishlarning tuzog'iga tez tushadi. E'tiqod, teran dunyoqarash, axloq, insonning o'z huquq va manfaatlarini yaxshi anglashi, siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga oid bilimlari va ijtimoiy faolligi uni ma'naviy tahdidlardan himoya qilibgina qolmay, unga fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat idoralari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish imkonini beradi.

Huquqiy va siyosiy ong yuksalishi jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari, demokratiya va fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlaydi. Va, aksincha. Huquqiy va siyosiy ong turg'unligi, mutaassibli, erkin emasligi jamiyat ma'naviyatini kuchsizlantiradi. Tafakkur erkinligi, so'z va e'tiqod erkinligi, inson huquqlari va erkinliklari darajalari jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Totalitar jamiyatda biz na tafakkur erkinligiga, na inson huquqlari va erkinliklari yetarlicha ta'minlanishiga, na fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga guvoh bo'lamiz. Hamma bir xil fikrlashi, o'ylashi va yashashi, bir g'oyaga, bir dohiyga sig'inishi zarur. Totalitar jamiyat ma'naviyati o'ta cheklangan, biryozlama, u sun'iy puflab shishirilgan ma'naviyatdir.

Ma'naviyat rivojlanishi, ko'rinib turibdiki, moddiy-tamadduniy taraqqiyotdan tashqari, odamlarning dunyoqarashi kengayishi, ilmiy-falsafiy va diniy e'tiqodi, bilimlari o'sishi, ongi xurofotlarga, bid'atga, turli irim-sirimlarga qaram bo'lib qolmasligiga, ilmiy, badiiy tafakkuri, huquqiy va axloqiy ong o'sishiga ham bog'liq.

Dinning, diniy ong va munosabatlarning to'g'ri rivojlanishi butun jamiyatga, ayniqsa ma'naviy hayotga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Din to'liq hukmron bo'lib ilm-fanni, tafakkur erkinligini ta'qib qilgan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik buziladi yoki turg'unlikka tushib qoladi. Salib yurishlari, keyinchalik reformatsiya tufayli Yevropada sodir bo'lgan yuz va o'ttiz yillik urushlar diniy bayroq ostida kechgan edi. Din mutloq ustunlikka erishgan musulmon mamlakatlari ma'naviyatida o'rta asrlar oxirida uzoq davom etgan turg'unlik boshlandi. Shialar bilan sunniylar o'rtasidagi to'qnashuvlar, bugungi kundagi diniy ekstremizm va terrorizm tufayli ezgulik va insoniylikning toptalishi, siyosiy va gumanitar fojealar, ma'naviy-madaniy yo'qotishlar, insoning qadr-qimmatini poymol bo'layotgani diniy mutaassiblik, ekstremizm oqibatidir. Bejiz Muhammad payg'ambar din masalalarida mo'tadillikka chaqirmagan.

Ko'rib chiqilayotgan qonunning yana bir jihati bor. Ijtimoiy ong shakllari ma'naviyatga yaxlit tizim sifatida ta'sir ko'rsatishdan tashqari, uning doirasida bir-biri bilan chambarchas bog'langan va o'zaro bir-biridan ta'sirlanadi. Bu aloqadorlik ancha murakkab, ziddiyatlarga to'la, ijobiy jihatlar qatorida salbiy jihatlariga ega. Ular o'zaro ta'sirining ijobiy jixatlari ma'naviyatga tizim sifatida barqarorlik bag'ishlab, yaratuvchilik salohiyatini oshirsa, salbiy jixatlari, aksincha, beqarorlik tug'dirib, yaratuvchilik salohiyatini pasaytiradi. Masalan, zamonaviy g'arb axloqi va huquqining oila, nikoh masalalarida ko'pchilik an'anaviy fundamental qadriyatlarni, meyorlarni inkor qilishi, o'ta "liberallashtirish" jinsiy aloqalarning

tizginsizligiga, fuqarolik nikohlarining ko'payishiga, birjinsli nikohlarning ayrim davlatlarda qonunlashtirishiga, korporativ guruhiiy oilalar ("shvedcha" oilalar) ko'payishiga olib keldi. G'arb ma'naviyatida huquqiy ong, amaliy formal huquq birinchi o'ringa chiqib, axloqiy ong, amaliy axloq (axloqiy madaniyat) ikkinchi o'ringa surildi. Bu mumtoz axloqiy qadriyatlarning deformatsiyaga uchrashiga sabab bo'ldi. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi qanday bo'lishi lozim, ayniqsa bog'cha va maktablarning boshlang'ich sinflarida bolalarni jinsiy identlik va mo'ljallangan masalalari, birjinsli oilalar bolalarini "ota-ona" kim degan masalalar va h.k. bo'yicha qanday tarbiyalash lozim degan bahslarni tug'dirdi. Bular va feministik harakat bolalar va o'smirlar tarbiyasini, jamiyatning ushbu masalalarga munosabatini, qarashlarini, axloqini tobora boshi berk ko'chaga yetaklamoqda. Axloqiy "tolerantlik" inson huquqlarini formal va vulgar antropotsentristik, egotsentristik tushunishga olib kelmoqda. Bundan butun ma'naviyat beqarorlashmoqda.

Lekin yuqoridagilardan zamonaviy g'arb axloqi butunlay inqirozga uchrab, axloqsizlikni avj oldirgan ekan-da, degan tasavvur hosil bo'lmasligi kerak. G'arb axloqida keskin individualizm, inson erkinliklari va huquqlarini formal tushunish natijasida qayd etilgan kamchiliklar ko'payib borayotganiga qaramasdan, uning biz o'rganishimiz lozim bo'lgan jihatlari bor. Birinchidan, g'arbda inson shaxsi bilan hisoblashish, uning daxlsizligi va muxtoriyligini tan olish o'ta yuqori. Oddiy fuqaro o'zini inson sifatida mamlakatning boshlig'idan kam ko'rmaydi. Ikkinchidan, o'zgacha fikrlarga, qarashlarga toqat qilishni, ularga qo'shilmasak-da, ularni tanqid qilsak-da, hurmat ko'rsatishni o'rgansak arziydi. Ko'pincha boshliq fikriga qarshi chiqqan xodim quvg'inga uchraydi, ishdan ketadi. Biz hali to'liq qutilib ulgurmagan avtoritar tafakkur inson qarashlari erkinligini, mafkuraviy plyuralizmni tan olmaydi. Maishiy darajada kattalar, keksalar fikriga qarshi chiqqan yoshlar yaqin-yaqingacha mahmadona, odobsiz nomini olgan. Avtoritar tafakkur va meyorlar sharq halqlarini asrlar davomida turg'unlikka mahkum etdi.

Uchinchidan, g'arb huquqiy ongi va madaniyatidagi qonun ustuvorligi, barcha birdayligi, demokratiya va huquqiy davlat tamoyillari amaldorlarning o'zboshimchaligini, davlat idoralari va huquq organlari zo'ravonligini ancha cheklaydi. Inson huquqlarini (korxona va tashkilotlar huquqlarini ham) yuzaga chiqarishda, fuqaro va davlat munosabatlarini tartibga solishda o'zaro tiyib turish mexanizmi vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi.

Axloqiy, huquqiy, siyosiy ong yagona ma'naviyat tizimida boshqalarga ta'sir ko'rsatish barobarida o'zlari ham ilm-fanga, falsafaga tayanishi zarur. Ilm-fanga, ilmiy tadqiqotlar va xulosalarga tayanmagan axloqda avtoritar meyorlar, anaxronik (o'z umrini yashab bo'lgan) qarashlar, urf-odatlar saqlanib qoladi. Huquq esa g'arazli subyektiv talqin qilinadigan, hamma uchun birdayligini yo'qotgan, adolatsizlik unsurlari ko'p, eklektik huquqqa aylandi. U totalitar davlatga, avtoritar boshqaruvga yoki, aksincha, oxlokratik boshboshdoqlikka, anarxiyaga yo'l ochadi. Siyosatning ilm-fanga asoslanishi ham juda muhim. Aks holda u diktatura, volyuntarizm, yoki aniq strategiyaga ega bo'lmagan tavakkalchilik tomon og'ib ketishi mumkin. Uch holda ham ma'naviyat zarar ko'radi. Oydinlashmoqdaki, yaxlit ma'naviyat tizimida ijtimoiy ong shakllarining bir-biriga ta'siri, bir-birini boyitishi, meyorlari va qadriyatlarini o'zaro muvofiqlashtirishi katta ahamiyat kasb etadi.

O'tmish axloqiy va huquqiy ongida asrlar mobaynida mansabdor shaxsi uning lavozimidan ajratilmagan. Lavozim obyektivlashmagan. Mansabdor qarori – uning xohish-istagining bir

bo'lagi hisoblangan. Mansabdor go'yoki xohlasa senga yordam beradi, masalaningni hal qiladi, xohlamasa – yo'q. Ushbu hodisa fanda mansabni personifikatsiyalash deb ataladi. Natijada ko'pchilik odamlar mansabdorning ko'nglini topishga, unga pora berishga va yalinib-yolvorishga o'rganib qolgan. Aslida bunday munosabat na axloqqa, na huquqqa to'g'ri keladi. Sharqdan farqli, g'arbda mansabni personifikatsiyalash industrial jamiyatda asta-sekin barham topa boshladi. Ammo uning transformatsiyaga uchragan daxshatli ko'rinishi ham sharqda emas, dastlab g'arb totalitar davlatlarida Gitler, Stalin, Mussolini, Franko, Salazar va shu kabi dohiylar shaxsiga sig'inish sifatida voqe bo'ldi. Dohiylar hukumronlik qilgan davlatlarda ijtimoiy qo'rquv va repressiyalar ma'naviyatni falaj qilib qo'ydi. Demokratik g'arb mamlakatlarida mansab allaqachon depersonifikatsiyalashib, amaldor shaxsidan ajratilgan. Biz xalqni mansabdorlarga, yuqori rahbarlarga nisbatan hurmatini saqlab qolgan holda, o'zini bechora, g'arib sezish tuyg'usidan xalos etishimiz lozim. Bu jarayon O'zbekistonda asosan mustaqillik yillari boshlandi. Ammo hali qilishimiz lozim bo'lgan ishlar ko'p.

Mustaqil davlatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr ostonasida: ma'naviyatga tahdid, xavfsizlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari" kitobida keltirilgan illatlar to'liq yo'qolgan emas. Millatchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi, sho'rolarning sotsialistik baynalmilalchilik, yagona sovet xalqi niqobida olib borgan biryoqlama siyosati oqibatida aholining ayrim guruhlarida vujudga kelgan milliy nomukammallik, milliy nigilizm va kosmopolitizm kabi tuyg'ular, eskidan qolib ketgan ayirmachilik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, guruhbozlik unsurlari, yangidan paydo bo'lgan tahdidlar, diniy va siyosiy ekstremizm aholining ba'zi qatlamlari ongiga, ma'naviyatimiz va jamiyatimiz rivojiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Nega g'oyaviy kurash, mafkuraviy tahdidlar va axborot xuruji, odamlar ongi bilan manipulyatsiya qilish mavjud va yildan-yil kuchaymoqda? Nega odamlarning siyosiy, huquqiy, diniy ongini, ma'naviyatini o'ziga buysundirishga, o'z izmiga solishga urinayotgan doiralar soni kamaymayotir? Chunki bunda manfaatdorlik bor. Agar insonning, voqelikka, hayotga, sodir bo'layotgan voqealarga, o'z kelajagiga munosabati, qadriyatlar tizimi va mo'ljali ijtimoiy ong shakllari rivojiga, mazmuniga bog'liq bo'lmaganda, g'oyaviy kurashlarga, axborot xurujlariga va boshqa ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga o'rin qolmas edi. G'arbning manfaatdor doiralari geosiyosiy hukumronlikka intilmoqda, neokolonializm va neoimperializmning yangicha ko'rinishini qaror toptirmoqchi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi shunday doiralar o'z mamlakatlarida hokimiyatni va tabiiy boyliklarni qo'lga olmoqchi. Ushbu maqsadda ular odamlarning neokolonializm va neoimperializmga, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi tuyg'ularidan foydalanishga harakat qilib, ekstremistik kayfiyatni oziqlantirmoqda, siyosiy barqarorlikni, tinchlikni buzmoqda.

Ichki nizolar, urush olovida qolgan, ocharchilikdan qiynalayotgan aholi orasida ommaviy muhojirlik avj olmoqda. Bular ijtimoiy ongni, ma'naviyatni deformatsiyaga uchratmoqda. Eng fundamental qadriyat – inson hayoti va qadr-qimmatini tobora pasaymoqda. G'arbda ilg'or ziyolilar tomonidan ancha targ'ib etilgan, katta umidlar bog'langan multikulturalizm g'oyasi va siyosati kutilgan natijalarga olib kelmadi. Aksincha, muhojirlar ko'payib ketgan davlatlarda ma'naviy muhit yomonlashib, shovinizm va neofashizm, o'ng radikal kuchlar faollashuvi kuzatilmoqda. Muhojirlarning salmoqli qismi yangi "vatanlaridagi" urf-odatlarini, qoidalarni, axloqiy, huquqiy, siyosiy meyorlarni qabul qilmasdan, tub xalqdan mahdudlashmoqda. Bu mahalliy aholi va muhojirlar o'rtasida turli xil nizolarni keltirib chiqarmoqda. Muammoli

mintaqalar jabirdiydalari orasida esa mahalliy millatchilik, barcha salbiy hodisalarda g'arbni ayblash, ayrimlarida o'ch olish kayfiyati o'smoqda.

Ma'naviy tahdidlarga, axborot xuruji va g'oyaviy kurashga dosh berish, ommaviy madniyatning "kitch" qismining salbiy ta'siridan himoyalalanish mafkuraviy immunitetni, siyosiy va diniy bag'rikenglikni tarbiyalashni taqozo etadi. Mazkur zarurat birinchi galda jamiyat qay yo'sinda, qaysi yo'nalishda rivojlanishining ma'naviyatga bog'liqligidan kelib chiqadi. Ma'naviyatning yuksalishi o'z navbatida ijtimoiy ongda qaysi g'oyalar, qaysi qadriyatlar ustun bo'lishiga borib taqaladi. Ijtimoiy ong shakllarining barqaror o'rtacha darajasi jamiyat ma'naviyati rivojlanishining umumiy saviyasini belgilaydi.

Ijtimoiy ong shakllaridan har biri o'z xususiyatlariga muvofiq ma'naviyatga ta'sir ko'rsatadi. Ularning har birini o'rganish alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Qo'lga kiritilgan barcha yutuqlarni inson bolasi ta'lim-tarbiya vositasida vujudga keladigan va muttasil o'sib boradigan ma'naviy ehtiyolarini qondirish orqali o'zlashtiradi. Shunday qilib, ma'naviy yuksalish insonning pozitiv bilimlari o'sishi, jamiyatda e'tiqodiy, ilmiy, siyosiy hurfiylik, inson huquqlari, tafakkur erkinligi rivojlanishi va ta'lim-tarbiya tizimi takomillashishi bilan bog'liq

Ta'kidlash lozimki, yuqorida qisqacha ko'rib chiqilgan ma'naviyat yuksalishining uchchala qonuni bir jarayonning turli tomonlarini ochib beradi. Ular bir biridan ajralgan holda mavjud emas va alohida faoliyat ko'rsatmaydi. Har uchchala qonun birgalikda, bir paytda harakat qiladi va namoyon bo'ladi. Ular yaxlit jarayon – jamiyat va inson ma'naviyati rivojlanishining turli jihatlarini, umumiy mexanizmini (qonuniyatini) ifodalaydi.

7-MAVZU: MA'NAVIYAT KATEGORIYALARI

Reja:

1. Ma'naviyatshunoslikning alohida mustaqil fan sifatida o'zining asosiy tushunchalariga, kategoriyalariga, tamoyillariga, qonunlari va mezonlariga ega ekanligi.
2. Ma'naviyatshunoslik fanida birinchi galda qo'llaniladigan tushunchalar. Ma'naviyatning asosiy kategoriyalari: o'zlikni anglash va namoyon etish, erkinlik, mas'uliyat, tolerantlik, qadriyat va hk.
3. Ma'naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalari ilmiy bilish tizimida o'zining alohida o'rniga ega bo'lishi bilan bir qatorda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi. Ular bilan yagona ontologik, gnoseologik, metodologik, mantiqiy va aksiologikbus-butunlikni tashkil qilishi.

Tayanch tushunchalar: *kategoriya, tushuncha, mezon, o'zlik, ontologiya, gnoseologiya, erkinlik, ma'suliyat, tolerantlik, qadriyat.*

Ma'naviyatshunoslik alohida mustaqil fan sifatida o'zining asosiy tushunchalariga, kategoriyalariga, tamoyillariga, qonunlari va mezonlariga ega. Ular orasida boshqa turdosh fanlardan kirib kelganlari bor. Masalan, falsafadan, etika, estetika, yurisprudensiya, dinshunoslik va boshqa fanlardan olingan ong, tafakkur, borliq, qadriyat, axloq, nafasat, imon, haqiqat, adolat, tenghuquqlilik, va sh.k. tushunchalarsiz ma'naviyatshunoslikni fan sifatida tizimlashtirib bo'lmaydi. Ayniqsa, falsafa fani tushunchalari, kategoriyalari, usullari, bilish nazariyasi ma'naviyatshunoslik shakllanishi uchun zaruriy ilmiy asos va qurilmadir.

Zero, ma'naviyatshunoslik fani etika, estetika, kulturologiya, dinshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, mantiq ilmlari singari falsafiy fanlar tizimiga mansubdir. Shu sababdan u birinchi galda boshqa falsafiy fanlarning tushunchalaridan, kategoriyalaridan foydalanadi, ular yordamida o'z ilmiy apparatini shakllantiradi. Lekin boshqa fanlardan qabul qilingan tushunchalarni o'z predmetidan kelib chiqib talqin qiladi. Ayni paytda uning faqat o'ziga xos bo'lgan asosiy tushunchalari va kategoriyalari bor.

Ma'naviyatshunoslik fani birinchi galda "ma'naviyat", "ma'naviy ong", "ma'naviy madaniyat", "ma'naviy muhit", "ma'naviy qadriyatlar", "ma'naviy ehtiyojlar", "shaxs ma'naviyati", "jamiyat ma'naviyati", "ma'naviy yuksalish", "ma'naviy erkinlik", "tafakkur erkinligi", "milliy g'oya", "tolerantlik", "bag'rikenglik". "o'zlikni anglash", "ma'naviy asoslar" va ularning muqobil ko'rinishlarini ifodalovchi "ma'naviyatsizlik" va h.k. tushunchalardan foydalanadi. Avvalgi mavzularda ma'naviyat, ma'naviy ong, ma'naviy madaniyat, e'tiqod, iroda, ma'naviy muhit kabi kategoriyalar va tushunchalar to'g'risida ancha mulohazalar yuritildi. Ularning mazmun – mohiyati va voqelik shakllarini ochib berishga harakat qilindi. Ma'naviyatning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi falsafa, din, axloq, nafosat, huquq, siyosat bilan bog'liq tegishli fanlar kategoriyalari ustida esa maxsus to'xtalib o'tirmaymiz. Faqat avval aytilmagan ba'zi kategoriyalar va tushunchalar haqida umumiy fikrlarni bildirib o'tamiz. Ularning mazmuni esa boshqa mavzularni o'rganish jarayonida to'laroq ochiladi.

Ma'naviyatning asosiy kategoriyalaridan biri – o'zlikni anglashdir. Uning boshqacha sinonimi identlik(ayniyat) deyiladi. O'zlikni anglash – insonning xos, mohiyatli belgisi. Shaxs o'zining individual identligini, ijtimoiy – guruh, korporativ, tabaqaviy – sinfiy va milliy identligini turli darajada anglashi mumkin: qisman, nisbatan to'laroq, ziddiyatli, ikkilanishlar bilan, o'z imkoniyatlariga ishonmasdan yoki o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholab(xudbinlik, manmanlik) va nihoyat, adekvat(o'z salohiyati va qobiliyatiga mos). Shunday qilib, o'zlikni, o'z identligini anglash, turli darajada va mazmunan har xil kechadi. "Identlik" o'zlikni anglashni ifodalaydigan tushuncha o'laroq fanda keng qo'llaniladi.

Identlik avvalo insonning olamdagi o'z o'rnini, tabiatdagi eng ulug' va yagona aqlli, yaratuvchi jonzot ekanini bilishdir. Inson nega dunyoga keldi, uning yashashdan maqsad – muddaosi nimada, hayotining ma'nisi ne? O'zlikni anglash ushbu savollarga javob izlash va topishdir. Inson o'zligini anglashi jarayonida tabiatdan, hayvonot olamidan ajralib chiqdi, ma'naviy mavjudotga aylana boshladi. O'zlikni anglash yangi bilimlarga, yuqori ko'rinishlarda esa haqiqatga, oliy idealga intilishdir. Shu sababdan dinda "o'zini anglagan Rabbini (Ollohni) ham anglaydi", degan tasdiq mavjud.

Tabiatning insondan tashqari biror jonzodi o'zligini anglay olmaydi, chunki uning ongi, shuuri yo'q. O'zini tabiatdan ajrata olmaydi, o'z oldiga reja – maqsad qo'yib, o'z borlig'ini, yashash sharoitini takomillashtirmaydi. U faqat mavjud ekotizimda muayyan pog'onani egallaydi, uning muhim zaruriy bo'g'inini tashkil qiladi, xolos. Hayvonotning mavjud ekotizimdagi o'rni, vazifalari, hayoti tabiat tomonidan avvaldan belgilangan. Inson esa aqli va mehnati orqali o'z tabiiy yashash shart – sharoitini ham, ijtimoiy muhitini ham o'zgartirish qobiliyatiga ega. Buning uchun u avvalo o'z oldiga maqsad qo'yadi, unga yetishish uchun bilimini va mehnat ko'nikmasini o'stiradi. Ishlab chiqarish qurollari yaratadi, ularni takomillashtiradi, tabiat jismlarining xossalari o'rganadi va yangi - yangi mahsulotlar yetishtirib, muhitini, yashash sharoitini yaxshilaydi. Ongi, bilimlari o'sgani sayin oldiga

qo'ygan maqsadlari ham o'sa boshlaydi, yuksaladi. Demak, o'zlikni anglash yangi bilimlarga, yangi mehnat ko'nikmalariga yoki umumiy qilib aytilsa, yaratuvchilikka intilish va irodasini namoyon etib, uni kuchaytirishdir.

Ontologik jihatdan maqsad va intilish yo'q joyda o'zligini anglash, binobarin, ma'naviyat ham yo'q. Inson kundalik hayotiy maqsadlariga erishib, nisbatan to'q va xavfsiz hayotini ta'minlab, bilimi va yaratuvchiligini rivojlantirish jarayonida yuksak haqiqat haqida o'ylay boshlaydi, uni hayotining oliy maqsadiga – idealiga aylantiradi. Dastlab bu yuksak haqiqatni tabiatdan ustun turuvchi g'ayritabiiy kuchlarda, ruhlarda va h.k. da ko'radi. Ularga etiqod qiladi. E'tiqod o'zlikni anglashning muhim shakllaridan biridir.

Inson ijtimoiy mavjudot o'laroq o'zligini anglashda birinchi galda o'zini ma'lum tarixiy, etnik, lisoniy, madaniy, e'tiqodiy, siyosiy birlikning a'zosi sifatida angelaydi. O'zini ular bilan kelib chiqishiga ko'ra umumiy bir, to'la o'xshash, mos – ident, deb hisoblaydi. Rivojlanmagan jamiyatlarda bu borada katta va murakkab muammolar deyarli uchramaydi. Urug' – jamoada, qabilada qon – qardoshlik asosidagi etnik, lisoniy, madaniy – e'tiqodiy birlik o'zaro mos keladi. Ular o'z identligini(ayniyatini) avvalo quyidagi omillar – etnik(genetik), til, umumiy asotirlar, urf – odatlar, umumiy sig'inish predmetlari va marosimlari asosida aniqlaydilar..

Biroq dunyo dinlari paydo bo'lganidan keyin masala biroz qiyinlashdi. Chunki etnik ong(qon – qardoshlik ayniyati) va diniy ong o'rtasida farq vujudga keldi: “Biz turkiylar va musulmonmiz, ular esa musulmon bo'lsada, eroniyldir, yoki arablardir” qabilida. E'tiqodiy mazhablar paydo bo'lishi diniy ayniyatni ham chigallashtirdi. “Ular shiaviy, biz sun'iymiz”, degan o'zlikni anglashning diniy shakllari paydo bo'ldi. Bir xalq turli tarixiy sabablarga ko'ra, ikki, xatto uch dinga e'tiqod qilib qolgan. Masalan, bengallarning bir qismi musulmon(Bangladesh), ikkinchi qismi hinduizmgga e'tiqod qiladi (G'arbiy Bengaliya). Albatta, turli diniy e'tiqod ularning mentalitetiga, madaniyatiga, urf – odatlariga, o'zaro aloqalariga, milliy identligiga ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda milliy identlik masalasi ancha o'zgardi. Endi diniy , hatto etnik identlik ba'zi hollarda birlamchi, asosiy belgilardan hisoblanmaydi. Masalan, turli xalqlarning o'zaro aloqalari rivojlanishi, yirik shaharlarda, rivojlangan mamlakatlarda aholi tarkibining etnik xilma – xillik kasb etishi, aralash nikohlar, ular farzandlarining etnik mansubligi masalasi, odamlarning erkin harakatlanishi va yashashi va sh.k. lar keng tarqalgan bizning zamonda identlik ko'proq qaysi tildan va madaniyatdan foydalanishga qarab yoki fuqaroning o'z istagiga ko'ra, yohud qaysi davlat fuqaroligiga qarab belgilanmoqda. O'zini rossiyalikman, yoki amerikalikman deydigan, rus yozuvchisiman, yoki amerikalik rejissorman deydigan, ammo etnik jihatdan nemis, lotin, amerikalik, ukrain, belorus, yahudiy, armani, chuvash, mardvin yoki boshqa xalqqa mansub kishilar ko'p. Bunday kishilar har doim, barcha zamonlarda bo'lgan. AQSH, Kanada, Braziliya, umuman Lotin Amerikasi, Yevropa mamlakatlarida milliy identlik fuqarolik bilan bir xil tushuniladi.

Fors – tojik adabiyotining buyuk namoyondalari orasida etnik turkiylar salmoqli o'rin egallaydi: Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Bedil, Mirzo G'olib va boshqalar. Atoqli shoir O'lmas Sulaymonovni qozoq shoiri deyish kerakmi, yo rus shoiri? Tiliga ko'ra(rus tilida ijod qiladi), u rus she'riyati vakili, ammo milliy o'zligini anglashiga, milliy identlik tuyg'usiga, adabiyot uchun yana bir muhim omil – obrazlar tizimiga ko'ra, asl qozoq

milliy shoiridir. Oydinlashmoqdaki, milliy identlik masalasi bugungi kunda ancha murakkab, ammo rivojlangan g'arb mamlakatlarida dolzarbligini yo'qotgan masaladir. Milliy identlik etnik identlikdan kengroq tushuncha. Milliy identlik avvalo, o'zini qaysi xalqning vakili deya hisoblashi, qaysi xalq bilan uning taqdiri birligini, ajralmasligini his qilishidir.

Tarixan turli sabablar bilan bizning tuproqqa kelib qolgan, g'uj yashaydigan arablar bor. Ular o'zbek jamiyatiga to'la integratsiyalashgan. Orasidan olimlar, yozuvchi – shoirlar, san'atkorlar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Ularning etnik arabligi ongida qisman saqlanib qolgan. Lekin til, madaniyat, urf – odatlar va boshqa ijtimoiy qadriyatlar, siyosiy va fuqarolik ongi bo'yicha ular o'zbeklar bilan ident. Ulardan birortasi “Men arab shoiriman, arab olimiman, yoki arab davlati arbobiman” demaydi. Ushbu ma'noda ular milliy identlik jihatidan o'zbek; ammo ongida etnik identlik masalasida farq qisman mavjud.

Identlikning milliylikdan tashqari, ijtimoiy – guruhiiy shakllari bor. Ular o'tmishda asosan kasbiy – korporativ ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Bugun ommaviy madaniyat ta'sirida qiziqishlari, futbol komandalari, estrada yulduzlariga ishqibozligi, biror buyumni iste'mol qilishiga qarab identlikning submadaniy shakllari vujudga kelmoqda. Masalan, baykerlar(mototsiklchilar) uyushmasi, futbol komandalarining fanatlar klubi va x.k.

O'zlikni anglash, albatta, millatning tarixiy xotirasi, nasl – nasabi, ajdodolarining buyuk ishlarini, yutuqlarini bilishni, ular bilan faxrlanishni, milliy g'ururni ham o'z ichiga oladi. Ammo o'zlikni anglash nafaqat o'tmish yutuqlarini, shuningdek yo'qotishlarini, mag'lubiyatlarini, ularning sabablarini ham bilishni, tarixdan xulosalar chiqarib, kelgusida ularni takrorlamaslikka intilishni ham bildiradi. Bundan tashqari, o'zlikni anglash millatning bugungi ahvolini, imkoniyatlarini, shu jumladan kamchiliklarini to'g'ri tahlil qila olishni, oldiga yuksak, ammo real maqsadlar qo'ya olishni, ularga erishish uchun milliy irodani safarbar eta olishni bildiradi. Milliy identlik – bu milliy manfaatlarni to'g'ri anglashdir, bu milliy jipslik, ahillikdir, mahalliychilik, guruhiiy – korporativ xudbinlikdan ustun tura olishdir. O'zlikni anglash kelajak rejalari, millat istiqboli haqida qayg'urishdir. Individual darajada o'zlikni anglash, o'z shaxsiy manfaatlari oila, jamoa, davlat va butun jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga intilishdir. Shunday qilib, o'zlikni anglash insonni hayvonot olamidani ajratuvchi, o'z oldiga maqsad qo'yib, ba'zan ulug'vor maqsad qo'yib, yaratuvchilik va ijod bilan shug'ullanuvchi, aql – zakovati, irodasini maqsadga erishishga safarbar eta oluvchi, o'z ijtimoiy muhitini muttasil takomillashtiruvchi mavjudotligini ifodalovchi muhim ma'naviy kategoriyadir.

Ma'naviyat kategoriyalari orasida “tolerantlik” (bag'rikenglik)alohida ajralib turadi. Tolerantlik ma'naviyatning bus – butunlik, yaxlit tizim sifatidagi kategoriyasidir, chunki uning barcha qismlariga taalluqli. Axloqda har bir kishi axloqiy tolerantlikka muhtoj odamlar uning samimiyligini, beg'arazligini, halolligini, niyati va bildirgan fikrlari to'g'riligini tushunishlarini istaydi. Ortiqcha shubhakorlik, ishonmaslik odamlarni bir – biridan sovtadi, uzoqlashtiradi. Odamlar siyosatda, siyosiy qarashlarda esa siyosiy tolerantlikka, siyosiy plyuralizmga, ko'ppartiyaviylikka ehtiyoj sezadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, tolerantlik odamlarni jipslashtiradi, o'zaro ishonchini mustahkamlab ma'naviy muhitni yahshilaydi. Bu esa jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tolerantlik inson huquqlarini yuzaga chiqarishning muhim shartlaridan biridir. Aks holda odamlarni jinsiga, tiliga, millatiga, diniga, ijtimoiy kelib chiqishi va ahvoliga qarab bir biridan ajratish, kimlarnidir kamsitish, cheklash, xo'rlash kabi illatlar yashab qolaveradi.

Jamiyat demokratik va erkin rivojlanishi, odamlar o'z fikrlarini erkin bildirishlari va muammolarning to'g'ri yechimini topish maqsadida bahs yuritishlari, muqobil takliflarni, dasturlarni muhokama etib, yaxshilarini tanlab olishlari uchun siyosiy plyuralizm va siyosiy bag'rikenglik nihoyatda muhim. Ko'pmillatli mamlakatlar uchun o'zga tillarga, urf – odatlarga, madaniyatga, e'tiqodga bag'rikeng bo'lish katta ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik tufayli ko'pmillatli mamlakatlarda etnik identlik umummilliy identlik tarkibidagi pog'onaga aylanadi, unga qarshi turmaydi. Aks holda etnik identlik xalqning o'zini yagona millat deya his qilishiga imkon bermaydi.

Adabiyot va san'atda hatto bir mamlakatning umumiy milliy adabiyoti va san'ati doirasida ham turli ijodiy usullar, badiiy uslublar, badiiy g'oyalar va vositalar boyishi, rivojlanishi, rang – baranglik va samaradorlik kasb etishi uchun g'oyaviy - estetik bag'rikenglik zarur. Agar u inkor etilsa, izlanishlar to'xtaydi, andozabozlik, sxematizm(sotsialistik realizm kabi), yoki an'anaviylik, eski yutuqlarni ideallashtirish, yangiliklarni qabul qilmaslik, jonli hayotdan uzilib qolish, badiiy - uslubiy konservatizm va turg'unlik qaror topadi. Tolerantlik – ijodiy rivojlanish omilidir.

Har xil dinga e'tiqod qiluvchi, ko'pmillatli mamlakatlarda ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni, umummilliy jipslikni saqlash, jamiyatni rivojlantirish uchun milliy, siyosiy, diniy va madaniy tolerantlik kerak. Ularsiz ichki barqaror taraqqiyot u yoqda tursin, tinchlik – osoyishtalik ham bo'lmaydi. O'zaro nizolar kuchayadi, oqibatda mamlakat parchalanib ketishi mumkin. Ilm – fanda ham tolerantlik katta ahamiyat kasb etadi. U yetishmagan joyda turli ilmiy maktablar o'rtasida nosog'lom kurash avj oladi, yoki mavjud tan olingan g'oyalardan farq qiladigan yangi ilmiy g'oyalarni, tadqiqot usullarini olg'a surgan boshqa olimlar, ayniqsa yoshlar tan olinmaydi, ularning g'oyalari, usullari yo'lida turli sun'iy to'siqlar paydo bo'ladi. Bu adabiyot va san'atga ham taalluqli.

O'tmishdan va zamonaviy tarixdan tolerantlik yetishmasligi qanday muammolarga, ayrim hollarda fojealarga olib kelganiga, jamiyat rivojlanishini salbiy o'zanga burib yuborganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inkvizitsiya Jordano Brunoni(olim), Yan Gusni(diniy olim - islohotchi) gulxanda yondirib yubordi. Mansur Halloj, Suxravardiy, Nasimiy, Mashrab qatl etildi. XVI – XVII asrlarda islom mamlakatlarida mistikaga asoslangan diniy fanatizm yanada kuchaydi. Oqibatda nafaqat dunyoviy ilm – fan, shuningdek diniy ilm – fan ham asta – sekin chuqur inqirozga uchradi. Har qanday fanatizm – mutaassiblik muayyan bir g'oyaga, bir mafkuraga ko'r – ko'rona yopishib olish, boshqa fikrlarni, qarashlarni qat'iy rad etish, ya'ni tolerantlikning yo'qligidir. Tolerantlik yo'q yoki yetishmaydigan joyda yangi ilg'or g'oya tug'ilmaydi, tug'ilsa-da, yashab qololmaydi, inkor etiladi. Natijada na ilm – fan, na adabiyot va san'at, na din, na urf – odatlar, na turmush madaniyati rivojlanadi. Jamiyat turg'unlikka mahkum bo'ladi. Tolerantlik inson va jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy sharti ekanligi shundan.

Zamonaviy ekstremistik oqimlarning barcha ko'rinishlari asosida, diniymi, siyosiy – qat'iy nazar, avvalo tolerantlik yetishmasligi turibdi. Amaliyotda bu fojealarga olib kelmoqda: xalqaro terrorizmni, diniy va siyosiy to'qnashuvlarni, regional va fuqarolar urushlarini, neofashistik va shovinistik harakatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababdan tolerantlikka konkret - tarixiy yondashmoq lozim. Buzg'unchi g'oyalar targ'ibotiga, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, neofashizm, irqchilik, shovinizm g'oyalari nisbatan tolerantlik qilib bo'lmaydi.

Tolerantlik qadriyatlar shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishining zaruriy shartidir. Har qanday g'oya, fikr, meyor dastlab kimningdir ongida paydo bo'ladi. Bu g'oya, fikrni(qoida, tartib va x.k.ni) kim bilandir o'rtoqlashadi. Muhokama qiladi. Uning fikrini eshitib, g'oyasini, taklifini miyasida yana pishitadi. Boshqalar bilan o'rtoqlashadi. Odamlarga ma'qul kelgandan keyin g'oya, fikr, qoida, tartib asta – sekin hayotga tatbiq etiladi, qadriyatga aylanadi. Agar g'oyani muhokama qilgan kishining birinchi va keyingi suhbatdoshlarida tolerantlik bo'lmaganda, g'oya rivojlanmay, tarqalmay qolib ketardi. G'oyani sayqallash, chuqurlashtirish, rivojlantirish bir kishining emas, bir necha kishining, turli guruhlarning, tarixan har xil avlodlarning ijodiy izlanishlari, mulohazalari oqibati bo'lishi mumkin. Qadriyat darajasiga ko'tarilgan barcha g'oyalar, meyorlar aslida ham shunday rivojlanadi. Qadriyat darajasiga ko'tarilishi uchun bir necha avlod hayotiy tajribasidan, vaqt sinovidan o'tadi, ular ta'sirida takomillashadi. Oydinlashmoqdaki, tolerantlik qadriyatlar tizimi, umuman ma'naviyat shakllanishi va rivojlanishining zaruriy sharti va omilidir.

Tolerantlik ijtimoiy ongning har bir sohasida o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Masalan, siyosiy tolerantlik va huquqiy tolerantlik bir – biridan farq qiladi. Siyosiy tolerantlik mafkuraviy plyuralizm va ko'ppartiyaviylikka asoslanib, turli talqinlarni nazarda tutsa, huquqiy plyuralizm bir holatning muqobil huquqiy talqinlarini inkor qiladi. Qonun hamma tomonidan bir hil tushunilishi va talqin qilinishi lozim. Huquqiy bag'rikenglik qonunlar liberallashtirib, tarbiyaviy ahamiyatining oshib borishida barchaning qonuniy manfaatlari birday himoya qilinishida, noqonuniy imtiyozlarga yo'l qo'yilmasligida namoyon bo'ladi.

Tolerantlik – yuqorida ta'kidlanganidek, ma'naviyat rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir. Chunki u ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi qatorida, odamlarning, turli partiyalarning, dinlarning, madaniyatlarining bir - biriga qiziqishini uyg'otadi. Natijada ularning bir – biridan o'rganishlari, o'zaro boyishlari, rivojlanishi tezlashishi uchun imkoniyat ko'payadi. Tolerantlik millatlarning milliy madaniyatlarining o'zaro aloqa qilishi, bir – biridan o'rganib, o'zaro boyishining birinchi shartidir. O'zga millatga, tilga, dinga toqat qilolmaydigan kishi (xalq) boshqa xalq vakillari bilan aloqa qilmaslikka, milliy mahdudlikka intiladi. Boshqalar yutuqlarini, begona xalqniki bo'lgani uchungina inkor qiladi. Ularning ahamiyatini, foydaliligini tahlil qilib o'tirmaydi. Tolerantlik ruhida tarbiyalangan kishi (xalq) esa hatto dushmani erishgan yutuqlarni, yoki arziydigan g'oyalarni o'rganadi. Shunday qilib, tolerantlik yuksak ma'naviyatni ifodalovchi mezon sifatida ham namoyon bo'ladi. Tolerant inson muloqot doirasini kengaytirishga, bilimlarini muttasil boyitishga, yangiliklarga intilishga moyildir. U guruhbozlik, mahalliychilik, mahdudlik, urug' – aymoqchilik, millatchilik, irqchilikdan ustun tura oladi. Tolerantlik tufayli insonda ezgulik, gumanizm, vijdonlilik, sahovat, mehr – oqibat, o'zgalarga hamdardlik fazilatlarini rivojlanadi. Tolerantlik konkret – tarixiy ma'naviy hodisadir. U yovuzlikni, zulmni, zo'ravonlikni inkor qiladi.

Madaniyatda ma'naviyat predmetlashadi, yuzaga chiqadi, amalga oshadi. Ma'naviy madaniyatga biz odob-axloqni, urf-odatlar va an'analarni, ilm-fanni, adabiyot va san'atni, diniy madaniyatni, siyosiy va huquqiy madaniyat kabilarni kiritamiz. Shu sababdan, yuqorida ta'kidlanganidek, filosofiya, axloqshunoslik, etnologiya, nafosat, dinshunoslik, ruhiyat, pedagogika, fanshunoslik kabi ilmlarning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, konunlaridan ham ma'naviyatshunoslik fani o'z ilmiy apparatini shakllantiradi. Masalan, ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik va vatanparvarlik, vijdon va burch, ulug'vorlik va tubanlik, go'zallik

va xunuklik, adolat kategoriyalari, insonni vosita emas, maqsad deb bilish, o'zingga ravo ko'rmaganni o'zgalarga ham ravo ko'rmaslik kabi axloqiy qonunlar, jamiyatni demokratlashtirish, erkinlashtirish kabi meyorlar va tamoyillarsiz ma'naviyatshunoslik fani ilmiy apparatini tasavvur etish qiyin. Yoki iroda tushunchasini olaylik. U ilmiy an'analarga ko'ra, axloqshunoslik (etika) va psixologiya fanlari doirasida o'rganilgan. Ayni paytda iroda ma'naviyatning voqe bo'lish, yuzaga chiqish omili. U insonning erkin tanlashi, ma'suliyati, ruhiy-intellektual (ma'naviy) safarbarlik imkoniyati sifatida ma'naviyatshunoslik kategoriyasiga ham aylanadi.

Ma'naviyatning muhim kategoriyalaridan biri qadriyat tushunchasidir. Aslida "qadriyat" falsafaning alohida sohasi - aksiologiyaning fundamental, tizim yaratuvchi kategoriyasidir. Ayni paytda aksiologiya nafaqat falsafaning nisbatan alohida sohasi, shuningdek ilmiy yondashuv usuli, shuningdek ma'naviy ongning predmetlashgan shakli, voqeligi hamdir. Shu sababdan u ma'naviyat bilan uzviy bog'liq, qadriyat esa bir vaqtning o'zida ma'naviyat kategoriyasidir. Qadriyatlar konkret-tarixiy xarakterga ega. Ular qotib qolgan, o'zgarmas tushunchalar emas, millat bilan birga rivojlanadi, o'zgaradi, mazmunan boyiydi, shaklan xilma-xillik kasb etadi. Ba'zi g'oyalar, meyorlar o'z davrida xalq hayotida sezilarli ahamiyat kasb etib, uning ijtimoiy mo'ljallariga kuchli ta'sir ko'rsatsa-da, keyinchalik ularning ahamiyati biroz pasayishi, hatto butunlay yo'qolishi mumkin. Shunda ular qadriyat maqomidan mahrum bo'ladi. Masalan, o'tmishda o'rtaosiyoliklarda (nafaqat ularda) kelin uchun qalin to'lash urfi bo'lgan. Qalin aslida qabila-urug'chilik davrida qizni boqib o'stirib, voyaga yetkazish uchun ketgan xarajatlar uchun qizni oilasiga, urug' – jamoasiga o'ziga xos tovon (kompensatsiya) sifatida berilgan. Bugun bu odat tarixan o'z umrini o'tab bo'lgan, iste'moldan chiqqan urflar qatoridan joy oldi. Biz jamiyat ma'naviy hayotining barcha sohalariga – axloqqa, huquqqa, madaniyatga va h.k.ga oid o'tmishda qadriyat hisoblangan, bugun iste'moldan chiqib ketgan yoki mazmuni tubdan o'zgargan ko'plab meyorlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Lekin haqiqiy asl qadriyatlar hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydi, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelaveradi. Avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'lanish, davomiylik, vorisiylik ular orqali ta'minlanadi.

Qadriyatlar, yuqoridagilardan oydin bo'lmoqdaki, jamiyat hayotining sohaları va ijtimoiy ongning shakllariga muvofiq tasniflanishi mumkin. Ularni, eng avvalo, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lish lozim. Moddiy qadriyatlar bu muayyan xalqning yashayotgan hududi, yerosti va yerusti boyliklari – tabiati, ona tuprog'i, dalalari, ekinzorlari, bog'lari, cho'llari, o'rmonlari, tog'lari, daryolari, jilg'alari, buloqlari, har xil konlari, qazilma boyliklari, tabiiy zahiralari. Moddiy qadriyatlarga tabiatdan tashqari jamiyat, insonning o'zi yaratgan uning yashashi uchun o'ta zarur bo'lgan uylar, yo'llar, bog'lar, qishloq va shaharlar, zavod va fabrikalar, mehnat qurollari, asbob uskunalar, dastgohlar, mashina va mexanizmlar, iste'mol uchun yaratilgan moddiy buyumlar, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari kiradi. Lekin ilm – fanda har qanday buyum qadriyat hisoblanmasligi, moddiy – iqtisodiy qadriyatlarni ishlab chiqarilgan har qanday mahsulot darajasiga tushirishi mumkin emasligi to'g'risida qarashlar qaror topgan. Moddiy – iqtisodiy qadriyatlar insonning kundalik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan oddiy mahsulotlar emas, balki uning ijtimoiylashuv darajasini o'stiradigan aql – zakovati, texnologik bilimlari, salomatligi, erkinligi yuksalishini taqozo etadigan, turli tabiiy – iqtisodiy qaramligini kamaytiruvchi vositalar, ixtirolar, qurilmalar va h.k.dan tashkil topadi. Masalan, alohida olingan har qanday

bank jamiyat uchun moddiy – iqtisodiy qadriyat hisoblanmasligi mumkin, ammo bank tizimi va u ko‘rsatadigan xizmatlar tizimi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy hayot uchun o‘ta muhimdir. Shu sababdan bank tizimi moddiy – iqtisodiy qadriyat hisoblanadi. Biz bu masalaga kitobning metodologiya qismida yana qaytamiz. Ma’naviy qadriyatlar – bu millatning tili, urf-odatlar, madaniy merosi, og‘zaki ijodi, adabiyoti, san’ati, ilm-fani, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash tizimi, davlat va jamiyatni boshqarishda erishgan yutuqlari, yaratgan va amal qiladigan axloqiy, huquqiy, badiiy-estetik va boshqa ijtimoiy ideallari, mo‘ljallaridir. Ular millatning ma’naviy qiyofasini, milliy o‘ziga hosligi va takrorlamasligini, milliy mentaliteti, tafakkurini belgilaydi.

Asl qadriyatlarda milliylik va umuminsoniylik mujassamlanadi. Yana shuni qo‘shimcha qilish lozimki, haqiqiy milliylik millatchilikdan, shovinizmdan farq qiladi. O‘z millatini sevgan, vatanparvar kishi boshqa millat vakili ham o‘z yurtini, ona tilini, urf-odatlar, milliy adbiyoti va san’atini sevrishga haqqi borligini zinhor inkor etmaydi. Asl milliylik, agar u haqiqatan teran mazmunli va yuksak shakllarda ifoda etilsa, umuminsoniy ahamiyat kasb etadi, nafaqat o‘z xalqiga, shuningdek boshqa xalqlarga ham foydali bo‘ladi. Biror bir milliy qiyofaga ega bo‘lmagan, kelib chiqishiga ko‘ra hech bir xalq hayoti, faoliyati bilan bog‘lanmagan umuminsoniy qadriyatning o‘zi yo‘q. Masalan, mavhum, hech bir xalqqa tegishli bo‘lmagan umuminsoniy adabiyot yoki san’at yo‘q. Jahon adabiyoti milliy adabiyotlar daholarning eng sara asarlaridan tashkil topadi. Aynan adabiyot va san’atda milliylik umuminsoniylikning mavjudlik shakli ekani yorqin ko‘rinadi. Siyosiy, demokratik qadriyatlar mazmunan va shaklan bevosita milliy belgilarga ega emas. Ammo ular ham aslida kelib chiqishiga ko‘ra qaysi bir xalqning, qaysi bir olim yoki jamoat, davlat arbobining ijodi va faoliyati bilan bog‘liq.

Hokimiyatning bugungi tushunchadagi legitimligi (qonuniyligi) va o‘z legitimligini yo‘qotishi masalalarini biz Jan Jak Russo, fransuz ensiklopedistlari, siyosiy arboblari asarlari va nutqlarida uchratamiz. Buyuk fransuz inqilobi ushbu masalani kun tartibiga qo‘yib, Burbonlar hokimiyatini ag‘darib tashlashni, qirolni va ayonlarini sudga berishni huquqiy jihatdan asosladi va amalga oshirdi (to‘g‘risi, juda keskin hukm chiqarib, qatl qildi). Hokimiyatning uch tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini bir biridan ajratish haqidagi g‘oyalar buyuk fransuz ma’rifatparvarlari, faylasuf va adib Sh.Monteskye tomonidan XVIII asr birinchi yarmida olg‘a surilgan, keyinchalik fransuz va ingliz olimlari tomonidan rivojlantirilgan.

Davlat qonunlari uning Konstitutsiyasiga (asosiy qonuniga) zid kelmasligi, agar zid kelsa, uni bekor qilish yoki unga tuzatish kiritish lozimligi g‘oyasini ilk bor AQSH davlat kotibi Adams XIX asr boshida olg‘a surib, prezidentlikka saylangach, amalga oshirgan edi. Ko‘rinib turibdiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar g‘oyibdan kelib qolmaydi. Ular muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, faoliyati mahsulidir. Ularning insonparvarlik, ezgulik bilan yo‘g‘rilganlari, taraqqiyotga, yuksalishga xizmat qiladiganlari uni kashf etgan xalq, mintaqa doirasidan chiqib butun dunyoga tarqaladi, xalqaro siyosiy, huquqiy meyorlarga aylanadi. Lekin bu milliylik va umuminsoniylik deyarli bir tushuncha ekan degani emas. Ularning o‘zaro aloqalari ancha murakkab va ziddiyatli, dialektik xarakterga ega. Ba’zan ularning bir – biriga aylanishiga – milliylik umuminsoniylikka, umuminsoniylik milliylikka aylanishiga guvoh bo‘lamiz. Yuqorida milliylikni umuminsoniylikka o‘tishiga oid misollar keltirdik. Ayni paytda umuminsoniy qadriyatlarning muayyan xalq tomonidan o‘zlashtirilishi,

o'z ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy hayotida qo'llashi, masalan, mustaqil O'zbekistonda hokimiyat uch tarmog'ining bir – biridan ajratilishi, san'at va adabiyotida roman, drama, opera, simfoniya, haykaltaroshlik, rang tasvirning ba'zi janrlarining qabul qilinishi va rivojlanishi, yuksak texnologiyalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi va ko'plab boshqa misollar umuminsoniy qadriyatlarning milliy qadriyatlarga aylanishidir. Umuminsoniylik va milliylik munosabatlari va nisbati, dialektikasi, shunday qilib, ayniyat, farq, ziddiyat, qarama – qarshilik ko'rinishlarida yuzaga chiqishi mumkin. Roman va opera – umuminsoniy janrlar. Lekin o'zbek romani ingliz va fransuz romanidan, o'zbek operasi italyan va boshqa xalqlar operasidan farq qiladi. Axloq – odob qoidalari umuminsoniy, ammo ba'zi axloq qoidalari milliy mentalitet, diniy e'tiqod ta'sirida sharq va g'arb xalqlarida bir – biridan ancha farq qiladiki, ular o'rtasida ziddiyat, xatto qarama – qarshilik mavjud. O'zbeklar, tojiklar ota – onasiga, yoki kattalarga “siz ” deb murojaat etadi. Ayrim xalqlar “sen” deb. Ammo bu ularning odobsizligini bildirmaydi.

Ma'naviyatshunoslik fani jamiyatdagi qaror topgan muhitni va uning tendensiyalarini o'rganish uchun ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, hayrixohlik, tolerantlik (bag'rikenglik), mehr-oqibat, millatlararo totuvlik, o'zaro yordam, milliy jipslik, o'zlikni anglash, milliy identlik yoki ularning muqobillarini anglatuvchi ijtimoiy beqarorlik, mutaassiblik, mahalliychilik, guruhbozlik, millatchilik, ayirmachilik va boshqa tushunchalardan foydalanadi. Ulardan tashqari, ma'naviy ong va ma'naviy madaniyatni, irodani o'rganishdagi kabi, yana ijtimoiy filosofiya, siyosatshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, huquqshunoslik, xatto iqtisodiyot nazariyasi fanlari tushunchalaridan foydalanadi. Zero, ma'naviy muhitni to'la tushunish, tahlil qilish uchun ijtimoiy adolat, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklari, turmush darajasi va farovonligi, ijtimoiy ta'minot va himoya kabi ko'plab fanlar tushunchalariga murojaat etish lozim.

Shunday qilib, ma'naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalari ilmiy bilish tizimida o'zining alohida o'rniga ega bo'lishi qatorida boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar tushunchalari bilan uzviy bog'liq, ular bilan yagona ontologik, gnoseologik, metodologik va mantiqiy bus – butunlikni tashkil qiladi.

8-MAVZU: MA'NAVIYATNING PRAKSIOLOGIK MAZMUNI

Reja:

1. Praksiologiyaning mazmun va mohiyati. Ma'naviyat jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga u yoki bu darajada amaliy ta'sir ko'rsatishi tufayli praksiologik mazmun kasb etishi.
2. Ma'naviyatning praksiologik mazmuni - insonni, jamiyatni va o'z-o'zini rivojlantirishga safarbar etishi (tarbiya orqali).
3. Ma'naviyatning praksiologik mazmuni maqsad, usul va vosita tanlashda ham namoyon bo'lishi. Ma'naviyat va amaliyot munosabatlari.
4. Ma'naviyat doirasida milliy g'oya va mafkuraning asosiy praksiologik vazifasi. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotiga inson kamoloti, ta'lim-tarbiya hamda ijtimoiy ideologiya orqali ta'sir ko'rsatishi.

1.2. Praksiologiya – praktika (amaliyot), harakatchanlik va logos (so‘z, ta’limot) tushunchalardan yasalgan. Praksiologiya sotsiologik tadqiqotlarning o‘ziga xos sohasi bo‘lib, u turli amallarning (harakatlarning) yoki ular yig‘indisining, tizimining usullari (metodikasi) samaradorligini aniqlash nuqtai nazardan o‘rganadi. Boshqacha aytganda,aksiologiya amaliy harakat usullari samaradorligi to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Ma’naviyat jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatishi tufayli aksiologik mazmun kasb etadi. Inson o‘z dunyoqarashi, e’tiqodi, qadriyatlari, ideallaridan kelib chiqib butun olamga, jamiyatga, hayotga, boshqa kishilarga munosabatini belgilaydi. Tevarak-atrofdasodir bo‘layotgan voqealarni, boshqalarning va o‘zining xulq-atvorini, faoliyatini baholaydi, hayotiy rejalar tuzadi, ularni amalga oshirishga intiladi, o‘z hayotini, faoliyatini oldiga qo‘ygan maqsadlariga muvofiq quradi. Aynan ushbu holatda ma’naviyatning aksiologik mazmuni yuzaga chiqadi.

Ma’naviyatning aksiologik mazmuni deganda, birinchi navbatda uning amaliyot bilan bog‘liqligi, oxir-oqibat amaliyotda (ta’lim-tarbiyada, xulq-atvorda, faoliyatda, yaratuvchanlikda va h.k.) yuzaga chiqishi, predmetlashishi, ma’naviyatning qaysi omillari qay darajada amaliyotga samaraliroq ta’sir ko‘rsatishi nazarda tutiladi.

Ma’lumki, insonning har qanday faoliyati aniq maqsadni ko‘zlaydi. Inson qiladigan ishining avval miyasida rejasini tuzadi, qanday natijaga erishishini taxmin qiladi. Maqsadni belgilash, uni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlash uning ma’naviyatiga, imon-e’tiqodiga, bilimlari va foydalanadigan qadriyatlariga, meyorlari va tamoyillariga bog‘liq. Kimdir maqsadiga yetishish uchun hech narsadan toymaydi, nomaqbul, boshqalarga yoki jamiyatga zarar yetkazuvchi usullarni qo‘llaydi. Ezgulik, rahm-shafqat, insof va diyonatni unutadi, yoki ularni o‘z foydasidan kelib chiqib, biryoqlama talqin qiladi. Kimdir, aksincha, o‘z oldiga ezgu maqsadlarni qo‘yadi. Ularni amalga oshirishning boshqalarga, jamiyatga zarar yetkazmaydigan, hatto hammaga foyda keltiradigan maqbul usullarini va vositalarni tanlaydi. Gap bu yerda faqat buyuk, ulug‘vor maqsadlar va ishlar haqida ketmaypti. Aytilganlar inson faoliyatining hamma turlariga taalluqli. Kimdir savdo-sotiqda halollikni ustun qo‘ysa, kimdir xaridor haqqini tosh-tarozidan urish yoki mahsulotini ortiqcha narxlash, hisob-kitobda “o‘z foydasiga adashish”-ni o‘ziga ep biladi.

Shunday qilib, ma’naviyatning aksiologik mazmuni maqsad, usul va vosita tanlashda-yoq namoyon bo‘ladi.

Maqsad vositani oqlaydimi, degan muammo olimlarni ko‘pdan bezovta qilib kelgan, turli bahslarga sabab bo‘lgan. Italiyalik mutafakkir N.Makiavelli (1469-1527 yillar) siyosiy maqsadlarga erishish uchun davlat boshlig‘i umumqabul qilingan odob-axloq meyorlariga zarur xollarda rioya etmasligi mumkin, yoki ezgu maqsad har qanday noaxloqiy vositalarni oqlaydi, degan g‘oyani olg‘a surgan. Keyinchalik olimlar maqsadga erishish usullari insonparvarlikka zid kelsa, zo‘ravonliksiz maqsadga erishishning iloji topilmasa, bunday maqsaddan voz kechish lozim, u qanchalik olijanob, foydali bo‘lmasin, zulm va zo‘ravonlikni, g‘ayriinsoniy nogumanistik usullarni oqlay olmaydi, degan xulosaga kelishdi. Demak, *maqsad har doim ham vositalarni oqlay olmaydi, va aksincha.*

Maqsadning o‘zi ezgulikdan yiroq, yoki havoyi, nohayotiy, xayolparasatlikka, noto‘g‘ri qarashlarga, nazariyalarga asoslansa, unga insonparvar, maqbul usullar, vositalar yordamida erishib bo‘lmaydi. Maqsad vositani oqlamasligi, yoki havoyi, utopistik maqsadga hech qanday vositalar, qurbonlar bilan ham erishib bo‘lmasligini SSSR davlati va jamiyati taqdiri (boshqa sotsialistik mamlakatlar taqdiri ham) ko‘rsatdi. Sotsializm g‘oyasi aslida ijtimoiy adolat va tenglikni targ‘ib qilar edi. U ijtimoiy adolat va tenglikni qaror toptiruvchi, har tomonlama uyg‘un rivojlangan erkin insonni tarbiyalovchi jamiyat qurishni maqsad qilib qo‘ygan edi. “Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-soadati uchun” tamoyili sotsializmning asosiy shiori edi. Lekin hayot sotsialistik g‘oya ko‘p jihatdan havoyi, utopik ekanini ko‘rsatdi.

Sotsializmni qurish usullari va vositalari esa zo‘ravonlikka, inson ehtiyojlarini, manfaatlarini, fikrlari va qarashlarini pisand qilmaslikka, g‘oyaviy murosasizlikka, mutaassiblikka (sinfiylik va partiyaviylikka) asoslandi. Natijada sotsializm qurish maqsadida millionlab odamlar qurbon qilindi, mol-mulkidan, erkinligidan ayrildi, qatag‘onga uchradi. Odamlarning kelib chiqishi, dindorligi, dunyoqarashining o‘zgachaligi ularni ta‘qib va qatag‘on qilishga sabab bo‘ldi. Sotsializm – ezgu maqsad – sarobga aylandi. Sotsialistik amaliyot ikkiyuzlamachilik axloqini tug‘dirdi. Dohiylar shaxsga sig‘inish, madhiyabozlik, so‘zda, tilda vtanparvarlik, fidoiylik, ichida loqaydlik, tuzumga nisbatan tanqidiy munosabat, maishiy hayotda, ishlab chiqarishda tashmachilik, o‘g‘irlik, poraxo‘rlik, qo‘shib yozishlar va h.k. buni isbotlab turibdi. Sotsializmida ijtimoiy hayot soxtalikka va qo‘rquvga tayanar edi.

Sotsialistik amaliyot, kommunistik mafkura tamoyillari va ma‘naviyat bir biriga mos edi. Ma‘naviyat va amaliyot munosabatlari aslida ancha murakkab va ziddiyatli. Turmushda saxovatli, mehr-oqibatli, o‘zgalardan yordamini ayamaydigan, ezgu qadriyatlarni mo‘ljallab qilib olgan insonlar qatorida ochko‘z, nafs va hirsiga berilgan, xudbin, o‘z manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yadigan kishilar, yoki befarq loqayd, “o‘zim chiqqan tepa omon bo‘lsin” qabilida ish tutadiganlar uchraydi. “Olamni suv bossa – o‘rdakka ne g‘am” deganlaridek, bunday loqayd insonlar hech kimga hamdardlik qilmaydi. Ularning beparvoligi tufayli dunyoda xiyonat ham, jinoyat ham sodir bo‘laveradi. Bu haqda Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat –yengilmas kuch” asarida Bruno Yasenskiyning fikri juda o‘rinli keltirilgan. Uni yana bir bor o‘qib olishni tavsiya qilamiz.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ma‘naviyat insonga ijtimoiy mo‘ljallab,ideal berishi orqali praksiologik mazmun kasb etadi. Inson maqsad va vositalar tanlashda, amaliy hayotda ma‘naviyatga, ma‘naviy baholar va talablarga tayanadi.

Ijtimoiy hayot va faoliyatda ma‘naviyat iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish bilan teng o‘rin tutadi. Islom Karimovning ma‘naviyat va iqtisodiyotni qushning ikki qanotiga qiyoslaganini yana bir bor esga olamiz. Binobarin ularni bir biridan ajratish, bir biriga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Ma‘naviyatdan iqtisodiyotni ustun qo‘ygan mamlakatlar turmush faravonligining yuqori darajalariga erishgan taqdirda ham turli xil salbiy holatlarni, xususan jinoyatchilik, o‘g‘irlik, tovlamachilik, ijtimoiy befarqlik va begonlashish, merkantilizm (faqat foyda olishni ko‘zlash), xudbinlik, axloqiy buzqlik, fahsh, nafs, hirs balolarini ko‘paytirib yuboradi. Odamlarda har xil asabiylashish kasalliklari, o‘z joniga qasd qilish hollari ko‘payadi. Bejiz ayrim madaniyat va san‘at arboblari hozirgi zamon g‘arb shaharlarini xavf-xatarga to‘la, insonga dushman va begona “toshlar junglisi”deb atamaydilar.

Ayni paytda ma‘naviyatga ustunlik berilib, uning praksiologik vazifalarini unutish, ya‘ni uning iqtisodiy taraqqiyotdan, siyosiy boshqaruv va sud-huquq tizimini takomillashtirish vazifalaridan, jamiyatning amaliy hayotidan ajratish ham salbiy holatlarga olib keladi. Jamiyatda g‘oyaviy dogmatizm, g‘oyaviy mutaassiblik kuchayadi, dunyoqarash torayadi. Inson kamoloti uning ichki dunyosiga, kamsuqumliligi va kamtarligiga qaratiladi, insonning yirik tadbirkorlik, texnologik va islohotlar qilish tashabbuslari, moddiy va ijodkorlik ehtiyojlari yetarlicha rag‘batlantirilmaydi. Natijada jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va intellektual qoloqlikka yuz tutadi. Bunga misol qilib ko‘plab mamlakatlar, xalqlar tarixini, jumladan o‘z xalqimiz tarixini keltirish mumkin. XVI asrdan boshlab bizda ma‘naviyatning praksiologik vazifalari unutila boshlandi. Dinga, insonning kamolotiga katta e‘tibor qaratildi. Amalda esa XIX asrga kelib qoloq xalqqa aylanib, mustaqillikdan ajraldik.

Har bir inson ma‘naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi, yuksak va ulug‘vor ideallarga – ezgulikka, go‘zallikka, adolatga sodiqligi va intilishi, insonparvarlikni, vatanparvarlikni, muruvvat va saxovatni, halollikni dasturil amalga aylanirishi, mehnatsevarligi orqali kamolotga erishadi. Bunday kishi yovuzlik, xunuklik va adolatsizlikning har qanday ko‘rinishi bilan murosasizlik qiladi, befarq bo‘lmaydi. Murosa qilishga, befarq bo‘lishga vijdoni, imon-e‘tiqodi yo‘l qo‘ymaydi.

Inson kamoloti ma'naviyat ta'sirida va insondagi asl ma'naviy fazilatlar shaklida qaror topadi, yuzaga chiqadi.

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotiga avvalo inson kamoloti, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy ideologiya orqali ta'sir ko'rsatadi. Inson kamol topmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Alohida inson ham, millat ham ta'lim-tarbiyani dastlab oilada, maktabda oladi. Keyin ta'lim-tarbiya jarayonida jamiyatning aksariyat institutlari qatnashadi. Jamoatchilik fikri, urf-odatlar, ijtimoiy muhit har bir inson dunyoqarashiga, e'tiqodiga, xulqiga, jamiyatda o'zini qanday tutishiga, hatto qanday kiyinishiga ta'sir qiladi.

Ma'naviy qadriyatlar adabiyot va san'at, ilm-fan va din orqali ham o'zlashtiriladi. Ularning tarqalishida OAV, madaniyat muassasalari, diniy tashkilotlar katta rol o'ynaydi. Ma'naviyatning rivojlanishida, umuman jamiyatning ma'naviy hayotida davlat siyosati katta ahamiyat kasb etadi. Davlat siyosati insonparvar va adolatli bo'lsa, mamlakatda oqilona islohotlarga barcha sohalarida keng yo'l ochilsa, shaxs va jamiyat manfaatlari, davlat manfaatlari bilan mutanosib himoya qilinsa, kafolatlansa, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy yuksalishga erishiladi. Bunday sharoit va muhitda fikrlar xilma xilligi, tafakkur erkinligi qaror topadi. Demokratik munosabatlar, inson huquqlari, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari mustahkamlanadi. Tafakkur mafkuraviy tazyiqdan, bosimdan qutiladi. Odamlar turli sohalarida va masalarda tashabbus ko'rsatishdan, o'z fikrini takliflarini ochiq aytishdan cho'chimaydi. Jamiyat erkinlashadi va insonparvarlashadi.

Aksincha, davlat zo'ravonlik siyosatini yuritsa, senzura fikrlar xilma xilligini, tafakkur erkinligini, demokratiyani cheklasa, iqtisodiyot ham, ma'naviyat ham turg'unlikka, inqirozga uchraydi. Odamlar ongiga ijtimoiy qo'rquv, uning bilan birga tashabbus ko'rsatmaslik, yoki soxta tashabbus ko'rsatish, madhiyabozlik, mafkurabozlik, o'zgacha fikrlarga nisbatan toqatsizlik, g'oyaviy dushman axtarish, odamlarning bir biriga ishonmasligi, shubha qilishi avj oladi. Ba'zi diktatura rejimlari ichki va tashqi dushmanlarga, ular kirdikorlariga qarshi aholi o'rtasida turli xildagi siyosiy-psixologik jazavalarni tashkil qilib turadi. Odamlarni urushga, go'yoki tashqi dushmanlardan mamlakatini himoya qilishga tayyorlab boradi. Fashistik rejimlarda, Stalin davrida sobiq SSSRda, bugun KXDR shunday siyosat yuritilmoqda. Bunday davlatlarga xalqning iqtisodiy qashshoqligi va mafkuraviy mutaassibliyi xosdir.

Muayyan jamiyat ma'naviyatda yetakchilik qiladigan tamoyillarning mazmun-mohiyati – insonparvarligi, ezguligi, adolatparvarligi (yoki ularning muqobili) – ma'naviyatning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini belgilaydi.

Ma'naviyat jamiyat va inson ehtiyojlari, manfaatlari hamda orzu-intilishlari bilan bevosita aloqador ekanligi, bunda uning praksiologik mazmuni yuzaga chiqishi yuqoridagi mulohazalardan qisman ma'lum bo'ldi. Yana ayrim fikrlarni qo'shimcha qilamiz. Inson ehtiyojlari juda rang-barangligi yaxshi ma'lum. Ular orasida bio-fiziologik ehtiyojlarni ajratish mumkin. Inson ovqatlanish, dam olish, nasl qoldirish, issiq va sovuqdan saqlanish va sh.k ehtiyojlarni qondirmasdan yashay olmaydi. Lekin ularni inson, hayvonlardan farqli, biologik usullar bilan emas, ijtimoiy usullar orqali qondiradi. Masalan, kuz kelib havo sovuq boshlagach, hayvonlarning junlari qalinlashib, teri ostida yog' to'planishi ortadi. Inson esa issiqroq kiyim kiyadi. Inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi, ekin ekishi, mol boqishi, oziq-ovqat yetishtirishi, uy-joy yaratishi, kiyim-kechak ishlab chiqishi, oila qurishi lozim. Ishlab chiqarishning o'zi yana bir qator moddiy-iqtisodiy ehtiyojlarni tug'diradi. Bulardan tashqari, insonning boshqalar bilan birlashish, muloqot qilish, turli munosabatga kirishi, ularni tartibga solishga xizmat qiladigan axloqiy, huquqiy, diniy, siyosiy va boshqa meyorlarni yaratish, ularni muttasil takomillashtirish, o'z hayoti har tomonlama farovon va erkin bo'lishiga intilish ehtiyojlari bor. Qisqacha aytganda, inson hayoti va faoliyatining har bir sohasiga, yo'nalishiga mos ehtiyojlari mavjud.

Ehtiyojlarni umumlashtirib, guruhlarga ajratsak, ularni moddiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy guruhlarga bo'lish mumkin. Ayrim olimlar ijtimoiy ehtiyojlarni alohida guruhga birlashtirib, ehtiyojlarni uch guruhga bo'ladilar. Bunda ular ijtimoiy ehtiyojlar guruhiga siyosiy, huquqiy, sog'liqni saqlash, sport va jismoniy madaniyat bilan bog'liq ehtiyojlarni kiritadilar. Ular, albatta, dunyoqarash, e'tiqod, din, axloq, adabiyot va san'at, ilm-fan, umuman ijodkorlik bilan bog'liq ehtiyojlardan biroz farq qiladi. Shu sababdan ushbu tasnifda jon bor. Lekin oxir-oqibat ijtimoiy ehtiyojlar ma'naviy mazmunga ega ekanligini unutmaslik kerak.

Ehtiyojlarni, inson va jamiyatga ta'sir qilish xususiyatlaridan kelib chiqib, sog'lom va nosog'lom ehtiyojlarga bo'lish mumkin. Sog'lom ehtiyojlar inson kamolotiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Insonda asl insoniy fazilatlarini, munosabatlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi. Nosog'lom ehtiyojlar, aksincha, nafs va hirsni, salbiy, nogumanistik, xudbinlik munosabatlarini oziqlantiradi. Ma'naviyat inson va jamiyatning sog'lom ehtiyojlarini rag'batlantirish orqali ularning manfaatlarini himoya qiladi, o'zaro muvozanatga keltiradi. Insonning yuksak intilishlari ma'naviyatga, tuban istaklari ma'naviyatsizlikka aloqador. Nafs, hirs, tuban istaklar (fahsh, aysh-ishrat, zo'ravonlik) insonni hayvonlarga yaqinlashtirsa, haqqa, haqiqatga, adolatga, ijodga, yaratuvchilikka qaratilgan orzu-intilishlar uni farishtalarga yaqinlashtirishi to'g'risida alloma ajdodlarimiz ko'p ta'kidlaganlar. Sog'lom ehtiyojlar inson va jamiyat hayotida pozitiv, ijobiy ahamiyat kasb etishi ko'p bor ta'kidlangan. Ma'naviylik asosida quriladigan munosabatlar inson va jamiyat hayotini yengillashtiradi, insoniylik, halollik, o'zaro izzat-hurmat, ishonch, mehr-oqibat, o'zaro yordam, jamoaviylik mustahkamlanadi. Asta-sekin ijtimoiy munosabatlar zo'ravonlikdan xalos bo'la boshlaydi.

Ma'naviy munosabatlar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy va g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga ega. Avvalo ma'naviy munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy negizlarga tayanadi. Shakllanishi, takomillashishi, ibtidosi va jamiyat rivojlanishi davomida ijtimoiy-iqtisodiy omillar ularga ta'sir ko'rsatadi. Bular haqda avvalgi mavzularda gapirilgan edi. Jamiyatdagi iqtisodiy farovonlik odamlar kayfiyatini ko'taradi, orzu-havaslari va kelajak rejalariga istiqbol bag'ishlaydi. Odamlarning bunyodkorlik tashabbusi o'sadi. Och odamning qulog'iga ko'shiq ham, targ'ibot-tashviqot ham kirmaydi. Ba'zan, ular hayotda qiynalgan, o'z o'rnini topolmagan, ishsiz, oilasida qiyinchilikka duch kelgan kishilarda norozilik uyg'otadi. Ijtimoiy muhofaza va ta'minot, aholining muhtoj qatlamlari to'g'risida g'amxo'rlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, istirohat (dam olish), sport va jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirishning ma'naviy munosabatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ulkan. *Eng jozibali mafkuraviy g'oyalar, chaqiriqlar, shiorlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanmasa, quruq safsataga aylanib qoladi.* Odamlar ularga ishonmay qo'yadi. Kommunistik shiorlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanmagani, mustahkamlanmagani tufayli bebro' bo'lgan edi. Shu bois ma'naviy munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ma'naviy munosabatlar siyosiy va huquqiy asoslarga ham ega. Davlat siyosatining odamlar ongiga, dunyoqarashiga ta'siri xususida ancha mulohaza yuritilgan edi. Demokratiya va qonunning ustuvorligi va barchaga birdayligi, hech kimga noqonuniy imtiyozlar berilmasligi, fuqarolarning amaldagi tenghuquqliligi, so'z erkinligi, e'tiqod va vijdon erkinligi, fuqarolarning murojaatlari, ariza va shikoyatlariga davlat idoralarining befarq bo'lmasligi, inson huquqlarining daxlsizligi va ustuvorligi, ma'naviy munosabatlar yaxshilanishini va rivojlanishini belgilovchi omillardir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida demokratik tamoyillar, fuqarolarning saylovlarda qatnashish, turli masalalarda davlat idoralariga murojaat etish, tashabbus bilan chiqish, so'z, e'tiqod va vijdon erkinligi, o'zini qonuniy yo'l bilan himoya qilish, yuridik maslahat olish va boshqa siyosiy hamda yuridik huquqlari mustahkamlangan. Davlat senzurasini bekor qilgan.

Ma'naviy munosabatlarning axloqiy asoslari deganda, jamiyatda mavjud axloqiy qadriyatlar (ezgulik, baxt-saodat, vatanparvarlik, vijdon, burch, ma'suliyat), odob-axloq qoidalarini, meyorlari, urf-odatlar, jamoatchilik fikri nazarda tutiladi. Ma'naviy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun odob-axloq qoidalarini, urf-odatlarini, umuman axloqiy ong va madaniyatni

doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. O'zbekiston aynan shu yo'ldan bormoqda. Ma'naviy munosabatlarning yuqorida e'tirof etilgan, siyosiy, huquqiy, axloqiy asoslaridan tashqari boshqa g'oyaviy-mafkuraviy asoslari ham bor. Ular orasida ilmiy va diniy g'oyalar ta'siri ancha kuchli. Dunyoviy e'tiqod, ilmiy dunyoqarashning ma'naviy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishdagi ahamiyati beqiyosligini alohida ta'kidlash lozim. Jamiyat, bir tomondan, tarixiy-tabiyy rivojlanadi. Mehnat qurollari, ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalardagi yangiliklar, yutuqlar to'planib boraveradi, ular oxir-oqibatda barcha ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan siyosiy, huquqiy, mafkuraviy munosabatlar yangi sifat bosqichiga ko'tarilishi uchun moddiy-iqtisodiy poydevor bo'ladi.

Lekin, ikkinchi tomondan, har qanday yaratuvchilik g'oyasi, bu yangi mehnat qurollari, asbob-uskunalar, murakkab mashina-mexanizmlar bo'ladimi, yoki jamiyatni boshqarish usullari, qonunlarni, siyosiy va axloqiy, diniy meyorlarni, urf-odatlarini takomillashtirish bo'ladimi – avvalo kimningdir, yoki bir vaqtda bir guruh ilg'or kishilarning ongida, shu urda tug'iladi. Asta-sekin bu g'oyalar yoyiladi, tarqaladi. Jamiyat tarixan o'z umrini yashab bo'lgan, eskirgan g'oyalarni, qoidalar va urf-odatlarini yangilari, ularga nisbatan ancha ilg'orlari bilan almashtirib boradi. Zamonaviy jamiyatda ilmiy-texnik, texnologik, ijtimoiy-gumanitar, siyosiy va huquqiy g'oyalarning aksariyat ko'pchiligi dastlab ilmiy g'oya sifatida shakllangan. Odamlarning ongiga, qarashlariga, e'tiqodiga, xohish-istaklari muayyan yo'nalishda shakllanishiga ta'sir ko'rsatish, manipulyatsiya qilishning samarali usullarini yaratish ustida jahonda ko'plab ilmiy va mafkuraviy institutlar ish olib bormoqda. Ba'zi buzg'unchi g'oyalar tarqatilmoqda. Ular yordamida ijtimoiy-siyosiy barqarorlik buzilmoqda, ichki nizolar, turli guruhlarining qarama-qarshiligi keltirib chiqarilmoqda. Boshqariladigan xaos uyushtirilib, "rangli inqiloblar" sodir etilmoqda. Bunga milliardlar mablag'lar sarflanmoqda. Tajovuzkor har xil mazmundagi reklama, jumladan siyosiy reklama, axborot xuruji, turli-tuman ma'naviy tahdid usullari, vositalari qo'llanilmoqda. Ko'pincha ular inson huquqlari, so'z va axborot erkinligi kabi vajlar yordamida oqlanmoqda. Bular odamlarning dunyoqarashiga, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlariga ziddiyatli, ayrim hollarda o'ta salbiy ta'sir qilmoqda.

Dinni niqob qilib olgan buzg'unchi g'oyalar haqida ham shunday deyish lozim. Ayrim islom mamlakatlarida diniy-ekstremistik oqimlar, guruhlar aholi ongiga terror va tajovuzkor targ'ibot orqali g'oyaviy-mafkuraviy mutaassiblikni singdirishga harakat qilmoqdalar. Bular odamlarning o'zaro munosabatlariga ham, jamiyat munosabatlariga ham salbiy ta'sir qilmoqda.

Shunday qilib, ma'naviyatning praksiologik xarakteri jamiyat qanday rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Yuksak ma'naviyat – jamiyatning olg'a rivojlanishi garovi. Kamchiliklarga boy ma'naviyat jamiyatni ziddiyatli rivojlantiradi, ijtimoiy larzalarga turtki bo'ladi. Buzg'unchi g'oyalarga tayanadigan mafkuraga asoslangan ma'naviyat (aniqrog'i, ma'naviyatsizlik) jamiyatni chuqur inqirozga, deformatsiyaga duch qiladi.

9-MAVZU: MA'NAVIYAT TIZIMIDA DINNING O'RNI

Reja:

1. Din va ma'naviyat. Din ma'naviyatning konseptual negizi. Dunyoqarash tizimida falsafa va din nisbati.
2. Dinda zohiriy va botiniy jihatlarning mavjudligi. Dinning funksiyalari va vazifalari.
3. Fan va din munosabatlari. Fan va din ijtimoiy ongning turli shakllari sifatida faqat jamiyatga xos hodisalar ekanligi. Ulami qarama-qarshi qo'yish ham, birlashtirishga urinish ham samarasiz ekanligi.
4. Din va nafosat. Qadimgi va antik davrlarda mifologiya, o'rta asrlarda esa asosan din hukmron mafkura sifatida adabiyot va san'atning g'oyaviy mazmunini belgilaganligi.
5. Dinning ma'naviyatga ziddiyatli ta'siri. Dinga xos ichki ziddiyatlar jamiyat hayotida keskin o'zgarishlar yuz berganda aniqroq ko'rinishi. Diniy ekstremizmga qarshi kurash zaruriyati

Din e'tiqodning va ma'naviyatning konseptual negizi sifatida. Din, axloq kabi, ma'naviyatning birlamchi poydevori va mavjudlik shakllaridan biridir. Inson ongi dastlab ibtidoiy sinkretizm shaklida rivojlangani, uning doirasida diniy va boshqa biror qarashlar alohida ajralib chiqmagani, alohida tizimni, tashkil etmagani, ammo ibtidoiy insonning sinkretik ongida turli sohalarga oid tushunchalar, g'oyalar, qarashlar, shu jumladan diniy g'oyalar, qarashlar ham bo'lgani to'g'rida avvalgi mavzularda gapirilgan edi. Inson hayvonot olamidani ajralib, o'zligini anglay boshlashi jarayonida kundalik turmushda duch kelayotgan barcha savollarga javob topolmas, bilimlari yetishmas edi. U mazkur hodisalarni keltirib chiqaruvchi va boshqaruvchi g'ayritabiiy kuchlar borligiga ishonar edi. U tajriba va kuzatishlar orqali hech bir narsa sababsiz yuz bermasligini bilib olgan edi. Ibtidoiy odam tushunmaydigan tabiat hodisalari, sirlariga, hayot muammolariga ko'p duch kelardi. Ularning sabablarini ibtidoiy odam, tabiiyki, ko'zga ko'rinmas, sehrli va ilohiy kuchlarga bog'lay boshladi.

Bu davrda (olimlar fikriga ko'ra, quyi paleolitda – 40-50 ming yil ilgari) ibtidoiy odamda ong va fahm-farosat, o'z xatti-harakati, ishi natijasini oldindan tasavvur eta olish ancha rivojlanib, mavhum fikrlash kurtaklari paydo bo'ladi. Lekin chaqmoq nega chaqadi, momaqaldiraq nega gumburlaydi, kunduz kun nega qorong'u tun bilan almashadi, odam nega o'ladi, joni qayoqqa ketadi va ko'plab shu kabi hodisalarning sababini aniqlashga uning aqli, bilimi ojizlik qilardi. Bilmagani narsalardan u cho'chir, qo'rqqar edi. Qo'rquv bor joyda, odamga yordam, najot kerak. Bu yordamni u aqli, bilimi o'sib, rivojlanish davomida ajdodlar ruhidan, turli sehrli, tilsimli buyumlardan, g'ayritabiiy kuchlar – farishtalar, jinlar, ma'budlar, xudolardan qidirdi. Ularga sig'indi. Ularning xayrixohligi va yordamiga erishish uchun sadaqalar berdi, qurbonliklar keltirdi. Diniy g'oyalar, tushuncha va qarashlar birinchi galda ibtidoiy odamning tabiat va hayot oldidagi ojizligi, bilimlari yetishmasligi, ulardan qo'rqishi, bu qo'rquvni yengish va amaliy ishlar – oziq-ovqat, ov qilish, boshpana qurish va h.k. bilan shug'ullanish uchun ezgu kuchlardan ko'mak olish istagi tufayli shakllana boshladi.

Boshqa tomondan, ba'zi bir turmush qoidalari, meyorlarini odamlar ongiga singdirish, nojo'ya, zararli xatti-harakatlardan ularni tiyish uchun yana qo'rquv kerak edi. Agar ularga rioya etmasang, samoviy kuchlar sendan norozi bo'ladi, jazolaydi degan g'oya zarur edi. Ibtidoiy odamning tajribasi, bilimlari ortib, urug'-jamoadoshlari bilan munosabatlari xilma-

xillashishi davomida diniy qarashlari kengayib, chuqurlashib bordi. Ibtidoiy sinkretik ong parchalanganidan keyin diniy ong va diniy amaliyot qadimgi sivilizatsiyalarda alohida tizimni tashkil etdi (taxminan 5 – 6 ming yil ilgari). Endi din nafaqat jamiyatning ma'naviy hayotida, shuningdek ijtimoiy-siyosiy hayotida ham yetakchilik qila boshladi, chunki bu davrda davlat paydo bo'lgan edi. Barcha ilmlar, yozuv, adabiyot, me'morchilik, san'at, ibodat, bayramlarni nishonlash, marhumlarni dafn etish va marosimlarni bajarish tartib-qoidalarini kohinlar qo'lida mujassamlandi. Davlat hokimiyati, podshohlik xudolar irodasi bilan bog'landi. Ba'zi mamlakatlarda podshohlar xudoning o'g'li deb e'lon qilindi. Masalan, Misr fir'avnlari. Din ma'naviyat rivojlanishining asosiga va harakatlantiruvchi kuchiga aylandi, industrial jamiyat va kapitalistik munosabatlar qaror topmaguncha shunday bo'lib qoldi.

Din e'tiqodning, dunyoqarashning, binobarin, ma'naviyatning falsafa bilan birgalikda konseptual negizini va mazmunini tashkil qiladi. Falsafa – e'tiqod, dunyoqarashning ilmiy-ratsional negizi, ilmiy-mantiqiy mazmuni. Din esa ko'proq emotsional, ruhiy ishonch negizi va asotiriy mazmunidir. Uzoq asrlar davomida barcha xalqlarda, barcha mintaqalar va qit'alarda inson ma'naviy hayotida din yetakchilik qilgan, industrial jamiyatgacha belgilovchi rol o'ynagan. U imlo, yozuv, turli sohadagi asarlar, kitoblar paydo bo'lishiga, to'planib avloddan avlodga o'tishiga samarali ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Savodxon kishilar, dastlabki tadqiqotchilar, tarixchilar, yilnomachilar, faylasuflar, astronomlar, matematiklarning ko'pchiligi din vakillari – ruhoniylar, kohinlar edi. Ayniqsa Qadimgi Misr, Bobil, Hindiston sivilizatsiyalari uchun ushbu holat juda xarakterlidir. O'rta asrlarda xristian monastirlari ushbu vazifani davom ettirdi. Bundan tashqari, xristian dini tasviriy san'at, arxitektura, musiqa san'atlarini o'ziga xizmat qildirish orqali ularni rivojlantirdi.

Islom dini ta'limni oddiy boshlang'ich maktabdan to oliy madrasalargacha tasarruf etib, ummatlarning savodli, ma'rifatli bo'lishiga yordam berdi. Me'morchilikni va matematikani, tabiatshunoslikni, tibbiyotni, ya'ni dunyoviy ilm-fanni rivojlantirishga juda ulkan hissa qo'shdi. Ko'p hollarda buyurtmachi vazifasini o'tadi. Masjidlar, madrasalar qurish, qiblaga aniq mos keladigan tomonini belgilab, mehrobni o'rnatish, Makkaga yo'lni adashmay topib borish islom mamlakatlarida geometriya va mexanika (handasa ilmi, muhandislik), astronomiya va matematika (nujum va riyoziyot ilmlari) fanlarini rag'batlantirdi. O'zidan avvalgi muqaddas kitoblar – Tavrot, Injildan farqli, Qur'on ilmni birinchi o'ringa qo'ydi. Bog'dodda xalifa Horun ar-Rashid qurdirgan "Baytul hikma" o'zigacha bo'lgan yunon, lotin, sanskrit, xitoy, suryoniy, ibroniy, fors tillarida bitilgan mashhur ilmiy kitoblarni to'plab, arab tiliga tarjima qilishga kirishdi. Aytish mumkinki, jahon ilmiy tafakkuri ilk bora, Qur'on ko'rsatmalari tufayli, bir joyda arab tilida to'plandi, o'zaro muloqatga kirishdi. Axloq va huquq rivojlanishida barcha dinlarning, xususan islomning ahamiyati beqiyosdir. Islom shariat va fiqh orqali huquqiy meyorlarga ta'sir qildi. Ammo, yana bir eslatish joizki, axloq va huquqni din yaratmaydi. Ular din kabi ijtimoiy ongning mustaqil shakllari va jamiyat institutlaridir. Kapitalizm vujudga kelguncha din hukmron mafkura va yetakchi ma'naviy institut sifatida axloq va huquqqa o'ta kuchli ta'sir ko'rsatgani – boshqa gap.

Toza va notoza, iste'molga yaroqli va yaroqsiz, qilish mumkin yoki mumkin emas kabi tushunchalar, meyorlar diniy mazmun kasb etdi. Ular halol va harom kabi diniy-meyoriy shakllarda ifoda qilina boshladi. Bundan tashqari, islom dinining o'zi imon, gunoh, kufr, makruh, uvol, savob kabi meyorlarni axloqqa kiritib, uni boyitdi. Boshqa dinlar ham axloqqa

o'zlarining ko'plab meyorlarini kiritdilar. Bu ezgulik, yovuzlik, adolat, vijdon, to'g'rilik, yolg'on va boshqa axloqiy meyorlar mazmunini tushunishga, talqin qilishga o'z ta'sirini ko'rsatdi, ular mazmunini ancha kengaytirdi, ba'zi talqinlarga diniy tus berdi. Ma'naviyatning, axloqning bunday rivojlanishi ibtidoiy davrdan o'rta asrlar oxirigacha obyektiv qonuniyat edi. Chunki axloqning ba'zi taqiqlarini aholi ongiga singdirish, odamlarni ularga ixtiyoriy bo'ysundirish qiyin edi. Din zino, o'g'irlik, odam o'ldirish, zo'ravonlik va h.k.lar gunoh ekanligini e'lon qilib, gunohkorlarni kelgusida, narigi hayotida qattiq jazo kutishi bilan qo'rqitdi. Din axloqiy meyorlar tarqalishiga va mustahkamlanishiga yordam berdi.

Dinda zohiriy va botiniy jihatlar mavjud. Zohiriy jihat bu – taqvo, din talablariga muvofiq yashash, sig'inish, marosimlarni va boshqa farzlarni ado etish va h.k. Botiniy jihat – bu imon-e'tiqod. Sidqidildan Ollohga ishonish, uni sevish, unga intilish. Zohiriy jihat avvalo islomda arkon ad-din deb ataladigan 5 ta marosimchilik talabini (kalima keltirish, nomoz, ro'za, zakot va haj) bajarishda, botiniy jihat 7 ta aqidani qalban tan olishda va sidqidildan ularga ishonishda (Ollohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, taqdirga, oxiratga va o'limdan keyin qayta tirilishga ishonish) namoyon bo'ladi. Bulardan tashqari, dinning zohiriy va botniy jihatlarini insonning amaliy diniy xulq-atvori, faoliyati va diniy ongi, tafakkurining barcha evrilishlarida yuzaga chiqadi.

Tabiiyki, dindorlar diniy savodxonligi, bilimi, diniy tafakkurining mustaqilligi borasida bir xil emas. Din asoslarini yaxshi, puxta o'zlashtirganlar qatorida yaxshi bilmaydigan avomlar bor. Ular aksariyat ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning imoni ko'proq taqlidiy, tahliliy emas. Taqlidiy imon (qandaydir obro'li shaxs diniy qarashlari va g'oyalarini notanqidiy qabul qilish) har xil adashishlardan, xavf-xatardan xoli emas. Taqlid qilinayotgan imon, g'oyalar, ta'limot to'g'ri bo'lsa, insonparvarlikka zid kelmasa – yaxshi. Agar diniy ekstremistik g'oyalar bilan aralash bo'lsa, xavflidir. Tahliliy imon – imon mustaqilligidir. Imon egasi din, e'tiqod masalalarida o'z fikriga ega, ularni o'zicha diniy manbalar, kitoblar va mantiqqa tayanib asolaydi. Uning fikrlari xato bo'lishi mumkin, lekin mustaqil aqlga, diniy zavq-shavqqa, intuitsiyaga (botiniy idrokka) tayanadi. Taqlidiy imon mustaqil emas. U to'g'ri bo'lganda-yam, imon egasining o'z fikriga emas, balki diniy obro'li shaxs qarashlariga, umumqabul qilingan dogmatlarga tayanadi.

Shunday qilib, din, birinchidan, ijtimoiy-madaniy yutuqlarni to'plab, saqlab, boyitib borish vazifasini (akkulmulyativ funksiya) bajargan. Ikkinchidan, din kelgusi avlodlarga to'plangan ma'naviy boyliklarni uzatishga, ularni o'zlashtirishga yordam bergan. Bu bilan u madaniy-ma'naviy vorisiylikni, davomiylikni ta'minlagan (ma'naviy-ma'rifiy vorisiylikni ta'minlash funksiyasi). Uchinchidan, din odamlarning o'zaro aloqalarini, jamiyat hayotini tartibga solgan, boshqargan (regulyativ funksiya). Toat-ibodatdan, oila va nikoh masalalarigacha, oldi-berdidan, savdo-sotiqdan mulk va merosxo'rlik masalalarigacha, uvol-savob, halol-harom masalalaridan, adolat va toju-taxtni meros qoldirish yoki hukmron sulolani almashtirish masalalarigacha din aralashgan. Ma'lum meyorlar va qoidalar orqali ularni tartibga solgan.

To'rtinchidan, yuqorida aytib o'tilgandek, din odamlarga ishonch, najot, umid baxsh etgan, qo'rquvni yengishda ko'maklashgan, boshiga og'ir musibat tushganda yupatgan, ruhiy madad bergan. Dinning ushbu vazifasi – sodir bo'lgan yo'qotishni, ruhiy kemptikni, yetishmovchilikni to'ldirish ruhiy kompensatorlik funksiyasi, deyiladi. Ijtimoiy ongning biror

boshqa shakli din kabi ruhiy-kompensatorlik vazifasini keng miqyosda bajara olmaydi. Ularning har biri faqat o'z sohasidagina cheklangan holda kompensatorlik vazifasini bajaradi. Dinning kompensatorligi esa universal mazmunga va ko'rinishga ega.

Dinning madaniy-ma'naviy akkumulyativ, ma'naviy – ma'rifiy vorisiyligni ta'minlash, ijtimoiy-regulyativ, kompensatorlik funksiyalari industrial jamiyatgacha uning inson va jamiyat ma'naviy hayotida yetakchilik qilishini belgiladi. Din o'rta asrlarda to'liq ta'lim-tarbiyani, maishiy madaniyat, urf-odatlarini o'ziga bo'ysundirdi, ularni boshqardi. Lekin fanni o'ziga to'liq buysundira olmadi. Ular o'rtasida goho pinhona, goho ochiqcha bahs kuzatildi.

Dinning yana bir vazifasi – bu inson oldiga umumiy, eng yuksak maqsadni qo'yishdir. *Haqqa, haqiqatga, yuksak idealga ishonish va ularga yetishishni o'z maqsadiga aylantirish inson hayotiga ma'ni bag'ishlaydi.* Tadqiqotchi, konstruktor, umuman har qanday ijodkor oilasi – ro'zg'orini tebratayotgan, bola-chaqasini tarbiyalayotgan oddiy mehnatkash ma'lum g'oyalarga, narsalarga qiziqadi, ma'lum maqsadga intiladi, unga erishish mumkinligiga ishonadi. Bunday qiziqish, intilish, ishonch bo'lmasa, inson hayotida ma'ni qolmaydi.

A. Eynshteyn aynan insonning eng yuksak maqsadlari va ularga qiziqishini, erishish mumkinligiga qat'iy ishonchni diniy e'tiqod, dindorlik deb hisoblagan. Bu qiziqishning, e'tiqodning mazmuni ilohiy Zotga borib taqaladimi, yo'qmi, yoki sof dunyoviy mazmunga egami – farqi yo'q. Uning fikricha, fan insonga oliy maqsad berolmaydi, balki unga erishish yo'lini ko'rsatadi va ilmiy tadqiqotlar bu yo'lda qudratli vositasiga aylanadi. Bunday oliy maqsadni insonga din beradi. Albatta, A. Eynshteyn fikrini mutlaqlashtirib, inson hayoti, yashashdan maqsadini faqat din, dindorlik tashkil etar ekan qabilida tushunmaslik kerak. Lekin uning fikrida ma'lum ratsional mag'iz bor. Haqiqatan, fan inson oldiga umumiy maqsad qo'ya olmaydi, u konkret, aniq maqsadlar va hal qilinishi mumkin bo'lgan aktual yoki lozim bo'lgan strategik maqsadlar qo'yadi. Bu maqsadlar inson hayotining ma'nisini, mohiyatini tashkil qilmaydi, balki hayotini yengilatishga, mazmunini aniq yutuqlar bilan yanada boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fan va din munosabatlari. Fan va din ijtimoiy ongning turli shakllari sifatida faqat jamiyatga xos hodisalardir. Ularning ikkalasi ham insonga, jamiyatga xizmat qiladi. Har qaysining o'ziga xos, takrorlanmas, boshqalar bajara olmaydigan vazifalari bor. Faqat ba'zi bir vazifalari o'xshash. Lekin ayni paytda fan va din o'rtasida ziddiyat bor. Ularni to'liq bir biriga qarama qarshi qo'yish ham, sun'iy ravishda birlashtirish ham xato. Din fanning, fan dinning o'rnini hech qachon bosa olmaydi. Fan va din eng avvalo voqelikni, olamni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Fan olamning xolis dalillar yordamida asoslangan, isbotlangan in'ikosi bo'lsa, din olamning fantastik, irratsional, noreal in'ikosidir. Har ikkalasi haqiqatga da'vo qiladi. Fan o'z "haqiqatini" amaliy yoki mantiqiy dalillar orqali isbotlashga urinadi. U insonning hissiyotiga, ishonchiga, yoki qo'rquviga emas, balki aqliga, tafakkuriga murojaat etadi. U adashishi, noto'g'ri xulosa chiqarishi, narsa va hodisalar mazmun-mohiyatini noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Lekin u mudom aqlirasolikka tayanadi, mantiqqa zid ish tutmaydi. Hatto turli farazlarni olg'a surganda ham ularni mantiqan, nazariy asoslashga intiladi.

Din esa isbotga emas, ishonchga, ba'zan ko'r-ko'rona ishonchga tayanadi, insonning hissiyotiga murojaat etadi. O'z "haqiqatini"asoslash uchun aniq dalillarga emas, balki turli rivoyatlarga, asotirlarga, naqlga, nazariy mazmundagi mantiqiy chayqovchilikka, mantiqiy

uydirmalarga tayanadi. Bundan din tabiat va jamiyatdagi mavjud narsa va hodisalarni, dalillarni to'liq inkor qilar ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaydi. Faqat din ularni e'tirof etish barobarida o'zicha talqin etadi, Yaratganning irodasi bilan bog'laydi. Fan o'z davrining, jamiyat taraqqiyotining qo'lga kiritgan imkoniyatlari bilan chegaralangan. U javob berolmaydigan, tushuntira olmaydigan savollar, masalalar hech qachon kamaymaydi. Bir savolga javob topilsa, bir masala yechilsa, yangilari paydo bo'laveradi. Ushbu holat doimo diniy mazmundagi chayqovchiliklar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Inson e'tiqodi, dunyoqarashi – juda murakkab, ziddiyatli hodisa. U hech qachon sof diniy yoki sof ilmiy bo'lmaydi. Ba'zi kishilarda u ko'proq ilmiylikka, ba'zilarda ko'proq diniylikka moyillik ko'rsatadi. Hozirgi davrda ayrim ziyolilar, olimlar, din arboblari tomonidan fan va dinni "yarashtirish", birlashtirishga urinishlar tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Muqaddas kitoblar asotirlari, olamni go'yoki Olloh tomonidan yaratilishi hozirgi zamon ilm-fani, xususan kvant mexanikasi va koinot to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarga zid emasligi, Darvin nazariyasi xato ekanligi haqidagi maqolalar, kitoblar chop etilmoqda. Fanning ba'zi bir xulosalariga sun'iy ravishda muqaddas kitoblarning olam yaratilishi va tuzilishi to'g'risidagi diniy rivoyatlar "moslashtirilmoqda", bu maqsadda ular majoziy, ramziy yoki kod tizimi sifatida talqin qilinmoqda. Bunday talqinlar zamirida hech qanday ilmiy dalillar yo'q, ular nari borsa mantiqiy chayqovchilikdir, xolos. Ko'p hollarda bunday urinishlar hatto shaklan ziddiyatlardan xoli izchil mantiqiy chayqovchilik darajasida ham emas.

Fan va dinni sun'iy ravishda birlashtirishga hech qanday hojat yo'q. Ularni chalkashtirmaslik kerak. Buyuk ajdodlarimiz Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Ali Qushchi va boshqa daholar fan va dinning vazifalarini chalkashtirmaganlar. Ular komil musulmon bo'lganlari holda, ilm-fan bilan chuqur shug'ullanganlar. Diniy mutaassiblik e'tiqodini va da'volarini rad etganlar. Ushbu munosabat bilan Ibn Sinoning uni kufirda ayblaganlarga qarata "Agar men musulmon bo'lmasam, demak, bu dunyoda musulmonning o'zi yo'q ekan", degan javobini eslash o'rinlidir. Din va fan o'rtasidagi ziddiyatlarni chetlab o'tish maqsadida "ikki haqiqat" – "diniy haqiqat" va "ilmiy haqiqat" g'oyasi ilgari surilgan. Ayniqsa bu g'oyani Ibn Rushd har tomonlama asoslashga uringan.

Din va nafosat. Din adabiyot va san'at rivojlanishiga qattiq ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi va antik davrlarda, o'rta asrlarda din hukmron mafkura sifatida adabiyot va san'atning g'oyaviy mazmuniga ta'sir qilgan. Bundan tashqari, san'atning ba'zi turlari, masalan, antik davr haykaltaroshligi, arxitekturasini birinchi navbatda diniy buyurtmalarni bajargan. Qadimgi Gretsiyada dastlab faqat xudolar va mifologik qahramonlar haykallari yasalgan. So'ngra olimpiya o'yinlari qahramonlari va buyuk olimlar, arboblari, podshohlar byustlari yasala boshlagan. Me'morchilik san'ati yordamida barpo etilgan hashamatli ibodatxonalar bevosita diniy vazifani bajargan. Podshohlarning ulkan saroylari, qasrlari hokimiyat, kelib chiqishiga ko'ra, ilohiy ekanligini tasdiqlashga xizmat qilgan. Saroy ayonlari, kiborlar yashaydigan me'moriy binolar oqibat natijada hokimiyatga, hokimiyat orqali xudoga (xudolarga) yaqinlikdan dalolat hisoblangan. Oddiy fuqarolar me'morlik san'ati qo'llanilmaydigan kulbalar va uylarda yashagan.

Antik davr diniy qarashlarida taqdir, qismat, yozuq deb turlicha ataladigan tamoyil ustunlik qilgan. Unga binoan, inson erkin emas, o'z taqdirini o'zgartira olmaydi. Uning taqdiri, qismati azaldan, u tug'ilmasdan avval belgilangan. Inson taqdirga tan berishi lozim. Adabiyot, san'at, arxitektura shu g'oyani izchil targ'ib etgan. Diniy asotirlar, rivoyatlar antik

va o'rta asrlar mobaynida adabiyot va tasviriy san'atning asosiy mazmunini tashkil etib keldi. Musiqa va raqs ham din buyurtmasi va ta'siridan xoli qolmadi. Ular dastlab asosan turli diniy va e'tiqodiy bayramlarni, an'ana va marosimlarni bajarish vositasi sifatida rivojlandi. Keyinchalik hukmdorlar va badavlat kishilarning huzur-halovatiga, odamlarning to'y tomoshalariga kirib bordi.

Islom mamlakatlarida ham din hukmron mafkura sifatida adabiyot va san'atga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Islomga mos kelmaydigan haykaltaroshlik, musavvirlik (rasm chizish) dastlab mutlaqo taqiqlandi. Me'morchilik, keyinchalik musiqa islom buyurtmasi va talablariga moslashdi. Adabiyot esa dastlab ortodoks, mumtoz islom ta'sirida, o'rta asrlarda Eron, Xuroson, Movarounnahr, Hindistondagi musulmon xalqlari adabiyoti esa tasavvuf ta'sirida rivojlandi. Ammo, yana bir bor ta'kidlash joizki, birinchidan, adabiyot va san'at din tufayli vujudga kelmaydi. Ular ijtimoiy ongning mustaqil shakllaridir. Ikkinchidan, adabiyot va san'at hech qachon to'liq din ta'siriga tushib qolmaydi, ba'zan esa hukmron diniy qarashlarga nisbatan tanqidiy, hatto muxoliflik ruhida g'oyalarni ifodalaydi. Ayrim riyokor shayxlar, din peshvolari tanqidini biz barcha buyuk adiblar ijodida, jumladan Navoiy, Bobur asarlarida uchratamiz.

Xalq og'zaki ijodi, xususan qahramonlik eposlari (dostonlar), lirik termalar, ashulalar, laparlar, aytishuvlar, xalq raqslari, kashtado'zlik deyarli to'liq dunyoviy mazmunga ega, ularda ba'zi bir diniy unsurlar uchrasa-da, ular ko'proq qahamonning ma'lum davr kishisi ekanligini ko'rsatadi, asarning g'oyaviy mazmunini tashkil etmaydi. To'g'ri, ko'p asrlar mobaynida adabiyot va san'at dinga xizmat qilib kelgan. Adabiyot va san'at yordamida din odamlar ongiga ta'sirchan, jonli obrazlar orqali yetib borgan, o'z mavqeini mustahkamlagan. Adabiyot va san'at dinning takomillashishiga, tadrijiga, isloh qilinishiga katta hissa qo'shgan. Tasavvufning o'rta asrlarda Eron, Xuroson va Movarounnahrda yetakchi o'ringa chiqishida adabiyotning roli katta. Aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, nafaqat din hukmron mafkura o'laroq qadimgi, antik va o'rta asrlarda adabiyot va san'atga kuchli ta'sir ko'rsatdi, shuningdek ularning ta'sirida o'zi ham mavqeini mustahkamladi, takomillashdi va rivojlandi.

Yevropa Uyg'onish davridan jamiyatning ma'naviy hayotida dinning ahamiyati pasaya boshladi. Adabiyot va san'at ba'zan dinga ochiqcha g'oyaviy muxolif sifatida o'zini ko'rsatdi. Masalan, Bokkachoning "Dekameron" asari, buyuk italyan rassomlarining antik yoki Bibliya asotirlari mavzularida yaratilgan kartinalarida yalong'och inson tanasi tasvirlangani to'g'risida shunday deyish mumkin. Ular o'rta asr xristian axloqiga zid edi. Uyg'onish davridagi Iso Masih tasvirlarida biz azob-uqubattan ezilgan ozg'in, iztiroblar pushtini so'ndirib, ruhini yuksaltirgan siymoni emas, balki jismonan va ma'nan uyg'un rivojlangan, komil siymoni ko'ramiz. Xristian dini talablaridan biri shayton vasvasasidan "ruhingni qutqarish uchun, pushtingni so'ndir" degan talab edi. Shahvoniy hirsga berilmaslik uchun ba'zi mutassib xristianlar hatto o'zini axta qildirar edi. Uyg'onish va Ma'rifatparvarlik davri rassomlari yalong'och erkak va ayollarni tasvirlab, oddiy insoniy muhabbatni kuyladilar. Bu bilan xristian dinining axloqiy va estetik mezonlariga ochiqcha qarshi chiqdilar. G'arb ijtimoiy ongi, ma'naviyati din va cherkov ta'siridan qutila boshladi. Din va cherkov ta'siridan qutilish sekulyarizatsiya deyiladi. Sekulyarizatsiya ateizm, dinga ishonmaslik va uni inkor qilish emas, balki dinni xususiy ishga aylantirish, davlat va jamiyat institutlarini (diniylardan tashqari) cherkov ta'siridan ozod etishdir.

Sekulyarizatsiya jarayonida asta-sekin cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi. Endi din davlatning mafkuraviy tashkiloti vazifasidan, undan kelib chiqadigan sensorlik va g'oyaviy boshqaruvchilik huquqlaridan mahrum bo'ldi. Bu o'z navbatida g'arb mamlakatlarida hurfiylik, ilm-fan, ta'lim, adabiyot, san'at, madaniyat gurgirab o'sishiga, inson omili yuksalishiga olib keldi.

Lekin keyinchalik g'arb jamiyatida individualizm va vulgar antropotsentrizm tamoyillari, odamlarning o'zaro ijtimoiy begonalashuvi kuchaydi. Sekulyarizatsiya jarayonida g'arb jamiyati nafaqat dindan, balki tashqi diniy tus olgan ko'pgina axloqiy qadriyatlardan ham, afsuski, voz kechdi. Natijada g'arb ma'naviyatida asta-sekin salbiy unsurlar ko'paya bordi. Chunki din insoning ichki, ruhiy olami yaxlitligini saqlashda, milliy axloq va ijtimoiy qadriyatlarni tashqi tajovuzdan himoya qilishda yordam beradi. U insonni xudbinlikdan, nafs va hirsdan, ochko'zlikdan, boylik orttirish, shaxsiy manfaatlarni hamma narsadan ustun quyish hirsidan, yoki o'ziga yot salbiy ta'sirdan saqlaydi.

Islom mamlakatlarida "o'rta asrlar" cho'zilib ketdi. Din mutlaq hukmron mafkuraga aylanib bo'lgan, unga xos dogmatizm butun jamiyat hayotini iqtisodiy munosabatlargacha qamrab olgan edi. Rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot to'xtab qolgandi. Oqibatda deyarli barcha islom mamlakatlari, Turkiyadan tashqari, XIX asr oxiriga kelib yo o'z mustaqilligini to'la, yo qisman yo'qotib, mustamlaka va yarimmustamlaka mamlakatlarga aylandi. Eron, Buxoro amirligi, Afg'oniston kabi davlatlar yarimmustamlaka – Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining protektoratlari edi.

Dinning ma'naviyatga ziddiyatli ta'siri. Dinga xos ichki ziddiyatlar jamiyat hayotida keskin o'zgarishlar yuz berganda aniqroq ko'rinadi. Mustamlakachilik davrida, bir tomondan, islom milliy ongni, milliy madaniyat va urf-odatlarini o'ziga xos tarzda himoya qildi. Aholini "g'ayridin", "kofirlar" bilan aralashib assimilyatsiya bo'lib ketishidan saqladi. Mustamlakachilik davrida urug'-qabila dinlariga sig'inadigan, taraqqiyot darajasi past xalqlarning deyarli barchasi o'z tilini yo'qotib, mustamlakachilar tiliga va diniga o'tib ketdi. Misol tariqasida Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, Osiyoning ba'zi bir qabilalari va xalqlarini keltirish mumkin. Ammo islom, induizm va buddizm tarqalgan xalqlarda biz bunday holatni kuzatmaymiz. Ularning mutlaq ko'pchiligi o'z e'tiqodlarida sobit qoldilar. Ular ona tilini, urf-odatlarini, adabiyot va san'atini, umuman milliy madaniyatlarini saqlab qoldilar. Ularni g'arbdan, metropoliyadan o'zlashtirgan yangi so'zlar, tushunchalar, madaniy yutuqlar hisobiga yanada boyitdilar. Ushbu dalil dinning milliy va madaniy muhofazakorlik ahamiyatini aniq ko'rsatadi. Milliy ozodlik harakatiga jahon dinlari muayyan hissa qo'shganini e'tirof etish lozim. Ular ozodlik kurashi yo'lida aholining turli qatlamlarini birlashtirishda o'ziga xos umumiy mafkuraviy zamin, platforma vazifasini o'tagan edi. Chunki turli sinflarga, ijtimoiy qatlamlarga mansub, yashash sharoiti va turmush muommolari, manfaatlari har xil bo'lgan, madaniy saviyasi va savodxonlik darajasi keskin farq qiladigan kishilarni yagona siyosiy mafkura asosida birlashtirish qiyin. Din esa ularning hammasi uchun yagona e'tiqod va mafkura edi.

Ammo, ikkinchi tomondan, rasmiy ruhoniylar tezda mustamlakachi ma'muriyat bilan til topishib ketdi. Taqdiri azal, mo'minlik, xudoning bandasiga yuborgan sinovi, hokimiyat, podsholik Ollohdan, amri podsho vojib va shu kabi turli diniy meyorlar va tamoyillar yordamida xalqni chalg'itib, mustamlaka ma'muriyatga sodiqlik bilan xizmat qildilar. Odamlarni taqdiriga tan berishga chaqirdilar. To'g'ri, ruhoniylar orasida vatanparvarlari kam

emas edi. Ularning ayrimlari milliy ozodlik harakatida faol qatnashib, o'z jonini qurbon qildilar. Aynan ushbu misolda dinga xos ichki ziddiyat yana bir bor namoyon bo'ladi.

Dogmatizm dinni zamon talablariga mos rivojlanib, takomillashib borishiga xalaqit beradi, ma'naviy turg'unlikka, milliy mahdudlikka undaydi. Shu sababdan har qanday din asta-sekin hayotdan ortda qola boshlaydi, odamlarning erkinligini cheklaydi. Islom dini bilan ham shunday hol yuz berdi. IX-XII, so'ngra qisman XIV va XV asrlarda yuksak taraqqiyotni ta'minlay olgan, ilm-fanni, ayniqsa matematika, astronomiya, tibbiyot fanlarini, adabiyot, san'at, madaniyatning boshqa sohalarini zamonasining eng yuksak cho'qqisiga ko'tara olgan islom ijtimoiy taraqqiyotni saqlab qololmadi. Ilm-fan va adabiyot, san'at, madaniyat chuqur inqirozga uchradi.

Odamlarda asta-sekin tashabbus so'nib, boqimandalik, Ollohdan rizq kutish, mo'jiza kutish kuchayib ketdi. Turli ziyoratgohlar, muqaddas joylar, avliyolar mozori tevaragi juldur kiyimdagi sadaqa so'rab turgan tilanchilar bilan "bezanib" turardi. Oddiy dehqon va kosiblarning aksariyati qashshoq, savodsiz va ma'rifatdan yiroqligicha qolib ketdi. Ularning sal suyagi qotaygan farzandlari o'qimas, ota-onalariga yordam berishga majbur edi.

Dinni hayot talablariga moslab borish uchun, boshqa sohalaridagi kabi, unda islohotlar o'tkazib turish lozim. Lekin bu juda qiyin, hatto xavfli ish. Yevropada Reformatsiya 125 yil davom etgan urushlarga olib keldi. Faqat mustamlakachilik domiga tushib qolgandan keyin islom mamlakatlarida ilg'or ziyolilar va ruhoniylar ozodlikka, taraqqiyotga erishish uchun islomni isloh qilish g'oyasini olg'a surdilar. Lekin jamiyat ularni tushunmadi, qabul qilmadi. Islohotchilarining o'zlari ham XIX asr oxiri – XX asr boshlarida (hozirgacha) diniy islohotlarni turlicha tushunar edilar. Ularning ba'zilar islomni g'arb liberalizmi g'oyalari bilan yaqinlashtirib, zamonaviylashtirish tarafdori bo'lsa, boshqalari islomni keyingi asrlarda bulg'agan xurofot va bid'atdan tozalash, ajdodlarning solih yo'liga qaytish – as-salaf as-solih g'oyasini – ilgari surdilar. Shu tariqa asta-sekin salafiya oqimi vujudga keldi. Islom islohotchilari (muslihun) Muhammad Abdo (Abduh), Abdurahmon al-Kavkabi, Rashid Rido, Abdulloh Nodim salafiyaga asos soldi, deyish mumkin. Lekin, ta'kidlash joizki, salafiyada keyinchalik, konservativ va radikal tendensiyalar kuchayib, ustunlik qilib ketdi. XX asrning 70 yillaridan boshlab salafiya murosasizlikka moyil, islomni zamonaviylashtirishga qarshi ekstremistik kuchlarni qo'llab quvvatlovchi g'oyaviy-siyosiy oqimga aylandi. Muslihunlarning dastlabki g'oyalaridan ancha uzoqlashdi. Bugungi kunda salafiya doirasida turli bir-biriga zid oqimlar, jumladan ko'plab ekstremistik oqimlar bor.

Islom mamlakatlaridagi kabi, Rossiya imperiyasida yashaydigan musulmon xalqlari orasida islohotchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshida yuzaga keldi. Bu harakat jadidchilik deb ataladi. U dastlab ta'lim sohasini va madaniy-ma'naviy sohani isloh qilishni, ba'zi qoloq urf-odatlardan qutilishni yoqlab chiqdi.

XIX asr 80-yillarida Yevropada quvg'inda yashagan misrlik muslihun shayx M.Abduh (1849-1905) va XX asr boshlaridaRossiyaga, Falastinga sayohat qilgan bizning Behbudiy taassurotlarida ijtimoiy hayot va diniy qarashlarni isloh qilish to'g'risida o'xshash g'oyalar uchraydi. Muhammad Abduhning quyidagi fikri e'tiborlidir: "G'arbga bordim, u yerda haqiqiy islomni ko'rdim, biroq musulmonlarni ko'rmadim. Sharqqa qaytdim. Bu yerda musulmonlarni ko'rdim-u, islomni ko'rmadim". M.Abduh aytmoqchi-ki, islom ma'rifat, ilm-fan, sa'y-harakat, tashabbuskorlik dini. U boqimandalikni, tekinox'rlikni, jaholatni,

savodsizlikni xushlamaydi. Har bir kishi biror foydali ish bilan band bo'lishi lozim (Bejiz Olloh nomidan "Sendan – harakat, mendan – barakat" degan hikmat naql qilinmaydi).

Yevropada M. Abduh ana shu talablarga mos hayotni ko'rdi: yoshlar maktabga boradi, o'qiydi, hunar o'rganadi, kattalar zavod-fabrikalarda, turli-tuman xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat qiladi, ishsizlar mehnat birjalariga boradi, ish izlaydi, sharqdagidek bozorlarda, muqaddas joylarda, ko'chalarda tilanchilik qilmaydi. Ilm-fan, texnika yutuqlari xalq xo'jaligida, odamlarning maishiy turmushida keng tarqalgan. Odamlar toza, ozoda yashaydi. Mehmonxonalar ozoda. To'shaklarda qordek oppoq choyshablar, vanna xonalarda oppoq sochiqlar, sovuq va issiq suv. Maktablar, o'quv yurtlari, kasalxonalar, kutubxonalar, qiroatxonalar, muzeylar, galeriyalar, teatrlar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar keng tarqalgan. Axir bular mumtoz islom talablariga mos-ku! Shu sababdan Abduh "G'arbga bordim, u yerda haqiqiy islomni ko'rdim..."deydi. O'z yurti va qo'shni islom mamlakatlarida aholi islom farzlarini bajarib, shariat talablariga mos yashasa-da, ya'ni musulmon bo'lsa-da, mamlakatlarning o'zlarida islomning ilm –ma'rifatga, madaniyatga, bunyodkorlikka, taraqqiyotga intilish talablari unutilib qo'yilganligini Muhammad Abduh yanada chuqurroq his qildi. Va islomning gurkirab rivojlangan, ijtimoiy taraqqiyotning ma'naviy asosi bo'lgan davri tamoyillariga, ajdodlarning solih yo'liga – ma'rifatga, ilm-fanga, tashabbusga, taraqqiyotga qaytishga chorlaydi. Aynan shunday ilm-ma'rifatga, taraqqiyotga da'vatlarni Behbudiy asarlarida uchratamiz.

Islom mamlakatlari istiqloлга erishgandan keyin juda murakkab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy qiyinchiliklarga duch keldi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi o'tish davrida iqtisodiy ahvolni yanada og'irlashtirdi, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishuv kuchaydi. Sahnaga turli siyosiy guruhlar, partiyalar chiqib, hokimiyat uchun o'zaro kurashni boshlab yubordi. Ba'zi bir siyosiy guruhlar barcha qiyinchiliklarda sobiq mustabid davlatlarni aybladi. Ular o'z tarafdorlarini ko'paytirish, ichki muxoliflariga va g'arbdan kelayotgan neokolonializm xavfiga qarshi kurashda islomdan foydalanishga, uni siyosiy lashtirishga, uning niqobi ostida hatto harbiy to'ntarishlar va qo'poruvchiliklar qilishga urindi. Bunday urinishlar hamon davom etmoqda. Natijada yangi shakldagi siyosiy lashgan islom ekstremizmi vujudga keldi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurash zarurati. Diniy mutaasiblik (fanatizm) u yoki bu darajada barcha dinlarda doimo bo'lgan. Mutaasiblik – aqidaparastlik asosida vujudga keladi. Ma'lum aqidalarga qattiq berilib, boshqalarni inkor qilish, tan olmaslik mutaasiblikni tug'diradi. Aqidaparastlik diniy ta'limotlar bilan tarixan rivojlanib keldi. Barcha din peshvolari, nazariyalari bir xil mu'tadil qarashlarga ega bo'lmagan. Ular orasida o'z g'oyalarini, qarashlarini tezroq yoyishga, o'z tarafiga tezroq ko'pchilik dindorlarni ag'darishga, o'z ta'sirini kuchaytirishga intiluvchilar doimo topilgan. Ta'sir doirasini kengaytirishga, diniy hokimiyatga intilish hech qachon silliq kechmagan. Ba'zilar o'zlarini dinga, din talablariga, aqidalariga o'ta sodiq, fidoiy qilib ko'rsatishga, raqiblarini pastga urishga, odamlarni ulardan yuz o'gitirishga harakat qilgan. Aqidaparastlikning tarixiy ildizlari turli davrlarda diniy hokimiyat va ta'sir uchun kurashga borib taqaladi.

Qisman aqidaparastlik jamiyatda yuz berayotgan keskin o'zgarishlarga, keskin islohotlarga, cho'zilib ketgan tabiiy ofatlarga, siyosiy beqarorlikka aks sado sifatida ham tarixan yuzaga kelishi mumkin. Mansur Halloj, Nasimiy, Mashrab sufiyona qarashlari uchun reaksion aqidaparastlar tomonidan qatl qilingan edi. Yaqin Sharq mamlakatlari misolida

keskin islohotlar ham, siyosiy beqarorlik ham aqidaparastlikni, diniy mutaasiblikni oziqlantirganni ko'ramiz.

Mutaasiblik asosida diniy hissiyotga o'ta berilish, o'zga diniy qarashlarga toqat qilolmaslik, faqat o'z qarashlarini birdan-bir to'g'ri deb hisoblash, boshqalarga bu qarashlarni majburan singdirishga urinish, ko'p hollarda esa diniy bilimlarning, imon erkinligining yetishmasligi yotadi. Aynan shunday urinishlar ekstremizmga olib keladi. Yuqorida qayd etilganlar aqidaparsatlikning gnoseologik va psixologik ildizlaridir. Mutaasiblikning o'zi bevosita ekstremizm va terrorizmning bir ko'rinishi emas, u ong hodisasidir. Ammo mutaasiblik, aqidaparastlik o'z navbatida ekstremizm va terrorizmning ijtimoiy-psixologik asosini tashkil etadi. Fanatizmdan ekstremizmga, ekstremizmdan terrorizmga bir qadam.

Ekstremizmning mutaasiblikdan tashqari ijtimoiy-siyosiy sabablari bor. Hokimiyat uchun kurashda siyosiy partiyalar, guruhlar g'irrom usullarni qo'llaydi. Chunki to'g'ri, halol yo'l bilan o'z nomzodlarini deputatlikka o'tkazish qiyin. Raqib partiyalar nomzodlari orasida elga mashhur, ba'mani kishilar bor, saylov dasturlari yaxshiroq, ilg'orroq. Bunday vaziyatda ba'zi bir siyosiy guruhlar saylovchilarning mahalliychilik, millatchilik kayfiyatidan, diniy tuyg'ularidan foydalanishga urinadilar. Ular raqiblarini g'arb qadriyatlariga yon bosishda, ajdodlarning an'analarini, Qur'on g'oyalarini buzishda, haqiqiy din talablariga rioya etmaslikda ayblash orqali saylovchilarni o'zlari tomon ag'darishga urinadilar. Buning uchun islom ahkomlarini, Qur'onni o'zlariga mos ravishda tafsir qildilar. Mustaqillikka erishilganidan keyin 30-40 yil ichida Sharq mamlakatlarining ko'pchiligida islom siyosiy kurash omiliga aylandi. Neokolonializm xavfi, sobiq metropoliyalarning xalqaro munosabatlarda ikki xil standartlarni qo'llashi, geosiyosiy manfaatlar yo'lida hech narsadan toymasligi ham diniy ekstremizmni oziqlantiruvchi siyosiy omillardir.

Aslida ekstremizm va terrorizmning haqiqiy dinga aloqasi yo'q. Barcha dinlar insonparvarlikni, ezgulikni, adolatni yoqlaydi. Ekstremizm va terrorizm dinni o'ziga niqob qilib olib, diniy savodi past bo'lgan yoki hayotiy tajribasi kam, diniy qarashlari zaif va beqaror kishilarni chalg'itadi. Diniy mutaasiblik, ekstremizm, terrorizm ma'naviyatni ich-ichidan yemiradi. Insonni zombiga – manqurtga aylantiradi, madaniyat yodgorliklarini, muzeylarni, boshqa dinga, o'z dinining hatto boshqa mazhabiga oid bebaho qo'lyozma asarlarini yo'q qiladi. Buni afg'on toliblari va islom davlati (ISHID) jangarilari tomonidan ba'zi yodgorliklar vahshiyona yo'q qilingani tasdiqlaydi.

Avvalgi asrlarda yolg'iz shaxslardan, yoki kichik guruhlardan iborat diniy ekstremistlar va terrorchilar bo'lsa-da, u keng miqyosda, ayniqsa xalqaro miqyosda uyushmagan, siyosiy harakatga aylanmagan edi. XX asrda, afsuski, diniy ekstremizm va terrorizm xalqaro maydonga chiqdi. Bugun barcha dinlar niqobida harakat qilayotgan turli xildagi ekstremistlarni, terroristlarni uchratish mumkin. Lekin islom dini niqobidagi ekstremistik va terroristik guruhlar soni boshqa dinlar niqobida harakat qilayotgan guruhlar sonidan sezilarli darajada ko'p. Yaqin Sharqdagi ayrim islom mamlakatlaridagi chigal vaziyat, xunrezliklar, ichki terrorizm nafaqat hokimiyat uchun nomaqbul usullarda kurashishning, shuningdek har xil diniy oqimlar, sunniylar va shiaviylarga mansub guruhlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklarning ham oqibatidir.

O'zbekiston dunyoviy taraqqiyot yo'lidan bormoqda. U demokratiyani, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlab, ochiq fuqarolik jamiyatini qurmoqda. Milliy g'oyamizning asosiy tamoyillari orasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik alohida ajralib turgani bejiz emas. Konstitutsiyamizda vijdon erkinligi mutahkamlab qo'yilgan, davlatimizning bu borada tegishli qonuni mavjud. Vijdon erkinligi, birinchidan, hech bir kishi diniy e'tiqodga ko'ra ta'qib qilinishi, yoki huquqlari cheklanishi mumkin emasligini, ikkinchidan, uning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi borligini tan oladi. U dindorlarni ateistlar yoki boshqa dinga mansub kishilar tajovuzidan, kamsitishidan himoya qilish, diniy-e'tiqodiy huquqlarini ta'minlash qatorida dinga ishonmaydiganlar huquqini diniy mutaassiblikdan, ekstremizm tajovuzidan, haqoratidan, bosimidan himoya qilishni bildiradi. E'tiqod va vijdon erkinligi qonuni, boshqa qonunlardek, barchaga barobar, uning oldida barcha teng. Lekin tashqi yot ta'sir ostida hamda ayrim ichki kuchlarning hokimiyatga noqonuniy yo'l bilan intilishi oqibatida mamlakatimizga diniy-ekstremistik, aqidaparastlik, xalifatni tiklash niqobida ayirmachilik (separatistik) g'oyalarini olib kirishga urinishlar bor. Natijada "sof islom", "islom xalifati" g'oyalari niqobida aslida diniy ekstremizm va ayirmachilik (separatizm) g'oyalarini odamlar ongiga kiritishga muxoliflarimiz harakat qilmoqdalar. Biz ularga qarshi kurash olib bormog'imiz, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirmog'imiz, asl islomiy qadriyatlarni aholiga to'g'ri tushuntirmog'imiz lozim.

Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda puxta o'ylangan tizimli siyosat olib borilmoqda. Toshkentda islom universiteti, aksariyat viloyatlarda o'rta maxsus bilim beradigan diniy madrasalar ochildi. Buxorodagi Mir-Arab madrasasi va Toshkent islom instituti bilan birga mustaqillik yillari yangidan tashkil qilingan diniy o'quv yurtlari islomni xalqqa to'g'ri tushuntirishda, fuqarolarning diniy ehtiyojlarini to'laroq qondirishda, e'tiqod erkinligini yuzaga chiqarishda katta rol o'ynamoqda. Mustaqillik yillari o'zbek tilida Qur'oni karim tafsir etildi, al-Buxoriy va at-Termiziy sahih hadis to'plamlari, o'nlab diniy allomalarimizning asarlari ona tilimizga o'girilib, chop etildi. Diniy tashkilot, ayrim yirik diniy fondlar (masalan, imom Buxoriy fondi) o'z nashrlariga ega bo'ldilar. Bular diniy merosimizga va muqaddas islom dinimizga xalqning to'g'ri munosabatini tarbiyalashda, ekstremistik talqinlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, jamiyatimizning ma'naviy yuksalishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

10-MAVZU: MA'NAVIYAT VA AXLOQ

Reja:

1. Axloq tushunchasi. Axloq - ma'naviyatning birlamchi negizlaridan ekanligi. Ma'naviyatning axloqdan boshlanib, axloqda mujassamlashishi.
2. Axloqiy tushunchalar va kategoriyalarning mazmun-mohiyati. Axloqning hayotning barcha sohalarida oilada, mahallada, mehnatda, ishlab chiqarishda, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo va hk. aloqalarda odamlarning o'zaro munosabati va qarashlarini tartibga solishi. Oddiy (elementar) axlokiy tushunchalar.
3. Axloqiy meyorlarning undovchi (rag'batlantiruvchi) va cheklovchi (taqiqllovchi) vazifalari. Vijdon axloq ilmi - etikaning eng ziddiyatli kategoriyalaridan biri sifatida. Vijdon to'g'risidagi qarashlar.

4. Jamiyat yuksalishi jarayonida turli axloqiy (etik) ta'limotlar va tizimlarning vujudga kelganligi.
5. Axloqning inson va jamiyat faoliyatining barcha ko'rinishlari va yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatishi.

Inson tabiati va shaxs mohiyati. Inson tabiati (mohiyati) haqida gap ketganda, qadimdan olimlar uni ongli aqlli, til va tafakkurga ega mavjudod sifatida baholaganlar. Dastlab olimlar aql, til va tafakkurni insonga xudo (xudolar) tomonidan berilgan ulug' ne'mat deb hisoblaganlar. Bunday qarashlar hozirgacha oddiy odamlar va ayrim olimlar o'rtasida ancha tarqalgan. Keyinchalik olimlar inson nafaqat biologik, shuningdek ijtimoiy mavjudod hamdir degan qarashlar vujudga kelgan. Aql, til va tafakkur jamiyatda shakllanadi, ular inson kabi ijtimoiy hodisalardir degan xulosaga kelishgan. Bugun ilm-fan inson bioijtimoiy tabiatga ega deydi. Inson tabiatining ijtimoiy xarakterini buyuk ajdodimiz Abu Nasr Farobiy ham o'z davrida chuqur tadqiq etgan.

Inson tabiati to'g'risidagi qarashlar mudom boyib, chuqurlashib keldi. U aqlli mavjudot bo'lishidan tashqari, yaratuvchi va ehtiyojlari mutassil o'sib boruvchi mavjudot ekanligi qayd qilindi. Ong (hissiyot va tafakkur), nutq, yaratuvchilik va ehtiyojlar o'sishi, bir tomondan insonni biologik mavjudotdan ijtimoiy mavjudotga aylantirdi. Ikkinchi tomondan, inson ijtimoiylashuvi jarayonida ular yanada rivojlandi. Insonning ijtimoiylashuvi ma'naviylashish, ma'naviylashuvini ijtimoiylashish deb baholasak, xato qilmaymiz. Bu ikki jarayon aslida o'zaro dialektik birlikni tashkil etadi. Har ikki jarayonning birlamchi asoslaridan birini, o'zagini axloq tashkil etadi.

Sharq ma'naviyati (nafaqat islom mamlakatlari, shuningdek Xitoy, Hindiston, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Koreya va Yaponiya ham) yadrosi, mag'zi axloqdan iboratdir. Avvalgi mavzularda axloq ma'naviyatining birlamchi negizlaridan birini tashkil etishi aytilgan edi. Shu sababdan ko'plab faylasuflar axloqni, axloqshunoslikni o'z ta'limotlarining asosiga qo'ygan. I. Kant o'z ta'limotining asosiga etika fanini – axloqshunoslikni qo'ygan. Sokrat (Suqrot) falsafasi axloq masalasiga asoslangan. Aristotel (Arastu) falsafasi uch qismdan iborat. Birinchisi – nazariy falsofiya, ikkinchisi – amaliy falsofiya, uchinchi – poyyetik (ijodiy) falsofiya. Amaliy falsafaga u etika va politika (jamiyatshunoslik) ilmlarini kiritgan. Etikaga oid uchta asar yozgan. Propedevtika, Yevdem etikasi, Nikomax etikasi. Aristotel fikricha, etika xulq-atvorning “to'g'ri meyorlarini” o'rganadi. Xulq-atvor esa ijtimoiy shart-sharoitlar, vaziyatlardan, xususiyatlardan kelib chiqadi. Nazariy fanlar g'oyalariga o'xshab, u ilmiy tafakkurning umumlashtiruvchi xulosalaridan emas, balki ijtimoiy amaliyotdan kelib chiqadi.

Ba'zi olimlar axloqni, hatto ijtimoiy voqelikni (jamiyatni) yaratuvchi kuch qatoriga kiritadi. XX asrning mashhur mutaffakirlaridan biri Albert Shveytser shunday degan: “Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi – ma'naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi ko'pmi ikkinchi darajali”. A. Shveytser ma'naviyat tushunchasini diniylik, diniy e'tiqod va diniy madaniyat mazmunida qo'llagan. Uning fikricha, insonning Xaqqga e'tiqodi, Xaqqga intilishi – ma'naviyat. Bu yo'lda o'zini o'zi tartibga solib, irodasini, fikri-xayolini ma'lum maqsadga erishishga qaratishi – axloq. Ijtimoiy voqelikni, ya'ni jamiyatni va insonni ma'naviyat va axloq yaratdi. Shveytser ma'naviyatdan (diniylikdan) bunyodkorlikka eltuvchi “jonli axloq”ni ustun qo'yadi. Jonli axloqni Shveytser oqilona yaratuvchilik, samarali faollik, aniq real maqsadga intilish, deb hisoblaydi. “Jonli axloq yo'liga” faqat ratsional tafakkur, ratsional bilimlar orqali chiqish mumkin. U g'arb ratsionalizmi, ma'naviyati va axloqi inqirozidan chiqishga irratsionalizm va mistikaga berilib, ratsionalizmdan voz kechish evaziga emas, balki ratsionalizmning sifat jihatidan yangi, teranroq shakliga o'tish orqali erishish mumkin deydi. Eng oliy qadriyat – hayotga oshuftalik

va shukronalik hissini tuymoqdir, deb hisoblaydi mutafakkir. Odob – axloq qoidalarini, meyorlari, tushunchalarini egallash shaxs dunyoqarashini kengaytiradi, ma'naviyatini boyitadi, unda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Insonning amaliy xulqida, faoliyati bu fazilatlar namoyon bo'ladi. Axloqiy fazilatlar shaxs ma'naviyatining mavjudlik va zuhur (namoyon) bo'lish shaklidir.

Axloqiy meyorlar jamiyatning umumiy talablariga, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga moslashadi. Axloq o'z navbatida ularga kuchli aks ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy hayotning hech bir sohasi ilm ham, fan ham, adabiyot ham, siyosat ham – axloqqa ochiqcha zid, u bilan hisoblashmasdan rivojlana olmaydi. G'arazli maqsadlarni ko'zlaganda, axloqni ochiqcha inkor qilish orqali emas, balki uning ba'zi meyorlarini noto'g'ri talqin qilib, soxtalashtirib, o'ziga yo'l ochadi. Behayolikni fahshni ko'rsatuvchi filmlar birdaniga paydo bo'lgani yo'q. Jamoatchilik fikri zimdan asta-sekin bunga tayyorlab borilgan. Dastlab muhabbat go'zalligi, tabiiylik va realizm behayolik emasligi, badiiy adabiyotlarda muhabbat sahnalari, tasviriy san'atda, haykaltaroshlikda insonning yalong'och badani ko'rsatilishi, faqat o'zi axloqsiz odamgina bunday asarlarda buzuvchilikni ko'rishi, ma'rifatli, madaniyatli kishilar bunda go'zallikni tuyushi kabi g'oyalar, qarashlar, targ'ib etildi. Bular to'g'ri g'oya edi. Ammo "shahvoniy inqilob" uchun, seksindustriya paydo bo'lishi uchun yetarli emas edi. G'arb kishisi ongiga inson erkinligi, insonning erkin tanlash huquqi, axborot olish huquqi va boshqa ko'plab tushunchalar yordamida shahvoniyatni ko'rsatish axloqqa zid emas, aksincha, hayot haqiqatini ko'rsatishdir, ikkiyuzlamachilik qilmasdan, tabiiylikni ko'rsatishdir; ya'ni axloqiydir degan fikr singdirilib borildi.

Axloq bilan nafaqat alohida kishilar, shuningdek adabiyot va san'at, ilm-fan, din, huquq va boshqa barcha ijtimoiy institutlar hisoblashishga majbur. Ularning har birida axloqqa taalluqli yangi muammolar paydo bo'lib turadi, ko'pchilik fundamental axloqiy muammolar ularda doimiy ravishda mavjud.

Jamiyat yuksalishi jarayonida turli axloqiy (etik) ta'limotlar va tizimlar vujudga keldi. Ular muayyan tabiiy-tarixiy sharoitda yashovchi xalqlarning asrlar davomida to'plangan turmush tajribasi, maqsad va intilishlari, dunyoqarashi va e'tiqodi ta'sirida shakllangan. Shu sababdan turli xalqlarning axloqiy qarashlarida, ularning allomalari yaratgan ta'limotlarida umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda o'ziga xos urf-odatlar, talablar, turmush tarzi qoidalari, diniy-etiqodiy qarashlar, o'sha mamlakat va mintaqa shart-sharoitlari taqozo etadigan boshqa talablar o'z aksini topgan. Ular birgalikda odamlarni tabiat va jamiyatning o'zgaruvchan shart-sharoitlariga moslashtirishga, ahil yashashlariga, turmush qiyinchiliklarini individual va jamoaviy tarzda yengishga o'rgatadi. Shu sababdan Aristotel axloqni olamni bilish uchun emas, balki amaliy faoliyat uchun zarur deb hisoblagan. Axloq muayyan jamiyatdagi, mamlakatdagi shart-sharoitlardan kelib chiqqani uchun u yoppa umumiylikka da'vo qilolmaydi, deb hisoblagan. Aristotel fikrida jon bor. Axloq konkret-tarixiy hodisadir. Lekin Aristotel fikri kamchiliklardan xoli emas. Axloqda umuminsoniylik meyorlari milliy, etnik, mintaqaviy va sinfiy-tabaqaviy meyorlardan kam emas.

Axloq shart-sharoitlarni hisobga olib, odamlarni hayotga moslashtiradi, qiyinchiliklarini yengishga o'rgatadi, individualizm va jamoaviylik tuyg'ularni shakllantiradi. Sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida yashaydigan xalqlarda, xususan o'zbeklarda, jamoaviylik tuyg'usi, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilari, qishloqdoshlariga munosabati seryog'in, sun'iy sug'orish qo'llanilmaydigan yevropa xalqlarinikidan sezilarli farq qiladi. Chunki har yili ariq-zovurlarni tozalash, o'n-o'n besh chaqirimdan hayrov qazib kelish, tomorqalari va ekinzorlariga o'zaro kelishib, navbatma-navbat suv olish ularni yaqinroq birlashishga, bir birlaridan yordamini ayamaslikka sabab bo'lgan. Seryog'in iqlim sharoitida odamlarda bunday ehtiyoj yuzaga kelmagan. Har bir oila alohida, kuchi yetganicha dehqonchilik qilgan. Natijada ularda jamoaviylik tuyg'usiga nisbatan individuallik tuyg'usi

kuchliroq rivojlana boshlagan. Lekin bu ularda jamoaviylik tuygʻusi mutlaqo yoʻq degani emas.

Jamoaviyliksiz jamiyatning oʻzi boʻlmaydi. Bu tushunchalarning oʻzagi bitta. Axloq tabiiy shart-sharoitlardan tashqari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlarni, talablarni hisobga oladi, oʻz meyorlarini ulardan kelib chiqib belgilaydi. Zarur boʻlsa, urf-odatlariga oʻzgartirish kiritadi yoki ularning mahalliy variantlarini yaratadi. Masalan, mehmondoʻstlik koʻp xalqlar qatorida oʻzbeklarning yuksak maʼnaviy meyorlaridan biridir. Lekin Oʻzbekistonning har bir viloyatida mehmondoʻstlik oʻz xususiyatlariga ega. Shaharliklarning mehmondoʻstligi qishloq aholisidan, margʻilonliklarniki qoʻqonliklarnikidan, qarshiliklarniki samarqandliklarnikidan biroz boʻlsa-da, farq qiladi. Yevropa xalqlarida erkak va ayollarning birgalikda koʻngilxushlik uchun meyorida spirtli ichimlik isteʼmol qilishi axloqsizlik hisoblanmaydi. Islom mamlakatlarida esa birga oʻtirib ovqatlanishi-yoq axloqsizlik, behayolik hisoblanadi. Har qanday spirtli ichimliklar esa haromdir.

Xulosa qilish mumkinki, axloq asosida eng avvalo obyektiv zarurat tugʻdirgan tuygʻular, tushunchalar, baholar, meyorlar, qoidalar, qarashlar va taʼlimotlar yotadi. Ayni paytda ularga odamlarning diniy eʼtiqodlari, falsafiy, estetik, huquqiy, siyosiy qarashlari, madaniy saviyasi katta taʼsir koʻrsatadi.

Birlamchi axloqiy tuygʻular, ularni ifodalovchi tushuncha va meyorlar umuminsoniy mazmunga ega. Ular turli xalqlarda ifoda shakliga yoki amalga oshirilish usuliga qarab biroz farq qilsa-da, mohiyat-mazmuniga koʻra oʻzaro yaqinligi eʼtirof qilingan edi. Insoniy tuygʻular, nafaqat axloqiy, shuningdek estetik, diniy, siyosiy, huquqiy tuygʻular, kechinmalar, umuman insonning emotsional (his-hayojon) dunyosi, hissiy intilishlari, irodaning hissiyot bilan bogʻliq jihatlari inson ruhiyatini tashkil qiladi. Ruhiyatda irratsional, ong ostiga, ongsizlikka oid unsurlar ham bor. Ruhiyatning sobit, barqaror jihatlari koʻpincha koʻngil, deb ataladi. Koʻngil maʼnaviyatning birinchi, quyi darajasidir. Ruhiyatdagi biofizilogik mayllar maʼnaviyatga kirmaydi. Ammo ijtimoiy mayllar, irratsional mazmuniga qaramasdan, maʼnaviyat unsurlaridir.

Birlamchi elementar tushunchalardan tashqari axloqiy munosabatlarni, baho va meyorlarni ifodalovchi, odamlarni salbiy xatti-harakatlardan ogohlantiruvchi, ijobiy xatti-harakatlarga undovchi murakab koʻptarkibli tushunchalar bor. Ular – ezgulik va yovuzlik, vijdon va vijdonsizlik, baxt va baxtsizlik, insonparvarlik va aksilinsoniylik, sadoqat va xoinlik kabilardan tashkil topgan. Ularda milliy shart-sharoitlardan tashqari, turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, sinflar manfaatlari, mafkuralari, tarixiy oʻzgarishlar hamda siyosiy, geosiyosiy, kurraviy (global) muammolar taʼsiri ham aks etadi. Ammo ulardagi umuminsoniy mazmun oxir-oqibat mazkur tushunchalarni qadriyat darajasiga koʻtaradi. Tor sinfiy-tabaqaviy talqin hatto umummilliy darajada toʻliq qabul qilinmaydi. Xoinlikni hamma xalqlar qoralaydi. Ammo xoinlikni sinfiy-tabaqaviy darajada tushunish boshqa. Mazlum xalq manfaatlarini himoya qilgan oʻqimishli ziyolilar, advokatlar, baʼzi bir amaldorlar, hatto boy-badavlat korchalonlar boʻlgan. Ayrim zavod va fabrika xoʻjayinlari, ayniqsa otalaridan meros sifatida zavodni qabul qilgan oʻqimishli boyvachchalar oʻz ishchi-xodimlarining mehnat sharoitini yaxshilashga, oylik maoshini koʻtarishga uringan. Boshqa fabrikantlar bilan ziddiyatga borgan. Agar yoʻlidan qaytmasa, uni tabaqadoshlari xoin, qora avomga sotilgan degan haqoratlar bilan siylangan, koʻpchiligi oxir-oqibat kasodga uchragan. Ishchi-xizmatchilar esa, aksincha, ularni mard va halol, haqiqiy adolatparvar inson deya hurmat qilgan. Lekin vatanini, xalqini sotgan, harbiy sirni ochgan, dushman tarafga oʻtib, uning aygʻoqchisiga aylangan kishilarni xoin desa, hech kimda eʼtiroz uygʻonmaydi. Chunki Vatan manfaatlarini tor sinfiy-tabaqaviy va shaxsiy manfaatlardan bunday hollarda ustundir. Vatanparvarlik esa umuminsoniy qadriyat. Vatan xoinidan hatto yangi xoʻjayinlari ham hazar qiladi. Bunga tarixdan koʻplab misollar keltirish mumkin.

Axloqiy tushunchalar, meyorlar, g'oyalar rivojlanishi ularning insonparvarlik darajasi yuksalishida namoyon bo'ladi. O'rta asrlardagi, hatto bir asr avvalgi axloqiy meyorlar ancha o'zgarganini, odamlarga nisbatan talablar yumshaganini ko'rish qiyin emas. Masalan, o'sha davrda kambag'al avom kishiga, yoki xotin-qizlarga munosabat hozirgidan ancha salbiy tomoni bilan ajralib turgan. Ma'lumki, eng murakkab axloqiy tushunchalar umumiy universal meyorlarni, ideallarni, axloqiy qonuniyatlarni ifodalaydi va axloq kategoriyalari deb ataladi. Axloq kategoriyalariga ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, burch, vijdon, baxt kabi tushunchalar kiradi. Biz ularni avval ko'rib chiqqan edik.

Inson hayotida yashashdan maqsad nima, baxt nima, ularga erishish uchun har qanday vositani qo'llash mumkinmi, yoki yo'qmi, imon-e'tiqod masalalarida gunoh va savob nima, kabi ko'plab axloqiy savollarga, masalalarga duch keladi. Ularga o'z tasavvurlaridan, bilimi va fahm-farosatidan kelib chiqib javob beradi. Ko'p holarda o'z javobidan qoniqmaydi, bilimi, tajribasi yetishmayotganini his qiladi. Kitoblarga, boshqa biladigan odamlarga murojaat etadi. Insoniyat asrlar davomida to'plangan ma'naviy bilimlari va tajribasi axloqiy tushunchalar, g'oyalar, baholarda, ayniqsa kategoriyalarda mujassamlashgan.

Axloqning kelib chiqishi va rivojlanishini ba'zi olimlar, ayniqsa ilohiyot ilmi vakillari din bilan bog'laydilar. Shubhasiz, din axloqiy tushuncha va meyorlarning bir tizimga kelishida, takomillashib, rivojlanib borishida ulkan ahamiyat kasb etgan. Axloqiy va diniy qarashlar, boshqa qarashlar kabi, ibtidoiy odamning sinkretik ongida bir-biridan ajralmagan holda uzviy rivojlangan. Shu sababdan din axloqni yaratdi, degan fikr unchalik to'g'ri emas. Xuddi shunday axloq ham dinni yaratmaydi. Axloq va din ijtimoiy ongning azaldan yaqin, ammo nisbatan mustaqil shakllaridir. Lekin alohida ta'kidlash joizki, ibtidoiy sinkretizm parchalanib, din dunyoqarashning markaziy va yetakchi shakliga aylanib to industrial jamiyatda davlatdan ajratilganiga qadar kundalik turmush talablarini, axloqni, urf-odatlarini o'ziga moslashtirib kelgan, nazorat qilgan va xalqning ma'naviy va maishiy hayotida yetakchilik qilgan. Axloq tizimi diniy tus olgan. Islom mamlakatlarining ko'pchiligida bu hol haligacha davom etmoqda. Ba'zi mamlakatlarda (Xitoy) biz teskari manzarani ko'rishimiz mumkin. Axloqiy meyorlar va qoidalar tizimi mutlaqlashtirilishi oqibatida ular dogmatik mazmun kasb etgan va dinga aylangan. Konfutsiylik, daosizm, qaysidir ma'noda hattoki buddizm noilohiy dinlardir. Ularning monoteistik dinlar kabi sig'inadigan yagona ilohi (xudosi) yoki politeistik dinlar kabi xudolar guruhi yo'q.

Ushbu misol din axloqni emas, axloq dinni yaratar ekan degan xulosaga asos bo'lolmaydi. Dinning muayyan shakli ilohiy yoki noilohiylikidan qat'i nazar ijtimoiy ongning zarur shakli sifatida bino bo'lgan. Bunda u turli "qurilish" materiallaridan, shu jumladan axloqdan foydalangan. Axloqning rivojlanishiga din qanchalik ulkan ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, dinning rivojlanishiga axloq ham shunchalik aks ta'sir ko'rsatgan, uni odamlarning, jamiyatning real ehtiyojlari bilan bog'langan. Axloqning ta'siri noilohiy dinlarga yanada kuchliroq bo'lgan deyish mumkin.

Islom dini vujudga kelib, rivojlanishi va dunyo miqyosidagi dinga aylanishi jarayonida o'zining murakkab tizimdan iborat ta'limotini va ijtimoiy amaliyotini, axloq tizimini yaratadi. Islom etikasi (axloqi) asosida mo'minlik (yolg'iz Ollohni tan olish va unga barcha narsalarda – amaliy turmushda, orzu-havas va niyatlarda – bo'ysunish) va tadviliya (adolatli bo'lish) tamoyili yotadi. Mo'minlik va tadviliyadan imonli bo'lish, ibodat qilish, axloqiy poklik, ma'rifatga, komillikka intilish, nafs va hirsni jilovlash va boshqa meyorlar kelib chiqadi. Mo'minlik va adolat mumtoz islom axloqining mustahkamligini, kuchini va salohiyatini belgiladi.

Ammo asta-sekin mo'minlik va tadviliyani, islomning boshqa arkoniy tushunchalari va g'oyalarini talqin qilish odamlarning real turmush ehtiyojlaridan, jamiyat rivojlanishi zaruratidan yiroqlasha boshladi. Oddiy avom tushunishi qiyin mavhum, diniy-falsafiy (kalom ilmida) va mistik (sufiyona) g'oyalar ko'paydi. Komillikka intilish odamlarning ijobiy amaliy

natija beradigan bilimlarini, mehnat ko'nikmalarini, bunyodkorlik tajribasini o'stirishga, rivojlantirishga emas, balki ularning ichki dunyosiga va axloqiy takomillashishiga, tor ma'nodagi mo'minlikka qaratildi. Tavdiliya esa o'z ijtimoiy holati bilan qanoat qilishga, hech narsani o'zgartirmaslikka aylanadi. Chunki Olloh shuni ma'qul topgan, zarur bo'lsa, Olloh irodasiga ko'ra mavjud holat o'zgaradi. Ijtimoiy tartib, tuzum – Ollohdan. Agar tuzum yomon, shoh zolim bo'lsa, demak, Olloh qilgan gunohlarimiz uchun bizni jazolamoqda. Shunday qilib tavadiliya ijtimoiy turg'unlikka qaratildi. Nafs va hirsni jilovlash oqibatda odamlarni kamsuqum bo'lishga, davlatdan, jamiyatdan hech narsa talab qilmaslikka o'rgatdi, har qanday norozilikning oldini olishga xizmat qildi.

Islom axloqida jahd, undan yasalgan jihod tushunchalari bor. Jahd arabchada biror ishga qattiq kirishmoqni (jon-jahdi bilan harakat qilmoq, degan iborani eslang) bildiradi. Islomda jihod o'z ongidagi qoloqlikka, dastlabki davrda ongdagi mushriklik (ko'pxudochilik) illatlariga qarshi kurashishni ifodalagan. Ikkinchidan, shayton qitiqlaydigan nafs va hirs, manmanlik va kibru havoga qarshi kurashishni, uchinchidan, o'z vatani va bola-chaqasini, oilasini dushman tajovuzidan himoya qilishni anglatgan. Bugun islom niqobi ostidagi xalqaro terrorizm o'zining g'ayriinsoniy harakatini jihod, terroristlarni esa mujohidlar (jihodchilar) deb atamoqda. Bunday talqin haqiqiy islomga, uning tenglik, adolat va insonparvarlik meyorlariga mutlaqo mos kelmaydi.

Axloq jamiyat hayotida juda katta o'rin tutadi. Bu masalani batafsil yoritish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning boshqa shakllaridagi axloq ahamiyatini tahlil etish lozim. Biz faqat ularning ayrimlari misolida masalani ko'rib chiqamiz. Axloq huquq bilan ijtimoiy vazifalarga ko'ra juda yaqin. Huquq ham o'z meyorlari orqali odamlarning munosabatlarini, ijtimoiy aloqalarini tartibga soladi. Ayrim xatti-harakatlarni, aloqalarni cheklaydi, taqiqlaydi. Ayrim xatti-harakatlarga undaydi, majbur etadi. Ushbu jihatdan u axloqdan, umumiy vazifasiga ko'ra, farq qilmaydi. Lekin axloq doimo ijtimoiy fikrga, odamlarning u yoki bu narsani baholashiga, ma'naviy qo'llab-quvvatlashiga yoki qoralishiga tayanadi. Huquq esa qonun shaklida ifodalangan hamma uchun umumiy va majburiy hisoblagan meyorlarga, ularni amalga oshirishni ta'minlaydigan davlat hokimiyati kuchiga tayanadi. Axloq va huquq bir-birini boyitadi va to'ldiradi. Huquq meyorlari axloqiy bo'lishi, ezgulikka va insonparvarlikka zid kelmasligi kerak. Qonun talablariga ixtiyoriy va qat'iy amal qilish esa axloqiy meyorga aylanishi kerak. Axloq inson va jamiyat faoliyatining barcha ko'rinishlari va yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadi. Ular axloqiylik tamoyiliga mos bo'lishlari lozim. Masalan, nafaqat huquq, balki davlat siyosati ham axloqiylik kasb etishi kerak.

Davlat siyosatida insonga g'amxo'rlik, inson huquqlari, umuman insonparvarlik asosiy maqsadga aylanmog'i shart. Eng yaxshi, taraqqiyotga eltadigan dasturlar, ularni amalga oshirish usullari insonga, uning salomatligiga yoki erkinligiga, huquqlariga ziyon yetkazsa, yoki iqtisodiy ekspluatatsiyani kuchaytirs, ulardan voz kechish kerak. O'tmishda ushbu masalada turlicha qarashlar bo'lgan. Ko'pchilik manfaati uchun ozchilik manfaatlari qurbon qilingan. Bunday holatlarni axloq nuqtai nazardan baholash hech qachon oson bo'lmagan. Ba'zan ularni oqlash mumkin, ko'pincha esa mutlaqo oqlab bo'lmaydi. Masalan, urushda dushmanni chalg'itish maqsadida, kamsonli askarlar bilan qaysidir joyda hujumga o'tilib, asosiy kuchlar bilan boshqa joyda zarba berilgan. Dushmanni chalg'itib, jang boshlagan guruh katta talofatlar ko'rgan, hatto to'liq halok bo'lgan. Lashkarboshi g'alaba qozonish uchun ongli ravishda askarlarning bir qismini o'limga yuborgan. Agar bu urush xalqni, Vatanni bosqinchilardan, qattol dushmandan himoya qilish maqsadida olib borilayotgan adolatli urush bo'lsa, lashkarboshi qarorini axloqiy deyish mumkin. Agar adolatsiz, bosqinchilik urushi bo'lsa, uni axloqiy jihatdan oqlashning iloji yo'q.

Tarixda insonparvarlikka, ezgulikka zid qaror qabul qilishlarga misollar juda ko'p. Odamlarni qo'rquvda va itoatda saqlab, mamlakatni zo'ravonlik yordamida boshqarish

maqsadida yovuz hukumdorlar va qattol tuzumlar axloqiylikka zid siyosat yuritganlar. Ular o'z siyosatini ko'pchilik manfaatlari, intizom va tartib, xalq, millat tinch-osoyishtaligi va ravnaqi bilan oqlashga harakat qilganlar. Mustabid hukmdorlar jamiyatda o'zlariga ma'qul o'zgarishlar qilish uchun hatto ayrim tabaqalarni, qator xalqlarni va boshqacha fikrlaydigan kishilarni huquqiy jihatdan cheklagan, qatag'on qilgan. Gitler davrida Germaniyada yahudiylar va lo'lilar jismoniy o'limga mahkum etildi. Noariy xalqlar huquqlari cheklandi.

Sobiq SSSRda sotsializm qurish tajribasi ham ko'plab misollar beradi. Burjuaziya va quloqlar (o'ziga to'q, ishchan, xo'jaligi butun dehqonlar) sinf sifatida yo'q qilindi. Millionlab odamlar lagerlarga, tikanli simlar ortiga qamoqqa jo'natildi va quldek ishlatildi. Ularning ko'pchiligi lagerlarda o'lib ketdi. SSSRda insonga nisbatan munosabat axloqiylikka emas, sinfiylik va partiyaviylikka tayanar edi. Shu bois u o'rta asrlardagi despotik davlatlar siyosatidan qattolroq edi.

Insonga munosabat Yevropa Uyg'onish va Ma'rifatparvarlik davrlarida o'zgara boshladi. Dastlab gumanizm (insonparvarlik)g'oyasi falsafiy va ilg'or ijtimoiy siyosiy ta'limotlarning markaziga qo'yildi. Insonning tabiiy huquqi, qonun oldida hamma teng bo'lishi, tabaqaviy imtiyozlar bekor qilinishi lozimligi to'g'risida fikrlar o'rtaga tashlandi. Agar italyan siyosatshunosi va jamoat arbobi N. Makiavelli (1469-1529) siyosiy maqsadga erishish uchun har qanday usul qo'llanishi mumkinligini, maqsad vositani oqlashi haqidagi g'oyani oqlagan bo'lsa, keyinchalik ilg'or mutafakkirlar bu g'oya axloqiylikka zid deya, uni tanqid qildilar. Buyuk nemis faylasufi I.Kant (1724-1804 yillar) "inson vosita emas, maqsaddir" degan tamoyilni olg'a surdi. I.Kantning ushbu axloqiy g'oyasi davlat siyosati va fuqarolik jamiyati tashkilotlari faoliyatining bosh tamoyiliga aylanmog'i lozim. Shunda siyosat va ijtimoiy faoliyat axloqiylik kasb etadi, ezgulikka mos keladi.

Nafaqat siyosat, shuningdek iroda ham axloqqa muvofiq bo'lsa, ijobiy natijalarga olib keladi. Iroda erkin tanlashning yuzaga chiqishi o'laroq aslida axloq hodisasidir. Inson har qanday qaror qabul qilishdan avval uning oqibatlari, odamlarga va jamoaga (jamiyatga) foyda keltirmaganda ham ziyon yetkazmasligi to'g'risida o'ylashi kerak. Erkin tanlash – axloqiy tanlashdir. Askarlarini o'limga jo'natayotgan qo'mondan, ommaviy qirg'in qurolini yaratayotgan olim, yaqin kishisi sodir qilgan jinoyatni fosh etish yoki yashirish muammosiga duch kelgan kishining qabul qiladigan qarorlari birinchi galda axloqiylik jihatdan baholanadi.

Axloqiy tanlash jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson faoliyati turlari kabi xilma-xillashib, murakkablashib boradi. Bu ayniqsa fan va ilmiy bilish muammolariga taaluqli. Bular haqida gapirishdan avval, inson duch keladigan dilemmalar masalasini eslash o'rinlidir. Dilemma ikki qarama-qarshi, bir-birini to'liq istisno qiladigan narsadan bittasini tanlash muammosidir. Masalan, oylik maoshi bola-chaqasini boqishga, ro'zg'orini tebratishga yetmayotgan kichik amaldor pora olishi, hojatmand kishilarga ko'rsatgan xizmati uchun sovg'a –salom olishi axloqqa mos keladimi? Yoki burch va ko'ngil (muhabbat) dilemmasi. Bola-chaqa, oila oldidagi burchga sodiq qolish kerakmi, yoki boshqani sevib qolgan ko'ngilga quloq tutib, oiladan, bola-chaqadan voz kechish kerakmi? Dushman qo'liga tushgan asir burchiga sodiq qolib, o'limni tanlashi, yoki xoinlik qilib jonini qutqarishi mumkinmi? Instinktga qay darajada yon bossa bo'ladi. Bunday dilemmalarga duch kelgan odam, o'zining ma'naviyati, axloqiy salohiyatidan kelib chiqib qaror qabul qiladi.

Fan va axloq masalasi ham murakkablashib bormoqda. Ilmiy bilish, fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash chegarasi to'g'risida bahslar yildan yil kuchaymoqda. Ommaviy qirg'in qurollari – termoyadro, kimyoviy, biologik qurollar to'g'risidagi bahslar oxirgi 70-100 yildan buyon davom etmoqda. Ular qatoriga bugun irsiy modifikatsiyalangan mahsulotlar, hayvonlarni va odamlarni klonlashtirish muammolarini hayot kun tartibiga qo'ydi. Jamoatchilikning fikri bu borada qarama-qarshi. Ayrim kishilar biotexnologiyalar va klonlashtirishga ijobiy qarasalar, boshqalar salbiy qaraydilar. Ko'pchilik ikkilanadi. Chunki biotexnologiyalar va klonlashtirish qanday irsiy va axloqiy oqibatlarga olib kelishini oldindan

aytish qiyin. Bunday texnologiyalar o'ylanmasdan qo'llanilsa, umuman fan va texnika taraqqiyoti axloq bilan bog'lanmasa, nazorat qilinmasa, insoniyatni, uni o'rab turgan, u yashayotgan butun tabiatni halokatga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Boshqa tomondan, bular ilmiy taraqqiyotni cheklash uchun sabab bo'lolmaydi. Tabiat sirlarini bilishga intilish, yangidan-yangi bilimlarni egallash insonning hayvondan ajratib turadigan yana bitta mohiyatli xususiyatidir. Busiz yuksalish, taraqqiyot yuz bermaydi. Inson yangi ilmiy-texnikaviy, texnologik yutuqlarga intilmasa, jamiyat turg'unlikka yuz tutadi, oxir oqibatda halokatga uchraydi. Tez ko'payotgan insoniyat o'zini o'zi boqa olmay, panepidemiya va tabiat kataklizmlaridan o'zini himoya qilolmay qoladi. Xullas, axloqiy tanlash muammosi dolzarblashib bormoqda.

Axloqiy meyorlar va qadriyatlarning turli ijtimoiy guruhlar tomonidan bir xil tushunilmasligi, ularning bilimlarida, qiziqishlarida umummadaniy va axloqiy savyaisida, shuningdek har bir kishining individual xususiyatga egaligi, odamlar o'rtasida farq mavjudligi axloqshunoslik fanining ijtimoiy psixologiya, falsafiy antropologiya, ma'naviyat nazariyasi bilan hamkorlik qilishni taqozo etadi. Ijtimoiy psixologiya, bir tomondan turli sinflar, tabaqalar, qatlamlarning ma'naviy-axloqiy ongini, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga o'zgarishlarga munosabatini o'rganishda, ikkinchi tomondan – turli kasb egalari yoki bir kompaniyaga, mehnat jamoasiga mansub kishilarning korporativ qiziqishlarini, xulq-atvorini, ularning ijtimoiy instinklarini, voqelikka munosabatini, ulardagi dominant qadriyatlarni, o'rganishda ma'naviyat nazariyasiga va axloqshunoslikka yordam beradi. Ularni konkret psixologik tadqiqotlar natijalari bilan ta'minlaydi, ijtimoiy ongdagi o'zgarish tendensiyalarini aniqlashda yordam beradi. Ijtimoiy psixologiya, bundan tashqari turli jinsdagi kishilarning, qarindoshlar yoki noformal guruhlarining, doimo o'zaro suhbat qurib, o'zgarib turadigan keksalar guruhi, yoki biror futbol komandasi ishqibozlarining axloqiy xatti-harakatlari, baholari, ularning xulqiga va kayfiyatiga turli omillarning ta'sirini ham ijtimoiy psixologiya yordamisiz chuqur anglab olish qiyin. Ijtimoiy instinklar va jamoaviy ongsizlik, jamoaviy va milliy iroda tabiatini ijtimoiy psixologiya o'z yo'nalishida ochib beradi. Bu falsofiya va falsafiy antropologiya, ma'naviyat nazariyasi va axloqshunoslik fanlari uchun juda muhim.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, "axborot portlashi" ta'sirida inson ongi o'zgarmoqda. AKT tufayli insonning real olami torayib, virtual olami kengayib borayotir. Ayrim kishilar jonli muloqot o'rniga ko'proq virtual muloqot bilan shug'illanayotir. Ular tobora kompyuter bandisiga aylanib qolayotir. Odamlar ko'p hollarda ommaviy madaniyatning milliylik, individuallik va ma'naviylikdan ancha yiroqlashgan mahsulotlarni iste'mol qilishga majbur. An'anaviy qadriyatlar deformatsiyaga uchrab, soxta qadriyatlar ko'paymoqda. Bular inson tabiatiga, insonning ijtimoiy va ma'naviy mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, fan oldida, ta'lim-tarbiya oldida yangi muammolarni tug'dirmoqda. Shu sababdan falsafa, falsafiy antropologiya, ma'naviyat nazariyasi, ijtimoiy psixologiya, axloqshunoslik va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarning o'zaro aloqalari mustahkamlanishi, masalani kompleks o'rganish uchun ilmiy kuchlarni birlashtirish talab etiladi.

Hozirgi davr globallashuv va axborot texnologiyalari davridir. Turli-tuman ijobiy va salbiy mazmundagi axborot milliy chegaralardan osongina o'tib, dunyo miqyosida tarqalmoqda. Ommaviy madaniyat to'g'risida ham shunday deyish lozim. Bular odamlarning, millat va elatlarning an'anaviy qarashlarini, milliy qadriyatlarni o'zgartirib yuborishi qatorida jiddiy axloqiy muammolarni tug'dirmoqda. Uyat, sharm-hayo, vijdon, mehr-oqibat, vatanparvarlik, ezgulik va boshqa axloqiy meyorlar vulgar antropotsentristik g'oyalarning, egotsentristik intilishlarning, ommaviy madaniyatning shubhali va soxta qadriyatlari bosimi ostida qoldi.

Bir tomondan, inson huquqlari, demokratiya va erkinlik masalalari butun dunyo miqyosida dolzarb masalalarga aylandi. Jahon jamoatchiligi biror mamlakatda inson huquqlari buzilsa, unga o'z munosabatini faol bildirib, ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo, ikkinchi tomondan, g'arb demokratiyani olg'a siljitish, inson huquqlarini himoya qilish maqsadida boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashishga, ularga g'arb turmush tarzi unsurlarini, ba'zi bir soxta qadriyatlarni majburan singdirishga, g'arb talablariga bo'ysunmagan mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar, hatto harbiy choralar ko'rishga intilish paydo bo'ldi.

Xalqaro huquq, BMT kabi xalqaro tashkilotlar mazkur masalalarni tartibga solishni ba'zan uddalay olmayotir. Chunki bunday masalalarning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy jihatlaridan tashqari xalqaro tashkilotlar hisobga olmayotgan axloqiy, milliy mentalitet bilan bog'liq tomoni bor.

G'arb mamlakatlarining o'zida inson huquqlarini ta'minlash ijtimoiy va ma'naviy hayotda keskin individualizm va vulgar antropotsentrizm tamoyillari o'rnatilishiga, jamoaviylik tuyg'ulari o'tmaslashuviga, mehr-oqibat sovushiga, odamlar o'rtasida begonalashuv kuchayishiga olib kelmoqda. Globallashuv sharoitida XX asrdagi kurraviy muammolar – yadro urushi xavfi, demografik portlash (aholi sonining rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin o'sib ketishi) va odamlarni boqish, tabiatni asrash muammolari qatoriga yana energetik muammolar, narkobiznes, noqonuniy qurol-yaroq savdosi, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm, odam savdosi kabi yangi muammolar qo'shildi. Eski muammolar esa yanada keskinlashdi. Masalan, ekologik muammolar oqibati to'g'risida ikki variant ehtimoli haqida gapirilmoqda. Iqlimning global isib ketishi, abadiy muzliklar erib, jahon okeani sathi ko'tarilishi natijasida ba'zi mamlakatlar (Gollandiyaga o'xshash) suv ostida qolish yoki hududining katta qismini yo'qotish xavfi, ikkinchi variantda, ba'zi mamlakatlar hududi qurg'oqchilik tufayli sahroga aylanishi va sh.k. ko'plab xavflar to'g'risida gapirilmoqda.

Shu sababdan atmosferani bulg'amaslik maqsadida energiyaning muqobil turlaridan foydalanish, ishlab chiqarishni va iste'molni cheklash zarurati mavjud. Ammo insonda iste'molchilik psixologiyasi shu qadar rivojlanib ketganki, u nafsini, hirsini tiyishning uddasidan chiqolmay qolgan. U tabiatni ashaddiy ekspluatatsiya qilishga, uning milliard yillar mobaynida hosil bo'lgan boyliklarini ishlatishga majbur. Foydalanayotgan konlar 20-25 yilda tugamoqda, iste'molni o'stirish uchun yangidan-yangi konlar ochilmoqda. Ular qismati ham o'tmishdoshlariniga o'xshash – 20-25 yilda tugaydi. Bugun dengizlar okeanlar tubidagi konlarni topish va qazib olish boshlandi. Agar insoniyat iste'molni cheklamasa, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ulushini yildan-yil oshirib bormasa, halokatli muammolarga duch kelishi tayin. Iste'molni kamaytirish uchun mavjud psixologiyani, turmush tarzini, qadriyatlar tizimining ko'plab meyorlari va baholarini o'zgartirish kerak.

Ko'rinib turibdiki, kelajakda insoniyatning yashab qolish masalasini yechish iqtisod, energetika, yangi texnologiyalar qatorida axloq masalalariga – iste'molni ongli kamaytirishga, odamlar psixologiyasini va tabiatga munosabatini tubdan o'zgartirishga bog'liq. Qayd etilgan muammolar yechimini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik sohalardan izlash bilan cheklanib qolmasdan, ma'naviy-axloqiy sohalardan ham izlash zarurligi global etikaga, xalqaro munosabatlar va jahon xalqlarining erkin muloqat va hamkorlik qilishiga, global axloqiy meyorlar va qoidalarga yangi ijtimoiy antropolik nazariyaga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishi jarayonida davlat va xo'jalik organlari qatorida regional va milliy jamoat, nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro aloqalari kengayib bormoqda. Turli darajadagi – davlat, ishlab chiqarish subyekti, ijodiy jamoalar, NNT va alohida fuqarolar aloqalarining xalqaro miqyosda intensivlashishi ularni tartibga soluvchi huquqiy

mevorlarni takomillashtirish, boyitish bilan birgalikda global etikani yaratishni kun tartibiga qo'yimoqda. Ma'naviyat va axloq munosabatlari murakkab va ko'pqirrali masaladir.

Xulosa tariqasida aytganda, axloq ma'naviyat tizimida markaziy o'rinni egallaydigan ijtimoiy institutdir, u inson tabiatini shakllantirgan, uni hayvonot dunyosidan ajralib chiqishiga sabab bo'lgan (ota-onalar va bolalar, aka-ukalar va opa-singillar, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi jinsiy aloqalarni taqiqlagan, oila, urug'-jamo'a a'zolari o'rtasidagi, keyin jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan va h.k.) va kelajak istiqbolini belgilagan va belgilaydigan birlamchi omildir. Bundan tashqari, axloq ma'naviyatning yakuniy, birlashtiruvchi umumiy qubbasidir.

11-MAVZU:MA'NAVIYAT VA ADABIYOT

Reja:

1. Adabiyot. Ma'naviyatning yaxlit tizim sifatida shakllanishida adabiyot omili. Mifologi. Adabiyot (bu yerda xalq og'zaki ijodi, folklor) mifologiyaning voqelashgan, yuzaga chiqqan shakli ekanligi.
2. Adabiyot - so'z san'ati. Uning so'z vositasida o'z badiiy obrazlarini yaratishi. Adabiyotning obrazlar yordamida voqelikni badiiy aniq aks ettirishi va qayta yaratishi.
3. Badiiy asar voqelikning aynan nusxasi emas, balki qayta yaratilgan modeli ekanligi. Adabiy asar, uning voqelikni aks ettirishiga ko'ra shakllari. Ijtimoiy ideallarni aks ettiruvchi asarlar.
4. Adabiyot turlari: epik tur, lirik tur va dramaturgi. Shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishda ijtimoiy ongning boshqa shakllariga nisbatan adabiyotning kuchliroq va kengroq imkoniyatga ega ekanligi.
5. Jamiyat ma'naviy hayoti, inson ongi, tafakkuri, ijodiy fantaziyasi, axloqiy va estetik qarashlari, umuman, ma'naviyati shakllanishida adabiyotning yetakchilik roli.

Adabiyot – so'z san'ati. U so'z vositasida o'z badiiy obrazlarini yaratadi. Badiiy obrazlar konkret-hissiy xarakterga ega. Ularni tasavvur etish, ko'z oldiga keltirish mumkin. Adabiy obrazlarni biz ikkiga bo'lamiz: Birinchisi – asar qahramonlari, personajlari, ba'zan bayonchisi obrazi. Ikkinchisi – badiiy uslublar, o'xshatishlar, sifatlashlar, mubolag'alar, istioralar va boshqa asar tiliga, detallarni, voqealarni yaratish mahoratiga taalluqli vositalar usullar. Ular obrazlar istilohi orqali umumlashtirilgan holda ataladi. Adabiyot obrazlar yordamida voqelikni badiiy aniq aks ettiradi va qayta yaratadi. Masalan, Oybekning "Navoiy", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanlarini o'qigan kishi asar qahramonlari yashagan davrni, odamlarini, odob-axloq va urf-odat qoidalarini, tafakkur tarzi va fe'l-atvorini, orzu-havaslari va intilishlarini, kuchli va zaif jihatlarini bilib oladi, aniq tasavvur etadi. Boshqa har qanday adabiy asar haqida ham shunday deyish mumkin. Albatta bu yerda gap yaxshi munosib asarlar haqida ketyapti, bo'sh, badiiylik talablariga javob bermaydigan asarlar haqida emas.

Badiiy asar voqelikning aynan nusxasi emas, balki qayta yaratilgan modelidir. Ammo u voqelikni fotografik va boshqa formal nusxalarga nisbatan har tomonlama chuqurroq, mujassam va kengroq, ta'sirchan va aniqroq aks ettirishi mumkin. Bu muallifning iste'dodiga, mahoratiga bog'liq. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan tarixiy romanlardagi personajlarning aksariyati (tarixiy shaxslardan tashqari) to'qima obrazlardir. Lekin o'quvchi ularni jonli real shaxslar kabi qabul qiladi. Ularning his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari, boshdan kechirgan voqealari, taqdiri, botirligi-yu qo'rqoqligi, soddaligi-yu takabburligi, mardligi-yu hiyonatkorligi, o'ziga xos individual qiliqlari,

gapirish usullari bor. Ular xuddi jonli, real kishilar kabi, birinchidan, birovga o'xshamaydi, takrorlanmas individlardir, yutuq va kamchiliklarga ega. Ikkinchidan, o'z zamonasining farzandi, zamonasiga xos o'ylaydi, fikrlaydi, faoliyat yuritadi, rejalar tuzadi va amalga oshiradi. Badiiy obrazda individuallik (takrorlanmaydigan xususiy belgilar, jihatlar) va tipiklik (zamonasi uchun umumiy belgilar, xususiyatlar) dialektik mushtaraklikni tashkil etadi.

Adabiy asar, voqelikni aks ettirishiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Biri hayotni, qanday bo'lsa, shundayligicha aks ettiradi (albatta, badiiy qonuniyatga muvofiq individuallashtirib va tipiklashtirib). Bu realistik va naturalistik asarlarga ko'proq xos. Ikkinchisi hayotni qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Hayotda aslida asarda tasvirlangan voqealar yuz bermagan, ammo shunday voqealar ma'lum holatda yuz berishi mumkin. Chunki tasvirlangan munosabalar hayot haqiqatiga zid emas. Bunday asarlar realizmda ham, romantizmda ham, ayniqsa keyingisida keng tarqalgan. Ushbu yondashuvda yana bir badiiy usul ajralib turadi. *Bu hayotni qanday bo'lishi lozimligidan kelib chiqib ko'rsatishdir.* Unda albatta, ijtimoiy ideal, jamiyatni, odamlar turmushini yaxshilashga bel bog'lagan, salbiy holatlar bilan kurashadigan ijobiy qahramon tasvirlanadi. Ijtimoiy ideallarni aks ettiruvchi asarlar sharq mumtoz adabiyotiga, xususan Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Jomiy va boshqa klassiklar ijodiga, Yevropa Uyg'onish va Ma'rifatparvarlik davrlari hamda romantiklari ijodiga xos. Servantes, SHekspir, Monteskye, Russo, Volter, Daniyel Dedfo, Gete, SHeller, Gyugo kabi adiblar ko'proq voqelikni, ijtimoiy munosabatlarni, badiiy tasvirlashda, qahramonlari obrazlarini yaratishda ilg'or ideallardan, jamiyat va inson qanday bo'lishi lozimligidan (yoki qanday bo'lmasligi lozimligidan) kelib chiqqanlar. Ular asarlarida, albatta, ijobiy qahramonlar obrazi yaratilgan. Tanqidiy realizm asarlarida ijobiy qahramon nisbiy bo'lib qoldi, asta-sekin kamayib, yo'qolib qoldi. Modernistik asarlarda ijobiy va salbiy qahramon o'rtasidagi chegara yuvilib ketdi. Bugun bolalar va o'smirlarga atalgan yarimromantik adabiyotda hamda sarguzasht va detektiv janrlariga mansub ko'ngilochar adabiyotda ijobiy qahramonni uchratish mumkin. Jiddiy, yuksak adabiyotda ijobiy va salbiy qahramonlar bo'lishi ham, umuman bo'lmasligi ham mumkin. Ko'pincha qahramonlar "bir o'ylovchi" emas, ancha murakkab, serqirra ziddiyatlarga boy shaxslardir.

Biz yuqorida adabiyotning epik turining hayotni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida gapirdik. Epik tur hayotni voqealar rivojlanishida insoniy munosabatlar tizimi orqali ko'rsatadi. Epik janrlarga – qahramonlik eposlari, dostonlar, romanlar, qissalar, hikoyalar, masallar, latifalar, ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, biror voqeani bayon qiladigan, tasvirlaydigan adabiyot janrlari kiradi. Epik turlardan tashqari adabiyotda lirik tur bor. Epik tur asosida voqeani tasvirlash, bayon qilish jarayonida qahramonning fe'l-atvori, xarakteri, ichki ruhoniyligi, dunyosi, intilishlari ko'rsatiladi. Lirik janrlarda tasvir emas, ifoda birinchi o'ringa chiqadi. Lirik qahramonning his-tuyg'ulari, unda zavq-shavqi, dardi, alamli iztiroblari, umuman ruhoniyligi, olamga munosabati ifodalanadi, ammo tasvirlanmaydi. She'rda voqealarga oid unsurlar birinchi darajali ahamiyatga ega emas. O'sha voqeaga lirik qahramonning munosabati, o'sha voqeaning uning qalbiga ta'siri, qanday aks sado bergani, zavq-shavq, o'ziga xos kayfiyat yoki alam, iztirob o'yg'otgani muhim. Lirik janrlarga g'azal, ruboiy, muxammas, qasida va klassik she'riyatimizdagi boshqa janrlar, zamonaviy she'rlar mansub. Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parpi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf she'rlari lirik janrga misol sifatida keltirish mumkin. Lirik janrlarda syujet, voqealar tizimi konfliktning tug'ilishi, rivojlanishi, avjga chiqishi (kulminatsion nuqta), yechimi bo'lmaydi. Lirik janrlar asosan she'riy poetik usulda (nasriy nazm kam uchraydi) yaratiladi. Lekin har qanday she'riy usul lirik janrga oid bo'lavermaydi. Masal doston ko'proq she'riy shaklda yozilsa-da, epik janrga taalluqlidir.

Adabiyotda uchinchi tur sifatida ba'zi olimlar dramaturgiyani alohida ajratadi. Ba'zilar dramaturgiyaning boshqa janrlardan farq qiluvchi xususiyatlarini tan olgan holda, uning epik turning alohida janri hisoblaydi. Dramaturgiya tragediya, komediya, drama janrlariga bo'linadi.

Drama janri tragediyalar va komediyalarga nisbatan ancha ko'p tarqalgani bois undan butun tur atamasining o'zagi olingan.

Adabiyot shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishda ijtimoiy ongining boshqa shakllariga nisbatan kuchliroq va kengroq imkoniyatga ega. Bu borada u bilan na falsafa, na din, na ilm-fan, na axloq, na huquq tenglasha oladi. Chunki adabiyot insonning his-tuyg'ulariga, tafakkuriga bilimlari va ishonchiga, e'tiqodiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot insonni ajdodlar tajribasi, ruhiyati, qarashlari, ma'naviyati va ibrati bilan bog'laydi. Insonning tarixiy xotirasi va ma'naviy dunyosi o'tmishda birinchi galda mifologiya, rivoyatlar, ertaklar, xalq dostonlari, marosim qo'shiqlari, xalq maqollari, hikmatlari, ya'ni adabiyot (bu yerda xalq og'zaki ijodi, folklor adabiyoti) orqali shakllangan. Xalqimizda o'tmishda milliy jipslik, vatanparvarlik, bosqinchilarga qarshi kurash, adolat, or-nomus, g'urur, mehr-muhabbat, sevgan yoriga sadoqat, vafo, xoinlikka, hiyonatga, qo'rquqlikka, nomardlikka, yolg'onga, man-manlikka, maqtanchoqlikka qarshi nafrat kabi tuyg'ular, tushunchalar shakllanishida "Go'ro'g'li" turkimiga kiruvchi dostonlar, "Rustamxon", "Alpomish" dostonlari, xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari juda muhim ahamiyat kasb etgan. Din, ijtimoiy ongining boshqa shakllari o'z g'oyalarini, meyorlarini, qadriyatlarini tarqatishda u yoki bu darajada adabiyot yordamidan foydalangan. Keyinchalik ham shunday bo'lib qolgan. Tasavvuf tariqatining asoschilari Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiylar, ruboiylar, pandnomalar yozganlar. Umuman tasavvuf ta'limotining xalq orasida tarqalishi va mustahkamlanishida adabiyot hal qiluvchi rol o'ynagan. Ahmad Yassaviydan tashqari Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Ollayor ijodi o'zbek xalqi orasida Yassaviyani, umuman tasavvufni targ'ib etdi. O'rta Sharq adabiyotining buyuk namoyondalari Farididdin Attor, Nizomiy, Sad'iy, Hofiz, Navoiy, Jomiy, Mashrab, Yunus Emro o'zlari alohida tariqatlarga asos solmagan bo'lsalarda, tasavvufni umuminsoniy ma'naviy boylik darajasiga ko'taradilar.

Adabiyotning shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishdagi roli to'g'risida yana bir misol keltiramiz. Alisher Navoiy ijodi o'zbek xalqining ma'naviy boyligi, faxri va g'ururidir. Ammo bundan bir asr muqaddam Navoiy ijodi va shaxsini xalqimiz qay darajada bilar edi? Uni asosan o'qimishli ziyolilar bilgan. Xalq orasida Navoiy haqida bir necha rivoyatlar bo'lgan, oddiy xalq ba'zan sayillar va to'ylarda hofizlarning Navoiy g'azallariga bastalagan ayrim ashulalarini eshitib qolgan (radio, televideniye, grammafoniya, patefon xali ixtiro qilinmagan). Qo'lda ko'chirilgan devonlar juda qimmat bo'lishidan tashqari, Navoiy asarlarining ko'pchiligini jamlay olmagan. Shu bois o'qimishli ziyolilarning ham aksariyati Navoiy ijodini yetarlicha bilmagan, oddiy avom kishilarni-ku qo'ya turaylik.

Navoiyning 500 yilligini nisholashga tayyorgarlik yillarida Oybek "Navoiy" romanini, Izzat Sulton va Uyg'un esa alohida dramatik asar yozdilar. Oybek romani xalqimiz ko'z o'ngida nafaqat Navoiyning jonli siymosini gavdalantirdi, shuningdek Navoiy yashagan tarixiy davr, odamlar, hayoti, fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari, davr dunyoqarashi, siyosati, urf-odatlarini, muhiti ma'naviyati haqida ham aniq tasavvur va bilimlar berdi. Navoiyni butun xalq tanidi, o'zining yaqin hamsuhbatiga, maslakdoshiga, o'qituvchi-ustoziga, najoti va idealiga aylantirdi. Bugun umumta'lim maktablarida, AL va KHK Navoiy ijodidan o'qitiladigan namunalar, uning biografiyasini o'rganish xalqimiz ma'naviyatini shakllantirishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Bu jarayon Oybek romanidan boshlangan edi.

Yuqorida keltirilgan misollar epik turga mansub janrlarning shaxs va jamiyat ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Tabiiyki, savol tug'iladi: voqealar, odamlar o'rtasidagi munosabatlar rivojini tasvirlamaydigan lirik janrlarchi? Lirik janrlar insonning eng nozik eng yashirin, eng qudratli qalb iztiroblari va parvozlari, nafrati va muhabbatini, fidoyiligi va qat'iyatini ifodalab, o'quvchi qalbini o'yg'otadi, larzaga soladi, zavq-shavqatga ko'madi, noziklashtiradi, uning dunyoqarashiga insoniylik mazmunini bag'ishlaydi.

Xalqimizning o'zligini anglashida, g'ururini shakllantirishda XX asrning 20-30 yillarida jadid shoirlarining ayniqsa, Cho'lpon va Usmon Nosir she'rlarining ahamiyati juda beqiyos bo'ldi.

“Kishan kiyma, bo'yin egam,

Ki sen ham hur tug'ulgansen”. –

“Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman...” – kabi Cho'lponning otashin satrlari xalqimiz o'zligini anglashda, istiqloлга talpinishida biror romandan kam ta'sir qilmagan. XX asr 60-yillar ikkinchi yarmi – 70,80-yillar davomida Cho'lpon va Usmon Nosir kabi xalqqa milliy o'zligini anglashda Abdulla Oripov ijodi asosiy adabiy omilga aylandi. Abdulla Oripovning “O'zbekiston qasidasi”, “Ruhim” dostoni, “Tilla bliqcha”, “O'zbekistonda kuz”, “Ona tilimga”, “Temir odam” she'rlaridan keyin uning tengdoshlari va yangi avlod shoirlarining vatanparvarlik ruhida she'rlari, xususan Erkin Vohidovning “O'zbekim” qasidasi paydo bo'ldi. Yangi avlod – Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon vatanparvarlik ruhida isyonkor she'rlar bita boshladi. A. Oripov ijodi vatanparvar shoirlarning yangi avlodi yetishib chiqishi uchun adabiy-g'oyaviy zamin bo'ldi. O'zbek xalqi milliy ongining o'sishi, milliy g'ururining kuchayishi, mustaqillik g'oyasining xalq ongida tobora chuqur o'rnamashida o'zbek she'riyatining hissasi juda salmoqlidir. Ilgari mavzulardan birida biz ilmiy bilish va badiiy bilish o'rtasida farq haqida gapirgan edik. O'shanda bir hodisani, voqeani o'rganadigan o'nta olim bir xil natijaga, o'xshash xulosalarga kelishi, ammo o'nta musavvirning, shoirning, bastakorning bir mavzuga bag'ishlangan asarlari o'n xil bo'lishini qayd etgan edik. Buning asosiy sababi sifatida adabiyot va san'at asarida ijodkorning, muallifning shaxsi, qarashlari, ideallari aks ettirishni ko'rsatgan edik. Ijodkor e'tiqodi, ma'naviyati eng avvalo olamni qanday his etishida, fahimlashida, idrokida aks etadi. Keyin u ko'rgan, eshitgan voqealarini, hodisalarini o'z falsafiy, axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy, tabiiy-ilmiy qarashlaridan kelib chiqib fikran tahlil qiladi va ularga baho beradi. Ko'rgan, guvoh bo'lgan, eshitgan voqea va hodisalar uning qalbida, ongu shuurida aks sado beradi, bu sado badiiy asarga aylanadi.

Asarning mavzusini, materiallarini tanlashda, uni yaratish jarayonida qayta-qayta ishlash, nimanidir qo'shish, nimanidir qisqartirish, obrazlar, so'zlar, o'xshatishlar, metoforalar ustida, so'zing ta'sirchanligi va o'quvchiga holatni, detalni aniq tasavvur ettira olishi ustida ishlashda-yoq ijodkorning g'oyaviy-badiiy pozitsiyasi, ma'naviyati aks etadi. Muallifning ongli ravishda muayyan g'oyani olg'a surishi, uning voqea va hodisalarini, o'z qahramonlari va personajlarini baholashi, uning ijtimoiy pozitsiyasini, e'tiqodini, qadriyatlar tizimini ko'rsatadi. Muallif istaydimi-yo'qmi asarida o'z ichki dunyosini, ma'naviyatini, insoniy qiyofasini bilvosita ifodalaydi. Ko'pincha asar muallif nomidan, u guvoh bo'lgan, kuzatib turgan voqealar, insoniy munosabatlar tizimi sifatida bayon etiladi. Ba'zan boshqa ishtirokchi tilidan yoki noma'lum shaxs nomidan bayon etiladi. Voqea, holat “bayonchisi” shaxsi va muallif shaxsi bir emas, albatta. Bayon kimning nomidan bo'lishi –bu badiiy priyom, xolos. Ammo asar g'oyalari va baholarida, shubhasiz, muallif qarashlari yashirin. Muallif insonparvar, xalqparvar, vatanparvar shaxs bo'lsa, asarda insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik motivlari ham kuchli bo'ladi. Muallif qarashlari ziddiyatli, uning ba'zi bir g'oyaviy-e'tiqodiy qadriyatlari qusurdan xoli bo'lmasa, asar bu borada ziddiyatli, qusurli bo'ladi. Asar muallifi zo'ravon siyosiy rejimga sadoqatli bo'lsa, u qanchalik iste'doli hisoblanmasin, insonparvarlikka to'liq javob beradigan asar yoza olmaydi. O'rta miyona iste'dodlar tuzum maddohiga aylanadi. Muallif zo'ravonlikka yoki iztirob chekishga shaxsan moyil bo'lsa asarda mazkur moyilliklar aks etadi. Bejiz analistik psixologiyaning (psixozanalizning) asoschilaridan biri Karl Yung ong osti hodisalarini, onsizlikni fandan avval adabiyot kashf etganini aytmagan. Haqiqatan, psixatriya va psixologiyada sadizm (birovlariga azob berish orqali rohatlanish), mazohizm (boshqa kishi unga beradigan azob-qiynoqlardan lazzat hissini tuyish) atamaları ushbu hodisalarini o'z asarlarida yozib qoldirgan mualliflar – markiz de'Sad va Zoxer Mazox nomidan olgan. Badiiy asarda obyektivlik va subyektivlik chambarchas, uzviy birlikni tashkil etishni qayd qilib, subyektivlikning bir sababi –

muallif ongi, shuurining, ma'naviyatining asarda aks etishidir, degan edik. Uni eslatish bilan ushbu savolni yakunlaymiz.

Adabiyot san'atning sintetik, ko'partibli turlari uchun badiiy asos vazifasini o'taydi. Teatr spektakli (televideniye va radiospektakllar), kinofilmlar, telefilmlar asosida, ommaviy bayram tomoshalari va tadbirlar asosida adabiy ssenariy yotadi. Teatr xususiyatlariga ko'ra, adabiy asar dramatik pyesa, ashula va raqslar bilan aralash pyesa, operav librettosi, xoreografik libretto (balet spektakllari uchun) bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda ba'zi romanlar, qissalar, hikoyalar sahnalashtiriladi. Bunda ularni sahna tiliga ko'chirish uchun maxsus ssenariylar yoziladi. Teatrqa nisbatan mazkur usulga ko'proq kinosan'ati murojaat etadi. Teatrning yirik adabiy asarlarni spektakllarga aylantirish imkoniyatlari kinosan'ati va telefilmlarga nisbatan ancha cheklangan. Kino va telefilmlar ko'pseriya bo'lishi mumkin. Ular vaqt, zamon, makon borasida, voqealarni tasvirlashda chegara bilmaydi.

Teatr opera, balet, kino, telefilm – mustaqil san'at turlaridir. Ularga badiiy adabiyotning faqat ko'rgazmali tomoshasi sifatida qarash yarashmaydi. Ularning asarlari alohida badiiy qimmatga ega. San'atning bu turlari adabiy asarning ko'zgudagi aksi emas. Hatto adabiy asar ekranlashtirilganda ham amalda u asarning aniq nusxasi bo'lmaydi. Balki asarning yangi san'at qonunlari, vositalari bo'yicha qayta yaratilgan variantidir. U aslida orginaldan ancha farq qilishi mumkin. Qayta sahnalashtirilgan, ekranlashtirilgan mumtoz asarlar ba'zan muallif matnidan, mumtoz an'anaviy talqinlaridan ancha uzoqlashib ketish xollari uchraydi. Pyesa, libretto, ssenariy ular uchun badiiy materialdir. Lekin uni qanday talqin qilish, qo'shimcha qanday badiiy g'oyalar bilan boyitish, mazmunini zamonaviylashtirish, bugungi kun odamlari qiziqishlari bilan bog'lash aktyorlar ijrosining qanday vositalaridan foydalanish, qay darajada badiiylikning, ijroning yuksak cho'qqilariga ko'tarish eng avvalo rejisserga, keyin aktyorlarga, rassomga, bezakchiga, kostyumerga va boshqa ijodiy xodimlar iste'dodiga bog'liq. Shu bois biz bir dramaning turli rejisserlar, teatrlar tomonidan sahnalashtirgan asarlarini qayta-qayta ko'raveramiz. Chunki har safar umumiy adabiy material asosida yaratilgan yangi teatr asariga duch kelamiz. Rejissor talqinidan, ijodiy mahoratidan tashqari tomoshabinni aktyorlar talqini, ijrosi qiziqtiradi. Hatto bir rejissor sahnalashtirgan spektakldagi bir rolni ikki buyuk aktyor faqat o'zlariga xos joziba va mahorat bilan ijro etadi.

Teatr san'ati vujudga kelishining negizida qadimda ikki omil turgan. Birinchisi – mifologiya. Ikkinchisi – sig'inish marosimlari. Mifologiya teatr san'atiga "adabiy material" bergan. Bugun ushbu vazifani adabiyot bajarmoqda. Sig'inish marosimlari – bu shunchaki taqvodorlik yoki oddiy ko'ngilochar o'yin emas. Ular, bir tomondan, haqiqatan jamoaviy ijodiy o'yin, ikkinchi tomondan, bu o'yin odamlarni ilohiy kuchlar bilan bog'lagan, odamga ruhiy madad bergan, g'ayritabiiy yovuz kuchlar qarshisidagi ojizligidan, qo'rquvdan xalos etgan. Chunki odamlar sig'inayotgani, diniy marosim tufayli ilohiy kuchlar ularni himoya qiladi deb ishonganlar. Sig'inish marosimi qatorida adabiyot (folklor) ham ibtidoiy odamning (nafaqat ibtidoiy odamning) yovuz kuchlar oldidagi qo'rquvini yengishga qisman xizmat qilgan. Shu sababdan xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, ertaklarda devlarga, jinlarga, alvastilarga, yalmog'izlarga, badniyat afsungarlarga, yovuz sehrgarlarga qarshi qahramonlarning kurashi ko'p tasvirlanadi. Folklor odamlarni, ayniqsa yosh bolalarni hayot qiyinchiliklariga, turli sodir bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmagan har xil ekstremal holatlarga ruhan tayyorlab borgan, irodasini tarbiyalagan. Teatr san'atida marosim, jamoaviy o'yin, adabiyot, individual o'yin, taqlid, ijro birlashib, qo'shilib, yangi san'at turi paydo bo'lgan. Asotir sig'inish, adabiyot badiiy material beruvchi ta'minotchiga aylandi.

Teatr san'ati vujudga kelgandan keyin adabiyotning yangi turi – dramaturgiya paydo bo'ldi. Dastlab dramalar (tragediyalar va komediyalar) qadimgi diniy va maishiy mazmundagi asotirlarni (miflarni) qayta ishlash, ularga zamonasiga mos qo'shimcha g'oyaviy mazmun bag'ishlash yo'nalishda yaratildi. Keyinchalik dramalar mifologik mavzulardan tashqari hayotiy mavzularni ham qalamga oldi. Qadimgi antik davrning buyuk dramaturglari Esxil, Sofokl,

Yevripid, Aristofan asarlari bunga misol bo'la oladi. Teatr ma'naviy tarbiyaning muhim vositasiga aylandi. U odamlar ongiga diniy va dunyoviy qadriyatlari singdirish, ularga rioya etmaslik qanday fojealarga olib kelishi mumkinligini (tragediyalar), yoki insonni qanday sharmanda-yu, sharmsor qilishi, kulgili ahvolga tushirishi mumkinligini (komediyalar) jonli "ko'rgazmali" obrazlar yordamida namoyish qildi. Teatr ibrat maktabiga aylandi. "Teatr – ibrat maktabidir", degan qanotli ibora, hikmat o'zbek dramaturgiyasi va teatrining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiya tegishlidir. O'zbek teatri qadimgi antik davrda rivojlangan. Yunon – Baqtriya davlatida Evripid teatri bo'lgan. Tilimizdagi "masxaraboz" so'zi yunoncha "maskaras" (niqob kiygan) so'zidan olingan. Keyin islom ta'sirida professional teatr yo'qolib ketgan. Ammo xalq teatri – darbozlar, masxarabozlar, miniatyurachilar teatri saqlanib qolgan.

Ta'kidlash joizki, adabiyot qatorida musiqa ham opera, operetta, balet, musiqali drama va komediya teatrlarida "badiiy material" vazifasini o'taydi. Opera, operetta va baletda hatto musiqa adabiy materialga nisbatan yetakchilik qilsa-da, ular asarlari baribir "adabiy material" – librettosiz vujudga kelmaydi.

Adabiy va musiqaviy materiallar birikuvidan san'atning yana bir turi shakllanadi. Bu qo'shiq, ashuladir. Qo'shiq ham san'atning mustaqil turi. Unda qo'shiq matni – she'rdan va musiqadan (ko'pdan) tashqari ijrochining ovozi, mahorati asosiy rol o'ynaydi. Shu sababdan biz bir ashulani har xil hofizlar ijrosida tinglaymiz, ularni o'zaro taqqoslaymiz. Ovoz va ijro mahorati ashulaning jozibadorligini belgilaydi. Chunki ashula birinchi galda ovoz yordamida ijro etiladigan san'atdir, she'r yoki musiqa emas. She'riy mazmuni unchalik chuqur, hatto ancha sayoz bo'lgan, ammo zo'r mahorat bilan ijro etilgan ba'zi bir ashulalarning odamlar o'rtasida mashhurligi ham shundan. Aytilganlar musiqaviy matni sayoz, ammo mashhur zamonaviy xitlarga taalluqli. Bu ashulada adabiy va musiqaviy material emas, ijro mahorati yetakchiligiga yana bir misoldir. Albatta, sayoz ashulalar ko'payishi va mashhur bo'lishi odamlarning didiga, madaniy saviyasiga ham bog'liq. Biroq pop- art, rok, rep va umuman har xil janrlarga mansub mazmunan sayoz ashulalar, jumladan an'anaviy janrlardagi sayoz ashulalar ko'payishi ashulaning adabiyot va musiqadan mustaqil san'at ekanligini, faqat ulardan o'z xususiyati va zururatidan kelib chiqib foydalanishidan dalolatdir.

Shunday qilib, adabiyot jamiyatning ma'naviy hayotida, inson ongi, tafakkuri, ijodiy fantaziyasi, axloqiy va estetik qarashlari, umuman ma'naviyati shakllanishida yetachi rolardan birini o'ynaydi. Adabiyot ham tasvirlash va ifodalash quvvatiga ega bo'lganligi sababli san'atning boshqa turlari orasida yetakchilik qiladi. Bundan tashqari adabiyot eng demokratik san'at turidir. Musiqani, zamonaviy tasviriy san'atni, opera va baletni tushunish uchun odam ma'lum darajada san'atning ushbu turlariga xos shartlilikdan, obrazlar yaratish uslubidan, badiiy vositalar tizimidan xabardor bo'lishi lozim. Adabiyot bu borada insondan minimal bilimlarni talab qiladi. Asarni o'qish davomida inson unda tasvirlangan voqealarni, manzaralarni, odamlarni, ularning holatini xayolan ko'z oldiga keltiradi, tasavvur eta boshlaydi. Bu uning fantaziyasini rivojlantiradi. Ekranda ko'rsatilgan, sahnalashtirilgan asardagi voqealar, obrazlar esa rejissor, aktyor, rassom, kostyumerlar, grimyorlar tomonidan yaratilgan tayyor holda namoyon bo'ladi. Lekin kino va teatr san'ati tomoshabinga aniqroq "bilim" beradi. Ayniqsa film tomoshabinga mutlaqo notanish xalq, davr voqealari, odamlari, ularning hayoti, turmush kechirish tarzi va boshqa noyob, xususiyatlar to'g'risida bo'lsa. Ba'zan teatr san'atida shartlilik shunchalik kuchliki, tomoshabin obrazni yaratayotgan akterning tashqi qiyofasini real obrazga tashqi mosligini unutish kerak. Masalan, Shekspirning "Romeo va Julietta" asri negizida opera spektakli ham, balet spektakli ham yaratilgan. Opera spektakllarini ba'zan 40 yoshdan kam bo'lmagan artistlar ijro etadi. Shekspirda esa Romeo va Julietta 14-15 yashar yoshlardir. 14-15 yoshda yetuk opera artistlari yetishib chiqmaydi. Baletda ham asardagiga nisbatan yoshi katta artistlar ijro etadi. Operada birinchi navbatda artistning ovozi, xonandalik mahorati muhim. Baletda, tabiiyki, raqqoslik mahorati. Opera va balet ixlosmandlari artistlarning tashqi qiyofasidan emas, balki ovozi, plastikasi va ijro mahoratidan zavq oladi.

Adabiyotning har qanday gʻoyani chuqur badiiy tahlil eta olish, rivojlantirish, badiiy aniq vositalar, voqealar, insoniy tuygʻular, kechinmalar, hayotiy ziddiyatlar, konfliktlar orqali koʻrsata olish orqali oʻquvchi ongini maʼnaviyatini tarbiyalash imkoniyatlari sanʼatning boshqa turlaridan ustundir. Shu sababdan u sanʼatning boshqa turlari uchun nafaqt bevosita (teatr, kino kabi), shuningdek bilvosita ham badiiy-gʻoyaviy asos boʻla oladi.

12-MAVZU:MA'NAVIYAT VA SIYOSAT

Reja:

1. Siyosiy madaniyatni yuksaltirish – Oʻzbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ekanligi.
2. Siyosat va huquq. Maʼnaviyat va siyosat, maʼnaviyat va siyosat sohalari o'rasidagi aloqadorlik. Demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining manbai shu davlatda yashovchi xalq, balogʻatga yetgan, saylash va saylanish huquqiga ega, aqlan sogʻlom fuqarolar hisoblanishi.
3. Siyosat tuzilmasi (strukturasi). Ijtimoiy-siyosiy faollik masalasi hozirgi zamon jamiyatining eng murakkab, ziddiyatli masalalaridan biri ekanligi. Siyosiy muxolifat, uning turlari. Siyosiy arbob, uning maʼnaviy qiyofasi.
4. Taraqqiyotning bugungi bosqichida davlat siyosatining insonparvarlik, xalqparvarlik mazmunini yanada kuchaytirish zaruriyati.

Siyosiy madaniyat yuksalishi Oʻzbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlari sirasiga kiradi. Shu sababdan maʼnaviy tarbiya tizimida siyosiy tarbiyaga juda katta eʼtibor qaratilmoqda. Siyosat va huquqning hozirgi davrdagi ahamiyati ortib bormoqda, chunki u bevosita inson va jamiyat taraqqiyotiga boshqa institutlarga nisbatan kuchliroq taʼsir koʻrsatadi.

Taʼkidlash lozimki, siyosat va huquq bir vaqtda, bir-birini taqozo etib, bir-biriga tayanib vujudga kelgan. Siyosat va huquq negizida davlatning paydo boʻlishi yotadi. Huquqqa oid masalalarni navbatdagi mavzuda alohida koʻrib chiqamiz. Bugungi mavzumiz maʼnaviyat va siyosat masalalariga bagʻishlanadi. *Davlat jamiyatning siyosiy tashkilotidir. Davlatning har qanday faoliyati siyosat deyiladi.* Masalan, davlatning iqtisodiyot sohasidagi tashkilotchilik, munosabatlarni tartibga solish, mulk shakllarini muhofaza qilish, moliya, soliq, budjet sohaslarida olib borayotgan tizimli ishlari iqtisodiy siyosat deb ataladi. Oʻz navbatida iqtisodiy siyosatning turli yoʻnalishlari, nisbatan yirik tarmoqlardagi tizimli ishlar ham siyosat deb atalishi mumkin: agrar siyosat, moliya-kredit siyosati, soliq-byujet siyosati va sh.k.

Davlatning iqtisodiy siyosatdan tashqari jamiyatni idora qilish, ijtimoiy taʼminot, taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat sohaslaridagi, atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish, oʻz tuzilmalarini demokratlashtirish va takomillashtirish - davlat qurilishi va sh.k. koʻplab faoliyat yoʻnalishlari mavjud. Ularning barchasi davlat siyosatining tegishli shakllaridir.

Davlat hokimiyati tepasiga kelish uchun turli partiyalar, guruhlar oʻrtasidagi oʻzaro kurash ham siyosiy mazmunga ega. Fuqarolarning davlat hokimiyatiga munosabati, saylovlarda ishtirok etishi, davlat idoralariga turli takliflar kiritishi ularning davlat siyosatida, boshqaruvida qatnashayotganiga misoldir. Demak, siyosat – bu avvalo davlat hokimiyati faoliyati va hokimiyat uchun kurash, saylovlar orqali davlat hokimiyatini shakllantirishga, davlat boshqaruviga jamoatchilik nazorati orqali fuqarolar, aholi taʼsiridir.

Ma'naviyat va siyosat o'rtasidagi aloqadorlikni ilmiy tadqiq etishning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy siyosati ma'naviyatga, uning rivojlanishiga qanday shart-sharoitlar yaratmoqda va yaratishi lozim?. Xalq ta'limiga, sog'liqni saqlashga, ilm-fanga, madaniyatga davlat byujetidan qancha va qanday prinsiplar asosida mablag' ajratilmoqda?. Ma'naviyat sohasini rivojlantirishga "qoldiq" prinsipidan, ya'ni boshqa sohalaridan ortgan mablag'ni yo'naltirish prinsipidan kelib chiqib yondashilmoqdam, yoki ma'naviyat sohasi ustuvor sohalaridan hisoblanib, yetarlicha mablag'lashtiriladimi? Ushbu masalalar atroflicha va xolis tahlil etilishi, bu boradagi mamlakat miqyosida va har bir hududda erishilgan yutuqlar, mavjud kamchiliklar aniqlanishi lozim. Shunda ma'naviyatning moddiy-iqtisodiy va huquqiy ijtimoiy asoslarini yanada mustahkamlash, bu borada aniq va samarali siyosat olib borish imkoniyati kuchaydi.

Ikkinchidan, davlat siyosati qay darajada ma'naviyatning erkin rivojlanishi uchun mafkuraviy shart-sharoit yaratgan?. Fikrlar va qarashlar xilma-xilligi, so'z va e'tiqod, ijod erkinligi ta'minlanishi, hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilmasligi ma'naviyat rivojlanishining muhim omillaridir. Sovet davrida ma'naviyatga sinfiylik va partiyaviylik pozitsiyalaridan yondashilar edi. Kommunistik mafkura davlat maqomini olgan, ko'ppartiyaviylik, fikrlar va qarashlar rang-barangligi, so'z, e'tiqod erkinligi taqiqlangan edi. Boshqacha fikrlaydigan kishilar siyosiy repressiyaga (qatag'onga) mahkum etildi. Nima, Munavvar qori, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy va qatag'on qilingan boshqa o'zbek ziyolilari o'g'ri, qaroqchi, siyosiy qo'poruvchi, yoki terrorist bo'lganmi? Yo'q, ular boshqacha fikrlaganlar, erkin ijod qilishni istaganlar, xolos. Ular o'z xalqlarining erkin, mustaqil yashashlarini, tilini, madaniyatini, urf-odatlarini, imon-e'tiqodini unutmagan holda jahon ilm-fani va madaniyatini egallashini istar edilar. Ular kommunistik mafkuraning partiyaviylik, sinfiylik, jangovor ateizm, o'tmish madaniy merosiga bepisand qarashini, adabiyot va san'atni sotsialistik realizm qolipiga tiqishini, ijod erkinligi inkor qilinishini hazm etmadilar. Shu sababdan ular "xalq dushmanlari" degan tavqi lan'at bilan qatag'onga uchradilar.

Ma'naviyat erkin rivojlanishi borasidagi davlat siyosatini ilmiy o'rganish, uni muttasil takomillashtirish yo'llarini, usullarini aniqlash, joylardagi kamchiliklarni bartaraf etishning ahamiyati ulkandir. Darvoqe, metodologiya nafaqat ilmiy tadqiqotlar to'g'riligi va samaradorligini, shuningdek davlat siyosati, boshqaruv amaliyoti, joylarda davlat siyosati, qonun va qarorlari bajarilishning to'g'riligi va samaradorligini ham o'rganadi.

Uchinchidan, siyosat va ma'naviyat aloqalariga tegishli yana bir yo'nalish – bu ma'naviyat sohasiga: xalq ta'limi, ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat sohalariga xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlashda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ularning samaradorligi va muammolaridir. Din masalalari bo'yicha kadrlar tayyorlashga davlat aralashmaydi. Ammo diniy masalalar, jumladan diniy mutaxassislar tayyorlanishi bo'yicha ham davlat siyosat yuritadi. Bu masalalarni u qonun asosida tartibga soladi, ammo, yana bir bor ta'kidlaymiz, diniy tashkilot va diniy o'quv yurtlari ichki ishiga aralashmaydi.

Ma'naviyat va siyosat sohalarini o'rtasidagi aloqadorlikni atroflicha xolis o'rganish, har sohaning o'ziga xos jihatlari hisobga olish, ma'naviyatni siyosatning cho'risiga, maddohiga aylantirib qo'ymasdan, erkin rivojlantirishni o'rganish ulkan ilmiy-metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda aynan ma'naviyat erkin rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Davlat hokimiyatining manbai nimada? Qadimgi antik davrda ilk bor buyuk faylasuf Demokrit hokimiyatining manbai – natio (natsio), ya'ni millat (xalq) degan fikrni olg'a surgan. Qadimgi yunon shahar – davlatlari aksariyatida hokimiyat ushbu tamoyil negizida tashkil etilgan. Keyinchalik davlat hokimiyatining manbai – bu Yaratgan egam, Xudo bilan bog'langan. Xudoning xohish-irodasiga ko'ra, go'yoki, uning nomidan boshqarish uchun podshohlar, shohlar, sultonlar, qirollar va h.k. tanlangan. Binobarin, podshoh hokimiyati, mohiyatiga ko'ra, ilohiy hisoblangan. Hech kim podshohdan, agar o'zi podshoh yoki shahzoda bo'lmasa, taxtni tortib olishga, o'zini podshoh, deb e'lon qilishga jazm qilolmagan. Shu sababdan Amir Temur va temuriyodalardan o'ziga xon, yoki

sulton deya xutba o'qitmagan. Bobur podshoh sifatida xutba o'qitganda, u o'zini temuriy emas, ona tomonidan chingiziy sifatida bunga haqli hisoblagan. Shu sababdan Bobur tuzgan davlatga yevropaliklar "Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi" degan nom bergan. Aks holda Bobur va uning avlodlari unvoni (hokimiyati) qonuniyligini (legitimligini) tan olishning iloji bo'lmadi.

Demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining manbai – shu davlatda yashovchi xalq, balog'atga yetgan, saylash va saylanish huquqiga ega, aqlan sog'lom fuqarolar hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, qadimgi yunonlarda, xususan Afinada erkin erkak fuqarolar davlat hokimiyati manbai hisoblangan. Eng muhim qarorlar va qonunlar bevosita ularning to'g'ridan-to'g'ri, yopiq-yashirin ovoz berishi yordamida qabul qilingan. Buning uchun har bir kishiga oq va qora toshchalar tarqatilgan. Ular toshchalardan birini xumga tashlagan. Keyin hammaning ko'z o'ngida xum ag'darilib, oq va qora toshchalar sanalgan. Oq toshchalar ko'p bo'lsa, qaror loyihasi qabul qilingan.

Boshqa davrlarda, hatto o'rta asrlarda, fuqarolar davlatni idora etishda bevosita qatnashmasada, davlat hokimiyati xalq fikrlari va kayfiyati bilan qay darajadadir hisoblashishga majbur bo'lgan. Xalqning davlat siyosatidan noroziligi ba'zan qo'zg'alon va g'alayonlarga, ba'zan hukmron sulola o'zgarishiga olib kelgan. Jamiyat rivojlangan, demokratik tamoyillar mustahkamlangani sayin xalqning jamiyatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ortib boravergan. Shu sababdan har bir davlat o'z fuqarolarining siyosiy tarbiyasiga e'tibor qaratadi. Vataniga sodiq, davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi, qonunlarga rioya etuvchi fuqarolarni tarbiyalashga intiladi. Siyosat tuzilmasi (strukturalari) quyidagilardan tashkil topadi:

1. Hokimiyatning vertikal va gorizontalar tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlardan. Hokimiyatning vertikal tuzilmalari O'zbekistonda uch pog'onadan iborat. Birinchi pog'onani mahalliy hokimiyat idoralari – xalq deputatlari shahar, tuman kengashlari – vakillik hokimiyati; shahar, tuman hokimlari va ularning apparati, shahar, tuman davlat idoralari – ijroiya hokimiyat; shahar tuman davlat jinoiy, xo'jalik, fuqarolik sudlari – sud hokimiyati tashkil etadi. Ikkinchi pog'onini tegishli tartibda viloyat bo'g'ini, uchinchi, yuqori pog'onani respublika bo'g'inini tashkil qiladi. Respublika bo'g'ini tuzilmasi mahalliy hokimiyat tuzilmasidan farq qiladi. Davlat boshlig'i Prezident. Vakillik hokimiyati – Oliy majlis ikki palata – Senat va Qonunchilik palatasidan iborat. Sud hokimiyati – Konstitutsiyaviy Sudga, Oliy Sudga, Oliy xo'jalik sudiga bo'linadi.

Davlat hokimiyatining gorizontalar tuzilmalari har bir pog'ona ichidagi idoralardir. Ular ham qonun doirasida hokimga, sudga hamda o'zlarining yuqori bo'g'in tashkilotlariga bo'ysunadi. Hokimiyatning har uch tarmog'i (vakillik, ijroiya va sud hokimiyatlari) bir biridan mustaqil. Ularning o'zaro munosabatlari Konstitutsiya va qonunlar orqali tartibga solinadi.

2. Siyosiy institutlar: bunda birinchi galda davlat instituti va uning tuzilmalari nazarda tutiladi. Biz yuqorida aytgan davlat institutlaridan tashqari yana armiyani, prokuraturani, yarashtiruv sudlarini, siyosiy partiyalarni, davlatga va siyosiy partiyalarga tegishli OAVlarini, doimiy xarakterdagi markaziy saylov komissiyasini va saylovlar paytda tuziladigan muvaqqat saylov kommissiyalarini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

3. Siyosiy madaniyat haqida batafsil mulohaza yuritish maqsadga muvofiq. Zero, u ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismidir.

Siyosiy va huquqiy tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim yo'nalishi va shakli o'laroq inson omilini rivojlantirishga, *insonning erkinlik darajasini, yaratuvchilik, ijodkorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan*. Siyosiy madaniyat qancha yuqori bo'lsa, jamiyat shuncha samarali rivojlanadi, ijtimoiy-ma'naviy muhit yaxshi, siyosiy barqarorlik mustahkam, inson shuncha erkin bo'ladi. *Mustaqil O'zbekistonda siyosiy tarbiyaning asosiy maqsadi – inson erkinliklari va huquqlarini jamiyatning bosh qadriyatiga, xalqni amalda hokimiyatning birdan-bir manbaiga aylantirishga, demokratik huquqiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy shart-sharoit yaratish, jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirishdir*. Odamlar ongi,

dunyoqarashi, e'tiqodi, ijtimoiy mo'ljallari va ideallari yuqorida qayd etilgan maqsadlarga qaratilishi va ularga erishish talablariga mos bo'lishi lozim.

Siyosiy madaniyat, birinchidan, inson va jamiyatning tegishli ongini, tafakkurini bildiradi. U sotsiurnning siyosiy tuyg'ularini, masalan, adolat tuyg'usini, jamiyatdagi ahvolga, davlat idoralariga xayrixohligini yoki noroziligini, ular faoliyatini ma'qullash yoki inkor etish tuyg'ularini hamda turli siyosiy tushunchalarni, g'oyalarni, baholarni, meyorlarni, nazariyalarni, ta'limotlarini, ideallarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, siyosiy va huquqiy an'analar, siyosiy madaniy merosni, davlat va jamiyat qurilishi, davlatni idora qilish shakllari – monarxiya, respublika, diktatura, demokratiya, parlamentar boshqaruv hamda huquqiy davlat va h.k. to'g'risidagi o'tmish va hozirgi zamon faylasuflari, sotsiologlari, huquqshunoslari, siyosatshunoslari yozgan asarlarni, siyosiy ta'lim tizimidagi tegishli adabiyotlarni, hujjatlarni birlashtiradi.

Uchinchidan, siyosiy amaliyotni – odamlarning, korxona va muassasalarining davlat idoralari bilan o'zaro hamda munosabatlarini, fuqarolarning davlat hokimiyati tarmoqlarini shakllantirishga va takomillashtirishga munosabatini, qonunga rioya qilish, qonun chiqarish va hayotga joriy etishda qatnashish amaliyotini ifoda etadi. Keyingi holatda siyosiy va huquqiy madaniyat birlashib ketadi.

Siyosiy madaniyat individual, jamoaviy (korporativ, kasbiy, tabaqaviy, guruhii) va millii darajalarda namoyon bo'ladi. Har bir fuqaro o'z tuyg'ulariga, tasavvurlariga, qarashlariga ega. Ular insonning yoshlikdan olgan tarbiyasiga, bilimlariga, e'tiqodiga bog'liq. Insonning fe'l-atvori, xarakteri, tabiiy moyilliklari uning siyosiy va huquqiy madaniyatiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Lekin ular hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Jamiyatning taraqqiyot ko'rsatkichlari, erkinlik va insonparvarlik tamoyillarining odamlar ongiga va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri darajasi siyosiy madaniyatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim kishilar qiziqqon, hovliqma, jahli tez, mulohaza yuritib o'tirmasdan, biror ish qilib qo'yishga moyil bo'ladi. Bunday xulq-atvor xatolarga olib kelishi hech gap emas. Ba'zi kishilar zimmasiga mas'uliyat olishdan, mustaqil fikr yuritishdan cho'chiydi. Ularga yo'l boshlovchi, yetakchi kerak. Ular jon-jon deb yetakchining ortidan ergashadi, aytganini qiladi. Chunki bu ularni qilgan ishlari uchun go'yoki ma'suliyatdan ozod qiladi. Biror ishkall chiqib qolsa, "biz falonchining aytganini qilgan edik. U bizga noto'g'ri yo'l ko'rsatibdi", deya o'zini oqlashga imkon qoldiradi. Agar yetakchi siyosiy avantyurist, qallob, g'araz niyatli shaxs bo'lib chiqsa, ma'suliyatdan cho'chiydigan kishilar uning qo'lidagi qurolga aylanib qoladi.

Siyosiy tarbiya insonda ijtimoiy tuyg'ularni, adolatga intilishni, odamlarga teng ko'z bilan boqishni, ularning siyosiy qarashlariga, shaxsiy huquqlariga hurmatli munosabatda bo'lishni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Odamlar ongida irqchilik, millatchilik, urug'-aymoqchilik, ayirmachilik, guruhbozlik kabi tuyg'ularga va qarashlariga nisbatan salbiy va tanqidiy munosabat qaror topishi kerak. Boshqalarga teng ko'z bilan qarashni hamda o'z siyosiy va yuridik haq-huquqlarini yuzaga chiqarishni, himoya qilishni, qonun doirasida yashashni va faoliyat yuritishni o'rgatish orqali insonning *ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish siyosiy (va huquqiy) tarbiyaning bosh vazifalaridan biridir*.

Ijtimoiy – siyosiy faollik masalasi hozirgi zamon jamiyatining eng murakkab, ziddiyatli va, aytish mumkinki, boshog'riq masalalaridan biridir. Ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi guruhbozlikka, siyosiy kurashda hatto ekstremistik usullarni qo'llashga, bir mamlakatning turli viloyatlari, hududlari o'rtasidagi kelishmovchiliklarga, nizolarga, to'qnashuvlarga sabab bo'lmoqda. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi qator davlatlarda shunday manzara anchadan buyon kuzatilmoqda. Bunday muammolardan Yevropaning ayrim davlatlari ham xoli emas. Shimoliy Irlandiya, Ispaniya davlatlaridagi etnik separatizm (ayirmachilik) bilan bog'liq ekstremizm va terrorizmi, Ukrainadagi qonli voqealarni, Yevropaning qator davlatlarida neofashistik va o'ng radikal kuchlarning siyosiy faollashganini, Kanada va Shotlandiyada separatistik kayfiyatlar kuchayayotganini eslash joiz. Yaqin Sharq, Shimoliy va umuman Afrika

qit'asi, Afg'oniston va Pokiston kabi islom mamlakatlarida, Janubiy Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoning ayrim davlatlarida hokimiyat uchun kurashda qonuniy demokratik usullar qatorida ekstremistik va terroristik usullar qo'llanilmoqda.

Rivojlangan g'arb mamlakatlarda esa aholining siyosiy faolligi pasaymoqda. Buni fuqarolarning saylovlarda qatnashish va ovoz berish dinamikasi susayib borayotgani, aholida saylovlarga befarqlik kuchayotgani ko'rsatmoqda. Ayrim g'arb mamlakatlarining saylov to'g'risidagi qonunlarida elektoratning 30-40 foizi ovoz berishda qatnashsa, saylov qonuniy hisoblanadi. Hatto shunday mamlakatlar borki, ularda 20-25 foiz ovoz beruvchilar qatnashgan saylovlar haqiqiy hisoblanadi. Bunday passivlikning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Lekin asosiy sabab – fuqarolarining saylovlardan hafsalasi pir bo'lganida.

Saylov tizimi o'sha mamlakatlarda shunday tashkil etilganki, qaysi partiyaga ovoz berma, jamiyat hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz bermaydi. Saylovlarda g'olib bo'ladigan partiyalarning faqat taktik maqsadlarida, ba'zi bir dasturiy intilishlaridagina farq bor. Hokimiyat tepasiga kelgan partiya o'ziga yaqin korporatsiyalar va iqtisodiy guruhlariga ko'proq davlat buyurtmasini beradi, o'zidan avvalgi hokimiyat xatolari va kamchiliklarini tuzatish maqsadida ayrim juz'iy islohotlar o'tkazadi (agar bunga zarurat tug'lsa). Lekin umumiy siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizim o'zgarmasdan qolaveradi. Shu sababdan g'arb mamlakatlarida saylovlarda ovoz berishda qatnashmayotgan norozi fuqarolar soni ortib borayotir

G'arb mamlakatlarida siyosiy faollik pasayishining yana bir sababi zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining va ommaviy madaniyatning ta'sirida real voqelikdan ko'ra ko'proq o'zining virtual dunyosida yashaydigan ijtimoiy befarq, loqayd, konformist odamlar soni ko'payib ketayotganidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud siyosiy tizimdan norozilik siyosiy faollikning guruhbozlik, mahalliychilik, ekstremistik ko'rinishlarini kuchaytirayotgan bo'lsa, rivojlangan g'arb mamlakatlarda siyosiy faollikni susaytirmoqda, ayrim davlatlarda esa separatistik kayfiyatni oziqlantirmoqda.

Siyosiy madaniyat faqat shaxsga tegishli hodisa emas. U shuningdek oilaga, xo'jalik subyektiga, jamoat, nodavlat notijorat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va davlat idoralari faoliyatiga ham tegishlidir. Shu sababdan ularga siyosiy (va yuridik) haq-huquqlarini zarur darajada bilib olishlarida, yuzaga chiqarishlarida, qonun doirasida faoliyat yuritishlarida, davlat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda qatnashishlarda yordam berish, saviyasini oshirish siyosiy (va huquqiy) tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ta'kidlash lozimki, siyosiy va huquqiy madaniyat o'zaro juda yaqin, dialektik birlikni, ko'p hollarda bu birlikdagi ayniyatni tashkil qiladi (albatta, dialektik birlik faqat ayniyatdan emas, shuningdek farq, ziddiyat va qarama-qarshiliklardan ham iboratligini esdan chiqarmaslik kerak). Shu sababdan siyosiy va huquqiy madaniyat haqida ularni bir biridan ajratmasdan mulohaza yuritish xato bo'lmaydi. Siyosiy va huquqiy madaniyati yuksak demokratik mamlakatlarda fuqarolar, xo'jalik yurituvchi jamoalar, har xil tashkilotlar o'z muammolarini, bahs va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuvlar yordamida yoki qonuniy yo'l bilan, sud orqali hal qiladi. Fuqarolar, xo'jalik subyektlari, tashkilotlarning siyosiy va huquqiy saviyasi unchalik rivojlanmagan mamlakatlarda fuqarolar ko'proq davlatning turli idoralariga shikoyat qilishga, arizabozlikka odatlanadi.

Siyosiy va huquqiy madaniyat tushunchasi yuqorida aytilganlar bilan cheklanmaydi. Parlament va hukumatning, mahalliy vakillik va ijroiya organlarining hamda sud hokimiyati barcha bo'g'inlarining professionallik darajasi siyosiy va huquqiy madaniyatning juda muhim ko'rinishlari sirasiga kiradi. Fuqarolar nechog'lik bilimli, qonunga itoatgo'y, xo'jalik subyektlari va jamoat tashkilotlari qonun doirasida faoliyat yuritmasin, davlat hokimiyatining turli bo'g'inlari zamon talablari darajasida jamiyatni boshqarolmasa, qarama-qarshiliklardan xoli bo'lmagan, biryoqlama qonunlar, qarorlar qabul qilinsa, yoxud yaxshi qonunlar va qarorlar qabul qilinganda ular ijrosini ta'minlash uchun joylarda tashkilotchilik, hokimiyatning yuqori bo'g'inida siyosiy iroda yetishmasa, jamiyat asta-sekin ziddiyatlarga, qiyinchiliklarga ko'milib boraveradi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik

buzilib,inqirozga yuz tutadi. Shu sababdan barcha bo'g'indagi davlat organlari va idoralarining professionallik darajasi jamiyat siyosiy va huquqiy madaniyatining muhim ko'rsatkichi va shaklidir.

Siyosiy va huquqiy madaniyat g'oyaviy va diniy bag'rikenglikda (g'oyaviy-siyosiy va diniy tolerantlikda), o'zgarlar erkinligini, huquqini, boshqa millatlar, elatlar tilini, e'tiqodini, madaniyatini, urf-odatlarini tan olish sifatida ham yuzaga chiqadi. O'z vatanini, ona tilini chin dildan sevgan kishi boshqa millat vakili ham o'z vatanini, ona tilini sevishga haqli ekanini tan olishi va hurmat qilishi lozim. Tolerantlik keng mazmunda adolatning bir ko'rinishidir. Haqiqiy demokratik erkin tafakkur, yuksak siyosiy va huquqiy madaniyat toqatli, g'oyalar, mafkuralar xilma-xilligiga xayrixoh bo'ladi. *Aholida, ayniqsa yosh avlodda keng mazmundagi tolerantlikni shakllantirish siyosiy tarbiyaning maqsad va vazifalari qatoriga kiradi.* Tolerantlik bor joyda jamiyat barqaror yuksalishi uchun zarur ma'naviy muhit vujudga keladi.

Ayni paytda tolerantlik nisbiy tushuncha ekanligini unutmaslik kerak. Terrorizm, ekstremizm, insonga qarshi zo'ravonliklarning har qanday shaklini targ'ib etuvchi g'oyalarga nisbatan tolerantlik tamoyilini qo'llab bo'lmaydi. Bunday g'oyalarga nisbatan nafaqat tolerantlik, bag'rikenglik qilish, hatto befarqlik, loqaydlik ko'rsatish gumanizmga, insonparvarlikka, ezgulikka xiyonatdir. Xulosa qilish mumkinki, *siyosiy madaniyatni tarbiyalash terrorizm, ekstremizm, insonga qarshi zo'ravonlikni targ'ib etuvchi g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni va g'oyaviy qarshi kurasha olishni shakllantirishi lozim.* Tarbiya jarayonida bag'rikenglik, adolat bilan bir qatorda o'zida buzg'unchi g'oyalarni, mafkuraviy toqatsizlikni, siyosiy va ijtimoiy adolatsizlikni inkor etish tuyg'usini qaror toptirishi kerak.

Siyosiy madaniyatni tarbiyalashning vazifalaridan biri aholi ongidan *hokimiyatni personifikatsiyalashni siqib chiqarishdir.* Hokimiyatni personifikatsiyalash tushunchasi mansabni va mansabdorni bir biridan ajratmaslik, mansabdor xohish-istagini, shaxsiy fazilatlarini va illatlarini mansabning ajralmas qismi deb hisoblashdir. O'tmish jamiyatlarida ko'pincha qonun mansabdorning qarori, xohish-istagi sifatida tushunilgan. Lavozi, mansab, xizmat majburiyati obyektivlashtirilmagan, ya'ni kimningdir ongiga, qarashlariga, e'tiqodiga, istaklari va shaxsiy manfaatlariga bog'liq emas, balki ijtimoiy zaruratini, jamiyatining zarur ehtiyojlarini ifodalaydi, erkinlik va demokratiyadan kelib chiqadi degan mazmunda tushunilmagan va mansabdor irodasining, himmatining bir bo'lagiga aylantirilgan. Shu sababdan odamlar mansabdorning ko'nglini topishga, uni o'zlariga foydali qaror qabul qilishga ko'ndirishga turli yo'llar bilan uringanlar, iltimoslar qilganlar, yalinib yolvorganlar, pora, sovg'a-salom berishga uringanlar. Ayniqsa o'tmishda boshqaruv apparati kuchli rivojlanmagan, har bir amaldorning xizmat vazifalari, burchi va mas'uliyati turli yo'riqnoma va nizomlarda aniq yozib qo'yilmagan qoloq mamlakatlarda hokimiyatni personifikatsiyalash odatga aylangan.

Hokimiyatni personifikatsiyalash ijtimoiy psixologiya darajasida fuqarolarda mansabdorga nisbatan nomukammallik tuyg'usi hamda mansabdorparastlik va oqibatda shaxsga sig'inish vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy ideologiya darajasida demokratik institutlar takomillashuvi yo'lida g'ovga aylanadi, chunki tanqidiy ruh so'nishiga, odamlarda siyosiy qo'rquv va taqiqllovchi ichki psixologik sensor paydo bo'lishiga, tanqidiy fikr yurituvchi kishilarga nisbatan begonasirash, ishonmaslik shakllanishiga olib keladi. Siyosiy madaniyatni shakllantirish jarayonida aholiga, ayniqsa ta'lim olayotgan yoshlarga hokimiyatni personifikatsiya qilish xato ekanligini tushuntirish lozim. Mansabdor shaxs u yoki bu mazmundagi qarorni qabul qilishga, u yoki bu ishlarni bajarishga majburligini, buni uning xizmat burchi va qonun talab etishini odamlar bilishlari kerak.

Huquqiy demokratik davlatda amaldor, mansabdor nainki, "o'zim xon, ko'lankam maydon" qabilida o'zboshimchalik qilolmaydi, hatto xizmat burchiga sovuqqonlik bilan qaray olmaydi, aks holda tanqidga uchraydi, yoki lavozimidan ajraladi. Hokimiyatni odamlar ongida depersonifikatsiyalash faqat ma'naviy tarbiyaga, xususan siyosiy va huquqiy tarbiyagagina bog'liq emas. Buning uchun yana odamlarning turmush darajasi nisbatan yuqori, fuqarolik jamiyati institutlari ancha rivojlangan bo'lishi lozim.

Jamiyatda doimo ochiqchasiga yoki pinhona hokimiyat uchun har xil guruhlar, partiyalar o'rtasida kurash ketadi. Demokratik davlatlarda bunday kurash qonun doirasida, ochiqcha olib borilsa, nodemokratik va totalitar davlatlarda, odatda, guruhbozlik, turli xil nosog'lom, yashirincha kechadigan kurashlar, ig'volar, fitnalardan xoli bo'lmaydi. Ular oxir-oqibat suiqasdlar, saroy to'ntarishlari, ommaviy g'alayonlar, qo'zg'alonlar, harbiy to'ntarishlar ko'rinishini olishi mumkin. Demokratik davlatlarda siyosiy partiyalar hokimiyatga saylovlar orqali intiladi. Mamlakat parlamentiga bir necha partiyalar nomzodlaridan deputatlar saylanadi. Mutlaq ko'pchilik deputat o'rinlarini egallagan partiya ijroiya hokimiyatni faqat o'z tarafdorlaridan shakllantirishi mumkin. Saylovlarda yutib chiqqan, lekin 50 foizidan kam o'rinni egallagan partiya o'ziga g'oyaviy yaqin partiyalar bilan kelishib, koalitsion hukumat tuzadi. Parlamentga saylangan boshqa partiyalar o'z fraksiyalarini tashkil etib, amaldagi hokimiyatga nisbatan muxoliflik qiladi.

Muxolifat ortida mazkur partiya ovoz bergan saylovchilar – aholining bir qismi turibdi. Muxolifat jamiyat a'zolari muayyan qismining qarashlarini va manfaatlarini ifodalaydi. *Xalq demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining manbai ekanligini hisobga olsak, muxolifatga ovoz bergan fuqarolar esa shu xalqning bir bo'lagi, ya'ni u ham hokimiyat manbaidir.* Shu sababdan demokratik davlatlarda siyosiy muxolifat mavqei baland. Uning haq-huquqlari konstitutsiya va tegishli qonunlar, parlament nizomi bilan aniq belgilab, mustahkamlab qo'yiladi. Muxolifat xaq-huquqlarini yuzaga chiqarish amalda ular ortida turgan aholining (ozchilikning) manfaatlarini himoya qilishdir. Demokratiyaning asosiy xususiyatlaridan biri ko'pchilikning irodasini amalga oshirish barobarida ozchilikning manfaatlarini ham himoya qilishdir. Muxolifat har bir qonun loyihasi, yoki hukumat qarorlari va faoliyatiga faol munosabat bildirib, siyosiy baho berib, bahs yuritadi, har xil takliflar kiritadi.

Siyosiy muxolifat ikki xil bo'ladi. Birinchisi – konstruktiv, bunyodkor - o'z tanqidi, xolis kurashi bilan qonun loyihalarining yanada yaxshilanishiga, hukumat to'g'ri va samarali faoliyat yuritishiga yordam beradigan muxolifat. Ikkinchisi – destruktiv, buzg'unchi. U hokimiyatni boshqaruvchi partiyaning har qanday qarorini, xatti-harakatini faqat tanqid qiladi, ko'pincha noxolis tanqid qiladi, pashshadan fil yasashga intiladi, murosaga juda qiyinchilik bilan keladi, ba'zi masalalarda esa mutlaqo kelishmay turaveradi. Natijada mamlakat va jamiyat rivojlanishi, odamlar turmushi uchun muhim qonunlar, qarorlar qabul qilish, ularni hayotga tadbiiq etish kechikib ketadi, yoki umuman qabul qilinmay qoladi. Destruktiv muxolifat mamlakatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozini keltirib chiqarishi mumkin. Agar jiddiy masalada parlamentda, yoki koalitsion hukumatda siyosiy partiyalar o'rtasida kelishuvga (konsensusga) erishilmasa, parlament yoki hukumat, ba'zan har ikkalasi ham tarqatib yuboriladi va yangidan saylov o'tkaziladi. Biz demokratiya, huquqiy davlat, jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyati masalalariga ma'naviyat va huquq degan mavzuda yana qaytamiz.

Destruktiv muxolifat yuzaga kelmasligi jamiyatning ma'naviyatiga, xalqning jipsligiga, siyosiy partiyalarning umummilliy manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishiga bog'liq. Umummilliy manfaatlarini teran anglash uchun jamiyatdagi turli partiyalarni, guruhlarini, tabaqalarni, sinflarni, hududlarni jipslashtiruvchi g'oya zarur. Bunday g'oya milliy g'oyadir. Milliy g'oya jamiyat ma'naviyatining o'zagini, mohiyat-mazmunini tashkil etadi. O'zbekistonda milliy g'oyani xalq ongiga singdirishga katta e'tibor berilayotgani ham shundan. Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, *siyosiy madaniyatni shakllantirishda milliy g'oyaga tayanishi zarur.* Insonparvarlikni va milliy g'oyani unutgan siyosiy madaniyat, siyosiy tarbiya quruq safsatabozlikka, demagogiyaga, qoidalar meyorlarning formal targ'ibotiga aylanib qoladi, ularni inson va jamiyat hayoti bilan bog'lay olmaydi.

Jamiyat samarali rivojlanishi uchun barcha sog'lom konstruktiv fikrlar va qarashlar tenghuquqliligi kafolatlanishi, hukmron mafkura o'rnatilmasligi lozim. Shu sababdan O'zbekiston Konstitutsiyasining 12-moddasi ushbu talabni mustahkamlab qo'yibdi. Fikrlar va qarashlar xilma-xilligi, hukmron mafkuraning o'rnatilmasligi mafkuraviy plyuralizm deyiladi. Mafkuraviy plyuralizm va konstruktiv muxolifat jamiyatning har tomonlama yuksalishiga, jumladan siyosiy

madaniyatning, demokratiyaning chuqurlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turg'unlik va qoloqlikni keltirib chiqaruvchi dogmatizmning oldi olinadi.

Siyosiy arbobning ma'naviy qiyofasi qanday bo'lishi lozimligi to'g'risida ko'p mulohaza va bahs yuritish mumkin. O'tmishda ham, hozir ham bu masalada barcha tan olgan umumiy fazilatlar, hislatlar qatorida, ancha bahsli, ziddiyatli xislatlar ham sanab o'tiladi. Antik davrda-yoq olimlar, xususan, Platon davlatni faylasuflar, ya'ni donishmandlar, tafakkuri o'tkir, sermulohazali, shoshmasdan qaror qabul qila oladigan, har tomonlama bilimga ega kishilar boshqarishi lozim deganlar. Abu Nasr Forobiy "Fozil kishilar shahri" asarida komil siyosiy arbobga qo'yiladigan talablarni tizimlashtirgan: "...u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi lozim"²⁰. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur "Tuzuklar"ida saltanat ishlarida to'rt narsaga – kengashga, maslahat-u mashvaratga, qat'iy qarorga, tadbirkorlik, hushyorlik va ehtiyotkorlikka amal qilish lozim degan. U saltanat ishlarining o'ntadan to'qqiztasini maslahat –mashvarat yordamida, bittasini qilich yordamida hal qilganini aytadi. Axloqiy tanlash masalasi munosabati bilan N. Makiavellining rahbar davlat manfaatlari yo'lida umumtalab qilinadigan axloqiy meyorlardan biroz chekinishi mumkinligi to'g'risidagi bahsli, amalda noto'g'ri fikri keltirilgan edi. Hozirgi shiddatli zamon va ko'pqirrali, o'ta murakkab, ko'pqatlamli hayot va ijtimoiy munosabatlar siyosiy arbobga, rahbarga qo'yiladigan talablarni yanada kuchaytirdi, konkretlashtirdi. Biz Islom Karimov asarlariga tayanib ularning asosiylarini sanab o'tamiz:

1. Siyosiy arbob (rahbar) eng avvalo zarur insoniy fazilatlarga ega bo'lmog'i lozim: aql-idrokka, mustahkam irodaga, imon-e'tiqodga, or-nomusga.

2. Siyosiy arbob (rahbar) chinakam yurtparvar, vatanparvar bo'lishi, xalqi, yurti oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur his qiladigan, el dardi bilan yonib yashaydigan, yetim-yesirlarga, nogironlarga, keksalarga mehribon bo'lishi lozim.

3. "Rahbar shaxs eng kamida bitta kasb-hunar negizini bilishi, shu kasb egasi sifatida boshqalarga ustozlik qila oladigan darajada bo'lishi shart. Madaniyat, odob-axloq bobida ham kishilar o'z rahbarlaridan namuna olsa, naqadar ibratli bo'lardi"²¹.

4. Xalq bilan birga bo'lish, undan ajralib qolmaslik.

5. Rahbarning saviyasi baland, o'zi insofli va ishbilarmon bo'lishi kerak. Buni kompetentlik talabi deyish mumkin.

6. Rahbar nostandart fikrlay olishi, masalaga yangicha yondashib, uning yangicha yechimini topa olishi lozim.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, Islom Karimov o'rta pog'ona (viloyat) rahbarlariga quyidagi maslahatlarni beradi: "Birinchi maslahat shundan iboratki, avvalambor... viloyati ahli ...rahbarni yaqindan tanishi kerak...hokim o'zining amaliy ishlari bilan odamlar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishi kerak. Ikkinchi maslahat shuki, rahbarning qalbi pok, qo'li toza bo'lishi kerakligini hech qachon unutmaslik lozim. Har qanday guruhlar, urug'-aymoqlar bilan "o'yin" qilishdan, ular bilan til biriktirishdan uzoq bo'lish kerak. Barchaga bir xil ko'z bilan qarash, kabinetiga serqatnov bo'lib oladigan chaqqonlardan ehtiyot bo'lish zarur.

Uchinchi maslahat shuki, ...rahbar, avvalo viloyatning muammolarini chuqur o'rganishi, mavjud sharoit bilan yaqindan tanishishi, pastdan yuqorigacha bo'lgan barcha ijtimoiy qatlamlarning intilish va kayfiyatlaridan, g'am-tashvishlaridan har tomonlama xabardor bo'lishi darkor. Va shu muammolarni yechish yo'llarini qidirishi lozim.

²⁰ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т. 1993,159-6

²¹ Ислон Каримов. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Асарлар 2-жилд. Т., 1996, 120-6

To'rtinchi maslahat shuki, ana shu muammolarni hal etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashda ularni biladigan, yechimini topishga qurbi yetadigan, davlat siyosatini atroflicha tushunadigan, qo'llab-quvvatlaydigan rahbar va mutaxassislarni o'z tevaragida jiplashtirishi, ularga tayanishi lozim.

Beshinchi maslahat shuki, ana shu tadbirlarni belgilab olgandan keyin ishni nimadan boshlash kerak? Avvalo joylarga borib, mehnatkashlar bilan maslahat qilish, o'z fikr-mulohazalarini, qarashlarini, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni oddiy odamlar bilan o'rtoqlashish lozim va ulardan faqat bir narsani so'rash kerak: aziz do'stlar, birodarlar, menga tayanch bo'linglar, birgalashib mana shu ishlarni qilaylik. Agar menga yordam bermasangiz, bir o'zimning qo'limdan kelmaydi, deb ochiq aytish kerak"²²

- Ilom Karimovning yuqorida keltirilgan fikrlari va maslahatlari siyosiy arbobning ma'naviy qiyofasi qanday bo'lishi lozimligini har tomonlama ochib beradi.

- Siyosiy islohotlarning ma'naviy asoslari islohotlarning boshqa yo'nalishlarining ma'naviy asoslardan farq qilmaydi. Islom Karimovning O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga tayanishini ta'kidlaydi. "Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi;
- vatanparvarlik"²³

Ushbu ma'naviy negizlar siyosiy islohotlarga ham bevosita tegishli. O'zbekistonda siyosiy islohotlar ularga tayangan xolda amalga oshirilmoqda. Davlat hokimiyati uch mustaqil tarmoqqa bo'lindi. Shunday qilib, jahon mutaraqqiy davlatlari tajribasi, umuminsoniy qadriyat hisobga olindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, partiya yakkahokimiliga chek qo'yildi. Ko'rppartiyaviylik tizimini, fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta'minlash yuzasidan islohotlar boshlandi. Bu ham umuminsoniy qadriyatlarning siyosiy islohotlarda namoyon bo'lishidir. Qonun ustuvorligi, barchaga birdayligi, huquqiy demokratik davlat tuzumi, erkin saylovlar – barchasi umuminsoniy qadriyatlardir.

Ayni paytda hokimlik instituti, mahalla institutining yangi asosda isloh qilinishi xalqimizning siyosiy madaniy merosini mustahkamlash va rivojlantirishga misol bo'la oladi. O'zbekistonda madaniy merosga, islom diniga, buyuk allomalar va tarixiy shaxslarga munosabat xolis va e'zozli bo'lishi yana bir misoldir.

O'zbekistonda barcha yangilanishlar, siyosiy islohotlar bundan istisno emas, "islohotlar islohot uchun emas, inson uchun" maqsadida amalga oshirilmoqda. Siyosiy islohotlar yurtimizda insonga o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarish uchun tegishli demokratik va huquqiy shart-sharoitlar yaratishni ko'zlaydi.

Albatta, yangi jamiyat qurishning barcha sohalardagi islohotlarining demokratik huquqiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyati qurishning muvaffaqiyati fuqarolarning vatanparvarligiga bevosita bog'liq. Fuqarolik jamiyatini barpo etish va rivojlantirish qator vazifalarni markaziy hokimiyat idoralaridan mahalliy boshqaruv organlariga, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishni anglatadi. Markaziy hokimiyat tasarrufida konstitutsion tuzumni himoya qilish, mamlakatning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi, huquq-tartibot, inson huquq va erkinliklari, tashqi siyosat, pul va valyuta muomalasini tartibga solish, ekologiya, umummilliy va muhandislik kommunikatsiyalari va shunga o'xshash boshqa strategik ahamiyatga ega masalalar qoladi.

²² Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon ha'it – pirovard maqsadimiz. Asarlar. 8-jild. T., 2000 y., 421-422-b

²³ Islom Karimov – O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar. 1-jild. T., 1996 y. 76.6

Islom Karimovning fikricha, qolgan barcha vazifalar, bozor iqtisodiyoti, mulk masalalari, moddiy farovonlik va obodonchilik masalalari mahalliy hokimiyat idoralari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal qilinishi lozim. "Ayni shu yo'l bilan biz fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etishimiz mumkin", – deya xulosa qiladi.

Markaziy hokimiyat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich mahalliy hokimiyat idoralari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish jarayonida "aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining sonini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, huquq va mavqelarini yanada oshirish lozim. Chunki "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati " degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati shunda yaqqol namoyan bo'ladi".²⁴

13-MAVZU: GLOBALLASHUV VA MA'NAVIYAT

1. Globallashuv zamonaviy taraqqiyotning bosh tendensiyasi ekanligi. Globallashuvning zamonaviy jamiyat hayotiga, taraqqiyotiga ziddiyatli, qaramaqarshi ta'siri.
2. Geosiyosiy raqobatning kuchayishi oqibatida turli tahdidlarning, jumladan ma'naviy tahdidlarning ko'payishi.
3. Xalqaro internet tarmog'ining paydo bo'lishi. Internet tizimining ma'naviyatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari. Internet va axborot texnologiyalarining inson ma'naviyatiga ta'siri.
4. Globalistlar va antiglobalistlar. Globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya, birinchi galda, manaviy tarbiya mazmunim, usul va vositalarini, zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruriyati.
5. Globallashuvning milliy o'ziga xoslikka, milliy madaniyatlarga, tillarga solayotgan xavfi, inson axloqi, ma'naviyati va qadriyatlarga ta'siri.

1.Globallashuv zamonaviy taraqqiyotning bosh tendenitsiyasidir. U butun yer kurrasiga oid, taraqqiyot darajasi qandayligidan, qaysi qit'ada joylashuvidan qat'i nazar barcha mamlakatlar, xalqlar hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy omillar, yo'nalishlar, qonuniyatlarni anglatadi. Atamaning o'zagi glob(us) yer kurrasini bildiradi. XX asr oxirgi choragi – XXI asr boshlarida globallashuv nihoyatda tezlashdi (intensivlashdi). U jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi.

Chukotkada, Alyaskada, Aleut orollarida, qumli, suvsiz sahrolarda yoki qalin chakalakzorlarda yashaydigan kechagi ibtidoiy qabilalar bugun telekommunikatsiya xizmatidan, mobil aloqa va internetdan foydalanish imkoniga ega. Biror joyda yangi ishlab chiqarish korxonasi qurilsa, litsenziya sotib olib, unga eng yangi texnologiyalarni joriy qilish mumkin. Har qanday sohadagi yangiliklar, ixtirolar, yutuqlar butun insoniyatning mulkiga aylanmoqda. Faqat uni yaratgan, o'ylab topgan kishining, jamoaning mualliflik huquqi buzilmasa, bo'lgani.

²⁴ Ўша асар, 389-6

Globallashuv har qanday ahamiyatli, qiziq g'oyalarning, foydali va foydasiz axborotning, texnologiyalarning, mahsulotlarning dunyo bo'ylab tez tarqalishini va amaliyotga joriy etilishini bildiradi. Ushbu imkoniyat globallashuvning zamonaviy jamiyat hayotiga, taraqqiyotiga ziddiyatli, qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishini belgilaydi.

Globallashuv tufayli turli xalqlar, mamlakatlarning taraqqiyot darajasidagi, axborot bilan ta'minlanish borasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, keskin farqni sezilarli kamaytirish imkoni vujudga keldi. To'g'ri, hali o'ta qashshoq, aholisi ocharchilik xavfida yashaydigan, turli siyosiy va etnik guruhlar o'rtasida o'n yillab qurolli to'qnashuvlar davom etayotgan, xalqining katta qismi savodsiz mamlakatlar bor. Ular taraqqiyotda juda ortda. Ibtidoiy urug'-qabilachilik munosabatlari qoldiqlari ijtimoiy-ma'naviy hayotida keng tarqalgan, hatto ustunlik qiladigan qabilalar bor. Ammo ular ham zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanadi, yoki foydalanish imkoniga ega.

Gap bu yerda globallashuvning xalqlar taraqqiyot darajasini tenglashtirgani ustida kelgani yo'q. Yaqin istiqbolda taraqqiyot darajasidagi farq saqlanadi. Gap bu yerda globallashuv yangi imkoniyatlar yaratgani haqida ketmoqda. XIX asrda yevropalik ovchilar miltiqdan foydalangan, ibtidoiy qabilalar ovchilari esa kamondan. XX asr boshlarida sharq xalqlari dehqonlari yerni omoch va qo'sh bilan shudgorlagan, g'arb dehqonlari plug va traktorlar yordamida yer haydagan. Xalqlarning texnologik taraqqiyoti o'rtasida farq qarama-qarshi edi. Bugun ilmiy-texnika taraqqiyot yutuqlari ishlab chiqarishga joriy qilingani tufayli qarama-qarshilik yo'qoldi. Sharq xalqlari dehqonlari traktorni allaqachon o'zlashtirdi, ibtidoiy munosabatlar saqlanib qolgan urug'-qabilalar ovchilari zamonaviy qurollardan foydalanadi. Lekin iqtisodiy farovonlik, daromad, ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasidagi, dunyoqarash va ma'naviyatdagi farq hamon katta.

Globallashuv nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari, uy-ro'zg'or buyumlari, tovarlar va axborotlar tarqalishiga, shuningdek, madaniy mahsulotlar iste'moliga ham ulkan ta'sir ko'rsatayotir. Televideniye, radio, video-, audio-kompakt disklar, internet orqali adabiyot va san'at asarlari, muzeylardagi asoru-atiqalar, kutubxonalaridagi badiiy va ilmiy asarlar bilan tanishish, ulardan bahramand bo'lish, masofadan turib bilim olish imkoni vujudga keldi. Ammo ularga nisbatan yanada ko'proq turli estrada konsertlari, shou-tomoshalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotlar, har xil elektron o'yinlar va ommaviy madaniyatning boshqa standartlashgan, mazmunan sayoz, ba'zan odamlarni chalg'ituvchi, ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar tarqalmoqda. Axborot texnologiyalari har 3-5 yilda yangilanmoqda. Bular globallashuvni nihoyatda tezlashtirib yubordi.

Standartlashgan g'arb ommaviy madaniyati mahsulotlarini iste'mol qilish texnologiyalari va tovarlari, urbanizatsiya qatorida odamlarning turmush tarzini, qadriyatlar tizmini, ongini, psixologiyasini ma'lum darajada yaqinlashtirmoqda. Afsuski, bu jarayon ham juda ziddiyatli kechmoqda, unda ijobiy jihatlar qatorida salbiy jihatlar ko'p. O'zaro yaqinlashish milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi, rivojlanishiga nisbatan ko'proq g'arb ommaviy madaniyati andozalariga moslashuvi, rivojlanayotgan xalqlar madaniyatlarining g'arb madaniyatiga qisman assimiliyatsiyalashuvi, milliy xususiyatlarining qashshoqlashuvi asosida kechmoqda. Hatto boy madaniy an'analarga, ulkan yutuqlarga va intellektual salohiyatiga ega rus xalqining yangi avlodi ongiga, shuuriga, qadriyatlar mo'ljaliga g'arb ommaviy madaniyatining ta'siri xatarli tus olmoqda. G'arb tillaridan rus tiliga zarur, yangi voqelikni anglatuvchi so'zlar qatorida, turli tasqara, jargon so'zlar, yoki ruscha ekvivalenti bor, zarurati bo'lmagan so'zlar ham kirib kelmoqda va uning sofligiga, tozaligiga xavf solmoqda, til madaniyatini tubanlashtirmoqda. Bu masala o'zbek tili va madaniyati uchun ham dolzarb. Boshqa nisbatan qoloq xalqlar tili va madaniyati to'g'risida gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar telekanallari, boshqa OAV orqali tarqalayotgan mahsulotlar, savdo tarmoqlarida sotilayotgan disklar, har xil elektron o'yinlarning hajmi shiddat

bilan ko'payib borayotir. Qaysi telekanalga, qaysi mamalakatga boqmang, namoyish etilayotgan g'arb filmlarining salmog'i o'z filmlariga nisbatan bir-necha barobar ortiq. Globallashuvning milliy madaniyatlarga ta'sirining ijobiy tomonlari orasida, shubhasiz, ilg'or gumanistik g'oyalarning, ayrim umuminsoniy qadriyatlarining, zamonaviy erkin tafakkur unsurlarining tarqalishi, umumiy madaniy saviyasining o'sishi ko'rinib turadi. Salbiy jihatlari ba'zi bir buzg'unchi g'oyalarning, axloqiy, estetik va boshqa soxta qadriyatlarning tarqalishidan tashqari, milliy madaniyatlarning o'zigaxosligi zaiflashuvida namoyon bo'layotir. Globallashuvning asosiy salbiy ma'naviy-siyosiy ta'siri haqida ham unutmazlik kerak. Bu demokratiyani, g'arb qadriyatlarini olg'a siljitish bahonasida rivojlanayotgan mamlakatlarga siyosiy tazyiq o'tkazish, ichki ishlariga aralashishga harakat qilish, rivojlangan mamlakatlarning xavfli o'zaro geosiyosiy raqobatga kirishishi, diniy, mafkuraviy-siyosiy, milliy va madaniy tolerantlikning tobora pasayib borayotganidir.

2. XX asr 80-yillar oxirida jahonda global axborot fazosi (makoni) shakllanishi internetning 1989-yilda paydo bo'lishi bilan yakunlandi va yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Aslida global axborot makonining shakllanishi birdaniga ro'y bergani yo'q, taxminan bir asr davom etdi. Dastlab kapitalning milliy chegaralaridan chiqib, jahonda savdo-sotiqning rivojlanishi, turli birjalardagi narx-navo va kotirovkalar to'g'risida tadbirkorlarning ishonchli ma'lumotlarni bilish ehtiyoji jahon miqyosida telegraf, telefon aloqalarini, tezyurar transport vositalarini rivojlanishini rag'batlantirdi. Amerika qit'asi va Yevropa o'rtasida Atlantik okeani tubida telefon va telegraf kabellari yotqizildi. Quriqlik hududlarida simyog'ochli aloqalar o'rnatildi. Birjalar, banklar, yirik ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, sug'urta kompaniyalari, yirik sarmoyadorlar, korchalonlar turli xil informatsiyalar bilan almasha boshladilar.

Ularga iqtisodiy, moliyaviy informatsiyalardan tashqari ijtimoiy-siyosiy mazmundagi informatsiyalar ham kerak edi. Chunki biror mamlakatda, mintaqada savdo-sotiq qilmoqchi, investitsiya kiritib, o'z savdo uyini yoki filialini ochmoqchi bo'lsa, har xil xatarlarni, o'sha mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni, tinch-totuvlikni, davlat olib borayotgan ichki va tashqi siyosatni, xorijiy ishbilarmonlarga munosabatni, qo'shni davlat bilan do'stona yoki taranglashgan aloqalarni, aholining faollik darajasini, xarid qobiliyatini, savodxonligi va madaniy saviyasini va boshqa ko'plab omillarni hisobga olishi shart. Buning uchun tegishli informatsiya va informatsiyani o'z vaqtida yetkazib beruvchi vositalar kerak.

Telekommunikatsiya (uzoqdan aloqa qilish) vositalari tez rivojlandi. XX asrda radio, teletayp, televideniye, yerning sun'iy yo'ldoshlari orqali transkontinental aloqa qilish va, nihoyat, internet vujudga keldi. Transmilliy kompaniyalar, xalqaro miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan banklar uchun iqtisodiy, moliyaviy hisobotlar, savdo-sotiq, almashuv, audit va hamkorlikning hamma uchun bir xil bo'lgan xalqaro standartlari shakllandi. Bu talablar mahsulotlar sifatiga, ko'rinishiga, funksional vazifalariga, ishlab chiqarish texnologiyalariga asta-sekin ko'chdi. Informatsiyalar tarqatish usullarining, nizomlarining, qoidalarining, instruktsiyalarining, xo'jalik huquqi meyorlarining standardlashuvi, birxillashuvi xalqaro iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga, transmilliy kompaniyalarga katta qulaylik tug'dir edi. Bunga erishish yana jahon miqyosida uzil-kesil qaror topgan yagona axborot makoni zarur edi va uning shakllanishi tabiiy-tarixiy tarzda davom etdi. Yuqorida aytilganidek, 1989-yil xalqaro internet tarmog'i paydo bo'lishiga olib keldi. Industrial jamiyatda madaniyatning yangi ommaviy standartlashgan turi shakllana boshladi. Postindustrial jamiyatda u ijtimoiy fenomenga aylandi va milliy madaniyatlarga, inson ma'naviyatiga turli tahdidlar tug'dirdi. Avvalgi avom madaniyatidan ommaviy madaniyat sanoatlashgan, birqolipli, OAV orqali tarqalishiga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. U jamiyat ma'naviyatini, odamlar ongini boyitishga emas, balki ma'naviy hayotni va ijtimoiy ongni birxillashtirishga xizmat qiladi. U ijtimoiy ong bilan manipulyatsiya qilish (uni istalgan kuyga solib boshqarish) quroliga aylandi. An'anaviy mumtoz

qadriyatlarning deformatsiyani kuchaytirdi. Ommaviy madaniyat tug'dirgan ko'plab qulayliklar qatorida ulardan ham ko'proq ma'naviy tahdidlarni yuzaga keltirdi.

3. Internet tizimining ma'naviyatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari amalda cheksiz. Avval ta'kidlaganimizdek, u ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Softver xizmati aloqa tizimida, zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalarida inqilobiy to'ntarish yasadi. Internetga ulangan dunyoning istalgan kutubxonasi kitoblaridan, arxivlari hujjatlaridan foydalanish, ta'lim olish, masofadan o'qish, turli konferensiyalar, yig'ilishlar o'tkazish, fikrlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish imkoniyati vujudga keldi. Hukumatga, parlamentga, jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlariga so'rov berish, taklif kiritish, umuman siyosiy, ijtimoiy, ijodiy faollikni namoyon etish mumkin. Sizni qiziqtirgan har qanday informatsiyani, jumladan madaniy-ma'naviy mazmundagi ma'lumotlarni topish, undan foydalanish osonlashdi. O'z ilmiy, publitsistik maqolalaringizni, asarlaringizni, ijro etgan qo'shiq va raqslaringizni, tushgan suratlaringizni, o'tkazgan tadbirlaringiz video tasvirlaringizni va h.k.larni Internetga joylashtirib, boshqalar bilan o'rtoqlashishingiz mumkin. Internet orqali o'zingizga hamsuhbat, maslakdosh topishingiz, bo'sh vaqtlaringizda turli xil elektron o'yinlar bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatingiz bor.

Internet insonning real olamini, real faoliyatini virtual olam, virtual faoliyat bilan to'ldiradi va boyitadi. Internet yordamida siz dunyoning ilgari hech ko'rmagan, aniq tasavvurga ega bo'lmagan joylariga, tabiiy qo'riqxonalariga, shaharlariga, muzeylariga sayohat qilishingiz, turli xalqlarning me'moriy yodgorliklarini, urf-odatlarini, madaniy tadbirlari, bayramlari va boshqa nomoddiy merosi haqida tasavvur hosil qilasiz. Internet milliy chegaralarni bilmaydi.

Lekin internet tarmog'ida joylashgan barcha axborotlar ijobiy mazmunga ega emas. Ular orasida g'oyaviy jihatdan shubhali, hatto zararli, siyosiy va diniy ekstremizmni, axloqiy buzqlikni, zo'ravonlik va fahshni, nafs va hirs tiyiqsizligini targ'ib etuvchi, inson ma'naviyatini ich-ichidan yemiruvchilari bor. Afsuski, internet orqali nafaqat ezgu niyatli kishilar, shuningdek yovuz niyatli kishilar ham o'zlariga maslakdosh topmoqdalar. Turli aksil ijtimoiy harakatlarini muvofiqlashtirmoqdalar. Xalqaro va milliy terroristik guruhlar o'z safiga ayrim yoshlarni yollashni shaxsiy muloqotlar qatorida internet yordamida amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, kompyuterning virtual dunyosi va internetdagi ayrim axborot klasterlari, ayrim elektron o'yinlar inson ijtimoiy ruhiy-intelektual mavjudot sifatidagi tabiatini zaiflashtirmoqda, nozik, insonparvarlik, mehr-oqibat bilan bog'liq tomonlarini yemirmoqda.

Ba'zi kishilar real, jonli hayotdan, muloqotdan ko'ra, o'zlarining ko'p vaqtini internetning virtual, hayotot dunyosida, virtual muloqotda o'tkazmoqdalar. Ular kompyuter va internet bandilariga, asirlariga aylanib qolayotir. Har qanday narsada, voqea, jarayonda meyor buzilsa, teskari oqibatlarga olib keladi. Bunday hollarda internet inson ma'naviy olamini boyitish o'rniga uni biryoqlama, xayolotga, virtuallikka tobe qilib qo'yadi. Inson psixikasini buzuvchi g'oyalar, salbiy mazmundagi axborot zarari shundoqqina ko'rinib turibdi. Ular inson ma'naviyatini, shaxsini bevosita yemiradi. Buzg'unchi siyosiy va ekstremistik g'oyalar bilan zaxarlangan kishilar, dushmanlarini hech ikkilanmasdan otib, urib, o'ldirib ketadigan supermenlarni elektron o'yinlarda, kinokartinalarda ko'rib o'sgan ayrim bolalar, o'smirlar vahshiy qotillarga aylanayotgani, ularning ongi, tafakkuri, qadriyatlar tizimi to'liq deformatsiyalashgani to'g'risida bugun hamma biladi. Yoki boshqa bir guruh kishilar, yoshlar bor. Ular vahshiy, qotil emas. Lekin ularning ongi, tafakkuri, qadriyatlar mo'ljali ham to'liq deformatsiyalashgan. Ular real hayotga, insoniy orzu havaslarga tamomila befarq, loqayd kishilardir. Ular o'zlarining fiziologik mayllarini ma'lum darajada qondirsa, unga biron tegmasa, bas. Hech kim bilan, hech narsa bilan ishi yo'q.

Internetning, axborot texnologiyalarining inson ma'naviyatiga ta'siri haqida yana ko'p gapirish, yoki son-sanoqsiz misollar keltirish mumkin. Aytganlarning o'zi masala mohiyatini tushunish uchun yetarli, deb o'ylaymiz.

4. Biz zamonaviy sivilizatsiya, u tug'dirgan texnologiyalar, globallashuvning tahlikali ta'siridan, ommaviy madaniyatdan voz kecha olmaymiz. Lekin ularning insonga salbiy ta'sirini minimallashtirishga erishmog'imiz kerak. Buning uchun ta'lim-tarbiya, birinchi galda manaviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablarini hisobga olib, takomillashtirish zarur. "Bugungi kunda zmonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki,- deb yozadi Islom Karimov, – endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan ju olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotida yuz yillar ortda qolib ketishi hech gap emas".

Globallashuvning milliy o'zigaxoslikka, milliy madaniyatlarga, tillarga solayotgan xavfi, inson axloqi, ma'naviyati, qadriyatlar tizimining zamonaviy sivilizatsiya va ommaviy madaniyat ta'sirida deformatsiyaga uchrashi, demokratiyani olg'a siljitish niqobida neomustamlakachilik, geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi va sh.k. noxush tendensiyalar jahonda antiglobalistik harakat vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Antiglobalistiklarning ko'pgina konkret masalalarda haqliligini ta'kidlagan holda, umumiy yondashuvi va pozitsiyasi noto'g'ri ekanligini aytish lozim. Chunki globallashuvga qarshi emas, undan g'arazli niyatlarda foydalanayotganlarga qarshi turish kerak.

Ma'naviy tarbiya insonning asl tabiatini mustahkamlash va yanada rivojlantirishga qaratilgan. Insonning asl tabiati haqida gap ketganda, odatda quyidagilarga urg'u beriladi:

inson ongli, aqlli mavjudot;

inson bioijtimoiy mavjudot, u faqat jamiyatdagina shakllanadi,

jamiyatdan tashqarida inson bolasi halok bo'lmay qolganda ham, hayvondan farq qilmaydigan mavjudot bo'lib yetishadi;

inson yaratuvchi mavjudot. Hayvon tabiatni o'zgartirmaydi, faqat

unga borligi tufayli biologik xilma-xillik bag'ishlaydi, u tabiat bergan mahsulotni iste'mol qiladi. Inson esa ishlab chiqarish qurollari yasashdan, yashashi uchun shart-sharoit yaratish (boshpana qurish, kiyim-kechak tikish) va ovqatlanishgacha tabiat mahsulotlarini qayta ishlaydi, ulardan o'ziga kerakli mahsulot ishlab chiqadi, shaharlar va qishloqlar, yo'llar va ko'priklar quradi, ekinzorlar, zavod va fabrikalar yaratadi, ariqlar, kanallar tizimini barpo etadi, boshqacha aytganda tabiatni qayta yaratadi;

inson ehtiyojlari uzluksiz o'sadigan, yuksaladigan mavjudot. U o'z

ehtiyojlarini anglashga va ularni qondirish uchun muayyan maqsad qo'yishga, reja tuzishga, yaratuvchilik bilan shug'ullanishga qodir. Bunday xislat hayvonda yo'q.

Insonning ongi, tafakkuri uning uchun birinchi mohiyatli belgi ekan, globallashuv, internet va virtual voqelik kengayishi sharoitida ma'naviy tarbiya avvalo inson ongi, tafakkurini yanada rivojlantirishga, yuksaltirishga xizmat qilishi kerak. Ong murakkab, ko'pqavatli tuzilmaga ega. Uning poydevorini insoniy tuyg'ular: uyat, or-nomus, mehr, go'zallikdan, mardlik va jasoratdan zavqlanish, yaxshilikdan quvonish, yomonlikdan azoblanish, o'zi nojo'ya yoki nohaq ish qilib qo'ysa, xijolat chekish, vijdonan qiynalish, yaxshi ishdan mamnun bo'lish, haqiqatga, adolatga intilish kabi tuyg'ular faqat odamlarga xos. Ular ma'naviyatning ijaralmas qismidir.

Inson tuyg'ular, his – hayojon bilan cheklanib qolmaydi. U o'zining ijobiy va salbiy tuyg'ularini keltirib chiqargan sabablarni, tuyg'ular obyektni tahlil qiladi. Ularga baho beradi, ular to'g'risida fikr yuritadi. Shunday qilib, tuyg'ulardan boshlangan ong asta-sekin yuqori bosqichga – tafakkurga o'tadi. Avval ta'kidlaganimizdek, tuyg'ular, his-hayojonlar, kechinmalar kishining ko'ngil dunyosini, tafakkur esa aql dunyosini tashkil etadi. Ularni bir-biridan ajratish

yoki bir-biriga qarama-qarshi qo'yish holatlari uchrab turadi: "ko'ngil bilan yashash kerakmi, yo aql bilan" qabilida munozaralar ham uyushtiriladi. Chunki ayrim kishilar hayotda asl insoniy tuyg'ularga bepisand qaraydi, ro'zg'or va ish tashvishlari bilan band bo'lib, ularni unutadi. Ayrimlar ko'proq o'zga foyda beradigan yo'lni tanlaydi. Or-nomus, vijdon uchun zarar ko'raymi, deb go'yoki "aql bilan ish tutadi".aslida xudbinligi namoyon qiladi. Xudbinlik ko'ngilning qashshoqligi, aqlning ijobiy his-tuyg'ulardan ajralib, salbiy his-tuyg'ular ta'sirida qolganitufayli shakllanadi.

Ma'naviy tarbiyaning maqsadlaridan biri insonning ko'ngil va aql dunyosini muvozanatga keltirish, uni nafs va hirs, yoki loqaydlilik, befarqlik domiga tushib qolishdan asrashdir. Globallashuv, virtual hayot kengayishi, an'anaviy qadriyatlarning deformatsiyaga uchrashi, turli axborot va reklama bosimning odamlar ongiga kuchayishi natijasida ular qadriyatlar mo'ljalini yo'qotdi. Kishi nimaga intilsin, hayotda o'zi muqaddas narsa bormi? Yashashdan maqsad nima, ma'ni bormi? Yuksak ideallardan mahrum, ijtimoiy mo'ljallarni yo'qotgan, yashashida, ishlashida, boshqalar bilan muloqot qilishda hech qanday ma'ni ko'rmayotgan odamlar soni tez ko'payib borayotir. Buni adabiyot va san'at, har galgidek, boshqalarga nisbatan, xususan ilm-fan va dinga nisbatan avvalroq payqaydi. Absurd adabiyoti, san'ati, ya'ni ma'nisiz hayotni, yashashidan ma'ni topolmay qiynalayotgan insonlarni tasvirlaydigan adabiyot va san'at asarlari paydo bo'ldi.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa insonlar bilan, oilasi, mahallasi, mehnat jamoasi, yurti, mamlakati va butun jamiyat bilan yaqindan bog'langan. Binobarin, tarbiyaning asosiy vazifasi insonni o'z-o'zi bilan, oilasi, jamoasi, butun jamiyat hamda tabiat bilan uyg'un yashashga o'rgatishdir. Ma'naviy tarbiyaning har bir yo'nalishi va shakli bir-birini to'ldiradi, har qaysi o'z usul va vositalariga ega. Ular bir-biridan ajratilmasdan, ma'naviy tarbiya yaxlit kompleks tizim sifatida yo'lga qo'yilishi lozim. Eng asosiysi, hozirgi globallashuv talablari va insonga tahdidlarini hisobga olib, tarbiyani yana ta'limga yaqinlashtirish, buning uchun tarbiyaning yangi konsepsiyasini ishlab chiqarish zarur.

Konsepsiyada jahonda sodir bo'layotgan mafkuraviy jarayonlarning asl sabablari, turli diniy, siyosiy oqimlar va yirik geosiyosiy kuchlarning asl maqsadini tushuntirishga, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratilishi zarur. Mafkuraviy immunitet – keng tushuncha. U nafaqat tashqi mafkuraviy tahdidlarga, axborot xurujiga qarshi, umuman har qanday buzg'unchi g'oyalarga, ular tashqi kuchlardan keladimi, yo ichki, siyosiy, diniy, axloqiy, estetik, yoki millatlararo munosabatlarga taalluqli bo'ladimi, qat'iy nazar, qarshi tura olishni tarbiyalashni bildiradi. Bunga har tomonlama gumanitar va ijtimoiy-siyosiy bilimlar berish, ta'lim mazmunini gumanitarlashtirish orqali erishiladi.

Ta'lim tarbiyalovchi ta'limga aylanishi lozim. Zero, haqiqiy tarbiya, jumladan diniy tarbiya ham avvalo ehtiroslarga va nasihatlariga emas, balki obyektiv bilimlarga asoslanadi. Yetarli bilimlarga ega bo'lmagan kishi, birinchidan, osongina har xil bid'at va xurofatlar, g'arazli mafkuraviy targ'ibot ta'siriga tushib qoladi. Chunki eshitayotgan, ko'rayotgan hodisani to'g'ri tahlil qilish, baholash va noto'g'ri jihatlarni aniqlash uning uchun qiyin. Ikkinchidan, unga **hayotni teran anglashda, uni modellashtirish va o'zgartirishda** ham bilim yetmay qoladi. Oqibatda uning yaratuvchanlik, bunyodkorlik salohiyati pasayib ketadi. Shu sababdan har bir avlodning ijtimoiy va ijodiy faolligini o'rganish maqsadida sotsiometrik ko'rsatkichlar va indikatorlar ishlab chiqib, tadqiqotlar natijasini ta'lim va tarbiya jarayonida hisobga olib borish zarur. Shundagina Prezidentimizning mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ma'naviy jihatdan erkin, o'z huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan shaxsni tarbiyalash bo'yicha qo'yilgan vazifalarini samarali amalga oshira olamiz, globallashuvning salbiy ta'sirlarini, ommaviy madaniyatning ma'naviy tahdidlarini minimallashtirishga erishamiz.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

№1 AMALIY MASHG'ULOT


Mavzu: Ma'naviyatshunoslik fanining predmeti

**Ishning
maqsadi:**

Talabalarga ma'naviyatshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari, ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi funksiyalari haqida ma'lumot berishdan iborat.

Topshiriqlar

Sxemani to'ldiring



«Blits-so‘rov» savollariga javob bering

Savollar	Javoblar
Ma'naviyat nima?	.
Jamiyat yagona ijtimoiy organizm ekanligi?	.
Ma'naviyat va o'zlikni anglash	.
moddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi.	.
Ma'naviyatshunoslik fanining tuzilmasi	.

T-sxemani to'ldiring:

To'g'ri	Noto'g'ri
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

№2 AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Ma'naviyat tushunchasi: mohiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllari

Ishning maqsadi

Talabalarga ma'anaviyat tushunchasi, mohiyati va amzmuni ularning muhim jihatlari va namoyon bo'lish sahklari haqida

bilmlarni shakllantirishdan iborat.

Topshiriqlar

Tushunchalar tahlilini to'ldiring!

№	Savollar	Javoblar
1.	Ratsional	
2.	Irratsional	
3.	Ezoterik	
4.	immanentlik	
5.	Transsendentlik	

Ma'naviyat tushunchasining ta'rifalarini izohlang?

Fanni o'rganishdagi metodlar, tamoyillar va qonuniyatlari haqida ma'lumotlar to'plang.

“Klaster” texnikasi

Klaster – fikrlarni tarmoqlanishi- bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning mavzuni chuqur o'rganishga yordam beradi. Talabalarda mavzuga talluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jonlantirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirishga undaydi. Klaster texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayanch so'z beriladi;
2. Barcha talabalar shu so'z bo'yicha xayoliga kelgan hamma so'zlarni yozadilar.
3. Yozilgan so'zlardan bog'lanadiganlarini belgilaydi.
4. Tayanchso'zning mazmunini yoritadi.
5. Dars davomida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar talabalarga ma'lum qilinadi va ular dars davomida tushuntirib beriladi.

Savollarni izohlang?

1. Ma'naviyat tuzulmasini izohlang?
2. Ma'naviyatning namoyon bo'lish shakllarini ayting?
3. haxs va nmillat ma'naviyatining o'zaro bog'

№3 AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: MA'NAVIYATNING VUJUDGA KELISHI
(GENEZISI) VA DASTLABKI RIVOJLANISH DAVRI

**Ishning
maqsadi:**

Talabalarga ma'naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri haqida tushunchalar berish.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldiring

“Muammoli vaziyat turi”	“Muammoli vaziyat” sababarlari	Vaziyatdan chiqib ketish xarakatlari
Ma'naviyatning shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?		

Ma'naviyat ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?

Ma'naviyat rivojlanishining dastlabgi davrining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

№3 AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: MA'NAVIYATNING VUJUDGA KELISHI
(GENEZISI) VA DASTLABKI RIVOJLANISH DAVRI

**Ishning
maqsadi:**

Talabalarga ma'naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri haqida tushunchalar berish.

Topshiriqlar

“Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldiring

“Muammoli vaziyat turi”	“Muammoli vaziyat” sababalari	Vaziyatdan chiqib ketish xarakatlari
Ma'naviyatning shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?		

Ma'naviyat ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?

Ma'naviyat rivojlanishining dastlabgi davrining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

№4 AMALIY MASHG'ULOT

4-MAVZU: E'TIQOT VA MA'NAVIYAT

O'quv mashg'ulotidan kutilgan natija – ushbu o'quv mashg'uloti talabada Ma'naviyat va e'tiqot haqida nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun reja:

5. E'tiqod shaxs dunyoqarashi va ma'naviyati yadrosi sifatida. E'tiqodning mazmunini birinchi galda ilm tashkil qilishi.
6. Ratsional va irratsional ilm. Dunyoviy va diniy ilmlar. E'tiqod tuzilmasining boshqa unsurlari.
7. E'tiqodning tarkibiy qismlari: 1) ilm; 2) ishonch; 3) ixlos; 4) ishq; 5) ideal. E'tiqod tushunchasini tashkil etuvchi omillarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati.
8. Millat tarbiyasi vatanparvarlikni mustahkamlashning, milliy goyani amalga oshirib, yuksak marallarni egallashning muhim sharti va vositasi ekanligi.

4 –MAVZU BO'YICHA TOPSHIRIQ

FSMU taxlili

Savol	E'tiqodda materialistik va idealistik, ratsional va irratsional unsurlar. Ular o'rtasidagi ziddiyat
(F)Fikringizni bayon eting	
(S)Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M)Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

№5 AMALIY MASHG'ULOT

5-MAVZU: MA'NAVIYATNING MEYORIYLIGI VA IJTIMOIIY FUNKSIYALARI

O'quv mashg'ulotidan kutilgan natija – ushbu o'quv mashg'uloti talabada Madaniyatning meyoriyligi va ijtimoiy funksiyalari haqida nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun reja:

5. Insonning bioijtimoiy mavjudotga aylanishida ma'naviyatning o'rni. Ijtimoiylashish tushunchasi.
6. Urug'-jamo'a rivojlanishi davomida insonning ijtimoiylashuv darajasi, ma'naviyatining o'sishi. Ma'naviyat inson ijtimoiylashuvining oqibati va ayni paytda omili, vositasi ekanligi.
7. Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotida bajaradigan vazifalari (funksiyalari): eng umumiy, universal va konkret-ijtimoiy vazifalar.
8. Ma'naviyatning meyoriy xarakteri. Bugungi kunda jamiyatda tub o'zgarishlar yuz berayotgan sharoitda ma'naviyatga ilmiy xolislik bilan yondashish zaruriyati.

5-MAVZU BO'YICHA TOPSHIRIQ

Insert usulida jadvalni to'ldirish

Mavzu savollari	V	-	+	?
Madaniyatning meyoriyligi				
Ma'naviyatning universal funksiyalarini bilasizmi?				
Ma'naviyatning konkret-ijtimoiy vazifalari				
SH. Mirziyoyev asarlarida ma'naviyatning milliy yuksalishdagi rolini oshirish to'g'risida.				

№6 AMALIY MASHG'ULOT

6 Mavzu: Manaviyatning rivojlanish qonunlari

Ishning
maqsadi:

Talabalarga **Manaviyat, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari nisbati** haqida ma'lumot berishdan iborat.


Topshiriqlar

Savol: Jamiyatning umumiy qonunlari va Ma'naviyatning o'ziga oid qonunlari nisbati?

1)

F Fikringizni bayon eting	S Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.	M Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring	U Fikringizni umumlashtiring

Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni



№7 AMALIY MASHG'ULOT

7 Mavzu: Ma'naviyat kategoriyalari

Ishning maqsadi:

Talabalarga mustaqillik yillarida ma'naviyat va iqtisodiyot tizimidagi amalga oshirilgan ishlar ahamiyati hamda islohotlar samarsi haqida ma'lumot berishdan iborat.

Topshiriqlar

1)

№	Tushunchalarni yozing	Mazmunini yozing
1		
2		
3		
4		
5		

Ma'naviyatshunoslik fanida birinchi galda qo'llaniladigan tushunchalar?

Ma'naviyatning asosiy kategoriyalari:

№8 AMALIY MASHG'ULOT

8 Mavzu: MA'NAVIYATNING PRAKSALOGIK MAZMUNI

**Ishning
maqsadi:**

Ma'naviyat jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga u yoki bu darajada amaliy ta'sir ko'rsatishi tufayli praksiologik mazmun kasb etishini o'rgatish

Topshiriqlar

O'yla izla top!

1 Ma'naviyatning praksiologik mazmuni - insonni, jamiyatni va o'z-o'zini rivojlantirishga safarbar etishi bo'linishi sabablari nimada?

2 Ma'naviyatning praksiologik mazmuni maqsad, usul va vosita tanlashda ham namoyon bo'lishi mohiyati nimada?

№9 AMALIY MASHG'ULOT

9 Mavzu: MA'NAVIYAT TIZIMIDA DINNING O'RNI

Ishning maqsadi:

Talabalarga ommaviy madaniyatni shakllanishi va rivojlanishi va uning ma'anaviyatga ta'siri to'g'risida ma'lumot berish.

So'nggi vaqtlarda "Keys-stadi" metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta'limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya) mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Texnologiyaning asosiy vaziflari quyidagicha:

1. Tahlil ko'nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta'minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish

"Keys-stadi" texnologiyasi (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;
2) real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi

"Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo'llanila boshlangan. Keyslarning ilk to'plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda

iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Keyslardan na'muna №1

Keys bayoni	Keys savollari	O'qituvchi yoki modenator izohi

Keys№2

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija

MAVZU BO'YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR

Kichik guruxlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik gurux oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqtajratiladi.
4. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantirilishi zarur.
5. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda xam muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

1 – guruh topshirig'i

- 1-bosqich. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini o'qing 10 daqiqa.
- 2-bosqich. Guruxda muhokama qiling 5 daqiqa.
- 3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa
- 4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa
- 5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

3.					
4.					
5.					

2 – gurux topshirig‘i

1-bosqich. Mavzu bo‘yicha ma’ruza matnini o‘qing 10 daqiqa.

2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baxolash.

Guruxlar	Baxolashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Gurux faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

3 – gurux topshirig‘i

1-bosqich Mavzu bo‘yicha ma’ruza matnini o‘qing 10 daqiqa.

2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baxolash.

Guruxlar	Baxolashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Gurux faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

№10 AMALIY MASHG'ULOT

10-MAVZU: MA'NAVIYAT VA AXLOQ

O'quv mashg'ulotidan kutilgan natija – ushbu o'quv mashg'uloti talabada Ma'naviyat va axloq haqida nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun savollar:

1. Axloq va axloqiylik tushunchasi.
2. Odamlarning ijtimoiylashuvi va birgalikda yashashi, faoliyat yuritishida ahillikning roli.
3. Axloqning birlamchi , fundamental tushunchalari.
4. Axloq kategoriyalari: ezgulik va yovuzlik; insonparvarlik, baxt-soadat, vijdon, burch, vatanparvarlik. Inson faoliyatining axloqiy muammolari: o'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ravo ko'rma; insonni vosita emas, maqsad deb bil; siyosatning axloqiy muammolari; maqsad vositani oqlashi va oqlamasligi; tolerantlik va uning chegaralari.
5. Zamonaviy texnologik taraqqiyotning axloqiy muammolari

10-MAVZU BO'YICHA TOPSHIRIQ

T – SXEMA

Odamlarning ijtimoiylashuvi va birgalikda yashashi, faoliyat yuritishida ahillikning roli nimalarda deb o'ylaysiz?

Jadvalni to'ldiring!

Ижодий	Салбий



11-MAVZU: MA'NAVIYAT VA ADABIYOT

O'quv mashg'ulotidan kutilgan natija – ushbu o'quv mashg'uloti talabada Ma'naviyat va badiiy adabiyot, san'at haqida nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun reja:

1. Olamni obrazli bilishning ijtimoiy shakllari.
2. Adabiyot va san'atning predmeti inson ekanligi.
3. Adabiyot va san'atning ijtimoiy vazifalari.
4. Inson va jamiyat ongiga yuksak ideyallarning singdirilishida adabiyot va san'atning ahamiyati.
5. Adabiyot va san'atning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri.


TOPSHIRIQ

“Nima uchun?” Sxemasini to'ldiring

«Nima uchun?» texnikasidan foydalanib savolning javoblarini jadval-sxemalariga yozib to'ldirish.

Nima uchun ?»

Nima uchun



№12 AMALIY MASHG'ULOT

12-MAVZU: MA'NAVIYAT VA SIYOSAT.

O'quv mashg'ulotidan kutilgan natija – ushbu o'quv mashg'uloti talabada ma'naviyat va siyosiy munosabatlar, siyosiy madaniyat yuksalishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillardan biri ekanligi haqida nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun savollar:

1. Siyosat tushunchasining davlat hokimiyati faoliyati bilan bog'liqligi.
2. Hokimiyat uchun kurash siyosatning yo'nalishlaridan biri sifatida.
3. Ma'naviyat va demokratiya, huquqiy davlat.
4. Jamiyat rivojlanishining turli modellari va taraqqiyot yulini, vazifalarini tanlashda siyosatning roli.
5. “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” O'zbekiston mustaqil taraqqiyotning bosh yo'nalishi..
- 6.

12-MAVZU BO'YICHA TOPSHIRIQ

“Muammoli vaziyat” jadvalini yo'naltiruvchi uslubiy maslahatlarga tayanib to'ldirish.

“Muammoli vaziyat turi”	“Muammoli vaziyat” sababalari (To'liq izohlang)	Vaziyatdan chiqib ketish xarakatlari (Aniqlik bilan tahlil qiling)
Nima deb o'ylaysiz Siyosiy madaniyatni ta'minlovchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy-ma'naviy omillarga nimalar kiradi?		

№13 AMALIY MASHG'ULOT

13-MAVZU: GLOBALLASHUV VA MA'NAVIYAT

Ishning maqsadi:

Globallashuv zamonaviy taraqqiyotning bosh tendensiyasi ekanligi. Globallashuvning zamonaviy jamiyat hayotiga, taraqqiyotiga ziddiyatli, qaramaqarshi ta'siri haqida ma'lumot berish

Topshiriqlar

1) Globallashuv jarayonlari ma'naviyat va e'tiqodga qanday ta'sir ko'rsatadi

Ijobiy	Salbiy
1)	1)
2)	2)
3)	3)
4)	4)
5)	5)

Globalistlar va antiglobalistlar nima?

ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izoxli lugati. - T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2009 yil.
2. Jumaniyozov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. Monografiya. - T.: Navro'z, 2015.
3. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob. T.:Ma’naviyat, 2018.
4. Sobirova M., Xoliqov E. Etnomadaniyat. -T .: “ Innovatsiya-Ziyo”, 2019.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2018 yil. (tegishli modsalar)
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1 jild. T.:O‘zbekiston, 2018 yil. 137-151; 461 -496; 504-538 betlar.
4. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: 2018 y. 136-146; 176-221 betlar.
5. Fromm E. Insonning xozirgi xolati. //Jahon adabiyoti, 2000, mart.
6. Ismailova 3.I. Ta’limiy ish metodikasi. - T.: 2003.
7. Aristotel Poetika, Axloki kabir.M.Maxmudov tarjimasi. - T.:Yangi asr avlodi, 2004
8. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. -T .: Turon-ikbol nashriyoti, 2006.
9. E. Fromm. Zdorovoye obshestvo. - M.: Akt, 2006.

10. Zamonaviy dare. / Mas'ul muxarrir Sh. Shomansurov - T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini kayta tayyorlash va mapakasini oshirish markaziy instituta, 2007.
11. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-ukituvchilari uchun amapiy tavsiyalar). -T .: "Iste'dod" jamgarmasi, 2009. - 160 b.
12. Alisher Navoiy. Tula asarlar tuplami. 6-jild. Xamsa. "Xayrat ul- abror". "Farxod va Shirin". - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.
13. Kosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. -T .: "Ma'naviyat", 2011.
14. Xolikov I., Sobirova M., Masharipova G. "Ma'naviyat asoslari" fanini zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida o'qitish. - T.: TDPU, 2013.
15. Voxidov E. So'z latofati. - T.: "O'zbekiston" , 2014.
16. Starr F. Markaziy Osiyoning yangidan kashf etilishi. "Jaxon adabiyoti" 2014, may.
17. Rtveladze E.Ustozlarning ustozlari. "Ma'naviy haot" , 2014 №2
18. Eynshteyn. A.Din va fan. Fan va din. "Tafakkur" 2014-15

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1997 yil 29 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariva Qarorlari

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 20 oktabrdagi "O'zbekistonda teatrva musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 26 martdagi "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 21 sentabrdagi "Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga "Milliy teatr" maqomini berish to'g'risida"gi Farmoni
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 4 iyundagi "O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etishto'g'risida"gi Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

1.1998 yil 22 maydagi “O‘zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori

2.2013yil 25 iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbiralari to‘g‘risida”gi 178-son Qarori

Elektron ta’lim resurslari

1. www.dsmi.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.gov.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.lex.uz

GLOSSARIY

Ko'p qutbli dunyo – milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, biz ko'rib turgan olamning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda yuksak qudrat va mavqe' kasb etgan shaxslar, guruhlar, davlatlar, mintaqalar xilma-xilligidan tashkil topgan ekanligi.

Inson – dunyo mehvari - Milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, ma'naviyat nuqtai nazaridan, har bir insonga, imkoniyat (potensiya) darajasida, bu moddiy olamning markazi deb qarash, chunki u Alloh tomonidan "yer yuzining xalifasi" qilib yaratilgan va uning qalbi Borliq haqiqatining mazhari (namoyon bo'lish joyi)dir. Shunday ekan, har bir inson, agar astoydil xohlasa, butun olam holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega.

Iqtisod, siyosat, ma'naviyat uyg'unligi - milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, inson va jamiyat hayoti ushbu uch sohadan (uch yo'nalishdan) iborat bo'lib, inson va jamiyat kamolotining asosi ularning o'zaro uyg'un rivojida ekanligi.

Iqtisod - inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo'nalishidan) biri, har bir insonning atrof-tabiati (moddiy voqelik)ka amaliy munosabati.

Iqtisod fanlari - Ijtimoiy-siyosiy fanlar tarkibiga kiruvchi ushbu ilm tarmog'i bugungi kunda o'zi ko'p tarmoqli mustaqil tizimga aylangan bo'lib, tabiiy va texnika fan tizimlari ham asli ko'p jihatdan keng ma'nodagi iqtisod sohasi ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Siyosat - inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo'nalishidan) biri, har bir insonning o'zga insonlar bilan bevosita munosabatlari. Siyosat sohasi o'z navbatida axloq va huquq qatlamlaridan iborat bo'lib, ularning har birini o'rganuvchi alohida fan yo'nalishlari mavjud.

Siyosatda huquq qatlami – insonlar aro munosabatlarning qonunlar orqali tartibga solinishi.

Siyosatda axloq qatlami - insonlar aro munosabatlarning muayyan ma'naviy qadriyatlar asosida muvozanatda saqlanishi.

Siyosatshunoslik (Politologiya) - siyosat sohasini o'ziga xos muayyan yo'nalishda o'rganuvchi fan bo'lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) davlat tizimi

va siyosiy partiyalar, demokratiya va ijtimoiy adolat masalalarini qamrab oladi. Bugungi kunda siyosiy fanlar alohida tizimni tashkil etishidan tashqari agar siyosat sohasini keng ma'noda olib qaraladigan bo'lsa, huquqshunoslik, axloqshunoslik, jamiyatshunoslik kabi yana bir qator zamonaviy fanlar ham ayni shu sohaga oid masalalar bilan bevosita shug'ullanishini nazarda tutish lozim. Ulardan ba'zilari, masalan axloqshunoslik, bir paytning o'zida ma'naviyat sohasiga ham bevosita aloqador fanlar tizimiga kiradi.

Ma'naviyat - inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo'nalishidan) biri, har bir insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo'lgan munosabati. Ma'naviyat – o'z mazmuniga ko'ra ko'p qirrali murakkab botiniy hodisa bo'lib, mohiyatan Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlikni anglatadi. Shu ma'noda uni Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudrati, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch, Haqiqat nurining inson qalbida aks etishi, yoki baqoning fanoda zuhuri, dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligi, insonning o'z mohiyati oldidagi mas'ulligi, o'zligini anglashi deb ham ta'riflash mumkin. Insonning Borliq abadiyatiga daxldorligi ayni uning ma'naviyati tufaylidir.

Dunyoviy maqsadlar – biz yashab turgan moddiy dunyoga oid (o'tkinchi) maqsadlar

Uxraviy maqsadlar – oxiratga oid, keng ma'noda, azal va abad olamida o'z qadrini yo'qotmaydigan (Borliq haqiqatiga muvofiq) maqsadlar

Baqa – abadiylik, azaliy va abadiy qudrat, mutlaq Haqiqat, inson ma'naviy kamolotining nihoiy maqsadi.

Fano – o'tkinchi, muvaqqat holat, insonning moddiy olamdagi holati.

Ma'naviyat asoslari – Ma'naviyat sohasining asosiy masalalarini nazariy tadqiq etuvchi yangi fan. Bugungi kunda, hanuz jahon ilmi darajasida tadqiqotlar o'tkazilmaganligini hisobga olib, "Milliy ma'naviyatimiz asoslari" deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik darajalari (Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat), Shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari (imom, ilm, mas'uliyat, mehr), Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari va shu kabilar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

Inson - ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lgan (yagona) moddiy (biologik) mavjudot. Qur'oni karim oyatlarida ta'kidlanishicha, har bir inson Alloh tomonidan "yer yuzining xalifasi" qilib yaratilgan, shunday ekan, butun moddiy olam uning tasarrufida va u dunyodagi barcha mavjudot taqdiri uchun mas'uldir. Insonning irodasi erkin va shu sababli har bir xatti-harakati uchun Alloh oldida

javob beradi. Inson o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan sari tom ma'noda Shaxsga aylana boradi.

Shaxs ma'naviyati – har bir inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik darajasi. Bu uyg'unlik har bir shaxsning imoni, ilmi, mas'uliyati, mehri orqali namoyon bo'ladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg'ularida ifodalanadi.

Borliq haqiqati – (Istina Bitiya) mavjud borliqning asl mohiyati, inson zoti hechqachon oxirigacha anglab yeta olmaydigan, ammo cheksiz ravishda turli yo'llar bilan anglab yetishga intiladigan mutlaq haqiqat. Har bir inson Borliq haqiqati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lib, ushbu tasavvuri umri bo'yi takomillashib borishi, ba'zan hatto keskin o'zgarib ketishi ham mumkin.

Imon – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan Borliq haqiqatiga samimiy e'tiqod. Imon-e'tiqod ma'naviyatning o'zak tomiri bo'lib, shaxs ma'naviyati imondan boshlanadi. Xalqimiz tilida "imonsiz" degan so'z eng og'ir haqorat sanalishi bejiz emas.

Ilm – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, Borliq haqiqatini anglab yetishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish. Ilm nuri bilan yorishmagan e'tiqod "taqlidiy imon" hisoblanadi va takabburlik bilan birlashsa aqidaparastlikka olib boradi.

Mas'uliyat - shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan Borliq haqiqatiga amalda sadoqat saqlash, har bir xatti harakatining oqibatini o'ylab qadam qo'yish. Inson erkin irodasi bilan o'zini dunyodagi barcha mavjudot uchun mas'ul deb bilsa va har bir qadamini qo'yishda ana shu mas'uliyatni his qilib tursa ayni shu shaxs haqiqiy ma'naviyat sohibidir.

Mehr - shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, insonlarga, tabiatga, har bir ishga beg'araz fidoiylilik bilan munosabatda bo'lish. Mehr ma'rifati 1) inson ko'nglini anglab yetish va unga mehr ko'rgazish bilan tarbiyalash, 2) insonning boshqa bir insonga bo'lgan beg'araz muhabbati tufayli xudbinlik balosidan forig' bo'lishi va Borliq haqiqatini anglab yetishi (Alisher Navoiy talqinida) ma'nolarini anglatadi.

Ma'rifat - ma'naviy kamolot yo'li, insonning ko'ngil ko'zgusini sayqallash jarayoni, ya'ni har bir insonning butun ongli hayoti davomida o'zligini anglash, o'zining Borliq haqiqatiga nisbatini aniqlash va o'z ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirib borish yo'lidagi harakati.

Tarbiyashunoslik (Pedagogika) – Ta'lim-tarbiya sohasining dolzarb masalalarini tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi maxsus fan bo'lib, ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi. Ma'rifat yo'llari (jumladan, ibrat va ilm,

riyozat va mehr) orqali ifodalanuvchi o'zlikni anglash ya'ni ko'ngil ko'zgusini sayqallash jarayoni milliy pedagogikamizning asosiy mavzularidandir.

Ibrat - milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, el-yurt ehtiromiga sazovor ulug' bir insonning yashash tarzi, e'tiborga loyiq xatti harakatlaridan namuna olib, hayotda ularga rioya qilish. Jumladan, islom ma'naviyatida payg'ambarimiz Muhammad(sav) ibratlari yetakchi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga ibrat ma'rifatini ko'r-ko'rona taqliddan farq qilish juda muhim.

Riyozat - milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, muayyan ezgu maqsad yo'lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, olg'a intilish. Islom mintaqa madaniyati doirasida riyozat ma'rifatini yuksak mukammallik darajasiga olib chiqishda tasavvuf piri murshidlarining xizmati beqiyosdir.

Oliy ma'naviy qadriyatlar - inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining turli darajalarini ifodalovchi timsol-tushunchalar. Shaxs va millat ma'naviy kamolida besh daraja, besh pog'ona sifatida besh ulug' ma'naviy qadriyat, besh ma'naviyat maydonini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular - Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat. Bularning har biri bir paytning o'zida ham Millat ma'naviyatining bosh tayanchlari, ham ularning har biri alohida bir tizimga, murakkab ichki mundarijaga ega bo'lgan timsol-tushunchalardir.

Vatan (tuyg'usi) - milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining avvalgi darajasi, har bir insonning muayyan moddiy makonga ma'naviy munosabati. Bu timsol-tushunchaning ma'no ko'lami yana o'z ichki takomil darajalariga ega (1-ruh uchun badan, 2-xonadon, 3-shahar, qishloq, 4-mamlakat, 5-ona-sayyora).

Shaxs (tuyg'usi) - milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining ikkinchi darajasi, har bir inson ma'naviy takomilning muayyan bosqichiga ko'tarilib, o'zligini anglay boshlagan holati.

Millat (tuyg'usi) - milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining uchinchi darajasi, har bir insonning muayyan (o'z tili, davlati, ma'naviy, siyosiy va hududiy birligiga ega bo'lgan) insonlar uyushmasiga o'zini aloqador ekanligini anglab yetishi.

Adolat (tuyg'usi) - milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining to'rtinchi darajasi, ma'naviyatning siyosat sohasida (ya'ni, insonlar aro munosabatlarda) akslanishi (yuzaga chiqishi).

Haqiqat (tuyg'usi) - milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining eng yuqori darajasi, inson ma'naviy kamolotining tasavvur qilish mumkin bo'lgan ideal holati.

Milliy ma'naviyat – har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyati majmuini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma'naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo'lib, millatning o'tmishi, buguni, hamda kelajagini o'zida mujassam etadi. U millatimizning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istaklarida o'z aksini topgandir. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyat - inson ma'naviy faoliyatining hosilasi, ma'naviyatning moddiy voqelikdagi izlari. Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyat botiniy imkon bo'lsa, madaniyat - ushbu imkondan tug'ilgan voqe' mavjudlik. Shaxs va millat ma'naviyatining nazariy masalalarini o'rganish uchun ilojisiz ravishda ayni shu voqe' mavjudlik dalillaridan kelib chiqishga to'g'ri keladi. Ma'naviyat sohasiga aloqador barcha fanlarning mavzulari ham aslida ana shu mavjud voqe'lik dalillariga tayangan holda ishlab chiqilishi tabiiy holdir.

Madaniyatshunoslik (Kulturologiya) - Ma'naviyat sohasiga aloqador yo'nalishdagi asosiy fanlardan bo'lib, jahon va mintaqa madaniyatlarini inson ma'naviy faoliyatining hosilasi bo'lmish mavjud voqe'lik sifatida olib o'rganish ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.

Ruhiyat – bir tomondan, insonning moddiy tabiati bilan (shahvat, nafs, jahl-g'azab, qo'rquv), ikkinchi tomondan, ma'naviyat olami bilan (imon-e'tiqod, mehr, mas'uliyat, iroda, ilm) tutashgan murakkab voqelik bo'lib, "Ruhshunoslik" fani inson ruhiy olamini ayni shu ziddiyatli murakkablik holatida olib o'rganadi.

Ruhshunoslik (Psixologiya) - Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) inson va jamiyatning turli ruhiy holatlari va ulardagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Bu fan, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tarafdin, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan psixologiya fanida hozirgi zamonga kelib ruhiyatni insonning moddiy borlig'i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog'liq ravishda (ya'ni eksperimental - zohiriy tajribalar asosida) o'rganish yetakchi o'ringa ko'tarildi. Yevropa psixologik maktablari o'z tadqiq mavzularini inson jismi, moddiy mohiyat bilan bog'liq holda o'rganishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog'liqligi ham shu sabablidir. Ammo inson ruhiyatini faqat uning sezish a'zolari va miya faoliyati bilangina

bog‘lab tushuntirishga urinish, ya’ni sof materialistik yondoshuv, bizning nazarimizda, bugungi kun ilmi uchun yetarli emas. Bu sohada milliy ma’naviy merosimiz an’analariga ham murojaat etish maqsadga muvofiq..

Nafs – milliy ma’naviyatimiz an’analariga binoan inson ruhiyatida moddiy olam ne’matlariga moyillikni ifodalovchi timsol-tushuncha. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajalari belgilangan.

Jon – biologik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun xos bo‘lgan tiriklik va erkin harakatga qobillikni anglatuvchi timsol-tushuncha.

Ruh – ilohiy kitob (Qur’oni karim) oyatlari mazmuniga binoan Alloh tomonidan faqat insonga in’om etilgan alohida g‘aybiy quvvat bo‘lib, bani odamning ma’naviy kamolot kasb etish imkoniyatining asosidir.

Nafsi ammora – insonni tamomila o‘z jiloviga olgan, harqanday og‘ir gunohlarga boshlovchi tarbiyaga bo‘ysunmagan, o‘jar nafs. Qur’oni karimning “Yusuf” surasida eslanadi.

Nafsi lavvoma – gunoh ishlarga yo‘l qo‘yganda vijdoni qiynala boshlagan, o‘z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo‘lgan inson nafsining holati. Qur’oni karimning “Qiyomat” surasida eslanadi.

Nafsi mutma’inna – Sokin muvozanatga erishgan, xotirjam, gunohlardan tiyilgan nafs. Qur’oni karimning “al-Fajr” surasida eslanadi.

Nafsi mulhama – ilhomlangan nafs, nafs tarbiyasining bu darajasiga erishgan insonlar o‘zgalarga beminnat yordam ko‘rsatishga moyil bo‘ladilar, savob uchun vaqtini, molini, mehnatini ayamaydilar.

Nafsi marziya – rozi bo‘lgan nafs, Alloh taqdir etgan yaxshi-yomon ishlarga sabr qiluvchi, turmush og‘irliklariga bardoshli, odamlarning noo‘rin munosabatlaridan xafa bo‘lib, gina qilmaydigan insonlar nafs.

Nafsi sofiya – dunyo orzu-havaslaridan, obro‘-e’tiborga intilish tamoyillaridan butkul forig‘lik darajasiga erishgan nafs, oriflik maqomiga yetishgan piri murshidlar, valiyar nafs.

Nafsi komila – payg‘ambarlar nafs, oddiy kishilar nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetishi qiyin, ammo komil nafs egasi bo‘lishga intilish ma’naviyat nishonasidir.

“O‘simlik ruhi” – milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha biologik mavjudotlar (nabotot, ya’ni o‘simliklar, hayvonot va insonlar) uchun umumiy bo‘lgan oziqlanish va o‘sish xususiyati, “quyi olamdan” (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasi asosida).

“Hayvon ruhi” – milliy ma’naviyatimiz an’alarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, tirik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun umumiy bo’lgan erkin harakatlanish va nafs (ya’ni, moddiy mayllar)ga ega bo’lish xususiyati, “quyi olamdan” (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasi asosida).

“Inson ruhi” - milliy ma’naviyatimiz an’alarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha inson zoti uchun umumiy bo’lgan tafakkur (fikrlash, aql ishlata bilish) va nutq (fikrini erkin bayon eta bilish) xususiyati, (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasi asosida).

“Muqaddas ruh” – milliy ma’naviyatimiz an’alarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, haqiqiy imon egalari, payg’ambarlar va valiyalar (orif insonlar) ruhiyatiga aloqador g’ayb olami bilan tutashlikni anglatuvchi atama, “yuqori olamdan” (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasida “osmoniy farishtalar jinsidan” deb ta’riflanadi).

Axloq - har bir shaxs ma’naviyatining uning xulqida, o’zga insonlarga munosabatida aks etishi, yuzaga chiqishi. Ma’naviyat va siyosat sohalarining kesishuvida namoyon bo’ladi.

Axloqiy fazilatlar – shaxs ma’naviyati turli qirralarining inson amaliy faoliyatida doimiy asosda namoyon bo’lishi, inson qalbidagi ma’naviyat nurining jilolari.

Axloqiy qusurlar - insonning ko’ngil ko’zgusidagi zang va chirklarning o’zgalar nigohiga namoyon bo’lishi.

Axloqshunoslik (Etika) - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo’lib, inson xulqi, uning axloqiy fazilatlarini va qusurlarining xolis tahlili bu fanning asosiy mavzusi (predmetini) tashkil etadi.

Adolat tarozusi – ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo’lgan timsol-tushuncha bo’lib, har bir zamon va makonda o’ziga xos ko’rsatkichlarni namoyon etadi va har bir insonning barcha fazilat va nuqsonlarini, iste’dod va kamchiliklarini aniq "vaznini" belgilab, o’shanga yarasha har bir shaxsning ijtimoiy qiymatini o’lchash va baholashga xizmat qiladi.

Milliy adolat – o’z millatiga mehr tuyg’usi o’zga millat namoyandasiga nisbatan noxolis yondoshuvga sabab (bahona) bo’lmasligi.

Diniy adolat – o’z e’tiqodiga sodiqlik tufayli o’zga e’tiqod egasiga noxolis munosabat izhor etmaslik.

Siyosiy adolat – siyosiy hokimiyatning yagona manbai xalq irodasi deb tan olinishi va Qonun ustivorligi tamoyiliga qat’iy rioya qilinishi.

Ijtimoiy adolat –barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

Dehqon - xususiy yer-mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa (fermer chorvador, bog‘bon). Ijtimoiy vazifasi: millatning boquvchisi, birlamchi moddiy ne‘matlar yetishtiruvchi. Bosh ma’naviy fazilati: tabiatga mehr.

Ziyoli - ma’naviyat sohasida yetakchi ijtimoiy toifa (san’atkor, olim, muallim), muayyan sohaning oliy toifali mutaxassisi (vrach, muhandis, agronom) Ijtimoiy vazifasi Millat tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, turli sohalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Bosh ma’naviy fazilati: Borliq haqiqatini anglash va anglatishga intilish. O‘tmishda ahli ilm, darveshlar, ahli hunar shoir va voizlar shu toifaga mansub bo‘lganlar.

Hunarmand-kosib – xususiy mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa vakili, qo‘li gul usta. Ijtimoiy vazifasi: sanoat sohasida mustaqil ishlab chiqaruvchi. Bosh ma’naviy fazilati: mahorat. O‘tmishda“ahli futuvva” ayni shulardan bo‘lgan.

Ishchi - Yollanma mehnat asosida ish bajaruvchi ijtimoiy toifa. Ijtimoiy vazifasi: mijozlarga xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Bosh ma’naviy fazilati: Mehnatkashlik.

Xizmatchi - yollanma mehnat asosida turli xizmatlar bajaruvchi ijtimoiy toifa Ijtimoiy vazifasi: turli tashkilot va muassasalarda tashkiliy ishlarni amalga oshirish. Bosh ma’naviy fazilati: Hozirjavoblik.

Siyosiy arbob - davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning mas’ul rahbarlik lavozimidagi asosan, ziyolilar toifasiga mansub guruh vakili. Ijtimoiy vazifasi: siyosiy boshqaruv.orqali mamlakatning siyosiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash. Bosh ma’naviy fazilati: millat taqdiri oldidagi mas’uliyatni his etish.

Harbiy mamlakat qurolli kuchlari, ichki ishlar va havfsizlik sohasida xizmat qiluvchilar. Ijtimoiy vazifasi: Millat himoyachisi, tinchlik paytida ham favqulodda holatlarga doimiy jangovar hozirlik saqlash, insonlar hayotiga xavf tug‘diruvchi jinoyatlarning oldini olish. Bosh ma’naviy fazilati: fidoiylilik.

Beklar va xonlar - O‘tmishda hukmron ijtimoiy toifa, zodagonlar. Harbiy ishlar va siyosiy boshqaruv shu toifa vakillari qo‘lida bo‘lgan.

Kanizlar va g‘ulomlar – O‘tmishda zodagonlar xonadonida barcha qora ishlarni bajaruvchi qaram ijtimoiy toifa. Qadimgi davr qullaridan farqli o‘laroq, islom dunyosida ular muayyan chekli huquqlarga ega bo‘lishgan.

Fuqarolik mas’uliyati – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his

qilish. Ushbu fuqarolik mas'uliyatini to'liq anglab yetmas ekanmiz, bizning Shaxs sifatidagi ma'naviy kamolotimiz ham tugallik kasb etmaydi.

“Fozil shahar” – Abu Nasr Forobiy talqinida "Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar". Har bir inson Haq oldidagi mas'uliyatini to'g'ri anglab, kamolot sari o'zi intilar ekan, o'zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko'makdosh bo'lishga astoydil urinsa, natijada "fozil shahar" (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi. Ulug'allomaning bu qarashlari bugungi kundagi "fuqarolik jamiyati" tushunchasini mukammal ifodalaydi.

Qadr – Xoliqi olam irodasi va qudrati bilan yaratilgan har bir mavjudotning olamdagi o'ziga yarasha o'rni va salmog'i, har bir insonga yaratilishdan ato etilgan ilohiy ne'mat. Haqiqiy Shaxs darajasiga yetishgan inson o'z qadrini, shu bilan birga yorug' olamdagi barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab yetgan, shu asosda jamiyatning faol a'zosiga aylangan inson bo'ladi. "Men Alloh tomonidan yer yuzida xalifa etib yaratilganman", deb o'zlikni anglab yetish - o'z qadrini to'g'ri baholashning poydevoridir. O'z qadrini anglab yetish barobarida har bir inson o'zga insonlar ham yer yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib, ularning ham qadrini o'zidan kam bilmaydi. Qadr timsol-tushunchasi ma'naviyatga oid bo'lib, uni iqtisod sohasiga tatbiq etilsa, qiymat va bahoga, siyosatda mavqe' va maqomga aylanadi.

Mavqe – har bir insonning jamiyatda ishg'ol etib turgan muayyan o'rni, qadri va qudrati. Siyosatdagi huquq, burch, imtiyoz hodisalarining tagzaminida ayni shu insonlarning bir-biriga nisbatan mavqe va maqomi masalasi joy olgandir.

Maqom – har bir insonning jamiyat hayotida rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan muayyan o'rni, holati. Har bir insonning mavqe' va maqomi orasidagi farq qancha kuchayib borsa, uning ruhiyatida ham ziddiyat kuchayadi, natijada bu holat jamiyat hayotiga hamsalbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Tadbirkor – mamlakatda ishlab chiqarish, tijorat va moliya ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi ijtimoiy toifa (sanoatchi, tijoratchi, bankir). Ijtimoiy vazifasi: mamlakatning iqtisodiy rivojini ta'minlash. Bosh ma'naviy fazilati: Farosat. O'tmishda asosan tijorat ahli sifatida namoyon bo'lgan.

Farosat - voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga to'g'ri munosabat hosil qila bilmoqlik, shu bilan birga voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilishdir. Buning uchun inson, avvalo, o'z holini to'g'ri idrok etishi, ikkinchidan, o'zgani tushunish, o'zgalarning ehtiyoji, xohishi, imkoni haqida to'g'ri tasavvur hosil qila bilishi kerak.

Iqtisodiy adolat – bozor iqtisodi qonuniyatlariga (mulk shakllarini erkin tanlash huquqi, talab va taklif erkinligi, erkin raqobat tamoyillariga) rioya qilish.

Iqtisodiy munosabatlar - har bir insonning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zga insonlar bilan turli munosabatlarga kirishuvi.

Shaxsning iqtisodiy mustaqillik mas'uliyati – har bir balog'at yoshidagi inson o'zi va o'z qo'l ostidagilar moddiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda va halol yo'l bilan ta'minlash zaruratini to'g'ri anglab yetib shunga yarasha harakatda bo'lishi. Inson - hayvon emas, ammo farishta ham emas. Unga faqat biologik mavjudot deb qarash yetarli bo'lmasa-da, ammo moddiy mavjudligini ta'minlash ehtiyoji va o'zidan so'ng zurriyot qoldirish vazifasi har bir insonda mavjud ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi. Inson o'z moddiy mavjudligini umr bo'yi, uzluksiz ta'minlab borishga majbur, busiz u o'zga hech qanday vazifani bajara olish imkonini topmaydi.

Qiymat – har bir narsa-hodisaning iqtisodiy o'lchovlarda ifodalangan salmog'i.

Baho – har bir narsa, hodisaning muayyan zamon va makon o'zgarishi bilan o'zgarib turuvchi qiymati.

Ibtidoiy (natural) xo'jalik - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir insonning o'z moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiat bilan bevosita amaliy munosabatlarga kirishib, o'z aqli, malakasi, mehnati yordamida o'zi va oilasi uchun rizq topishi.

Bozor iqtisodi – mulk turlarining xilma-xilligi, erkin talab va taklif asosida o'zaro mahsulot almashuviga tayanuvchi iqtisod tizim.

Total (yalpi) davlat iqtisodi - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning tarixiy shakllaridan biri, barcha mulk davlatga qarashli bo'lib, barcha ishlab chiqarish va taqsimot davlat ixtiyorida bo'lishi. Bunday tuzumda ilojiy ravishda total siyosiy va mafkuraviy istibdod (diktatura) mavjud bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish asta-sekin susayib boradi.

Ibtidoiy bozor iqtisodi - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir mustaqil xo'jalikning ibtidoiy ishlab chiqarish vositalariga tayangan holda biror tur yoki yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarib, bozorda uni boshqa mahsulotlarga almashishi.

“Yovvoyi bozor” - (shartli atama) - ibtidoiy bozor iqtisodi yoki yalpi davlat iqtisodidan rivojlangan bozor iqtisodiga o'tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, hanuz siyosat va ma'naviyatda yetarli yangilanishlar ro'y bermagan holatda hukmron guruhlarining xudbinlik mayllari avj olishi natijasida shakllanuvchi va ommaviy norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'luvchi iqtisodiy vaziyat bo'lib, asosan Yangi davrning boshlarida Yevropada vujudga kelib, bora-bora butun dunyoda mustamlakachilik

sistemasining shakllanishiga olib kelgan. Bugungi kunda ham dunyoning ba'zi nuqtalarida ushbu tizimning birqator unsurlari muayyan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.

Rivojlangan bozor iqtisodi - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, yuqori darajada takomillashgan ishlab chiqarish vositalariga, yuqori texnologiya va ilmiy taraqqiyotga tayangan, siyosatda demokratiya va ongli fuqarolik jamiyati bilan hamqadam taraqqiy etayotgan murakkab ko'rinishli iqtisodiy tizim.

Bozor iqtisodining asosiy ko'rsatkichlari - 1) mulk turlarini erkin tanlash imkoniyati, 2) talab va taklif erkinligi, 3) erkin raqobat imkoniyati, 4) bozorning har uch yo'nalishi: mahsulot, ishchi kuchi va qimmatli qog'ozlar bozorining mukammal shakllanganligi

Ilohiy bilim - faqat Allohga tegishli bo'lgan cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim, insonlarga u vahiy sifatida payg'ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas.

Insoniy bilimlar - insonga yaratilishdan berilgan tafakkur va tahlil qobiliyati tufayli hosil qilingan, nisbiy, ya'ni nomukammal va adashuvlardan xoli bo'lmagan bilim.

Irфонiy bilim - tasavvufda oriflik darajasiga erishgan sufiylarga ilohiy ilhom orqali beriladigan bilim, ilmi laduniy. Insonlar tilida boshdan-oyoq faqat ramz va ishoralar orqali ifodalanadi.

Naqliy bilimlar – ilohiy kitoblar orqali yoki turli yo'llar bilan (asosan, yozma manbalarda) o'tmish ajdodlardan yetib kelgan bilimlar.

Aqliy bilimlar - inson o'z tafakkuri bilan yetishgan bilimlari.

Mantiqiy bilim - inson o'zi bilgan narsalarini fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilgan bilimlari.

Nazariy bilim - mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan bilim.

Modellashtirish – Borliq haqiqatini anglab yetish va o'zgalarga anglatishga urinishning o'ziga xos yo'nalishi, muayyan tushunchalar yoki timsollar tizimi vositasida murakkab voqelikni soddalashtirib, yaxlit shaklda ifodalash.

Tafakkur turlari - Borliq mohiyatini anglab yetishga urinishning turli usullari, asosan tushuncha, tasavvur va timsollarga tayanib olib boriladigan aqliy faoliyat turlari.

Asotir tafakkur - Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar odamining fikrlash tarziga

xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g'ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda.

Amaliy tafakkur - muayyan hayotiy tajriba asosida amaliy hulosa qilish.

Mantiqiy tafakkur - asosiy tafakkur turlaridan, sabab-oqibat bog'lanishlari asosida fikr yuritish.

Timsoliy tafakkur - asosiy tafakkur turlaridan, badiiy tafakkurning asosi, o'z fikrini ramz va timsollar vositasida ifodalash.

Tarixiy tafakkur - asosiy tafakkur turlaridan, turli manbalar orqali aniqlangan ma'lumotlarga tayanib xulosalar qilish.

Evristik tafakkur - asosiy tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, ilmiy va badiiy ijod jarayonida tamomila yangicha g'oyalar, yechimlar, timsol va tasavvurlarning yaxlit shakllanishi.

Irfoniy tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, riyozat va ilohiy jazba natijasida hosil qilingan laduniy bilimlarni timsol va ishoralar vositasida ifodalash.

Falsafiy tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkur asosida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish.

Ilmiy tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkurga hamda maxsus amaliy tajribalarga tayangan holda muayyan nazariy muammoni hal qilishga urinish.

Riyoziy (matematik) tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, aniq formulalar, chizmalar, tenglamalar, raqamlar nisbati vositasida o'z fikr va g'oyalarini ifoda etish.

Estetik tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, muayyan hayotiy hodisalarga go'zallik va ichki uyg'unlik talablaridan kelib chiqib munosabatda bo'lish.

Badiiy tafakkur – Ko'proq timsoliy va evristik tafakkur asosiga qurilgan murakkab tarkibli tafakkur turlaridan bo'lib, ijodkorning Borliq haqiqati haqidagi o'z tasavvurlarini. hayotiy yoki xayoliy timsollar tizimi vositasida modellashtirishi. Badiiy timsol haqiqatni o'zida to'liq ifodalashga da'vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi.

Nafosatshunoslik – (Estetika) Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy tafakkur qonuniyatlari, go'zallikning mohiyati, moddiy borliq va san'atning turli sohalarida shakl va ma'no uyg'unligi masalalari ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti) ni tashkil qiladi.

Axloqiy tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning amaliy faoliyatini muayyan ma'naviy-axloqiy tartib-qoidalar nuqtai nazaridan baholash.

Siyosiy tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ijtimoiy hodisalarga muayyan siyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan yondoshish.

Huquqiy tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning xatti harakatlariga muayyan qonunlar bilan belgilangan huquqiy normalar nuqtai nazaridan yondoshish.

Tavhidiy tafakkur - Insoniyatga xos barcha tafakkur turlari yagona Borliq haqiqatining turlicha jilolari ekanini anglab yetib, e'tirof etish, o'zgacha fikrlovchi insonni tushunishga intilish, XXI asr odamining fikrlash tarzi.

Jahon madaniyati - turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat bo'lib, mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat hayotda asli mavjud emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida avval muayyan kichik jamoalar doirasida shakllangan madaniyat unsurlari bora-bora kengroq miqyos kasb etib, turli elat va millatlar, mintaqalar madaniyati darajasiga ko'tarilib bordi va nihoyat Yangi davrga kelib yaxlit bir voqelik sifatida idrok etila boshladi.

Umuminsoniy (ma'naviy) qadriyatlar - ularni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, aslida dastlab har bir millat ma'naviy qadriyatlari o'ziga xos tizim shaklida namoyon bo'ladi, keyinroq har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi davomida asta-sekin shakllantirib borgan bunday tizimlar turli elat va millatlarning o'zaro munosabatlari tufayli bir-birini tushunish, barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarni tadrijiy anglab borish jarayonida asta-sekin umuminsoniy mohiyat kasb etib boradi. Zotan, milliy ma'naviyatimiz zamirini bizni o'zgalardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar tashkil etadi.

Din –muayyan insonlar guruhining Borliq Haqiqati haqidagi (odatda ilohiy vahiyga asoslangan) tasavvurlari, ularga qat'iy ishonchi, shu ishonchga muvofiq amal qilishga intilishi. Dinning botiniy va zohiriy jihatlari mavjud bo'lib, botiniy jihati imon, zohiriy jihati ibodatlardir. Imon masalasi din va ma'naviyatning umumiy jihati bo'lib, diniy imon ma'naviyatning muayyan jihatiga nisbatan xususiy holdir.

Islom dini – Muhammad(sav) ga vahiy orqali nozil bo'lgan Allohning oxirgi kitobi Qur'oni karimda va Payg'ambarimizdan yetib kelgan sahih hadislarda o'z ifodasini topgan e'tiqod tizimi.

Musulmonchilik – Allohning borligi va birligi hamda Muhammad(sav) uning oxirgi haq payg'ambari ekanligiga imon keltirgan barcha insonlarning islom dini haqidagi tasavvurlari. Islom madaniyati tarixida islom aqidalarini

tushunishdagi turlicha qarashlarning mavjud ekanligi islom va musulmonchilik o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli voqeliklarni anglatishini ko‘rsatadi.

Islom ma’naviyati – Oxirgi va mukammal ilohiy kitob bo‘lmish Qur’oni karim mazmunida ifodalangan ma’naviyat tizimi bo‘lib, Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuv sari intilishida g‘aybiy hidoyat yo‘li hisoblanadi. Islom dini va ma’naviyati mohiyatan boshqa-boshqa narsalar emas, ammo insonlar tasavvurida ular farq qilishi mumkin. Masalan, islom dinida qabul qilingan farz ibodatlar va aqidaviy qoidalar boshqa tavhidiy dinlardan farq qiladi, ammo islom ma’naviyatiga ko‘ra har bir inson o‘z aqidasi va Borliq haqiqati to‘g‘risidagi tasavvurlaridan qat’i nazar “yer yuzidagi xalifa” sifatida ehtiromga sazovordir.

Dinshunoslik - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, dunyoda mavjud diniy tizimlar, ularning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari, turli dinlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o‘rni bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

Siyosat va din munosabatlari - jamiyatda har bir shaxs ma’naviyati orqali dinning siyosatga ta’siri o‘z-o‘zidan mavjud, ammo diniy e’tiqoddan bevosita siyosiy qurol sifatida foydalanishga urinish bugungi kunda nihoyatda xavfli siyosiy avantyurizm bo‘lib, mohiyatan ma’naviyat sohasiga aloqador bo‘lgan imon-e’tiqod masalasiga mutlaqo aloqasi yo‘qdir.

Ilm-fan – shaklan madaniyat sohasining tarkibiy qismi, naqliy va aqliy bilimlar majmui, mazmunan turli iqtidor egalari ma’naviyatining samarasi sifatida tashkil topgan bo‘lib, aniq va tabiiy fanlar, iqtisod fanlari, ijtimoiy-siyosiy fanlar, texnika fanlari, ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar kabi turli yo‘nalishlar va tizimlardan iborat.

Aniq va tabiiy fanlar -. insonning moddiy ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan bilimlar majmui, ularni aniq bilish mumkin va kerak, taxminiylilik bu yerda taxmin (gipoteza) darajasida qoladi. Ammo bu bilimlar doimo xususiy hodisalarga oid bo‘lib, ular yordamida Borliq haqiqatini yaxlit anglab yetishga urinish befoyda, ularga tayanib moddiy voqelikdan tashqari chiqmoqchi bo‘linsa, tajovuz bo‘ladi, adashuvga olib keladi, g‘ayri ilmga aylanadi.

Ijtimoiy-siyosiy bilimlar - insonlar aro munosabatlarga oid bilimlar. Bu sohada qoniqarli xulosalarga erishish uchun ham ilohiy, ham irfoniy, ham aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo‘ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli ko‘payadi. Chunki aslida bu sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun mintaq va millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o‘rganish zarur.

San’at - Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo‘li, taxayyul o‘yinlari vositasida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish. San’at

ma'lum ma'noda insoniyatning bolalik odatidan rivojlanib chiqqan. Bola o'ynaydi, o'yin orqali hayotiy ko'nikmalar hosil qilib boradi. San'at turlari ham o'ynab turib o'rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o'yini - beg'araz. Kattalarning o'yiniga esa doimo g'araz xavf solib turadi. Ammo haqiqiy san'atkor o'z ishiga beg'araz yondoshmagina, u hayot haqiqatini uyg'un aks ettira oladi.

Taxayyul – (qadim Yunon terminologiyasida “imaginatsiya”, ruscha “voobrajeniyе”), Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishda asotir tafakkur, falsafiy va badiiy tafakkurning asosiy vositasi bo'lib, ijodkor shaxsning Borliq haqidagi o'z tasavvurlarini xayoliy timsollarda modellashtirishini bildiradi. Uning mohiyati taniqli rus olimi Y. Golosovkerning “Logika mifa” kitobida batafsil izohlab berilgan.

O'yin – jonli mavjudotlar, (inson va hayvonlar) tabiatiga xos ixtiyoriy harakat tizimi bo'lib, faol dam olish va hayotiy ehtiyojlarga moslashish usuli. Bola o'ynaydi, o'yin orqali bola hayotni o'rganadi. Sport, adabiyot va san'atning barcha turlariga ham ma'lum darajada ana shu tamoyil xos bo'lib, inson zoti ular orqali “o'ynab turib” jismoniy va ma'naviy kamol topib boradi.

San'atshunoslik – San'atning turli yo'nalishlarini o'rganuvchi fan bo'lib, bugungi kunda musiqashunoslik, teatrshunoslik, kinoshunoslik, kabi turli yo'nalishlarga tarmoqlanib ketgan. Borliq haqiqatini turli badiiy tasvir vositalari asosida modellashtirishning o'ziga xos yo'llarini o'rganishi jihatidan ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan hisoblanadi.

Badiiy adabiyot – san'atning bir turi, inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga intiluvchi asosiy vositalardan bo'lib, milliy ma'naviyatimiz an'analari ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot o'z mohiyatiga ko'ra Borliq haqiqatining botiniy sirlarini zohiriy timsollar vositasida majoziy ifodalash qudratiga ega.

Adabiyotshunoslik - Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy adabiyotni Borliq haqiqatini badiiy timsollar asosida modellashtiruvchi so'z san'ati sifatida o'rganadi., Jahon va milliy adabiyotlar tarixi, adabiy tanqid va adabiyotning nazariy masalalari bu fanning asosiy mavzulari (predmeti)ni tashkil etadi.

Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya) - Insonlar jamiyatini sinxronik kesimda o'rganadi Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar holatidagi o'zgarishlar va ularning sabab-oqibatlarini xolis tahlil qilish bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) bo'lib, ma'lum darajada ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub deyish mumkin

Tarix(shunoslik) - Insonlar jamiyatini diaxronik kesimda o'rganadi - Jahon va turli o'lkalar tarixi, umumbashariy, turli mintaqalar va elatlarga xos siyosiy,

ijtimoiy, madaniy taraqqiyot qonuniyatlari bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi. Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi

Sinxroniya – muayyan bir zamonga xos masalalarni yaxlit tizimda olib qarash.

Diaxroniya - muayyan bir masalalar tizimini tarixiy izchillikda olib qarash.

Xalq ijodi – Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo'li bo'lib, ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi 1) xalq badiiy ijodi, mumtoz san'at namunalaridan muayyan jihatlariga ko'ra farq qiladi, masalan, xalq ijodi namunalarida an'anaviylik, ijod va ijro yaxlitligi, so'z, harakat va musiqa uyg'unligi yorqin namoyon bo'ladi, bir asar ustozdan shogirdga o'tgan sari sayqal topib boradi, ya'ni ijodiy jarayon davomiylik kasb etib, mualliflik yakka bir shaxs doirasidan tashqari chiqadi;.2) xalq amaliy san'ati, xalq ijodining bu turida yaratilgan ashyolar bir paytning o'zida ikki yo'nalishda – ham amaliy (utilitar), ham estetik vazifa bajarishi bilan sof san'at asarlaridan farqlanadi.

Marosimlar – Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo'li, ular ikki turli bo'ladi: 1) asotir marosimlar (mifologik rituallar), ular insoniyatning ibtidoiy tafakkuriga xos bo'lib, muayyan narsa-hodisalar va xatti-harakatlarning inson va tabiat hayotiga sirli ta'siri bor, degan aqidaga tayanadi. 2) an'anaviy urf-odatlar, el orasida joriy bo'lgan rasm-rusumlar, ularning aksariyati muayyan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, shu jihatdan bolalar o'yini va xalq ijodi namunalariga yondosh turadi.

Elshunoslik (Etnografiya) - Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, turli xalqlarning urf-odatlari va marosimlari xalq ongidagi asotir tafakkur unsurlari, an'anaviylik va etiket, xalq ijodi turlari va shakllari, urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati kabi masalalar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) hisoblanadi.

Ma'naviyatning tarkibiy tuzulmasini necha guruhga bo'linadi?

- {=2 ga
- ~ 4ga
- ~ 3ga
- ~ bo'lish mumkin emas}

O'zbekistonda barcha oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat asoslari" maxsus fan sifatida nechanchi yildan o'qitila boshlagan?

- {= 1992 yil
- ~1994 yil
- ~2001 yil
- ~1997 yil}

Jahon ilmida ma'naviyatning o'rganilishi.

- {=jahon ilmida ma'naviyat masalalari turli fanlar – etika, estetika, kulturologiya, dinshunoslik, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik doirasida o'rganiladi
- ~umuman o'rganilmaydi
- ~ faqat dinshunoslik doirasida o'rganiladi
- ~ faqat kulturologiya (madaniyatshunoslik) doirasida o'rganiladi}

Madaniyatlar integratsiyasi deganda nimani tushunasiz?

- {=. Madaniyatlarini bir-biriga ziddiyatli ta'siri
- ~Madaniy har - xillik
- ~. Madaniyatlarning o'zaro yaniqlashuvi
- ~ Madaniyatlarning buzilishi}

Ma'naviy merosini mustahkamlash mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini aniqlang?

- {= Barcha javoblar to'g'ri
- ~ Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik
- ~ Xalqimizning va rivojlantirish
- ~ Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish va vatanparvarlik}

Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari nechanchi yilda nashr etilgan

- {= 2008 yil
- ~2009 yil
- ~2007 yil
- ~2005 yil}

Submuhit nima?

- {= Salbiy muhit
- ~Nosog'lom muhit
- ~Kichik muhit
- ~Global muhit}

Qaysi Mutafakkir ijodida "Inson vujudida ko'ngil – podshoh, aql – vazir" degan qarash yetakchi o'ringa ega?

- {= Motrudiy

- ~Beruniy
- ~ G'azzoliy
- ~Jaloliddin Rumiy}

Ateizm bu...

- {= Jamiyatda dinga ustuvorlik berilishi
- ~Xudoni inkor etish, din va diniy qadriyatlarni tan olmaslik
- ~ Siyosatning dinga bo'ysundirilishi
- ~ Xudo yagonaligini tushuntiruvchi ta'limot}

Ilk va so'ngi sharq uyg'onish davri qaysi davrlarni o'z uchiga oladi?

- {= Ilk uyg'onish IX – XII asrlar , so'ngi uyg'onish davri XIV – XV asrlar
- ~ Ilk uyg'onish IX – XII asrlar , so'ngi uyg'onish davri XII – XV asrlar
- ~ Ilk uyg'onish IX – XI asrlar , so'ngi uyg'onish davri XV – XVI asrlar
- ~ Ilk uyg'onish IX – XII asrlar , so'ngi uyg'onish davri XIV – XIV asrlar}

Qaysi mutafakkir jamoani ibtidoiy jamoa va shahar jamoasi ajaratgan?

- {= Ibn Sino
- ~ Ibn Rushd
- ~ G'azzoliy
- ~ Ibn Xaldun }

“Dogmatizm” ta'rifi berilgan javobni belgilang?

- {= Tushuncha, nazariya, gipoteza va qonunlar o'zgarmaydi deb ko'rsatuvchi ta'kimot
- ~Hissiy bilish haqidagi ta'limot
- ~Voqea va hodisalar o'ratasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan ta'limot
- ~Moddiylikni inkor etuvchi ta'limot}

O'zbekiston o'zi uchun eng maqbul deb tanlagan rivojlanishning.

- {= Evolyusion(tadrijiy)yo'lidan bormoqda
- ~ “Shok terapiyasi” yo'lidan bormoqda
- ~ Revolyusion(inqilobiy) yo'lidan bormoqda
- ~ Ma'naviy taraqqiyot yo'lidan}

Ma'naviy yo'qotish nima?

- {= global muammolar
- ~ jamiyatning iqtisodiy tanazzulga uchrashi
- ~ millatning qadriyati, tafakkuri va turmush tarzining izdan chiqishi, manqurtlik
- ~moddiy, moliyaviy yo'qotishlar}

Diniy aqidaparastlarning asosiy maqsadi?

- {=islomiy davlat (halifalik) va taraqqiyot yo'lini joriy etish
- ~islom dinining nufuzini oshirish
- ~ islom dinini tanazzulga boshlash
- ~insonlardagi ma'naviy bo'shliqni yot g'oyalar bilan to'ldirish}

Farobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat deb biladi va bunga nima orqali erishish mumkin deb hisoblaydi?

{= Din

~ Adolat

~ Kurash

~ Ma'rifat }

Ma'naviyatning tarkibiy qismi to'g'ri keltrilgan javobni belgilang ?

{= Axloq, poklik, bilim

~ Axloq, ma'naviy meros, qadriyatlar

~Ma'naviy meros, xalq og'zaki ijodi, huquq

~Qariyat, siyosat, an'ana }

"Ma'nviyat – taqdirning ehsoni emas" iborasining muallifi kim?

{= Islom Karimov

~ A. Avloniy

~ A. Erkayev

~ Q. Nazarov }

"Ma'naviyat" tushunchasi kelib chiqishi to'g'risidagi farazda qaysi tillardan kelib chiqqanligi aytilgan?

{=arab tilidan "ma'ni", sanskrit tilidan "ma'nas"

~arab tilidan "ma'no", sanskrit tilidan "ma'na"

~arab tilidan "ma'no", fors tilidan "ma'nas"

~arab tilidan "ma'na", fors tilidan "maoniy" }

Qo'zyozmalar, qoyatosh tasvirlari, toshbitiklar va arxeologik yodgorliklar manbalarning qaysi turiga kiradi?

{= Etnografik

~ Bilvosita

~ Bevosita

~to'g'ri javob yo'q }

Zardushtiylik dinining O'rta Osiyo xalqlari e'tiqodidan chiqishiga qaysi voqea asosiy ta'sir ko'rsatgan?

{= 7-8 asrlarda O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va islomning tarqalishi

~ Avestoning ko'pchilik qismining yo'qolishi

~ Zardushtiylikning keng tarqalmagani

~ To'g'ri javob yo'q }

Avestoning hajmi katta bo'lganligi uchun dindorlar ixchamlashtirilgan " Kichik avesto" ni yaratganlar. U qanday nomlanadi.

{= Nusha
~ Xo'rda avesto
~ Visparad
~ Yasht}

“Avesto” qachon yaratilgan?

{= I –ming yillikning 1 yarmida
~ 1 ming yillik oxirida
~1 ming yillik boshlarida
~ Aniq ma'lumot mavjud emas}

Avesto necha nask (qism) dan iborat bo'lgan?

{= 12
~11
~21
~ 7}

Avestoning 2700 yilligi mamlakatimizda nechanchi yilda nishonlandi?

{= 2001 yilda
~2000 yilda
~2004 yilda
~2002 yilda}

Zardushtiylik dinida inson qaysi ma'buda orqali olovda tozalanib, qayta tiriladi?

{= Axriman ma'budasi orqali
~Mitra ma'budasi orqali
~ Axuramazda ma'budasi orqali
~. Dindagi barcha ma'budalar orqali}

Zardushtiylik dinining asosiy manbai va muqaddas kitobi qaysi?

{= Avesto
~.Tavrot
~ Injil
~Bibliya }

Avesto nechata qoramol terisga yozilgan?

{=12 ming
~ 5 ming
~3 ming
~10 ming}

Zardushtiydagi muqaddas unsurlar.

{=suv, tuproq, olov, havo
~ suv, tuproq, metal

~ suv, tuproq, yog'och, havo
~ olov va havo}

Zardushtiylikda mitra bu.

{= Osmon xudosi
~ Suv xudosi
~ Quyosh xudosi
~ Hosildorlik xudosi}

O'rxun Enasoy yodgorliklari nechanchi asrlarga tegishli?

{= 5-9 asrlar
~ 3-2 asrlar
~ 5-9 asrlar 5-7 asrlar
~ 4-5 asrlar}

Kultegin bitiktoshi necha qismdan iborat?

{= 2
~4
~3
~5}

Turkiy bitiktoshlar kim tomonidan topilib o'qilgan.

{= M. Taylor
~J. Andersen
~ U Tomsen
~ Szi Kim}

Turkiy bitiktoshlar qanday janrga mansub?

{= Romantizm
~Jangnoma
~Sarguzasht
~ Madhiya va marsiya}

Turk xoqonligi nechanchi yilda yuzga kelgan?

{= 545 yilda
~490 yilda
~453 yilda
~458 yilda}

Turkiy toshbitiklarni manbalarni qaysi turiga kiritish mumkin?

{= Bevosita
~Bilvosita
~Etnografik
~Siyosiy}

Turkiy toshbitiklar qanday asosan toshlarga bitilgan?

{= Chinni lavhalarga

- ~ Qoyatoshga
- ~Qabr toshiga
- ~Granitga}

Turkiy toshbitiklarning asosiy g'oyasi tog'ri keltirilgan javobni belgilang.

{= Xalqni birlashtirish, erkinlik, tinchlikni ta'minlash.

- ~ Xoqonlarni ulug'lash.
- ~ Hokimiyat chegarlarini kengaytirish
- ~ Milliy adabiyotni rivojlantirish}

Bitiktoshlarga erkinliga qanday baho berilgan?

{= Erkinlik xalqqa berilmaydi

- ~ Erkinlik xoqoning hukmi
- ~ Erkinlik xalq farzandi
- ~ To'g'ri javob yo'q}

Bitiktoshlarda madhiyalar asosan kimlarga bag'ishlangan?

{= Xoqon va buyuk lashkarbosilarga

- ~Oddiy xalq vakillariga
- ~Askarlarga
- ~Ruhoniylarga}

Tavhid Qur'on va sunnat ulamolari nazdida necha qismdan iboratdir?

{= 3

- ~ 2
- ~ 4
- ~ 5}

Qur'oni karimda «ilm» so'zi asosidagi «alima» (bilmoq) fe'l negiziga tayangan kalimalar necha marta uchrashi tadqiqotlarda aniqlangan ?

{= 777

- ~580
- ~750
- ~950}

Islom mintaq madaniyati – asosan nechanchi asrlarda rivojlangan?

{=8-9 asrlarda

- ~6-7 asrlarda
- ~ 8-11 asrlar
- ~ 9-11 asrlarda}

Qur'oning nechanchi surasi ba'zan tavhid deb nomlandi.?

{= 60

- ~114
- ~112
- ~ 110}

Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga doir muhim ma'lumotlar aks etgan «Klassik islom» kitobi qachon va qayerda nasr etilgan?

{= 1970 yili Londonda

~1971 yil Moskovada

~1975 yil Parijda

~1989 yil Rimda}

Tavhid so'zining ma'nosi nima?

{= Tarkidunyochilik

~ Iymonlilik

~Taqvodorlik

~ Yakkaxudolik }

Shveytsariyalik sharqshunos Adam Mets IX X asrlarda musulmon Sharqida yuz bergan madaniy rivojlanishning tarixiga bag'ishlangan qanday asar yozgan?

{=Musulmon renessansi

~ Buyuk Uyg'onish

~ Sharq tamadduni

~Istiqbol yo'li}

Yevropadagi renessans hamda musulmon mamlakatlaridagi yuksalishning umumiy ildizi, yunon fani yutuqlarining qayta tiklanishi bo'lgan degan fikr kimga tegishli?

{= J. Sarton

~Jon Kim

~ Adam Mets

~E. From}

Amerikalik mashhur fan tarixchisi Jorj Sarton XI asrni qanday nomlagan?

{= Beruniy asri

~Ilm asri

~Forofiy asri

~Taraqqiyot asri}

Shveytsariyalik mashhur olim Genrix Zuterning «Arab matematiklari va astronomlari hamda ularning asarlari» nomli kitobida 750 yildan 1600 yilgacha yashab o'tgan necha nafar musulmon matematik va astronomlarining qisqacha hayoti, asarlari va ba'zilarining qo'lyozmalari saqlangan makon haqida ma'lumotlar beriladi?

{= 528 nafar

~ 500 nafar

~ 400 nafar
~250 dan ortiq}

Islom ilohiyot ilmi kalom nechanchi asrda vujudga kelgan?

{= 8 asr
~ 9 asr
~ 7 asrning ikkinchi yarmi
~ 10 asr boshlarida}

Tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi kishi qanday atalgan?

{=Murshid
~Murid Murshid
~Muhaddis
~Mutakallim}

Mu'taziliylar imonning shartlari nechta deb hisoblaydilar.

{=4
~2
~ 3
~ 5}

Qaysi buyuk alloma "Imom al-xudo", "Imom al-mutakallimon" ("Hidoyat yo'li imomi", "mutakallimlar imomi") nomlari bilan ulug'langan?

{= G'azzoliy
~Buxoriy
~G'azzoliy Motrudiy
~ Termiziy }

"Kitob at-tavhid" asari muallifini aniqlang ?

{= Beruniy
~ Hasan Basriy
~Beruniy Motrudiy
~Ibn Sino}

Yusuf xos Hojibning mashhur asari keltirilgan javobni belgilang?

{= Qutadg'u bilig
~ Siyosatnoma
~Axloqi Muhsiniy
~ Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar }

"Ilm olish har bir mo'min va muslima uchun farzdir", - deb qayerda yozilgan?

{= Rasadxona binosida
~ Oqsaroy peshtoqida
~ Buxorodagi madrasa peshtoqida
~ Registon maydonida}

Mustaqillik sharoitida dinga qanday yondoshish lozim?

{=tafakkur va ilmiy bilish darajasidan kelib chiqib
~davlat qo'ygan talablardan kelib chiqib
~din nimani ilgari sursa, barchasiga amal qilib
~so'rab-surishtirmay ishonish}

Movaraunnahr qaysi yillarda arab xalifaligi tomonidan bosib olingan?

{=703-706
~706-718
~703-706 704-715
~715-720}

Islomda hadislarini to'plash va yakunlash qaysi asrlarda sodir bo'lgan?

{=IX-XII asrlarda
~aXII-XIII asrlarda
~XII-XII asrlarda
~X-XX asrlarda}

Islom dini Muhammad alayxissalom tomonidan qaysi yildan boshlab tashviqot qilingan?

{=610 yildan
~ 570 yildan
~622 yildan
~ 632 yildan}

Qur'onning yozma nusxasi qaysi halifa davrida yozib tugatilgan?

{= Ali halifaligi davrida
~ Muhammad payg'ambar davrida
~ Abu Bakr Siddiqiy halifaligi davrida
~ Usmon Ibn Affon halifaligi davrida}

Islom dinining nazariy va g'oyaviy manbalari qaysi?

{=Qur'on Karim, hadisi-sharif, ijmo va qiyos
~shariat qonun-qoidalari
~tariqat qonun-qoidalari
~muhandislar yozgan hadislar }

Islomda hadislarini to'plash va yakunlash qaysi asrlarda sodir bo'lgan?

{= XII-XII asrlarda
~aXII-XIII asrlarda
~XII-XII asrlarda IX-XII asrlarda
~X-XX asrlarda}

Islom o'z mazmuni va mohiyati jihatidan qanday qadriyat deb hisoblanadi?

{= Islom umuminsoniy qadriyatidir
~ Islom o'zbek xalqining diniy va mintaqaviy qadriyatidir
~ Islom o'zbek xalqining milliy qadriyatidir
~Islom arablarning milliy qadriyatidir }

Imom al –Buxoriyning ”Al – jome’ as-sahih” asari nechta hadisdan iborat

{= 4000 ta
~ 6565 ta
~ 4000 ta 7275 ta
~ 2725 ta }

Hadis so'zining ma'nosi nima ?

{= Habar
~ Ma'lumot
~ So'z
~ Amal }

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ”muhaddislar sultoni” nomi bilan qaysi alloma e'tirof etilgan?

{= Iso Termiziy
~ Imom Buxoriy
~Imom Motrudiy
~Burhoniddin Marg'inoniy }

Azaldan bizning yurtimizda fiqhda va aqidada qaysi ta'limotlarga rioya qilib qilingan?

{=fiqhda hanafiylik, aqidada esa moturudiya
~fiqhda moturudiya, aqidada ash`ariya
~fiqhda moturudiya, aqidada esa hanafiylik
~fiqhda hanafiylik, aqidada esa ash`ariya }

Mir arab madarsi qaysi viloyatda joylashgan?

{= Xivada
~ Samarqanda
~ Buxorod
~Shahrisabz }

«Tariqat» qanday tushuncha?

{= «Tariqat» komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l bo'lib, unda ruhan va vijdonan poklanib, olloh nazariga/vasligi/ yetishish uchun ko'rashuvchi bosqichlardan iboratligini aks ettiruvchi tushunchadir
~ «Tariqat» chuqur diniy tushuncha bo'lib, Olloh yo'lida inson o'zini safarbar qilishdir

~tariqat butunlay dindan ajralgan, dunyoviy bilimlar bilan qurollantiruvchi
ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ta'limotdan iborat bo'lgan tushunchadir
~tariqat ilmiy-falsafiy tushunchalar majmui}

So'fiyni Olohni tanish va uni qalban his qilish bosqichi qanday ataladi?

{= ma'rifat
~haqiqat
~shariat
~Tariqat}

Tasavvuf qachon va qayerda vujudga kelgan?

{=11 asrda Iroqda
~ 12 asrda Misrda
~ 11 asrda Arabistonda
~ 14 asrda Turkiyada}

Amir Temur nechanchi yillarda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan?

{= 1395-1397 yillarda
~1395-1398 yillarda
~1393-1395 yillarda
~ 1392-1394 yillarda}

Asketeizm nima ?

{= Tarkidunoyochilik
~ Ibodat marosimi
~ dindan voz kechish
~Befarqlik}

Tasavvuf ta'limotidagi qaysi bosqicha so'fiy xudo vasliga erishadi u bilan birlashadi deb hisoblanadi ?

{= Haqiqat
~ Ma'rifat
~ Shariat
~ Tariqat }

Tasavvuf /sufiylik/ ta'limoti islom dini bilan aynan bir narsami?

{=Tasavvuf islom dinidan oziqlanib, din bag'rida rivojlangan dunyoviy ilmlar bilan ham boyitilib, din bilan ilmiylik uyg'unlashuvidir
~ Islom va tasavvuf ta'limoti mazmuni aynan bir narsa
~tasavvuf dindan butunlay ajralgan dunyoviy bilimlar bilan shug'ullanadigan tarbiyaviy ta'limotdir
~ tasavvuf-dunyoviy bilimlar majmui}

Qaysi buyuk allom xalq orasida "Balogardon" degan nom bilan atalgan?

{= Bahouddin Naqshband

~Najmiddin Kubro
~Ahmad Yasaviy
~ Motrudiy}

Sufiylik yo'lini ixtiyor etganlarning ma'naviy kamolot bosqichlari nechaga bo'linadi?

{=4 ga
~ 3 ga
~2 gan
~ 5 ga}

Riyoziyat nima?

{= Mashaqqat, zahmat chekish
~Unitish.
~ G'am- tashvish bilan yashash
~Chekinish}

“So'fiy” so'zining ma'nosi nima?

{=Jun chakmon kiyib yuruvchi
~Darbardar kishi.
~ Haqiqat yo'lini izlovchi
~ Safarga chiqqan}

Adabiy asar, voqelikni aks ettirishiga ko'ra ikki xil bo'ladi?

{= 2
~ 3
~ 4
~ bo'lish mumkin emas}

Ijodkorning borliq haqiqati haqidagi o'z tasavvurlarini. hayotiy yoki xayoliy timsollar tizimi vositasida modellashtirishi tafakkurni qaysi turiga xos?

{= badiiy
~estetik
~diniy
~falsafiy}

Antiq davr san'atining vujudga kelishidagi asosiy omil nima?

{ =insonning mehnat faoliyati
~ g'oya
~ yozuv
~ mehnat qurollari}

Ma'naviy madaniyat nima?

{=ma'naviy boyliklar yaratish jarayonidagi kishilarning ongli faoliyati
~ bayramlar
~ moddiy boyliklar}

~ san'at asarlari.}

Milliy ma'naviy meosdan biri bo'lgan "Alpomish" dostonining 1000 yilligini qachon halqimiz keng nishonladi ?

{=1999 yilda

~ 2000 yilda

~2001 yilda

~1998 yilda}

Alisher Navoiy "majoziy ishq" nechaga bo'lgan?

{= 2ga

~ 3ga

~ 4ga

~ 5ga}

Tasavvufona bitilgan g'azal va boshqa turdagi she'rlarda majoziy ishq orqali aslida...kuylangan.

{= Haqiqiy ish

~O'tkinchi ish

~ Maishiy ishq

~ Tasodifiy ishq}

«Dil ba yoru dast ba kor» mashxuriboraning muallifi kim?

{=Bahouddin Naqshbandiy

~Jaloliddin Rumi

~Najmiddin Kubro

~Imom Buxoriy}

Majozda "hijo" nima?

{= Muayyan shaxslarga yo'naltirilgan hajv

~Ishq ahlini kuylash

~Dunyo boyliklaridan voz kechish

~ may mavzusini tarranum etish}

"Dunyoviy adabiyot" atamasi qaysi davr adabiyoti uchun qo'llaniladi?

{= XX asr

~ XIX asr

~XVIII asr

~XVII asr}

Islom Karimov Alisher Navoiyga qanday baho bergan?

{= agar u ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir

- ~ Navoiy eski o‘zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk davlat va jamiyat arbobi, fan, adabiyot, san'at va ma'naviyat homiysi
- ~Navoiy ijodiy merosi boqiy, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini osongina yengib o‘tadigan, naqshbandiya tariqatini dunyoga asarlarida butun dunyoga yoygan allomadir
- ~ milliy adabiyotimizning va muqaddas islom dinimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha'nu sharafigi dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san'atkoridir }

Navoiy shahriga A. Navoiy haykali nechanchi yilda o‘rnatilgan?

- {= 2001 yil
- ~1991 yil
- ~2002 yil
- ~1992 yil}

Alisher Navoiyning oxirgi asarining nomi?

- {=Mahbub ul-qulub (ko‘ngillarning sevgani’)
- ~ Badoye ul bidoya(badiiylik ibtidosi)
- ~ Navodir un-nihoya(nihoyasiz nodirliklar)
- ~ Majolis un nafois(nafis majlislar)}

Alisher Navoiyga “Amiri Kabir” unvoni nechanchi yilda berilagan ?

- {= 1472 yilda
- ~1477 yilda
- ~1485 yilda
- ~ 1490 yilda}

Alisher Navoiy talabalar uchun qanday madarasa qurdirgan?

- {= ixlosiya
- ~shifoia
- ~xalosiya
- ~to‘g‘ri javob yo‘q}

A. Navoiy ” Ma’no ahli ” deganda kimni nazrda tutadi?

- {= Haqiqat yo‘liga kirgan komil insonni
- ~ Din peshvolarini
- ~ Shoir va mutafakkirlarni
- ~ Podsho va vazirlarni}

”Shohi g‘aribon”, ya’ni g‘ariblar, yolg‘izlar, faqirlar shohi degan ibora qaysi alloma nisbatan qo‘llangan ?

- {= A. Navoiy
- ~ A. Temur
- ~ G‘azzoliy
- ~ Motrudiy}

Xazoyin ul –maoniy” necha devonni o‘z ichiga oladi?

- {= 4

~3
~2
~5}

A. Navoiy "Xamasi" ni nechanchi yillar oralig'ida yozgan?

{=1483-1485 yillar.
~1483-1487 yillar
~1485-1487 yillar
~1482-1484 yillar}

Toshkentdagi bog'da Navoiy haykali nechanchi yilda o'rnatilgan?

{=1991 yil
~ 1992 yil
~1994 yil
~ 1995 yil}

Nechanchi asrdan boshlab Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, G'azzoliy va boshqa ulug' islom mutafakkirlarining asarlari lotin tiliga tarjima qilina boshlandi?

{= 11 asrdan
~ 14 asrdan
~ 12 asrdan
~ 10 asrdan}

Yangi davr ma'naviyatiga o'tish yoki islom mintaqa madaniyati davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?

{= 16-18 asrlar
~12-14 asrlar
~9-12asrlar
~10-11 asrlar}

Musulmon sharqida mashhur bo'lgan arab Mutafakkiri Inb Rushd falsafiy merosi ta'sirida G'arbda vujudga kelgan falsafiy yo'nalish nima deb nomlanadi?

{= Averroizm
~ Adekvat
~ agnostitsizm
~Akmeologiya}

Gulxaniyning xalq mazmundor maqollari, hikmatli so'zlari va qochirimlaridan foydalib yozgan asari nomi?

{= Zarbulmasal
~Qutadug'u bilig
~Zafarnoma
~ Yodnoma}

Zarbulmasal qanday janrda yozilgan?

{= hajviya

~romatik
~sarguzasht
~qahramonlik}

Samarqand akademiyasiga kim asos solgan?

{= Mirzo Ulug'bek
~ Ali Qushchi
~ Qozizoda Rumi
~ Giyosiddin Jamshid}

Reformatsiya bu...

{=Isloh qilish, yangilash
~ To'ntarish
~ Yangidan boshlash
~ Bosqichma-bosqichlik}

Zarbulmasalda Gulxaniy o'z zamonida sodir bo'lgan talon-tarojlik, xalqni qiynash, ortiqcha soliqlar solish kabi voqealarni ochib berishni qanday aks ettiradi?

{=Yapaloqqush va Boyo'g'li bir-biriga quda bo'lishi voqeasi asosida.
~ Toshbaqa va chayon hikoyasi asosida
~ Qaldirg'och, ilon va pashsha voqeasi asosida
~ Bo'ri va quyon munosabati orqali}

16-20 asrlar milliy ma'naviyatimiz takomilini necha qismga bo'lish mumkin?

{=2
~3
~4
~5}

"Tor ko'ngilli beklar, manman demang, kenglik qiling, To'qson ikki bori o'zbek yurtidir tenglik qiling" misrasi muallifi kim?

{=Turdi Farog'iy
~ Boborahim Mashrab
~ Muqimiy
~ Cho'lpon}

FAN BO'YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH MEZONLARI TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONI

**Баҳолашни 5 баллик шкаладан 100 баллик шкалага ўтказиш
ЖАДВАЛИ**

5 баллик шкала	100 баллик шкала	5 баллик шкала	100 баллик шкала	5 баллик шкала	100 баллик шкала
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,0	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 дан кам	60 дан кам

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimida amalga oshiriladi. Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning(mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan(mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda 5 (a'lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yurita oladi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning(mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan(mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda 4 (yaxshi) baho;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning(mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan(mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda 3 (qoniqarli) baho;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning(mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Nazorat o'tkazish muddatlari

1- semestr	N1	N2	YN
2- semestr	N1	N2	YN

Oraliq nazorat: darslar davomida o'rganilgan materiallar asosida yozma yoki o'g'zaki shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: semestr davomida o'rganilgan mavzular asosida yozma yoki og'zaki (test) usulida o'tkaziladi.

Talabalarning **yakuniy baholash (YaB)** bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari "5" baholi tizim asosida baholanadi. Bunda talabalar o'rganilgan mavzular bo'yicha 30 ta test topshiradilar va quyidagicha baholanadi:

	Talabaga qo'yiladigan talablar	Baho	
	25-30 ta to'g'ri javob uchun	A'lo	5
	20-25 ta to'g'ri javob uchun	Yaxshi	4
	16-20 ta to'g'ri javob uchun	Qoniqarli	3
	16 dan past to'g'ri javob uchun	Qoniqsiz	2

A'lo - "5" baho – berilgan topshiriq mohiyatini to'liq tushungan holda yoritib bera olsa, mavjud muammolar haqida mustaqil mushohada yurita olsa, berilgan topshiriq bo'yicha ijodiy fikrlay olsa va ular haqida to'g'ri xulosa va qaror qabul qila olsa, so'z boyligini amalda to'g'ri qo'llay olsa, mavzu bo'yicha muammo va ularning yechimini bilsa va ularni hal qilish yo'llarini o'zi yozgan matn (insho, esse kabi) mazmunida to'liq aks ettirgan bo'lsa;

Yaxshi - "4" baho – berilgan topshiriq bo'yicha mustaqil fikrlay olsa, so'z boyligini amalda qo'llay olsa, topshiriq bo'yicha muammolarni hal qilish yo'llarini bilsa, mavzuga doir muammolar haqida tasavvurga ega bo'lsa, matn

(insho, esse kabi) mazmuniga e'tibor bersa;

Qoniqarli - “3” baho – masala mohiyatini tushunsa, ammo bayon etishda kamchi-liklarga yo'l qo'ysa, mavzuni bilsayu ammo uni yoritishda ayrim xatolarga (imlo xatolariga) yo'l qo'ygan bo'lsa, mavzu haqida tasavvurga ega bo'lsayu, ammo amalda bayon eta olmasa;

Qoniqarsiz - “2” baho – fan bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa va fanni o'zlashtirmagan bo'lsa qo'yiladi.

Tarqatma materiallar

Маънавият – инсоннинг улғайиш
ва куч-қудрат манбандир

Маънавият тушунчаси

Маънавият тушунчаси

МАЪНАВИЯТ – инсонни руҳан покланиш, қалбан улғайишга чорлайдиган, одамнинг ички дунёси, продасини бақувват, нймон эътиқодини бутун қиладиган, виждонини уйғотадиган беқиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир.

МАЪНАВИЯТ– жамият ҳаётидаги ғоявий, мафкуравий, маърифий, маданий, диний ва ахлоқий қарашларни ўзида тўла мужассам этади



Маънавият – инсоннинг улғайиш
ва куч-қудрат манбандир

МАЪНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРАДИГАН АСОСИЙ МЕЗОНЛАР

Маънавий
мерос

Оила


Маҳалла

Таълим ва тарбия
tizimi


Ma'naviyat va ijtimoiy ong shakllarining aloqadorligi




Ma'naviyatning 4ta tuzilmasi bor:







Davlatning 3 ta ustuni bor:





Маънавиятни шакллантирувчи омиллар

- маънавий мерос
- маданий бойликлар
- кўхна тарихий ёдгорликлар
- халқ оғзаки ижоди
- муқаддас динимиз

ИБТИДОИЙ ДАВРНИНГ МАДАНИЙ БОСҚИЧЛАРИ

«Шель маданияти» (Шимолий Франция)

«Ашел маданияти» (Шимолий Франция)

«Мустье маданияти» (Франциянинг Жануби-Ғарби)

«Ориньяк-сальютр» даври маданияти (Франциянинг иккига жой номидан олинган).

«Мадлен маданияти» (Франциянинг жануби-Ғарбида)

Ибтидоий одамлар фаолиятининг қолдиқлари топилган жойлар «маданият» деб номланади.

Бодом шаклидаги, ҳарикки томонитош билан қўпол равишда тарашланган тош бўлаклари. Улар «тош болтаси», «тош чўкичи», «қўл чопқичи» вазифасини бажарган.

Кичик ҳажмли тош қуроллар, мамонт, каркидон ва бошқа ҳайвонларнинг суяклари ҳамда олов қолдиқлари топилган

Учи ўткирлаштирилган тош қуроллар. Улардан найза сифатида фойдаланишган. Суякдан ясалган ўткир учли майда қуроллар.

Тош, суяк ва ҳайвон шохларидан меҳнат ва ов қуроли сифатида фойдаланилган. Инсон қиёфасида ҳам туб ўзгаришлар содир бўла бошлаган. Одамлар бу даврда ҳайвонларни ўраб, қамаб, тузоқ қўйиб ушлашни ўрганганлар. Ҳайвон териларидан кийим тикишни ўрганлар. Терракота ҳайкалчалар, ғор деворига чизилган суратлар. Тақинчоқлар пайдо бўлган

Найза отадиган қуроллар ва гарпун пайдо бўлган. Бумеранг, бамбукдан пуфлаб отувчи қуроллар, сумпитан (Индонезияда), сарбакан (Жанубий Америка), овчилик ва жанг қуроли вазифасини бажарган соқон ва палахмон яратилган.

Авестодаги одоб-ахлоқ қоидалари

